didaktik ruh ustivorlik qiladi. Qoriy tomonidan yaratilgan ushbu g’azalda qadimgi tukiy adbiyotning an’analari davom ettirilgan desak,mubolag’a bo‘lmaydi. Turkiy adabiyot vakillaridan bo ‘lgan Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yssaviy o‘z asarlarida kishini o‘tkinchi dunyo havaslariga berilmaslikka, hamjihatlikka, do‘stlikka, hayotni qadriga yetishga undovchi misralar yozib qoldirgani adabiyot ahliga yaxshi ma’lum. Qoriyning ushbu g’azalida didaktika ijtimoiy mazmun bilan qorishiq holda beriladi. Bu holat adabiyotshunoslikda XX asr boshlari Qo‘qon adabiy muhiti adabiyoti vakillari ijodining ham o‘ziga xos jihatlaridan biri sifatida baholanadi. G’azalning birinchi bayti quyidagicha;

Jam’ bo‘lg’on g’unchalar, guldek parishon o’lmangiz,
Andalibi xushnavo bo’lg’on gulafshon bo’lmangiz.

Mazkur baytda istiora qo‘llanilgan. Istiora-(arabcha so‘z bo‘lib, vaqtincha omonatga, oriyatga olmoq) - mumtoz adabiyotdagi she’riy san’at, bir so‘z shaklini vaqtincha omonatga olib, boshqa, ya’ni ko‘chma ma’noda ishlatish. Istiorada so‘zni o‘z ma’nosidan boshqa ma’noda ishlatish o‘xshashlik amalga oshiriladi[3].Shoir “g’unchalar” deb zamondoshlariga murojaat qiladi. Ularni gunchadek jam bo ‘lishga chaqiradi. Ochilgan gul kabi (tashbehni qo‘llab) har tarafga tarqab ketmang, deya zorlanadi. Gul, bulbul bo‘ston, gulafshon, g’uncha kabi so‘zlarni bir baytga jamlab tanosub deb atalgan badiiy tasvir vositasini qo‘llaydi. Keyingi baytda esa olamni jonlantirib yashildan libos kiydiradi va uni tomashagohga aylantirgan shoir odamlarni tabiat go‘zalligidan zavqlanishga chaqiradi. Odamlarni gulgun ochilishi ya’ni tabiat go‘zalligidan zavq olishini, osmonda bir safda qator tizilib turgan yulduzlardek jam bo‘lishlarini istaydi:

Sabzadin olam tamoshogoh, sayri bog’ uchun,
Ochiling gul-gul davomat dog’i xirmon o’lmangiz.
Do’stlar, go’yo banotun-na’sh bo’stonlar aro,
Lola bargidek parishon, dillari qon o’lmangiz.

Shoir do‘stlarga murojaat qilib, ularni tabiat qo‘yniga chaqiradi. Kishilarni tabiat go‘zalligidan bahramand bo‘lisga, bir-birlari bilan inoq, do‘st bo‘lishga, tarqoq bo‘lmaslikka da’vat qiladi. Lola barglarining to‘kilishi uni doim xavotirga solib, dilini vayron qiladi. Siz ham lola bargidek bo‘lmang,-deya ularni hamjihatlikka undaydi.Navbatdagi baytda shoir olamni visol bog’iga qiyoslaydi:

[3]Quronov D va b.Adabiyotshunoslik lug’ati.T.:-AKADEMNASHR,2010.B.124

Vasl bog’i sabzu xurram gullar ochilgan kabi,
Sochilib haryon judolikdin pushaymon o’lmangiz.

Visol bog’i tabiatning bu sahovatidan shod. Bu shodlikni ifodalashda yana jonlantirishga murojaat qiladi.Gul ochilgach, har tarafga sochilib ketadi, yaproqlari to‘kiladi.Siz ana shu gul bargidek parishon bo‘lmang, deya ularni sergaklikka undaydi. G’azalning yettinchi, sakkizinchi, to‘qqizinchi, o‘ninchi baytlarida shoir tashbehdan mahorat bilan foydalanadi. Do‘stlarni tarqalib ketishini nozaninlarning yoyilgan sochlariga qiyoslasa:

Oshnolik rutbasi bo’lsin musallam sizlara,
Nozaninlar zulfidek haryona larzon o’lmangiz.

bir o‘rinda bo‘ston ichida suman va sarvga oshiqqan bulbulga mengzaydi:

Sayri gulzor aylagan bulbul kabi bo’ston aro
Betamoshoyi suman, besarvu rayhon o’lmangiz.

Shoir lolani visolga yeta olmaganidan ko‘ksida dog’ borligidan har tarafga yoyilib ketishini otni qamchi bilan urganda alam bilan turli tomonga qarab qochish tasviri bilan muqoyasa qiladi:

Iftiroqi vaslidin ko’ksi qarodur lolani,
Qamchi urgan raxshdek haryona javlon o’lmangiz.

G’azalning maqta’sida yo‘lingizdan adashmay to‘g’ri Farg’onaga kelsangiz (yo‘lingiz Farg’onaga tushsa), Qoriyning bo‘stonidan (she’rlaridan) bahramand bo‘ling, deya murojaat qiladi:

Sayr etib obi ravondek kelsangiz Farg’onaga,
Qorining bo’stonidin g’ayriga mehmon o’lmangiz.

Modomiki, fikr badiiy adabiyotda adbiy ta’sir haqida borar ekan,turkiy xalqlar adabiyotida ilk bor aruz vaznida yaratilgan adib Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig” asaridan tortib, Qo‘qon adabiy muhitining yirik vakili Qoriy ijodida ham didaktikaning ustivorligini ko‘ramiz. Adabiyotshunos olim A.Hojiahmedov “Mumtoz shoirlarimiz she’riyatida “hayot va jamiyat, inson va muhabbat, shoir taqdiri, hijron alamlari haqidagi teran falsafiy mushohadalar vazmin, salobatli vaznlar vositasida ifodalansa, mahbuba tavsifi, oshiqning ehtirosli kechinmalari yengilroq, jozibador ohangdagi baytlarda mujassamlashtiriladi, vafo va sadoqat tantanasi esa sho’x va o’ynoqi ritmga asoslangan misralarda tarannum etiladi”,-deydi.Bu fikrlar Qoriy asarlariga ham tegishli deb bilamiz. Chunki, shoir asarlarida muallif aytganidek hayot va jamiyat masalasi ham Vatan tasviri ham, tabiatdan zavqlanish

ham,ma’shuqaning go’zalligi hamda befavoligi, oshiqqa qilgan jabr-u sitamlari ham o’z ifodasini topgan.

THE CURRENT CHALLENGES OF TEACHING ESP

Abdurhmonova Zulfiya
Uzbekistan State University of World Languages
Teacher of the integrated English course 2 department
zulfiya.abdurahmonova.80@gmail.com

***Abstract**: The simple mastering of the four skills (reading, writing, listening and speaking) and the acquisition of general grammar and vocabulary may not be enough in some circumstances. ESP focuses on the specific needs of the learners, concentrating more on language in context and on the students" need to acquire a set of professional skills and particular job-related functions. This paper, consequently, focuses on identifying the current challenges that teachers and students may encounter in the process of teaching and learning English for Specific Purposes.*

***Key words:** English for Specific Purposes, vocabulary, authentic materials, ESL learning contexts and a multi-disciplinary approach.*

Introduction

Some general considerations on ESP As any other kind of language teaching, English for Specific Purposes is first and foremost based on the process of learning, a process which nevertheless addresses the needs of certain communities of learners, namely individuals interested in acquiring some professional skills and performing jobrelated practices. Due to its oriented focus, ESP exhibits some characteristics that differentiate it from ESL (English as a Second Language) or EGP (English for General Purposes). First, it is language in context, this fact requiring real life learning situations, scenarios that tent to replicate the specific working or professional settings the ESP students might be related to or interested in. Instead of focusing on general grammar, vocabulary and language structures, this teaching – learning intercourse stresses the importance of practicing the necessary skills one would mostly employ in their future fields of activity. In comparison with the ESL learning contexts, the ESP students’ motivational levels should thus be enhanced by their knowledge of the subject matter, their interest in the field fuelling their active participation in English classes. ESP “assesses needs and integrates motivation, subject matter and content for the teaching of relevant skills” [1]. Since its emergence in the late 1960s, ESP has undergone a constant process of development, defining its scope, improving methodology, shaping its objectives and orientations, and enlarging the number of course books designed to serve its purposes. Its emergence, however, was the direct result of a three-directional process [2] which began immediately after the Second World War and had as a starting point a boom in science, technology and economic

activities at an international level. This fact triggered off the emergence of a community of people tied by their interest in learning English, not for the mere pleasure of knowing it, but for its utility and efficiency in handling specific job-related practices. The second reason underlining the advent of ESP was a revolution in linguistics which shifted specialists' attitudes and attention towards real communicational language opportunities and contexts, rather than focusing on the old-fashioned formalist view on language.

Towards a definition of ESP Various attempts have been made at sketching out, as comprehensively as possible, a definition of this complex subject. In their book Developments in English for Specific Purposes: A multi-disciplinary approach, Tony Dudley-Evans and Maggie Jo St John [3] define ESP in terms of absolute and variable characteristics. Absolute traits or features, as the authors claim, include: ESP being designed to meet the specific needs of the learners; it making use of the underlying methodology and activities of the disciplines it serves; ESP being centered on the language, skills, discourse and genres that are thought to be relevant to the above mentioned activities. Variable characteristics, in addition to the previously enumerated ones, emphasise the likelihood of: ESP being related to or designed for specific disciplines; it using a different methodology from that of general English, in specific teaching situations; ESP being designed for adult learners, either at a tertiary level institution or in a professional work situation, without excluding the possibility of being used by learners at secondary school levels; ESP being aimed at intermediate or advanced students, the basic knowledge of the language system being important but not compulsory, the course having the possibility to be tailored to beginners, too. This definition suggests that ESP, instead of being a restrictive, narrowing field of study is actually a permissive, flexible one, having influenced the entire process of English teaching. Even EGP teachers nowadays are likely to be influenced by ESP methods and techniques when they choose to design their syllabi starting from learner needs analyses or to use English in real communication contexts, instead of focusing on grammar or vocabulary related activities [4], [5]. The distinction between EGP and ESP offers us a better understanding of the latter's traits. Thus, while EGP has as an ultimate purpose education in general, ESP is mostly centred on training. The former is usually in the position of predicting with difficulty the very needs of the learners, whereas the latter is meant to be employed in specific professional contexts [6]. In trying to capture the essence of ESP, Hutchinson and Waters give a short but detailed account of it, underlining the fact that it has to be perceived as an approach,

and not as a product. “ESP is not a particular kind of language or methodology, nor does it consist of a particular type of teaching material. Understood properly, it is an approach to language learning, which is based on learner need.”[2] 3. Current challenges in teaching ESP 3.1. Course design One of the greatest challenges of teaching any subject is the course design. Due to the fact that the ESP students have their objectives well-defined from the very beginning, these being directly related to their practical, job-related or professionally oriented needs, the choices the teachers have to make in order to design a course should not, theoretically, be so complicated. The reality, however, is different. According to David Carver [7], [8], an ESP course should be based on three elements; first, it has to offer authentic materials, then it requires a purpose-related orientation, which means that a reasonable simulacrum of reality in which practitioners have the possibility to get involved into communicative tasks that replicate real situations is mandatory, and last but not least, it should be defined by self direction, i.e. learners are to become active users. In order to cover all the areas that might play an essential role in the process of course elaboration, the ESP teacher should be ready to ask some questions and gather information in the field so as to create an important database for further developments. The inquiries to be made are: Why do the students need to learn? Who is going to take part in the process (teachers, students, sponsors, experts in the field)? Where is the learning process going to take place? Does the location provide any potential or impose limitations? When is it set to take place? Is there a time limit to be taken into consideration? What does the student need to learn? What aspects of the language would be more appropriate under the given circumstances? How will the learning be achieved, i.e. what theoretical background will be chosen to fuel the methodology that is meant to be used? [2]

Conclusions

In comparison with teaching EGP, teaching ESP usually poses a lot more challenges. Focusing on the specific needs of the learners, concentrating more on language in context and on the students’ need to acquire a set of professional skills and particular job-related functions, ESP remains a major testing experience for every teacher in charge of it. [2]. The emphasis on learners’ wants and interests, and learning autonomy does not diminish the role of the teachers; on the contrary they need to subject themselves to a continuous process of adaptation and evaluation in order to meet the requirements imposed by the subject they are teaching. They need to design courses keeping in mind the nature of the particular target and learning

situations they are to deal with, at the same time juggling professionally with the requirements imposed by working with large heterogeneous classes.

References:

1. Lorenzo F 2005 Teaching English for Specific Purposes, https://www.usingenglish.com/articles/teaching-english-for-specific-purposes-esp.html
2. Hutchinson T and Waters A 1987 English for Specific Purposes. A learning-centred approach, Cambridge University Press, Cambridge, UK,
3. Dudley-Evans T and St John M J 1998 Developments in English for Specific Purposes: A multidisciplinary approach, Cambridge University Press, Cambridge, UK
4. Anthony L 1997 Defining English for Specific Purposes and the Role of the ESP Practitioner, http://www.laurenceanthony.net/abstracts/Aizukiyo97.pdf, 20 Nov 2016
5. Bracaj M 2014 Teaching English for Specific Purposes and Teacher Training, European Scientific Journal 10 (2) [6] Far M 2008 On the Relationship between ESP & EGP: A General Perspective, ESP World 1(17)

USING MNEMONICS FOR LANGUAGE LEARNING AND TECHNIQUES FOR REMEMBERING PRESENTATION MATERIAL

Akbarova Shaxnoza Xikmatullayevna,
(PhD) assistant professor of the department "Uzbek and foreign languages" of the International islamic academy of Uzbekistan

Annotation: *Language learning can be a daunting task, particularly for those who struggle with retaining new vocabulary and grammar rules. This article discusses the effectiveness of incorporating mnemonic devices and memory techniques to enhance language learning and speech delivery. It explores various mnemonic strategies, such as the memory palace technique and visualization, along with the importance of repetition and engaging multiple senses in the memorization process. Additionally, the article emphasizes the significance of understanding the material, practicing regularly, and seeking feedback from others to improve speech delivery. Overall, it provides valuable insights and practical tips for language learners aiming to enhance their memory and communication skills.*

Annotatsiya: *Til o‘rganish qiyin vazifa bo‘lishi mumkin, ayniqsa yangi lug‘at va grammatika qoidalarini eslab qolish bilan kurashayotganlar uchun. Ushbu maqola tilni o‘rganish va nutqni yetkazib berishni yaxshilash uchun mnemonik qurilmalar va xotira usullarini o‘z ichiga olish samaradorligini muhokama qiladi. U xotira saroyi texnikasi va vizualizatsiya kabi turli xil mnemonik strategiyalarni, shuningdek takrorlash va yodlash jarayonida bir nechta hislarni jalb qilishning ahamiyatini o‘rganadi. Bundan tashqari, maqola nutqni yaxshilash uchun materialni tushunish, muntazam ravishda mashq qilish va boshqalardan fikr-mulohazalarni izlash muhimligini ta’kidlaydi. Umuman olganda, u til o‘rganuvchilar uchun qimmatli tushunchalar va amaliy maslahatlar beradi, ularning xotirasi va muloqot qobiliyatlarini oshirishga qaratilgan.*

Аннотация: *Изучение языка может оказаться непростой задачей, особенно для тех, кому сложно запомнить новый словарный запас и грамматические правила. В этой статье обсуждается эффективность использования мнемонических устройств и методов запоминания для улучшения изучения языка и речи. В нем исследуются различные мнемонические стратегии, такие как техника дворца памяти и визуализация, а также важность повторения и задействования нескольких чувств в процессе запоминания. Кроме того, в статье подчеркивается важность понимания материала, регулярной практики и получения обратной связи от других для улучшения речи. В целом, он предоставляет ценную информацию и практические советы для изучающих язык, стремящихся улучшить свою память и коммуникативные навыки.*

Learning a new language can be a daunting task, especially for those who do not naturally excel in this area. Many learners find it difficult to retain new vocabulary and grammar rules, making the process overwhelming. However, using mnemonics and memory techniques can greatly improve the language learning experience. Mnemonics are memory aids that link new information to existing knowledge, which is particularly helpful for memorizing vocabulary. For example, learners can create

mental images that connect new words to familiar objects, making it easier to recall the words when needed.

The Origins and Role of Mnemonics: Mnemonics have been a part of memory improvement techniques since ancient times. The term "mnemonic" comes from the Greek word Mnemosyne, the goddess of memory. These techniques date back to at least 500 B.C. Memory is crucial in learning vocabulary and grammar, involving both short-term and long-term memory. Short-term memory holds information temporarily but processes it quickly, while long-term memory has unlimited capacity but is slower. The goal of language learning is to transfer information from short-term to long-term memory.

Using Mnemonics in Language Learning: Mnemonics are effective instructional strategies that enhance memory by connecting new information to existing knowledge. This makes it easier to retain new material for longer periods and retrieve it when needed. In language learning, mnemonics often use imagery or grouping techniques to link new words to previously learned information.

Historical Context and Techniques: According to legend, the Greek poet Simonides of Ceos developed a memory technique after using spatial memory to identify victims of a building collapse. This method, known today as the "memory palace" or house memorization technique, involves visualizing a familiar place and associating specific locations within it with key points to remember. Ancient Greek and Roman orators used a similar method called the "loci" method to remember lengthy speeches and lists.

Practical Application of Memory Techniques: To use the loci system, visualize a familiar route or place and mentally walk through it, assigning key points of your presentation to specific landmarks. This technique helps you recall each point effortlessly by mentally navigating through the familiar space. Breaking down speech content into manageable sections also aids memory, allowing flexibility in rearranging or shortening the talk.

Developing Proficiency with Memory Tools: Regular practice with these memory techniques can improve recall abilities, leading to more natural and fluid presentations. Understanding and internalizing the material, rather than just memorizing it, is crucial. Visualizing speech content using mental imagery or mind mapping can also enhance memory, as can repetition through various forms like reciting, writing, or recording the speech.

Additional Memory Aids: Using mnemonics and acronyms can further facilitate memorization. Creating memorable acronyms or associations helps retain information. Visual aids like slides or props serve as reminders during presentations. Engaging multiple senses—reading aloud, visualizing, writing by hand—reinforces memory. Seeking feedback from others by rehearsing in front of an audience helps refine the speech and strengthen memory.

Effective Speech Delivery: When delivering your speech, focus on conveying your message with passion and enthusiasm. Being genuinely invested in your topic makes it easier to remember because you are sharing something meaningful, not just reciting words.

Conclusion: Remembering a speech can be challenging but manageable. By using memory techniques such as the memory palace, visualization, mnemonics, and sensory engagement, you can deliver your speech with confidence. Consistent practice and passionate delivery are key to making a lasting impact on your audience. Incorporating mnemonic devices and memory techniques not only enhances language learning but also improves the ability to remember and deliver speeches effectively. Regular practice, utilizing various resources, and setting specific goals can significantly improve language skills and presentation abilities.

References:

1. Mamanabiyeva Shakhrizoda Sharofiddin Qizi (2021). MNEMONIC INSTRUCTION: A WAY TO BOOST LANGUAGE SKILLS. Вестник науки и образования, (15-1 (118)), 59-61.
2. Levin J.R. (1993). Mnemonic strategies and classroom learning: A twenty-year report card. The Elementary School Journal. 94(2). 235-244.
3. Oxford R. (1990). Language Learning Strategies: What Every Teacher Should Know. New York: Newburry House publishers.
4. Worthen J.B. & Hunt R.R. (2008). Mnemonics: Underlying Processes and Practical Applications. A Comprehensive Reference. 2, 145-156.
5. https://irisreading.com/the-memory-palace-technique-unveiled/

OPTIMIZING MEMORY RETENTION IN FLT: THE ROLE OF FLASHCARD COMPETITIONS AND VISUAL CUES

Akhmadullina Alina Ildarovna
teacher at English language teaching methodology department, 3rd faculty of UzSWLU
dontstopmenow1998@gmail.com
UzSWLU, Uzbekistan, Tashkent

Annotation. *In foreign language teaching (FLT), ensuring long-term retention of key terminology and concepts is a critical challenge. Traditional rote memorization methods often fail to engage students effectively, leading to passive learning and low retention rates. This article presents an innovative technique that integrates paper-based flashcards with visual cues and gamified competitions to enhance memory recall. The method consists of two structured games: a team-based matching activity and an individual competition that encourages active retrieval practice. Over the course of the semester, this technique showed significant improvement in student recall and engagement. By combining principles of retrieval practice, spaced repetition, and gamification, this approach increases student motivation, fosters active recall, and improves long-term retention. The study explores the theoretical foundations of this technique, its practical implementation in FLT courses, student feedback, and potential future developments.*

Keywords: *foreign language teaching (flt), flashcards in flt, memory retention techniques, active recall, gamification in education, visual learning strategies, collaborative learning, competitive learning, educational flashcard games, lexical competence, student engagement, assessment techniques, formative assessment, paper-based learning tools, icon-based learning, vocabulary acquisition, final exam preparation, fl teaching methodologies, innovative teaching techniques, interactive learning methods.*

The effectiveness of foreign language teaching depends not only on exposure to linguistic input but also on learners’ ability to retain and recall information efficiently. Traditional memorization techniques, such as repetitive reading and passive review, often result in short-term retention with minimal long-term benefits. However, research in cognitive psychology and pedagogy suggests that active recall, visual learning, and gamification can significantly enhance memory retention.

This article introduces a structured flashcard-based retrieval technique designed to help students internalize key terminology in FLT through a combination of visual cues, team-based collaboration, and competitive recall games. Implemented over the course of a semester, the method led to measurable improvements in student performance, increasing both their knowledge retention and engagement.

Retrieval practice is a highly effective memory technique that involves actively recalling information rather than passively reviewing it. Research by Roediger & Karpicke (2006) demonstrates that frequent testing and retrieval-based activities enhance long-term retention more effectively than repeated exposure to study

material. Flashcards, especially when used in structured recall exercises, encourage students to actively retrieve information, strengthening neural connections associated with memory.

Visual aids have long been recognized as powerful tools for learning. According to Paivio’s Dual Coding Theory (1971), information that is both verbally and visually encoded is more likely to be retained. To leverage this effect, each flashcard includes an icon or image, allowing students to create a mental link between the term, its definition, and a visual representation. This multisensory learning approach makes abstract concepts easier to remember.

Gamification—the use of game elements in education—has been proven to increase motivation, engagement, and cognitive effort (Deterding et al., 2011). By integrating competitive mini-games into FLT terminology practice, this technique transforms memorization into a dynamic, interactive, and enjoyable learning experience.

The foundation of this technique is a set of 150 paper-based flashcards, each featuring:

-A term related to FLT methodology

-A concise definition

-A visual icon or image sourced from picture dictionaries, photos, and Google images

Unlike digital flashcards, these tangible cards allow for physical interaction, making them ideal for in-class activities.

The method consists of two structured learning games that encourage both collaborative and individual retrieval practice.

Students work in teams to match the term, definition, and icon correctly.

This collaborative phase allows for peer learning and discussion, reinforcing understanding.

Students participate in an individual competition, structured in three rounds:

1. Each student draws a ticket with a term.

2. If they can immediately recall the definition, they earn a point.

3. If they fail to recall, they sit down, prepare for the term, and attempt again in the next round—but without earning a point.

4. Students who accumulate three points receive an “A” grade, providing strong motivation for participation.

This structured system balances pressure with opportunity, encouraging students to actively retrieve and reinforce their knowledge over time.

-Early in the semester, the technique was used occasionally to introduce students to the method.

-By the end of the semester, it was implemented in every lesson, ensuring students were fully prepared for their final exam.

-This approach aligns with Ebbinghaus’s Forgetting Curve, reinforcing concepts at increasing intervals to strengthen retention.

-At the beginning of the semester:

-Most students struggled to recall the terminology.

-Matching terms, definitions, and icons was challenging in the early stages.

By the end of the semester:

-Students demonstrated substantial improvement, correctly recalling more than half of the terms.

-Faster recall and greater accuracy were observed during individual competitions.

-Students responded positively to the technique, noting that:

-The games made learning fun and engaging rather than stressful.

-The visual icons helped them remember complex terminology more easily.

-The competitive element increased motivation to participate actively.

-The structured repetition helped them feel confident by the time of the final exam.

While direct exam performance data was not collected for this study, qualitative observations suggest that students retained more information compared to traditional study methods. The shift from passive memorization to active recall played a key role in knowledge retention and exam preparedness.

To enhance the effectiveness of this technique in future semesters, potential improvements include:

-Expanding the flashcard set to cover more advanced terminology.

-Introducing digital versions of the flashcards (e.g., Quizlet, Anki) for additional self-study.

-Adding new game variations to keep the competitions dynamic.

-Collecting quantitative data on student performance to measure retention rates.

These refinements would further solidify the technique as a highly effective retrieval-based learning strategy in FLT.

The integration of flashcard-based retrieval, visual cues, and gamified competitions offers an innovative and effective method for optimizing memory retention in FLT. By combining active recall, collaborative learning, and motivational game elements, this technique not only improves knowledge retention but also enhances classroom engagement.

Observed results indicate that students who initially struggled with recall showed marked improvement over time, supporting the efficacy of this approach. Future research could explore quantitative performance comparisons and adaptations for different language-learning contexts.

By making learning both structured and interactive, this technique represents a promising advancement in foreign language pedagogy, merging cognitive science principles with practical, engaging teaching methodologies.

References:

1. Baddeley, A. (1992). Working memory. *Science, 255*(5044), 556–559. https://doi.org/10.1126/science.1736359
2. Brown, P. C., Roediger, H. L., & McDaniel, M. A. (2014). *Make it stick: The science of successful learning.* Harvard University Press.
3. Ebbinghaus, H. (1885). *Memory: A contribution to experimental psychology.* Teachers College, Columbia University.
4. Karpicke, J. D., & Blunt, J. R. (2011). Retrieval practice produces more learning than elaborative studying with concept mapping. *Science, 331*(6018), 772–775. https://doi.org/10.1126/science.1199327
5. Nation, P. (2013). *Learning vocabulary in another language* (2nd ed.). Cambridge University Press.
6. Schmitt, N. (2000). *Vocabulary in language teaching.* Cambridge University Press.
7. Smith, K. (2017). Gamification in language learning: A systematic review. *Language Teaching Research, 21*(2), 145–159. https://doi.org/10.1177/1362168816683567
8. Sökmen, A. J. (1997). Current trends in teaching second language vocabulary. In N. Schmitt & M. McCarthy (Eds.), *Vocabulary: Description, acquisition, and pedagogy* (pp. 237–257). Cambridge University Press.

MIFOLOGIYANI O’RGANGAN INGLIZ OLIMLARI
ENGLISH SCHOLARS WHO STUDIED MYTHOLOGY

Alijonova Dilnavoz Valijon qizi
O’zbekiston davlat jahon tillari 1- bosqich talabasi
Toshkent, O’zbekiston
E-mail: dilnavozalijonova22@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqola adabiyotshunoslikdagi eng muhim masalalardan birini o’rganishga bag’ishlangan. Mifologiyani o’rgangan ingliz olimlari va ularning asarlari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari, ularning mifologiya sohasiga qo’shgan xissalari haqida ham ma’lumotlar berilgan.*

Kalit so’zlar: *Mifologiya genezisi, Ser Jorj Frezer, Endryu Leng, Edward Burnett Tylor, Robert Graves, Maksvell Myuller, Zamonaviy yondashuvlar.*

KIRISH

Mifologiya insoniyat tarixidagi eng qadimiy va boy madaniy qatlamlardan biri bo‘lib, u xalq e’tiqodlari, dunyoqarashi va tarixini o‘rganishga imkon beradi. Bu sohada ingliz olimlarining hissasi alohida o‘ringa ega, chunki ular mifologiyani nafaqat ilmiy nuqtai nazardan o‘rgangan, balki uni keng ommaga yetkazishda ham katta rol o‘ynaganlar. Ushbu maqolada mifologiyani o‘rgangan mashhur ingliz olimlari va ularning tadqiqotlari haqida so‘z yuritamiz.

ASOSIY QISM

Ingliz olimlari jahon mifologiyasini o'rganishda muhim rol o'ynagan. Ularning tadqiqotlari nafaqat G'arb, balki Sharq mifologiyasini ham qamrab olgan. Bu maqolada eng mashhur ingliz mifologiya tadqiqotchilarini ko'rib chiqamiz.

Ser James George Frazer mifologiya sohasidagi eng taniqli ingliz olimlaridan biri hisoblanadi. Uning "Oltin Shox" (The Golden Bough) asari jahon mifologiyasi tadqiqotlarida tub burilish yasadi. Bu asar 12 jilddan iborat bo'lib, unda turli xalqlarning afsonalari, urf-odatlari va diniy marosimlari tahlil qilingan. Frazer o'z tadqiqotlarida qadimgi odamlarning magik tafakkuri va diniy tasavvurlari o'rtasidagi bog'liqlikni ochib berdi. U birinchilardan bo'lib mifologiyani antropologik nuqtai nazardan o'rgandi.

Edward Burnett Tylor zamonaviy antropologiyaning asoschileridan biri sifatida tanilgan. Uning "Ibtidoiy madaniyat" (Primitive Culture) asari mifologiya va din o'rtasidagi munosabatlarni tushunishda muhim ahamiyatga ega. Tylor "animizm" tushunchasini fanga kiritdi va ibtidoiy jamiyatlardagi diniy tasavvurlarning rivojlanishini tadqiq etdi. U din va mifologiyani asta-sekin rivojlanadigan bosqichli

tizim sifatida ko‘rgan. Uning nazariyasiga ko‘ra, mifologiya ilk e’tiqodlarning qoldig‘i bo‘lib, u asta-sekin murakkab dinlarga aylangan.

Robert Graves yunon va kelt mifologiyasini chuqur o'rgangan olim sifatida mashhur. Uning "Yunon miflari" (The Greek Myths) kitobi bu sohadagi eng muhim manbalardan biri hisoblanadi. Graves miflarni tarixiy va psixologik nuqtai nazardan tahlil qildi. Graves miflarni shunchaki fantastik hikoyalar emas, balki qadimgi jamiyatlarning falsafasi, diniy e'tiqodi va siyosiy tuzilishining aks etishi deb tushuntirgan. Uning uslubi XX asr mifologiyasini tadqiq etishda katta ta'sir ko‘rsatdi.

Andrew Lang folklor va mifologiya sohasida keng qamrovli tadqiqotlar olib borgan. U "rang-barang ertaklar to'plami" (Coloured Fairy Books) seriyasini nashr etib, turli xalqlarning og'zaki ijodini ingliz tiliga tarjima qildi. Lang miflarning kelib chiqishi haqidagi nazariyani rivojlantirdi. U miflarni insonlarning irratsional his-tuyg‘ulari, qo‘rquvlari va umidlariga asoslangan holda tushuntirgan. Leng mifologiyaning rivojlanishini evolyutsion bosqichlar orqali tushuntiradi va uni insonlarning psixologik rivojlanishining ajralmas qismi deb hisoblaydi.

Maksvell Myuller fikricha, mifologiya qadimgi insonlarning tabiat hodisalarini tasvirlash uchun ishlatgan ramziy ifodalari va metaforalardan kelib chiqqan. Masalan, miflar quyosh, oy, yomg‘ir kabi hodisalarni shaxsiylashtirib, xudolarga aylantirgan. Myuller buni "kasallangan til" deb atagan, ya'ni tildagi metaforalar vaqt o‘tishi bilan noto‘g‘ri tushunilib, mifologik hikoyalar shakliga kirgan.

Hozirgi kunda ham ko'plab ingliz olimlari mifologiya sohasida tadqiqotlar olib bormoqdalar. Ular zamonaviy texnologiyalar va yangi metodologik yondashuvlardan foydalangan holda qadimgi miflarni o'rganishda davom etmoqdalar.

XULOSA

Ingliz olimlari mifologiya fanini rivojlantirishda beqiyos hissa qo‘shganlar. Ularning tadqiqotlari orqali insoniyatning mifologik tushunchalari, qadimiy e’tiqodlar va marosimlar haqida ko‘plab ma’lumotlar kashf qilingan. Bu olimlarning asarlari nafaqat ilmiy doiralarda, balki keng omma orasida ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmay kelmoqda. Mifologiyani o‘rganish orqali insoniyatning madaniy va ruhiy merosi haqida yanada chuqurroq tushunchaga ega bo‘lishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Frezer, J. G. (1890). Oltin shox. London: Macmillan.
2. Teylor, E. B. (1871). Ibtidoiy madaniyat. London: John Murray.
3. Grevs, R. (1955). Yunon miflari. London: Penguin Books.
4. Leng, A. (1887). Mif, marosim va din. London: Longmans, Green and Co.

5. Myuller, M. (1861). Til ilmi bo‘yicha ma’ruzalar. London: Longmans, Green and Co.
6. Malinovskiy, B. (1948). Sehr, ilm va din. Glencoe, IL: The Free Press.

TIBBIYOT TALABALARI UCHUN PSIXOLINGVISTIK YONDASHUV ASOSIDA NUTQ MADANIYATINI O‘RGATISH

Aslanov Akmal Subxanovich
Toshkent tibbiyot akademiyasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
akmalaslanov66@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur tezisda tibbiyot talabalari uchun psixolingvistik yondashuv asosida nutq madaniyatini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi. Zamonaviy tibbiy ta’lim jarayonida kasbiy muloqotning samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotda shifokor va bemor o‘rtasidagi lingvistik hamkorlik, nutqiy kompetensiyalar va psixolingvistik omillar tahlil qilinadi. Olingan natijalar nutq madaniyatini o‘rgatishda samarali metodlar ishlab chiqish va tibbiyot talabalari uchun muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha tavsiyalar berishga asos bo‘ladi.*

Kalit so‘zlar: *psixolingvistika, nutq madaniyati, tibbiy muloqot, lingvistik kompetensiya, bemor-shifokor munosabatlari, tibbiyot talabalari.*

KIRISH: Tibbiyot sohasida samarali muloqot bemorlar bilan to‘g‘ri aloqa o‘rnatish va tibbiy xizmat sifatini oshirish uchun muhim hisoblanadi. Shifokorlarning nutq madaniyati nafaqat bemorning ishonchini qozonishda, balki tibbiy xatolarni kamaytirishda ham katta rol o‘ynaydi. Psixolingvistika shifokorlarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun samarali vosita bo‘lib, u lingvistik va psixologik omillarni o‘z ichiga oladi. Ushbu maqola tibbiyot talabalari uchun psixolingvistik yondashuv asosida nutq madaniyatini shakllantirish metodlarini ko‘rib chiqadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI: Tibbiy lingvistika va psixolingvistika bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar shifokorlarning kasbiy nutqi va kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish zaruriyatini ta’kidlaydi. Chomsky (1965) nutq kompetensiyasi va ijro kompetensiyasini farqlab, shifokorlarning lingvistik bilimlarini amaliy qo‘llay olish ko‘nikmalariga urg‘u bergan. Vygotsky (1978) esa muloqot jarayonida ijtimoiy omillarning ahamiyatini ko‘rsatib, bemor bilan shifokor o‘rtasidagi dialogda kontekstning muhimligini ta’kidlagan. Zamonaviy tadqiqotlarda esa (Johnson & Brown, 2020) tibbiy ta’limda interfaol yondashuv va texnologiyalar orqali nutq madaniyatini rivojlantirish metodlari o‘rganilgan.

O‘zbek olimlarining tadqiqotlari ham ushbu yo‘nalishda muhim ahamiyat kasb etadi. Karimov (2018) tibbiyot talabalari uchun psixolingvistik tamoyillarni tibbiy ta’limga integratsiyalash orqali samarali kasbiy muloqotni shakllantirish mumkinligini ko‘rsatadi. Saidova (2021) esa tibbiy muassasalarda shifokorlarning

nutq madaniyatini rivojlantirish uchun rolli o‘yinlar va real hayotiy holatlar asosida treninglar o‘tkazish zarurligini ta’kidlaydi. Yuldashev (2019) tibbiyotda nutqiy kompetensiyalarni shakllantirishda sotsiolingvistik omillarning rolini o‘rganib, bemor-shifokor muloqotida lingvistik moslashuvchanlik muhimligini asoslaydi.

Ushbu tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, psixolingvistika, tibbiy axloq va kommunikatsiya fanlarini o‘zaro bog‘liq holda o‘rganish shifokorlar uchun samarali muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, tadqiqot natijalari shifokorlar uchun lingvistik moslashuvchanlik va empatiya asosidagi kommunikativ modelni shakllantirish muhimligini ko‘rsatmoqda.

TADQIQOT METODI: Tadqiqot davomida tibbiyot talabalari o‘rtasida kasbiy muloqot ko‘nikmalarini o‘rganish uchun kuzatuv, so‘rovnoma va eksperimental metodlar qo‘llanildi. Shuningdek, lingvistik tahlil va diskurs tahlili usullari yordamida shifokor-bemor muloqoti tahlil qilindi. Tajriba jarayonida nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun psixolingvistik mashqlar va interfaol treninglar tashkil etildi.

ASOSIY MUHOKAMALAR VA NATIJALAR: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, tibbiyot talabalari o‘rtasida nutq madaniyatini shakllantirishda psixolingvistik yondashuv samarali vosita hisoblanadi. Eksperiment ishtirokchilari lingvistik jihatdan aniqroq ifoda qilish, bemor bilan empatik muloqot o‘rnatish va so‘zlashuv strukturasi bo‘yicha yuqori natijalar ko‘rsatdi. Shuningdek, tibbiy terminlarni to‘g‘ri ishlatish va bemorlarning hissiy holatini hisobga olish talabalarning muloqot qobiliyatlarini oshirishga yordam berdi.

XULOSA: Psixolingvistik yondashuv asosida nutq madaniyatini o‘rgatish tibbiyot talabalari uchun kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Tadqiqot natijalari nutqiy treninglar, interfaol mashg‘ulotlar va tibbiy diskurs tahlili yordamida shifokorlarning muloqot samaradorligini oshirish mumkinligini tasdiqladi. Kelajakda tibbiyot ta’limi tizimida lingvistik va psixolingvistik metodlarni yanada kengroq qo‘llash tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Chomsky, N. (1965). *Aspects of the Theory of Syntax*. MIT Press.
2. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.
3. Johnson, R., & Brown, K. (2020). *Medical Communication and Linguistics: A Psycholinguistic Perspective*. Journal of Medical Education, 15(2), 45-60.

4. Smith, J., & Anderson, P. (2019). *Linguistic Competence in Medical Discourse: A Practical Approach*. Medical Humanities Review, 12(4), 89-105.
5. Mayer, R. (2014). *The Role of Interactive Learning in Medical Training*. Journal of Educational Psychology, 26(1), 17-29.
6. Zhao, Y., & Frank, K. (2018). *Communicative Competence in Healthcare: A Discourse Analysis Approach*. Early Learning and Development Journal, 21(3), 105-123.
7. Subxanovich, A. A. (2023). KASBIY NUTQNI RIVOJLANTIRISHDA MUHOKAMA MAVZULARINING LINGVISTIK AHAMIYATI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, *3*(12), 381-384.
8. Turaev, J., Aslanov, A., & Subhonova, A. (2022). Organization Of Pre-School Education System In Two Different Countries: Russian Federation And Japan. *Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования*, *1*(24), 86-93.
9. Turaev, J., Aslanov, A., & Subhonova, A. (2022). THE RISING OF THE INEQUALITY ON THE EDUCATION SYSTEM OF PRESCHOOLS IN UZBEKISTAN. *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика*, *1*(24), 305-308.
10. Shukrulloevich, T. J., & Subxanovich, A. A. (2022). SUGGESTIONS AIMED AT THE DEVELOPMENT OF THE PRE-SCHOOL EDUCATION SYSTEM IN UZBEKISTAN.
11. Karimov, A. (2018). *Tibbiy muloqotda psixolingvistik yondashuvlar*. O‘zbek Lingvistik Tadqiqotlar Jurnali, 5(3), 58-73.
12. Saidova, M. (2021). *Kasbiy tibbiy ta’limda nutq madaniyatining o‘rni*. O‘zbekiston Pedagogik Fanlari Jurnali, 14(1), 112-127.
13. Yuldashev, B. (2019). *Bemor-shifokor muloqotida madaniy va lingvistik omillar*. Markaziy Osiyo Tibbiy Komunikatsiya Jurnali, 8(2), 34-49.

ZAMONAVIY TA’LIM JARAYONIDA PSIXOLOGIK XAVFSIZLIK KONSEPSIYASI

Atadjanov Mamirjon Yusupovich
Farg‘ona davlat universiteti Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent
mamurjon9697@mail.ru

Xaydaraliyev Abdullo Usmonali o‘g‘li
Guliston davlat universiteti doktoranti,
Farg‘ona davlat universiteti Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi
xaydaraliyevabdullo42@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada raqamli dunyoning zamonaviy ta’lim jarayonidagi muammolar va ularning yechimi sifatida psixologik xavfsizlik konsepsiyasining qoidalari hamda shaxsning xavfsizligini ta’minlashda shaxsiy makon hududlarining ta’siri yoritib berilgan.*
Kalit so‘zlar: *psixologik xavfsizlik konsepsiyasi, psixologik zo‘ravonlik, shaxsiy makon, xavfsizlik tamoyillari.*

Annotation: *The article highlights the problems in the modern educational process of the digital world and the rules of the concept of psychological security as their solution, as well as the influence of personal space areas in ensuring the safety of the individual.*
Keywords: *concept of psychological security, psychological violence, personal space, principles of security.*

Tez taraqqiy etayotgan raqamli dunyoda inson uchun ta’lim-tarbiya suv va havo kabi eng muhim ehtiyoj hisoblanadi. Chunki insoniyatni hayvonot dunyosidan ajratib turuvchi jihat uning bilimi, xulq-atvori va tarbiyasidir. Bugungi kunda yosh avlodni katta hayotga tayyorlab beruvchi maktablarga berilgan e’tibor har qachongidan yuqori. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Maktab ta’limida poydevorni bugundan mustahkam qo‘yishimiz kerak. Chunki biz ko‘p vaqt yo‘qotganmiz”. So‘nggi yillarda o‘tkazilgan islohotlar natijasida ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi yaxshilanmoqda, pedagog xodimlarning ilmiy salohiyati uzviy ravishda oshirilib borilmoqda. Shu o‘rinda e’tibor qaratishimiz kerak bo‘lgan jihat – maktablarda turli hildagi zo‘ravonliklarning uchrab turishidir. Zo‘ravonlikning turli ko‘rinishi mavjud bo‘lib, ular ichida psixologik zo‘ravonlik eng ko‘p uchraydi. Kattalar va bola o‘rtasidagi munosabatlarda zo‘ravonlik yuz berishi bolaning huquqlari, erkinliklari va fazilatlarini e’tiborsiz qoldirishga olib keladi, natijada bolalar va kattalar o‘rtasidagi aloqalar buziladi. Shuningdek, shaxsiy, aqliy, irodaviy, kommunikativ, xulq-atvor va hissiy rivojlanishda bo‘shliqlarni vujudga keladi. Ushbu mezonlardan kamida bittasining mavjudligi insonning butun

rivojlanishiga va faoliyat samaradorligiga ta'sir qiladi. Shunday ekan, maktablar nafaqat bilim maskani, balki bola uchun har tomonlama xavfsiz hudud bo‘lishi kerak. Yuqoridagi muammolarning yechimi sifatida psixologik xavfsizlik konsepsiyasi ishlab chiqilgan bo‘lib, u ta’lim jarayonidagi barcha ishtirokchilarning ruhiy va jismoniy salomatligini ta’minlashni o‘z ichiga oladi. Ta’lim jarayonida psixologik xavfsizligi konsepsiyasining asosiy jihatlari quyidagilar:

1. Ta’lim – bu inson “ishlab chiqaradigan” soha. Bu shuni anglatadiki, ta’lim muassasasi murakkab mahsulotni, ya’ni o‘zini o‘zi amalga oshiradigan shaxsning shaxsiyatini ishlab chiqaradi. Shuning uchun, bu sohada shaxsga zarar yetkazadigan barcha xavflarni bartaraf etish, xavfsizlikni ta’minlashning texnologiya va usullarini yaratish kerak.

2. Psixologik xavfsizlikka bo‘ladigan tahdidlar. Ta’lim jarayonidagi asosiy xavf psixikaga shikast yetishi natijada shaxsning shakllanishi va rivojlanishida to‘siqlarning paydo bo‘lishidir. Bunda asosiy e’tibor to‘siqlarni yaratayotgan sabablarga qarshi kurashni qamrab oladi.

3. Ta’lim muhiti - ijtimoiylashuv ehtiyojlarini qondiradigan makon. Ta’lim jarayoni bolaga faqatgina ilm-fanni emas, jamiyatning qonun-qoidalarini, ijtimoiylashuv va jamiyatda o‘z o‘rnini topish yo‘llarini ham o‘rgatishi lozim.

Ta’limda xavfsizlik muammolari mavzusida ilmiy izlanishlar olib borgan psixolog I.A.Bayeva ta’lim jarayonining psixologik xavfsizligi ko‘rsatkichlarini quyidagicha ta’riflab o‘tgan:

1. Ta’lim jarayoni insonga ijtimoiy normalar va qadriyatlarni shakllantirishga yordam beradi.

2. Ta’lim jarayoni odamlar bilan muloqot qilish va o‘zaro munosabatlarga bo‘lgan ehtiyojni qondiradi.

3. Ta’lim jarayonida psixologik zo‘ravonlikdan himoyalanganlik darajasi shaxsning o‘z manfaatlarini himoya qilishiga zamin yaratadi.

Psixologik xavfsizlikni yaratadigan subyektlar oila, maktab, qo‘shimcha ta’lim markazlari o‘qituvchilari bo‘lishi mumkin. Bola o‘z qadriyatlarini, qarashlarini o‘qituvchilar, tengdoshlar va qarindoshlar bilan muloqotda shakllantiradi va o‘z munosabatlar tizimini yaratadi. Shunday qilib, ijtimoiylashuv jarayonida boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishga yordam beradigan usullardan foydalanish muhimdir. Psixologik xavfsiz ta’lim muhitini yaratishda quyidagi prinsiplarga tayanish tavsiya etiladi:

A) Oldindan tuzilgan va aniq vazifalar belgilangan rivojlanish rejasiga tayanish prinsipi, uning asosiy maqsadi shaxsni har tomonlama yetuk qilib rivojlantirish, hayot faoliyatining intellektual, ma’naviy, jismoniy va ijtimoiy sohalarga tayyorlashdir.

B) Ta’lim jarayonining har bir ishtirokchisini psixologik himoya qilish prinsipi. Ushbu prinsipning maqsadi o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun psixologik bosim va zo‘ravonliklardan holi sharoit yaratishni nazarda tutadi. Bunda o‘quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

C) Psixologik va ijtimoiy mahoratni rivojlantirish prinsipi. Prinsipning mohiyati o‘quvchilarda olingan nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq qilishga yo‘naltirishdan iborat. Jumladan, ijtimoiylashuv jarayonida xavfsiz munosabatlarni o‘rgatadigan trening va dasturlarni o‘tkazish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ta’lim jarayonida psixologik xavfsizlik hissini yaratish insonning fazoviy-makon munosabatlari bilan bog‘liq hisoblanadi. Inson o‘zini xavfsiz va himoyalangan his qilishi uchun shaxsiy makoniga ega bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi va bu uning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi. Psixologiya fanida shaxsiy makon to‘rtta hududga ajratiladi:

1. Samimiy(intim) hudud, uning uzunligi 15-45 sm oralig‘ida, ya’ni cho‘zilgan qo‘ldan kamroq masofada bo‘ladi. Ushbu hududga kirishga ota-ona, turmush o‘rtoq, farzandlar va yaqin do‘stlarga ruxsat beriladi. Agar kimdir ushbu hududga beruxsat kirsa, u holda odam bezovtalanadi va xavotirga tushadi. Natijada, unda himoyalanishga ehtiyoj vujudga keladi, yoki, aksincha, teskari reaksiya bildirib, agressiv harakat qilishi mumkin.

2. Shaxsiy hudud, uning uzunligi o‘rtacha 50 sm dan 1,5 mertgacha bo‘ladi va u do‘stlar, sinfdoshlar, hamkasblar, qo‘shnilar bilan aloqa qilish uchun mo‘ljallangan. Ushbu hududda ish, karera va shaxsiy hayot mavzularida muloqot qilish maqsadga muvofiq.

3. 1,5 metrdan 4 metrgacha masofa ijtimoiy hudud deb ataladi. Bu hududda begona odamlar bilan muloqot qilish qulay, chunki ijtimoiy zonada odam o‘zini psixologik va axloqiy jihatdan xavfsizlik his qiladi. Ushbu hududni buzish butunlay boshqacha reaktsiya keltirib chiqarishi mumkin.

4. Ommaviy hudud 4 metr masofadan boshlanadi va u odamlar auditoriyasi bilan muloqot qilish uchun zarur. Misol uchun yig‘ilishlar, ma’ruzalar, treninglar va seminarlar o‘tkazish ushbu hududda amalga oshiriladi.

Shaxsiy makon nazariyasi 1963-yil Edvard Xoll tomonidan “Proksemika” atamasi bilan ishlab chiqilgan. Nazariyada keltirilgan raqamlar har bir inson uchun

Zamonaviy terminologik tadqiqotlar ilmiy va amaliy nuqtai nazardan dolzarb hisoblanadi. Soha mutaxassislari turli fan, texnika va texnologiyalar doirasida yangi atamalarni ishlab chiqish, ularning mohiyatini aniqlash va umumiy qabul qilingan lug‘atlarga kiritish bilan shug‘ullanadilar. Bu jarayonda raqamli texnologiyalarning roli tobora ortib bormoqda. Raqamli texnologiyalar terminologik tadqiqotlarni avtomatlashtirish, ma’lumotlarni tezkor va aniq tahlil qilish, ularni interaktiv shaklda foydalanuvchilarga taqdim etishda katta imkoniyatlarni yaratadi.

Mazkur maqolada elektron lug‘atlar yaratish metodlari, raqamli texnologiyalarning ushbu jarayondagi o‘rni va samaradorligi yoritib beriladi.

Terminologik tadqiqotlar va raqamli texnologiyalar Terminologik tadqiqotlar ilmiy atamalarni o‘rganish, ularning kelib chiqishi, ma’nosi va foydalanish doirasini aniqlash bilan bog‘liq. An’anaviy tadqiqot usullari uzoq vaqt talab qilishi mumkin bo‘lsa, zamonaviy raqamli texnologiyalar ushbu jarayonni tezlashtirishga yordam beradi.

Bugungi kunda sun’iy intellekt (AI), tabiiy tilni qayta ishlash (NLP), katta ma’lumotlar (Big Data) va avtomatlashtirilgan tarjima tizimlari elektron lug‘atlar yaratishda keng qo‘llanilmoqda. Ushbu texnologiyalar terminologiyani aniqlash, ma’lumotlarni tahlil qilish va ularni tizimli ravishda elektron lug‘atlarga joylashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Elektron lug‘atlar yaratish metodlari An’anaviy bosma lug‘atlar ma’lumotlarni statik shaklda taqdim etadi, bu esa ularning yangilanishi va interaktivligi bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqaradi. Elektron lug‘atlar esa quyidagi afzalliklarga ega:

- Tezkor yangilash va to‘ldirish imkoniyati; bu esa terminologik ma’lumotlarning doimiy ravishda dolzarbligini ta’minlaydi va foydalanuvchilarga eng so‘nggi ma’lumotlarni yetkazish imkonini beradi.
- Izlash tizimi orqali qulay foydalanish; bu foydalanuvchilarga kerakli terminni tez va oson topish imkonini yaratadi, natijada ularning ish unumdorligi oshadi.
- Multimediali elementlar (audio, video, tasvir) qo‘shish; bu esa foydalanuvchilarga terminlarni yanada aniq tushunishga yordam beradi, ayniqsa, talaffuz yoki vizual misollar zarur bo‘lganda.
- Sun’iy intellekt orqali foydalanuvchi ehtiyojlariga moslashish; elektron lug‘atlar foydalanuvchi xatti-harakatlarini tahlil qilib, ularning ehtiyojlariga mos keladigan ma’lumotlarni taklif etishi mumkin.

Elektron lug‘atlar yaratishda bir necha asosiy metodlardan foydalaniladi:

1. **Ma’lumotlar bazasiga asoslangan lug‘atlar** – bu usulda terminlar va ularning ta’riflari maxsus ma’lumotlar bazasida saqlanadi. Ushbu metod aniq, tezkor va tizimlashtirilgan ma’lumotlar yig‘ish imkonini beradi. Ma’lumotlar bazasi orqali foydalanuvchilar o‘zlari uchun kerakli bo‘lgan terminlarni izlash va ulardan samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bundan tashqari, lug‘atni tezkor yangilash va yangi atamalar bilan to‘ldirish imkoniyati mavjud. Misol uchun, "O‘zbekcha-Inglizcha terminologik lug‘at" platformasi, unda foydalanuvchilar so‘zlarni izlab, ularning ta’riflarini, soha bo‘yicha tasniflanishini va qo‘shimcha izohlarni ko‘rishi mumkin. Masalan, "sun’iy intellekt" atamasi texnologiya sohasiga oid bo‘lib, uning ta’rifi va xalqaro ekvivalentlari mavjud. Quyidagi grafikli tasvir uni yanada batafsil tushunilishiga olib keladi.



2. **Korpusga asoslangan lug‘atlar** – ushbu metodda matn korpuslaridan foydalanilib, terminlarning kontekstual ma’nolari tahlil qilinadi. Bunda maxsus dasturiy vositalar va sun’iy intellekt algoritmlari yordamida atamalar tabiiy matnlarda qanday ishlatilishi tahlil qilinadi. Bu yondashuv terminlarning turli kontekstlardagi ma’nolarini chuqurroq anglash va ularning semantik xususiyatlarini aniqlashga imkon yaratadi. Masalan, "Tilda ishlatilishi bo‘yicha lug‘at" platformasi, u turli ilmiy maqolalar va kitoblardagi real foydalanish misollarini jamlaydi. Masalan, "algoritm" so‘zi informatika bo‘yicha maqolalarda qanday kontekstlarda ishlatilganini avtomatik tahlil qiladi.

3. **Avtomatlashtirilgan tarjima va NLP asosidagi lug‘atlar** – bu usul sun’iy intellekt va mashina o‘rganish algoritmlaridan foydalanib, turli tillar orasida terminologik moslikni aniqlashga asoslanadi. Avtomatlashtirilgan tarjima tizimlari terminlarning turli tillardagi ekvivalentlarini aniqlash va ularni lug‘atlarga kiritishda qo‘llaniladi. Ushbu yondashuv terminlarning tezkor tahlili va tarjima sifatini oshirishga yordam beradi. Misol uchun, Google Translate yoki DeepL kabi tizimlar, ular matnlar ichidagi terminlarni avtomatik tarjima qiladi va ularning turli tillardagi ekvivalentlarini tavsiya etadi. Masalan, "machine learning" termini avtomatik ravishda "mashina o‘rganishi" sifatida tarjima qilinishi va turli kontekstlarda qanday ishlatilishini aniqlashi mumkin.

Afzalliklari va kamchiliklari Afzalliklari:

- Elektron lug‘atlar tezkor yangilanib boradi, bu esa foydalanuvchilarga doimiy ravishda dolzarb ma’lumotlarni yetkazish imkonini beradi.
- Izlash tizimlari orqali terminlarni topish ancha oson va qulay.

- Multimediali elementlar yordamida so‘zlar va terminlar yanada tushunarli va ko‘rgazmali bo‘ladi.
- Sun’iy intellekt asosida foydalanuvchilarning qidiruv tarixiga moslashish imkoniyati mavjud.
- Turli tillar uchun avtomatlashtirilgan tarjima va moslashtirish tizimlari mavjud.

Kamchiliklari:

- Elektron lug‘atlar internet yoki dasturiy ta’minotga bog‘liq bo‘lishi mumkin, bu esa foydalanish imkoniyatlarini cheklashi mumkin.
- Sun’iy intellekt asosidagi tarjima va NLP tizimlari ba’zan xatolarga yo‘l qo‘yishi mumkin, bu esa ma’lumotlarning aniqligiga ta’sir qiladi.
- Raqamli lug‘atlarni yaratish va doimiy ravishda yangilab borish katta resurs va vaqt talab qiladi.
- Ba’zi foydalanuvchilar an’anaviy bosma lug‘atlarga ko‘nikkan bo‘lishi mumkin, shuning uchun elektron lug‘atlarga o‘tish qiyin bo‘lishi mumkin.

Xulosa Raqamli texnologiyalar yordamida elektron lug‘atlar yaratish terminologik tadqiqotlarning samaradorligini oshirishga yordam beradi. Elektron lug‘atlar yangilanadigan, foydalanuvchilarga qulay va turli texnologiyalar bilan integratsiya qilinadigan vosita sifatida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Kelajakda bu sohada sun’iy intellekt va mashina o‘rganish texnologiyalaridan kengroq foydalanish ushbu tizimlarni yanada takomillashtirish imkonini beradi.

Shuningdek, elektron lug‘atlar nafaqat lingvistik tadqiqotlar uchun, balki ta’lim jarayonida ham samarali qo‘llanilishi mumkin. Ular o‘quvchilarning til o‘rganish jarayonini tezlashtirish, soha mutaxassislariga esa terminlarni chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Raqamli lug‘atlar, ayniqsa, ilmiy-texnikaviy sohalarda tez o‘zgarib boruvchi terminologiyani samarali boshqarish va foydalanuvchilarni aniq hamda ishonchli ma’lumotlar bilan ta’minlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bowker, L. & Pearson, J. (2002). *Working with Specialized Language: A Practical Guide to Using Corpora.* Routledge.
2. Cabré, M. T. (1999). *Terminology: Theory, Methods, and Applications.* John Benjamins Publishing.
3. Hutchins, W. J. & Somers, H. L. (1992). *An Introduction to Machine Translation.* Academic Press.
4. Sinclair, J. (2004). *Trust the Text: Language, Corpus, and Discourse.* Routledge.
5. Zgusta, L. (1971). *Manual of Lexicography.* Mouton de Gruyter.
6. Boguslavsky, I. (2020). "Natural Language Processing in Terminology Management." *Journal of Language and Terminology Research,* 18(3), 45–62.

7. ISO 704:2009. *Terminology Work – Principles and Methods.* International Organization for Standardization.
8. Trujillo, A. (1999). *Translation Engines: Techniques for Machine Translation.* Springer.
9. Resnik, P. (1999). "Semantic Similarity in a Taxonomy: An Information-Based Measure and Its Application to Problems of Ambiguity in Natural Language." *Journal of Artificial Intelligence Research*, 11, 95–130.
10. Kilgarriff, A. & Grefenstette, G. (2003). "Introduction to the Special Issue on the Web as Corpus." *Computational Linguistics*, 29(3), 333–347.

SHAXSGA YO’NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA CHET TILINI O’QITISHNING INTERFAOL METODLARI

Ilmiy rahbar: **prof.X.Muhitdinova**

G’ulomova Shahzoda Xabibullo qizi
O’zDJTU, 2115 guruh talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqola chet tilini o’qitishda shaxsga yo’naltirilgan yondashuvning asosiy hususiyatlari hamda imkoniyatlari keng yoritilib berilgan.*

Kalit so’zlar: *Interfaol metod, yondashuv, konstruktsionizm, motivatsiya.*

Bugungi globallashuv davrida chet tillarni bilish nafaqat shaxsiy muvaffaqiyatning mezoni, balki zamonaviy mutaxassisning kasbiy raqobatbardoshligini ta’minlovchi asosiy ko‘nikmalardan biri hisoblanadi. Xalqaro aloqalarning kengayishi va texnologik taraqqiyot xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan talabni sezilarli darajada oshirdi. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalari (OTM) talabalari uchun chet tilini bilish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular kelgusida o‘z kasbiy faoliyatida xorijiy tillardagi axborot va bilimlardan foydalanishlari lozim.Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida o‘qitishning interfaol metodlari bo‘yicha bir qator olimlar va ta'lim mutaxassislari ilmiy ishlar olib borgan. Ushbu metodlarni ta’lim jarayoniga tadbiq etish va ularni rivojlantirish borasida quyidagi muhim tadqiqotchilar va ularning ishlari e’tiborga loyiqdir:

Lev Vygotskiyning shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish va o‘rganish jarayonida"Yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi interfaol metodlarni qo‘llashda muhim asos bo‘lib, unda talabalar o‘rtasida o‘zaro muloqot va faol hamkorlikning o‘rganish jarayonini rivojlantirishda samarali ta’siri aks ettirilgan. Amerikalik pedagog John Dewey shaxsga yo‘naltirilgan ta'limning nazariyasini rivojlantirib, interfaol metodlar asosida o‘qitishda tajriba va faol ishtirokning muhimligini ta'kidlaydi va ta'lim jarayonida o‘quvchilarning faolligini oshirishga qaratilgan metodlarni ilgari suradi. Uning "Tajriba orqali o‘rganish" tamoyili shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitishning asoslaridan biridir. Shaxsga yo‘naltirilgan ta'lim tizimida Carl Rogersning pedagogik yondashuvlar ham katta o‘rin egallaydi. Uning "Ijobiy o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlari" haqidagi tadqiqotida o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga mos keladigan o‘qitish usullariga to’xtalib, shaxsning ichki motivatsiyasini va o‘rganishdagi qiziqishlarini asosiy e’tibor markaziga qo‘yadi. Braziliyalik pedagog Paulo Freire interfaol o‘qitish metodlarini o‘zining "Pedagogiya of the Oppressed" asarida o‘quvchilarning faolligini oshirish, ular bilan muammoli

vaziyatlar orqali ishlashda ahamiyatli ekanligini ta'kidlaydi. Freire o‘qitish jarayonida talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasida tenglik va o‘zaro hurmatni yaratish, shuningdek, o‘quvchilarga o‘z fikrlarini ifodalash imkoniyatini berish zarurligini ta'kidlaydi. Amerika psixologi va pedagogi Jerome Bruner o‘qitishda interfaol metodlarni qo‘llashni rivojlantirib, "konstruktsionizm" nazariyasini ishlab chiqqan. Brunerning yondashuvi shaxsga yo‘naltirilgan ta'limning asosini tashkil qiladi, chunki u o‘quvchilarni bilimni yaratishda faol ishtirok etishga undaydi. Uning ishlarida o‘quvchilarga bilimni faqat tayyor shaklda berish emas, balki ularni mustaqil ravishda bilishni kashf qilishga yo‘naltirishning ahamiyati ko‘rsatilgan.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida o‘qitishning interfaol metodlari bo‘yicha O‘zbekistonda ham bir qancha olimlar ilmiy ishlar olib borgan. Ular o‘z tadqiqotlarida interfaol metodlarni shaxsga yo‘naltirilgan ta'lim tizimida qo‘llashning samaradorligini o‘rganib, ta’limda innovatsion yondashuvlarni joriy etishga yordam berganlar.

M. M. Mirzaev shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish jarayonida interfaol metodlarning ahamiyatini o‘rganib, o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undashning pedagogik zaruratini, interfaol metodlarning motivatsiya va qiziqishni oshirishda muhim o‘rin tutishini qayd etadi. Sh. S. Azizov ta'limda shaxsga yo‘naltirilgan metodlarni qo‘llashni innovatsion yondashuv sifatida ko‘rsatgan va bu jarayonda interfaol metodlarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish mumkinligini ta'kidlagan. M. A. To‘laganov esa shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish tizimida interfaol metodlarni qo‘llash bo‘yicha ko‘plab tavsiyalar ishlab chiqqan. U o‘quvchilarni jamiyatga moslashish uchun interfaol yondashuvlar orqali bilimlarni amaliyotda qo‘llashga o‘rgatishni maqsad qilgan. B. B. Keldibekov pedagogik jarayonlarda shaxsga yo‘naltirilgan interfaol metodlar orqali o‘quvchilarni o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llashga va o‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirishni taklif etgan. N.F.Davletov ta'lim jarayonida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishda interfaol metodlarning rolini ko‘rsatgan, u shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitishda o‘quvchilarning o‘zaro faoliyatini qo‘llashning pedagogik asoslarini ishlab chiqqan.

Demak, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida o‘qitishning interfaol metodlari — bu ta’lim jarayonida har bir talabaning individual ehtiyojlari, qobiliyatlari va o‘qish usullarini inobatga olib, o‘qitishni interaktiv, qiziqarli va samarali qilishga yo‘naltirilgan metodlar to‘plamidir. Bu metodlar talabalar o‘quv jarayonida faol ishtirok etishlarini ta’minlab, ularning fikrlash qobiliyatlarini

rivojlantirish, bilimlarni mustahkamlash va kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Interfaol metodlarning asosiy xususiyatlari quyidagilar:

Faollik	Interfaol metodlar o‘quvchilarning o‘quv jarayonida passiv ishtirokidan voz kechib, ularni faol ishtirokchiga aylantiradi. Bu metodlar talabalarni dars davomida faollikka chaqiradi, ular faqat tinglovchi emas, balki fikr bildiruvchi, savollar beruvchi va muhokama qiluvchi bo‘lishadi.
Muammoli vaziyatlar	Interfaol metodlar ko‘pincha muammoli vaziyatlar orqali o‘rganishni taklif etadi. Bunday vaziyatlarda talabalar o‘z bilimlarini amalda qo‘llab, muammoni hal qilishga harakat qiladilar. Bu metod o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va ijodkorlikni rivojlantiradi.
Tanqidiy fikrlash	Interfaol metodlar talabalarni tanqidiy fikrlashga, o‘z fikrlarini baholashga va boshqalar bilan munozara qilishga undaydi. O‘quvchilar har bir vaziyatga turli nuqtai nazardan qarashni o‘rganadilar.
Praktik qo‘llanish	Interfaol metodlar nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishni ta’minlaydi. O‘quvchilar o‘rganilgan materialni real hayotda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘lishadi, bu esa ularning bilimlarini mustahkamlaydi va yodda saqlashni osonlashtiradi.
Refleksiya	O‘quvchilarga o‘z-o‘zini baholash, yutuqlarini va xatolarini tahlil qilish imkonini beradi. Bu jarayon o‘quvchilarning o‘z bilim va qobiliyatlarini yaxshilashga yordam beradi.

Yuqoridagi jadvaldan ko’rinadiki, interfaol metodlar mashg’ulot davomida talabalarni faollika chaqiradi, muammoli vaziyatlarda mustaqil fikrlash va ijodkorlikni rivojlantiradi, tanqidiy fikrlashga, o‘z fikrlarini baholashga va boshqalar bilan munozara qilishga undaydi.

Shaxsga yo‘naltirilgan interfaol metodlarning afzalliklari:

- *Motivatsiyani oshirish:* Interfaol metodlar talabalarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va ularga faollik beradi;
- *Ijodiy va tanqidiy fikrlash:* Talabalar fikrlarini erkin ifodalash, yangi g‘oyalarni ilgari surish orqali ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar;
- *Real muammolarni hal qilish:* Amaliy mashqlar va simulyatsiya yordamida talabalar real muammolarni hal qilish qobiliyatini shakllantiradilar;

- *Mustaqil fikrlash va o‘zini baholash*: Har bir talaba darsda faol qatnashib, o‘z bilim va ko‘nikmalarini o‘z-o‘zini baholash orqali mustahkamlaydi.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida interfaol metodlar qo‘llanishi o‘quv jarayonini talabalar uchun qulay, samarali va qiziqarli qilishga yordam beradi. Bu metodlar talabalarning faolligini oshiradi, ularning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi va o‘qituvchi bilan talabalar o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlaydi. Shaxsga yo‘naltirilgan interfaol metodlar yordamida talabalarning bilimlari amaliy ko‘nikmalar bilan boyitilib, ular real hayotda chet tilini qo‘llashga tayyorlanadi.Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida o‘qitishning interfaol metodlarini ta'lim jarayoniga singdirish – bu o‘quvchilarni faollikka, mustaqil fikrlashga va o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llashga yo‘naltirilgan muhim pedagogik jarayon hisoblanadi. Ushbu metodlar o‘quvchilarni shaxs sifatida rivojlantirishga, ularning qiziqishlari, ehtiyojlari va qobiliyatlariga mos o‘qitish tizimini tashkil etishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvga mos interfaol metodlar o‘quvchilarni faollikka, ijodiy fikrlashga, va mustaqil qaror qabul qilishga undaydi. Bu metodlar o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi va ularning o‘qish jarayonidagi qatnashishini maksimal darajaga oshiradi. Har bir metod shaxsning o‘zini ifodalashga va shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati

1. Anderson, C. A., & Krathwohl, D. R. (2001). *A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom’s Taxonomy of Educational Objectives*. Longman.
2. Ahmadaliyev N., Karimova D. *"Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim: nazariy asoslar va amaliy qo‘llanmalar"*. Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
3. Azizov Sh. S. (2015) "Interfaol metodlar va ularning shaxsga yo‘naltirilgan ta'lim tizimida qo‘llanilishi".
4. Barrows, H. S. (1996). *Problem-Based Learning in Medicine and Beyond: A Brief Overview*. *New Directions for Teaching and Learning*, 1996(68), 3-12.
5. Bergmann, J., & Sams, A. (2012). *Flip Your Classroom: Reach Every Student in Every Class Every Day*. International Society for Technology in Education.
6. Brown, H. D. (2001). *Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy*. Pearson Education.

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA TA’LIM YO`NALISHI TALABALARINING MAS’ULIYAT KO‘NIKMALARINI TAKOMILLASHTIRISH MAZMUNI

Gulamov Jasur Baxodirovich
O‘zDJTU Pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi
e-mail: mr.jasur.gulamov@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada raqamli ta’lim muhitida “Pedagogika” va “Psixologiya” ta’lim yo`nalishlari talabalarining mas’uliyat ko‘nikmalarini takomillashtirish mazmuni yoritilgan. Pedagogika” va “Psixologiya” ta’lim yo`nalishlari talabalarining raqamli ta’lim muhitida talabalar mas’uliyat ko‘nikmalarini takomillashtirish mazmuni o`quv rejalari, o`quv dasturlari, mustaqil ta’lim va pedagogik amaliyot kabi me’yoriy hujjatlari asosida tahlil etilgan.*

***Kalit so`zlar:*** *mas’uliyat ko‘nikmalari, o`quv rejalari, o`quv dasturlari, mustaqil ta’lim va pedagogik amaliyot.*

Talabalar mas'uliyat ko'nikmalarini takomillashtirish mazmuni – bu talabalarning o'z-o'zini boshqarish, o'qish jarayoniga mas'uliyat bilan yondashish, vaqtni samarali boshqarish va o'z yutuqlarini va kamchiliklarini tahlil qilish kabi ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan faoliyatlar va jarayonlarning umumiy tushunchasidir. Raqamli ta'lim muhitida talabalarning mas'uliyat ko'nikmalarini takomillashtirish mazmuni turli bosqichlardan iborat bo'lib, uning har bir bosqichi talabaning mustaqil o'qish va o'z-o'zini boshqarishdagi qobiliyatlarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi [2, 3, 4, 5, 6, 7].

“Pedagogika” va “Psixologiya” ta’lim yo`nalishlari talabalarining raqamli ta’lim muhitida talabalar mas’uliyat ko‘nikmalarini takomillashtirish mazmuni o`quv rejalari, o`quv dasturlari, mustaqil ta’lim va pedagogik amaliyot kabi me’yoriy hujjatlari asosida aniqlashtirildi. 60110100-Pedagogika ta’lim yo`nalishi majburiy fanlariga umumiy yuklama hajmiga 4300 soat, auditoriya o`quv soatlariga 1980 soat, mustaqil ta’limga 2340 soat ajratilgan bo`lib, quyidagi ixtisoslik fanlari o`qitiladi (1-jadvalga qarang):

1-jadval.

60110100-Pedagogika ta’lim yo`nalishi majburiy fanlari

№	Fanlar	Umumiy soat	Auditoriya mashg`ulotlari				Mustaqil ta’lim
			Jami	Ma’ruza	Seminar	Amaliy	
1.	Umumiy psixologiya	300	120	60	60		180
2.	Pedagogika nazariyasi va tarixi	330	136	60	76		194

3.	Milliy tarbiya asoslari	180	74	36	30	14	106
4.	Mutaxassislikka kirish	300	120	60	60		180
5.	Xalq pedagogikasi	240	120	60	60		120
6.	Inklyuziv ta’lim. Gospital pedagogika	120	60	30	16	14	60
7.	Ijtimoiy pedagogika	270	120	60	60		150
8.	Yunogogika	120	60	20	40		60
9.	Ta’lim menejmenti	120	60	20	40		60
10.	Oila pedagogikasi	240	120	40	80		120
11.	Pedagogik diagnostika va korreksiya	270	120	60	60		150
12.	Pedagogik mahorat	120	60	30	30		60
13.	Tarbiya fanini o`qitish metodikasi	240	120	60	60		120
14.	Komparavistik pedagogika	120	60	30	30		60
15.	Uzluksiz ta’limdagi tendensiyalar va zamonaviy yondashuvlar	150	60	24	36		90
16.	Kreativ pedagogika	330	150	40	110		180
17.	Pedagogik texnologiya	180	90	40	50		90

60110100-Pedagogika ta’lim yo`nalishida tanlov fanlarga 1800 soat ajratilgan bo`lib, 3-4-bosqichlarda “Elektron pedagogika”, “Pedagogika fani metodologiysi”, “Pedagogik androgogika”, “Ijtimoiy psixologiya”, “Pedagogik valeologiya”, “Pedagogik aksiologogika”, “Pedagogik kompetentlik”, “Tyutorlik faoliyati asoslari”,

“Tarbiyaviy ish texnologiyalari”, “Pedagogik konfliktologiya”, “Pedagogik innovatika”, “Rivojlanish psixologiyasi va pedagogik psixologiya”, “Pedagogika va psixologiya fanlarini o`qitish metodikasi”, “Gender pedagogikasi va psixologiyasi”, “Pedagogik akmeologiya”, “Muzey pedagogikasi”, “Artpedagogika”, “Pedagogik kvalimetriya”, “Testologiya”, “Oila psixologiyasi va psixoterapiyasi”, “Bolalar pedagogikasi”, “Tarbiyada kouch trening”, “Iqtidorli bolalarni o`qitish texnologiyasi”, “Pedagogik riskologiya”, “Pedagogik prognostika”, “Neyropedagogika”, “Pedagogik sinergetika” kabi fanlari o`qitilmoqda. Yuqorida qayd etilgan fanlardan kelib chiqib, 1-2-bosqich talabalari tadqiqot ob’yekti deb tanladik, 60110100-Pedagogika ta’lim yo`nalishining 1-2-bosqichlarida majburiy fanlarga quyidagicha kreditlar ajratilib, o`qitiladi (2-jadvalga qarang):

2-jadval.

1-2-bosqich majburiy fanlarining kreditlari

№	Majburiy fanlar	1-semestr	2-semestr
1.	Umumiy psixologiya	6	4
2.	Pedagogika nazariyasi va tarixi	6	5
3.	Milliy tarbiya asoslari	6	
4.	Mutaxassislikka kirish	6	4

60310300-Psixologiya ta’lim yo`nalishi majburiy fanlariga umumiy yuklama hajmiga 4920 soat, auditoriya o`quv soatlariga 2160 soat, mustaqil ta’limga 2760 soat ajratilgan bo`lib, quyidagi ixtisoslik fanlari o`qitiladi (3-jadvalga qarang):

3-jadval.

60310300-Psixologiya ta’lim yo`nalishi majburiy fanlari

№	Fanlar	Umumiy soat	Auditoriya mashg`ulotlari					Mustaqil ta’lim
			Jami	Ma’ruza	Laboratoriya	Seminar	Amaliy	
1.	Mutaxassislikka kirish	180	60	30		30		120
2.	Umumiy psixologiya	720	300	120		180		420
3.	Eksperimental psixologiya	480	210	104	106			270
4.	Rivojlanish psixologiyasi va differensial psixologiya	300	120	60		60		180
5.	Psixologik	180	90	44			46	90

	ma’lumotlarni qayta ishlash metodlari va texnologiyalari							
6.	Umumiy psixodiagnostika	300	120	60			60	180
7.	Sotsial psixologiya	360	150	60			90	210
8.	Psixologik konsultasiya va psixokorreksiya	180	90	44			46	90
9.	Umumiy pedagogika	180	60	30		30		120
10.	Psixologik trening asoslari	120	60	30		30		60
11.	Pedagogik psixologiya va psixologiyaning o`qitish metodikasi	180	60	30		30		120
12.	Klinik psixologiya	180	90	44		46		90
13.	Yuridik psixologiya	120	60	30		30		60
14.	Oila psixologiyasi	120	60	30		30		60
15.	Mehnat va muhandislik psixologiyasi	120	60	30		30		60
16.	Psixologiya tarixi	180	60	30		30		120

60310300-Psixologiya ta’lim yo`nalishida tanlov fanlarga 1800 soat ajratilgan bo`lib, “Psixogenetika”, “Psixoanaliz”, “Ta’lim muassasalarida psixologik xizmat”, “O`qituvchi psixologiyasi”, “Etnopsixologiya”, “Psixologik salomatlik”, “Aratorlik va imidj psixologiyasi”, “Tashkiliy psixologiya”, “Profayling”, “Ta’sir psixologiyasi”, “Iqtisodiy psixologiyasi”, “Yollsh va netvorking (aloqa o`rnatish psixologiyasi)”, “Neyropsixologiya”, “Ekstremal vaziyatlarda psixologik xizmat”,

“Boshqaruv va ijtimoiy sohalarda psixologik xizmat”, “Sport psixologiyasi”, “Xulqi og`ishgan bolalar psixologiyasi”, “Psixolingvistika” kabi fanlari o`qitilmoqda.

Yuqorida qayd etilgan fanlardan kelib chiqib, 1-2-bosqich talabalari tadqiqot ob’yekti deb tanladik, 60310300-Psixologiya ta’lim yo`nalishining 1-2-bosqichlarida majburiy fanlarga quyidagicha kreditlar ajratilib, o`qitiladi (4-jadvalga qarang):

4-jadval.

1-2-bosqich majburiy fanlarining kreditlari

№	Majburiy fanlar	1-semestr	2-semestr
1.	Mutaxassislikka kirish	6	
2.	Umumiy psixologiya	8	4
3.	Eksperimental psixologiya		6
4.	Rivojlanish psixologiyasi va differensial psixologiya		6

Kunduzgi ta’lim shaklida tahsil oluvchi talabalarning 4+2 tartibdagi malakaviy amaliyoti 3-8 semestrlarda amalga oshiriladi. Bunda haftaning 4 kunida nazariy va amaliy ta’lim, 2 kunda amaliyot o‘tkaziladi [1].

Xulosa qilib aytganda, talabalarning o'z-o'zini boshqarish, vaqtni samarali boshqarish, ijodkorlik, mustaqil fikrlash, jamoaviy ishda ishtirok etish, texnologiyalardan samarali foydalanish va ijtimoiy mas'uliyatni anglash kabi ko'nikmalarini rivojlantirishni ta'minlaydi. Bu ko'nikmalar talabalarning raqamli ta'lim muhitida muvaffaqiyatli bo'lishi uchun zarur bo'lgan asosiy omillardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Олий таълимнинг давлат таълим стандарти. олий таълим йўналишлари ва мутахассисликлари классификатори» Ўзбекистон Республикасининг давлат стандартини тасдиқлаш тўғрисида. Ўзбекистон республикаси олий ва ўрта махсус таълим вазирининг буйруғи https://lex.uz/docs/5701176
2. 60110100 – Pedagogika bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tavsifi. TDPU - Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
3. Ta'limdagi raqamli platformalar: ijobiy va salbiy. Ta'limdagi raqamli platformalar: ijobiy va.. | КиберМосква | ВКонтактеRaqamli ta’lim yo‘nalishlari
4. Xurramov Anvar Jumanazarovich RAQAMLI TA'LIM RESURSLARI: TUSHUNCHASI VA TURLARI // SAI. 2023. №Special Issue 3. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/raqamli-talim-resurslari-tushunchasi-va-turlari (дата обращения: 24.11.2024).
5. Обзор полезных сайтов для студентов-педагогов. https://disshelp.ru/blog/obzor-poleznyh-sajtov-dlya-studentov-pedagogov/
6. Рубинштейн С.Л. Проблемы психологии в трудах Карла Маркса // Советская психотехника. - 1934. - №1; Вопросы психологии. - 1983. - №2. - С.24-38.
7. Узаков, И. А. «Масъулият» тушунчасининг моҳияти ва унинг ижтимоий талқини / И. А. Узаков. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 10 (300). — С. 251-254. — URL: https://moluch.ru/archive/300/67973/ (дата обращения: 24.11.2024)

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ ВОЗДЕЙСТВИЯ ДЕЗИНФОРМАЦИИ НА СЕМЕЙНЫЕ ОТНОШЕНИЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Гуломжонов Одилжон Рахимжон угли
Андижанский государственный университет научный стажер

Аннотация: *Выделяя социальные философские аспекты воздействия дезинформации семейные отношения как субстанцию семейного бытия, автор адекватным методом их исследования считает интегративный подход, включающий в себя онтологический, аксиологический и феноменологический аспекты.*

Ключевые слова: *Дезинформация, семья, брак, семейная жизнь, семейные отношения.*

Показательной характеристикой трансформационных процессов в обществе являются изменения в семейных отношениях. В условиях глобализации наблюдается массовый выход женщин на рынок труда, что способствует расширению возможностей выбора жизненных стратегий. Эта тенденция оценивается неоднозначно. Некоторые ученые полагают, что это новый поворот в семейно-гендерных отношениях, который наиболее соответствует современной ситуации и отражает многообразие гендерно-ролевых отношений между мужчинами и женщинами. По моему мнению У других авторов наблюдается явный отход от семейных традиций, замена их конкуренцией за достижение индивидуального успеха и карьерного роста.

В современном научном знании существует ряд концепций, характеризующих особенности семьи в контексте социальных трансформаций. Согласно теории Т. По мнению Парсонса, семья должна основываться на равноправных отношениях и единстве супружеских ролей. Ее основные функции должны быть связаны с поддержанием определенных норм семейной жизни, интеграцией культурных традиций, регулированием взаимоотношений, обеспечением условий для социализации детей «в духе этой культурной традиции».

Отстаивая функционалистский подход к изучению семьи, Т. Парсонс считает, что «разумно» возлагать на каждого партнера те функции, которые соответствуют биологическим различиям между мужчинами и женщинами. Например, ученый связывает роль женщины в семье с воспитанием детей, реализацией так называемого «экспрессивного лидерства»; Роль мужчины — обеспечивать жену и детей и осуществлять «инструментальное лидерство». Исследователь настаивает на том, что такое разделение рационально, поскольку

муж и жена в семье обязаны выполнять функции, дополняющие друг друга и способствующие объединению членов семьи.

Дезинформация как вид лжи всегда занимала особое место в сознании людей и общественной жизни, изучалась в религиозных учениях и была предметом изучения ряда наук: философии, этики, логики, психологии, педагогики, юридических наук. Это связано с тем, что ложь в той или иной форме встречается на всех этапах развития цивилизации и во всех сферах человеческой деятельности и отношений — от межличностных и межгрупповых до межгосударственных — и оказывает существенное влияние на все уровни социального взаимодействия.

В современной общественно-политической и экономической жизни Узбекистана дезинформация часто используется в манипулятивных технологиях как инструмент воздействия на групповое и индивидуальное сознание. Прикладной аспект исследования дезинформации заключается в том, что выявление эмпирических показателей, фиксирующих ее проявления в поведении человека, является условием эффективной организации практической деятельности и разработки инструментария диагностики и профилактики лжи у конкретных субъектов в различных социальных ситуациях и сферах профессиональной деятельности.

Супружеские отношения, безусловно, являются определяющим (системообразующим) звеном в структуре семейных отношений. Их биологической основой являются межполовые отношения, а социальной основой — брак как социально регламентированный союз мужчины и женщины, создаваемый с целью образования семьи и продолжения рода. Существует также духовная основа брака, которая включает в себя взаимную симпатию, любовь, привязанность, общие идеалы и ценности супругов и т. д. Нередко духовная составляющая сводится либо к биологической основе (например, когда любовь трактуется как проявление полового инстинкта), либо к социально-формальной составляющей брачных отношений (подобный взгляд часто встречается и в юридических определениях брачных отношений, когда их духовная составляющая выносится за скобки и сводится, например, только к юридической ответственности супругов). Однако с философской точки зрения невозможно игнорировать духовное содержание супружеской жизни, на что особое внимание обращал русский философ В.В. Розанов. Естественной предпосылкой возникновения устойчивых межполовых отношений в супружеской паре послужили особенности человека как биологического вида и,

в частности, длительный период беспомощности младенцев, нуждающихся в заботе со стороны обоих родителей. Культурной предпосылкой установления супружеских отношений является необходимость социального регулирования и упорядочения межполовых отношений. Первоначально брачный союз закрепляется традицией, а затем и законом, превращаясь в важный социальный институт.

Таким образом, можно выделить природные, социальные и духовные детерминанты, определяющие семейные отношения как универсальную социальную ценность. Под природными детерминантами следует понимать биологические потребности в продолжении рода, интимном общении, заботе о беспомощных детях и стариках и т. д. Все это определяется необходимостью физического воспроизводства человека и имеет первостепенное жизненное значение. Получается, что биологическая целесообразность выступает естественной предпосылкой существования семейных отношений как универсальной социальной ценности.

Социальные детерминанты связаны с необходимостью создания условий для нормального существования и функционирования человека в обществе, его оптимального сосуществования с другими людьми. В основе этого лежит социальная потребность в регулировании и нормализации межполовых и межпоколенных отношений, в подчинении биологических проявлений человеческой деятельности общепринятым правилам. Наконец, духовными детерминантами, определяющими семейные отношения как универсальную ценность общества, являются потребности в духовном воспроизводстве личности. Как известно, в системе семейных отношений формирование внутренних структур личности происходит на основе их интериоризации. Таким образом, семейные отношения обладают особым смыслообразующим свойством и поэтому предъявляются особые требования к их качественному состоянию. То есть для оптимального формирования личности важно, чтобы они не просто существовали, а были гармоничными и целостными. В этом их духовный и ценностный смысл.

Список литературы:

1. Антонов, А.И. 2016, «Кризис семейной цивилизации в XXI веке», Экономические стратегии, т. 18, № 1, стр. 40–43. Бек, У. 2000, Общество риска. На пути к другой современности, Москва, 383 с.
2. Брандт, Г.А. 2003, «Современный феминизм: революция в исторической и антропологической традиции Западной Европы», Адам и Ева. Альманах гендерной истории, № 6, стр. 148–198.
3. Чодоров, Н. 2001, Сила чувств: личностный смысл в психоанализе, гендер и культура,

Йель, 352 с. Клинцова М.Н. 2018, «Современная российская семья: основные тенденции», Известия вузов. Северо-Кавказский район. Общественные науки, нет. 1, стр. 20-23.
4. Парсонс Т. 2000, О структуре социального действия, Москва, 879 с. (на русском языке).
5. Саралиева З.Х., Блонин В.А., Егорова Н.Ю. и др. 2015, Жизненные миры современной семьи, Н. Новгород, 263 с.

THE ROLE OF CRITICAL THINKING SKILLS IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES

Gulyamova Mavluda Khamitovna
UzSWLU, PhD, Associate professor

Annotation*: Critical thinking refers to the individuals' ability to think and make correct decisions independently. Nowadays enhancing critical thinking in learners is considered one of the foreign language teachers' tasks due to its high position in foreign language classrooms. The article analysis the importance of critical thinking skills and it's main characteristics in language teaching.*

Key words: *creativity, collaboration, knowledge, abilities, skills, generalize, compare, abstract, reflexively, capacity, argumentation.*

The president of Uzbekistan, Sh. Mirziyoyev has put a great deal of emphasis on the importance of learning foreign languages for the country's development during his presidency. He urged to improve the process of teaching foreign languages and increasing the level of language training of teachers: «In today's world, the high-ranking places are occupied by people who can speak several foreign languages. A specialist who does not speak any foreign languages cannot achieve a great success in his or her profession».[1]

There are so many essential skills for students to succeed in both their education and workplace. Among them, critical thinking, creativity, collaboration and communicational skills make the biggest impact on the performance of students. Educational institutions should form a holistic system of universal knowledge, abilities, skills, as well as independent activity and personal responsibility of students. The difficulty of learning English is also attributed to the fact that it is essential to create facilities for the formation of English-language communicative competence which is the internal readiness and ability to carry out a verbal communication. Therefore, it is necessary to give students not only knowledge in the field of language, but also to develop critical thinking skills in schoolchildren and university students, such as independence in obtaining and using new knowledge, which are the features of the development of critical thinking. Students must be able to generalize, compare, abstract, analyze and evaluate. All of which not only lead to a better acquisition of knowledge and general development of adolescents, but will also help them to deal with challenging problems and work in a creative way.

There are a number of definitions of the term «critical thinking» in the literature, but not all of them agree with each other. O. Mednikova writes that critical thinking

[1] http://www.gazeta-nv.uz/news2023/4/15/mirziyoyev-digita/

is «the ability to reflexively evaluate facts, events, processes affecting the positions and interests of social forces, which assumes a clear and precise definition of one’s position both to the put forward theories and to their practical actions»[2]. «Critical thinking is the search for common sense: how to judge objectively and act logically, taking into account both your point of view and other opinions, the ability to abandon your own prejudices. It is intelligent, reflective thinking focused on deciding what to believe and what to do»[3].Critical thinking is defined by the authors of the technology as follows: «Thinking critically means showing curiosity and using research methods, asking questions and systematically searching for answers. It means developing a point of view on a certain issue and the ability to defend this point of view with logical and compelling arguments. Critical thinking involves paying attention to your opponent’s arguments and logical comprehension of them». This definition includes many aspects, but we must remember that critical thinking is not just a separate skill, but a combination of many different skills. D. Kluster considers critical thinking to be highly independent; social thinking, which begins with asking questions and understanding the problems that need to be solved; critical thinking, in his opinion, strives for convincing argumentation. The center, its main content is a statement (idea), which is supported by a number of arguments, each of which, in turn, is supported by evidence. Under all the named elements of argumentation there is a foundation - a starting point, which is common to the speaker or writer and his audience and which provides the basis for the entire argumentation[4]. With all the variety of definitions of critical thinking, one can see a similar meaning in them. We consider critical thinking means evaluative, reflective, independent thinking and a critical thinker is almost impossible to manipulate. Undoubtedly, critical thinkers can find their own solutions to the problems and back them up with strong arguments, able to resist even the printed word, the power of tradition and the opinion of the majority. E.S. Korolkova notes that «questions act as the leading means of developing critical thinking»[5].

From our point of view, critical thinking, in broad terms, refers to a deeper level of thought that extends beyond just obtaining information. It is mainly concerned

[2]Mednikova, O.N. Technology for the development of critical thinking through reading and writing as a means of developing reflective activity of students // Bulletin of the Tomsk State University. un-ta. – 2015. – No. 6 (15). – pp. 17-20.

[3] Zaire-Bek, S.I. Development of critical thinking in the classroom: a manual for teachers / S.I. Zaire-Bek, I.V. Mushtavinskaya. – M.: Education, 2004. – 175 p.

[4]Kluster, D. What is critical thinking / D. Kluster // Change. – 2001. – No. 4. – P. 36–37.

[5]NovikovaI.Yu., GrevtsevaG.Ya. Development of critical thinking of students in the process of cognitive independent activity / Bulletin of the Chelyabinsk State Pedagogical University. – 2015. – No. 5. – pp. 47–52.

with the capacity to engage in reflective and independent thinking; it is about being an active rather than a passive learner. It's about learning how to think rather than what to think. This concept demands a care and critical approach to any object of cognitive interest.

A person who thinks critically has the following qualities: readiness to plan, ability to move away from stereotypes, perseverance, flexibility, originality of thinking. **Signs of critical thinking[6]:**

- critical thinking is independent thinking;
- information is the starting point, not the end point of critical thinking;
- critical thinking begins with asking questions and understanding the problems which should be solved;
- critical thinking strives for convincing argumentation.
- critical thinking is social thinking[7].

According to the following ideas, succinctly defined, critical thinking is the intellectual exercise of methodically examining, analyzing, and evaluating information gathered from observation, experience, reflection, or communication, as a guide to belief and action. It involves structured questioning, fact-checking, and deep analysis to define authentic, well-rounded understanding, decisions or solutions. Thus, there are some characteristics of critical thinking and characteristics of a critically thinking person:

Characteristics of critical thinking:

1. Critical thinking is a type of thinking that helps a person find his or her own priorities in their personal, professional and social life, and also relate them to today’s standards.

2. Critical thinking involves taking individual responsibility for the choices made.

3. Critical thinking is a complex process that allows us to develop a culture of «dialogue» in shared activities.

4. Critical thinking increases the level of culture of individual work with information, develops the ability to analyze and draw independent conclusions, predict the consequences of decisions and also helps to be responsible for them.

5. Critical thinking is an active and entertaining learning process.

Characteristics of a critically thinking person:

[6]Kluster, D. What is critical thinking / D. Kluster // Change. – 2001. – No. 4. – P. 36–37.
[7] Dewey, J. (1933). How we think. A restatement of the relation of reflective thinking to the educative process (Rev. ed.), Boston, MA: D. C. Heath.

- they tend to be open-minded.
- they have the ability to defend one’s opinion.
- they can also evaluate and analyze information.
- they obtain information from different sources.
- they see situations as a whole and clearly define a problem and find ways to solve it[8].

Critical thinking is intricately connected to logic and reasoning. It is about being able to differentiate reliable information from fake one, discerning truth, fiction, and relevance. It involves systematic problem-solving, forecasting potential scenarios, and making educated predictions.

Critical thinking involves several key skills at its core such as problem-solving, analysis, creative thinking, interpretation, evaluation, and reasoning. These are not only acquired but honed over time, guided by a set of dispositions or attitudes that include a readiness to reconsider, openness to new ideas, being organized and systematic, mindful of the need for accuracy and fairness, and being proactive rather than reactive.

Last but not least, developing critical thinking also builds intellectual self-reliance and promotes intellectual humility. It can help to cultivate creativity by encouraging thinking 'outside the box' and nurture intellectual courage by enabling informed risk-taking. It should, therefore, reasonable to say that critical thinking deserves recognition as a cornerstone for the development of human cognition and problem-solving abilities.

References:

1. http://www.gazeta-nv.uz/news2023/4/15/mirziyoyev-digita/
2. Mednikova, O.N. Technology for the development of critical thinking through reading and writing as a means of developing reflective activity of students // Bulletin of the Tomsk State University. un-ta. – 2015. – No. 6 (15). – pp. 17-20.
3. Zaire-Bek, S.I. Development of critical thinking in the classroom: a manual for teachers / S.I. Zaire-Bek, I.V. Mushtavinskaya. – M.: Education, 2004. – 175 p.
4. Kluster, D. What is critical thinking / D. Kluster // Change. – 2001. – No. 4. – P. 36–37.
5. NovikovaI.Yu., GrevtsevaG.Ya. Development of critical thinking of students in the process of cognitive independent activity / Bulletin of the Chelyabinsk State Pedagogical University. – 2015. – No. 5. – pp. 47–52.
6. Kluster, D. What is critical thinking / D. Kluster // Change. – 2001. – No. 4. – P. 36–37.
7. Dewey, J. (1933). How we think. A restatement of the relation of reflective thinking to the educative process (Rev. ed.), Boston, MA: D. C. Heath.
8. Ennis, R. H. (1991). Critical thinking: A streamlined conception. Teaching Philosophy, 14(1), 5-24.

[8] Ennis, R. H. (1991). Critical thinking: A streamlined conception. Teaching Philosophy, 14(1), 5-24.

TEACHING ENGLISH FOR ACADEMIC PURPOSES AT UNIVERSITY: MAIN ISSUES

Haldarchaeva G.
ChDPU senior teacher

Abstract: *Teaching English for academic purposes (EAP) has long been an issue for discussion. On the basis of the analysis of the works of Russian and international scientists devoted to the given theme the article discusses the main gaps in teaching EAP to students that may potentially cause trouble when they start presenting the results of their scientific activity in the future.*

Key words: *English for academic purposes, linguistic component, metalinguistic component, gaps in teaching.*

Nowadays, research and science can truly be called international, which is by no means a drawback. Research results can be accessed globally, and international research teams are a common phenomenon. Undoubtedly, science has benefited from the chance to share knowledge, achievements, and establish international collaborations. Such changes boost the scientific development and result in practical outcome.

Although globalization in science seems to be a positive phenomenon. it is closely associated with certain problems. One of them is the problem of the so-called common linguistic code. Such code is a necessity in terms of making international communication possible. Traditionally, English has acquired the role of such a common code in the academic discourse, i.e., for historical reasons, English is used as lingua franca in science. Irina Korotkina states that, in this respect, the discussion around the English language focuses more on the practical issues [1]. Thus, if the English language is accepted as a universal linguistic code of scientific research, academic English loses its national affiliation. Moreover, it becomes a separate variant of the language, which has its own stylistic, organizational, and linguistic rules.

There are a lot of definitions of English for academic purposes [2; 3; 4]. All of them reflect some basic characters differentiating it from other variants of English, however they seem to be incomplete.

Here we present our own definition, combining the most essential ideas. English for academic purposes (herein after EAP) is a type of English for specific purposes that people need to communicate, study and conduct research in the academic English-medium context, i.e., in the international scientific environment. In this

respect, teaching EAP focuses primarily on developing the respective skills facilitating the students’ study and research activities [5].

Any language manifests itself only in the process of communication. Communication in the academic context comprises heterogenous academic situations and pursues certain “situation-bound” purposes. Irina Korotkina emphasizes that communicational goals can be achieved only in case the speakers have the general knowledge of English, use specific terms and collocations characteristic of the English language scientific discourse and apply the so-called “publication conventions”, such as text organization or reference style described by Flowerdew [6; 1]. Therefore, we can conclude that EAP does not only require the acquisition of a linguistic component, but the development of metalinguistic skills as well. The need for such skills becomes the most obvious when organizing one’s research results and submitting them to the scientific community. So, EAP has two main components: the pure linguistic one and the metalinguistic one, the acquisition of which is needed to reach one’s communicative goals in this sphere.

Thus, the use of English as the language of international scientific and academic communication has benefited the scientific community a lot, but at the same time it has become a great challenge for non-English speaking communities in terms of teaching. English has long been studied at universities in Russia, however nowadays, its use in international events and as a working language of international scientific projects is widely fostered.

Students participate in a lot of international, all-Russian and local conferences where English is the main working language, they are encouraged to publish their proceedings and articles in English and participate in a number of English-based educational programs. This tendency is highlighted by the fact that most Russian universities include English-medium activities of staff members and students in their strategic plans. For example, according to the development strategy of Altai State University for 2017-2021, the mission is to train highly-qualified specialists having the world-class professional competences. They should be able to compete globally and present the results of their research internationally, to participate in the processes of interregional and international integration. The most talented students should be supported and encouraged to participate in different international conferences and internships, while the university provides them with any possible support. On the whole, the strategy stresses the importance of the specific educational modules forming “over-professional” universal competences, one of which is the ability to use EAP fluently [7].

Наше исследование позволяет нам рассмотреть фразеологические единицы как одно из наиболее частотных средств экспрессии. Потому что экспрессивность является одним из основных признаков фразеологизмов наряду с устойчивостью, воспроизводимостью и образностью.

Фразеологизмы являются языковыми репрезентациями лингвокультурных явлений вследствие своей способности отражать национальный менталитет и систему ценностей народа, который говорит на определённом языке. Фразеологические единицы – это «душа всякого национального языка, в которой неповторимым образом манифестируется дух и своеобразие нации» [3, с. 69].

Исследования доказывают, что фразеологизмы достаточно ярко, чем другие языковые уровни, отражают национальную специфику и ценностную ориентацию каждой нации.

Если посмотреть с научно-фразеологической точки, фразеологическая картина мира – это часть языковой картины мира, в которой картина мира описывается средствами лексики и фразеологии, на которых базируется описание объективной действительности со всеми связями и отношениями в составе высказывания. А также стереотипы поведения человека, обусловленные национальным мировидением, явно отражаются во фразеологической картине мира.

В науке не существует общепринятой системы оценочной категории. Используются своеобразные оценки, которые отличаются друг от друга спецификой и нормами.

Итак, наряду с предметными ценностями в качестве ценностей могут выступать какие-либо явления общественного сознания, которые выражают интересы субъекта в идеальной форме. Аксиологическое направление в лингвистике характеризует ценность как картину мира.

Таким образом, при рассмотрении аксиологических характеристик фразеологических единиц в рамках антропоцентрического подхода следует учитывать, что субъектом в процессе оценивания какого-либо действия или явления выступает человек.

Список литературы:

1. Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. – М.: Кн. дом «ЛИБРОКОМ», 2010. – 216 с.
2. Маслова В.А. Культурно-национальная специфика русской фразеологии. – М., 2004. – 69 с.
3. Маслова В.А. «Homo lingualis» в культуре. – М.: Гнозис, 2007. – 320 с.
4. Гайдарова З.Т. Антропоцентризм в в идиоматической картине мира лезгинского, русского, английского и немецкого языков: автореф. дисс… канд. филол. наук. – Махачкала, 2010. – 29 с.
5. Чеснокова В.Н. Антропоцентрическая концепция творчества С.Н. Сергеева-Ценского. Лингвистический аспект: автореф. дисс. …канд. филол. наук. – Тамбов, 2003. – 24 с.

THE INTEGRATION OF AI-POWERED LANGUAGE LEARNING TOOLS IN ESL EDUCATION

Madrakhimova Dilnoza Gulom qizi
Teacher at UzSWLU
dilnozamadrakhimova95@gmail.com

Abstract: *This article explores the integration of AI-powered language learning tools in English as a Second Language (ESL) education. It highlights the numerous benefits of these technologies, including personalized learning experiences, instant feedback, and flexible, accessible learning opportunities. AI tools such as speech recognition software, chatbots, and interactive apps like Duolingo and ELSA Speak enhance ESL education by tailoring lessons to individual learners' needs and progress. However, challenges such as the inability of AI to fully replicate cultural nuances, the risk of over-reliance on technology, privacy concerns, and unequal access to resources are also discussed. The article emphasizes the importance of combining AI tools with traditional teaching methods and ensuring teachers are properly trained to integrate these technologies effectively. Ultimately, while AI has transformed language learning, human interaction remains essential for a well-rounded, culturally-aware educational experience.*

Key words. *AI-powered tools, language learning, ESL education, personalized learning, machine learning, instant feedback, flexible learning, cultural nuances, data privacy, accessibility, technology in education, language acquisition, teaching methods, AI integration, educational technology.*

Аннотация. *В статье рассматривается интеграция инструментов для обучения языкам, основанных на искусственном интеллекте (ИИ), в обучение английскому языку как второму (ESL). Подчеркиваются многочисленные преимущества этих технологий, включая персонализированный подход к обучению, мгновенную обратную связь и гибкие, доступные возможности для обучения. Инструменты ИИ, такие как программное обеспечение для распознавания речи, чат-боты и интерактивные приложения, такие как Duolingo и ELSA Speak, улучшают процесс обучения ESL, адаптируя уроки под индивидуальные потребности и прогресс учащихся. Однако также обсуждаются проблемы, такие как неспособность ИИ в полной мере воспроизводить культурные особенности, риск излишней зависимости от технологий, проблемы конфиденциальности данных и неравномерный доступ к ресурсам. В статье подчеркивается важность сочетания инструментов ИИ с традиционными методами обучения и необходимости подготовки преподавателей к эффективной интеграции этих технологий. В конечном итоге, несмотря на то, что ИИ значительно изменил процесс обучения языкам, человеческое взаимодействие остается важным для полноценного и культурно осведомленного образовательного опыта.*

Ключевые слова. *Инструменты, основанные на ИИ, обучение языкам, ESL-образование, персонализированное обучение, машинное обучение, мгновенная обратная связь, гибкое обучение, культурные особенности, конфиденциальность данных, доступность, технологии в образовании, приобретение языка, методы обучения, интеграция ИИ, образовательные технологии.*

As the advancements in technologies are reflecting their tremendous changes in every sphere of our current life and the most influential ones can be seen in the field of education. Artificial intelligence is playing a pivotal role in the evolution of

education with its numerous facilities which can engage language learners by providing personalized support, adaptive feedback and increased accessibility. This article will explore the implementation of AI in the process of language learning, mainly in ESL education and try to find out what benefits, challenges it has for both learners and teachers.

By means of AI-powered language learning tools applications, learning platforms and programs are understood and they all have the same function as they were created to facilitate language learning process. These tools work with machine learning algorithms and can even personalize learning process based on the individuals’ level, learning progress, their abilities and needs. Perhaps for these reasons they are being chosen commonly by majority of learners because of the chances to reach the assistance when they needed in terms of pronunciation, grammar, vocabulary or listening skills.

Examples of such AI-driven tools include speech recognition software, chatbots, interactive apps like Duolingo and ELSA Speak (English Language Speech Assistant), Google translation, as well as virtual tutorials. They tend to use more natural language processing technology to create more conversational and interactive atmosphere between the system and the learner.

The benefits of AI-powered tools in ESL education.

Personalized learning. The most obvious and outstanding advantage of AI-driven learning is that tools can identify learners’ abilities and needs and can tailor the learning experience coming from the weakness and strengths of the learner. Moreover, artificial intelligence can adapt to a learner’s pace and does not put pressure on the students and it creates more free and reliable learning atmosphere to them. By analyzing a learner’s performance these tools can switch the focus to the areas where further practice is needed and can offer myriad of exercises to accomplish them successfully.

Availability of instant feedback. Unlike traditional language learning classrooms, where students are kept waiting for their marks and feedbacks being received for their work from teachers, AI tools can provide learners with instant feedback (Porter, & Grippa, 2020). When working with these tools students receive feedback for their both written and spoken discourse as well as their mistakes are corrected simultaneously. This convenience can accelerate the learning process and gives a chance to a learner to reflect on their progress, to work on their weak points and on top of them stay motivated and encouraged to continue learning and to complete the lessons.

Flexible learning. With the assistance of AI-powered applications ESL students now can acquire any languages at any time and at any place, if only they are provided with internet access. Learners are no longer awaited to participate in any live classes at any fixed times. This flexibility can be beneficial for those who are busy with their abundant workload or with household chores at home with little children. Especially, students who commute to a study place from remote areas can take an advantage of smart tools for their second language acquisition.

While the facilities and benefits of AI-powered language learning tools cannot be denied, there are also some considerations and limitations which cannot be neglected which will be mentioned above:

Cultural diversity and linguistic nuances. Although machine learning tools can perfectly understand and analyze any language patterns in the world there might be some cases which cannot be delivered exactly to the learner. AI-driven tools not always can help to replicate the cultural and contextual nuances of language, such as idioms, colloquialism, and regional accents. For instance, while translating some phraseological patterns from their own language into target one L2 learners are usually taught to take intercultural issues into consideration as some phrases might be understood totally different according to the area of spoken language or variety and this can lead to misunderstanding or errors in communication, particularly in more complex or technical language. As for AI-driven tools are programmed to utilize only standard patterns of languages they might not work perfectly in real-life situations where cultural awareness, human empathy and understanding is needed.

Dependence on gadgets and devices. Another drawback of these tools is excessive use of technology which is resulting in dependence on them. With continuous assistance provided by AI systems language learners can never assess their real knowledge since they already got used to addressing to their gadgets as soon as any questions arise. For these reasons, educators know firmly believe that ESL learners should be driven into real-life conversations as much as possible with experienced language instructors or native speakers as they are always awaited to utilize their target languages outside of their virtual lessons. Therefore, AI platforms should be seen as a tool for only complement rather than replacement of traditional methods of language instruction.

Security and privacy issues. As any AI-powered tools always require and keep some amount of personal information another concern about data privacy and their security has arisen in the last few decades as it has becoming impossible to protect privacy from unwanted forces or misuse of personal data. For this reason, it is

becoming really crucial for intelligent software developers to adhere strict privacy standards and ensure that user’s personal data is safeguarded in any occasions.

Transparency. AI language learning tools need to be transparent about how they operate and use learner data. This can help ensure that learners are informed about how the tools work and can make informed decisions about their use (Ruane., Birhane, & Ventresque, 2019).

Accessibility. As for access to technology or the internet, not all learners have equal chances to implement smart tools in their learning process and it will result in the diversity in classrooms in terms of academic performance and language level. Therefore, if it is planned to utilize language learning tools in the process of teaching and learning it is crucial to consider the needs and resources of all learners and ensure that AI language learning tools are accessible to all.

After considering a number of features mentioned above some important questions arise connected to AI issues in ESL education:

Can AI language learning tools replace human teachers or tutors? Although AI-powered tools can provide enhanced efficiency and personalized learning experience they can only partially replace teachers or tutors as they always require for human interaction and cannot fully show empathy, appraisals and emotions which effect on learners’ performance in foreign language learning.

In what ways AI tools should be integrated into teaching? As mentioned above, machine learning can be more effectively used along with traditional methods and their potential can only be fully realized if foreign language teachers are adequately prepared. By using multiple of facilities which AI tools can offer they can be better prepared for their lessons or develop professionally with the help of seminars, workshops dedicated to AI learning tools and learn better about how to integrate them effectively into their teaching (Nazaretsky, Ariely, Cukurova & Alexandron, 2022). Moreover, with the assistance of mentorship programs less trained or new, less experienced teacher can find a valuable opportunity for learning and support. Experienced teachers can share their knowledge and expertise with their mentees and guide the integration of AI-powered tools into teaching (Pedro, Subosa, Rivas, & Valverde, 2019).

All in all, AI-powered language learning tools have brought tremendous changes into the language acquisition process. By providing instant feedback, giving personalized assistance artificial intelligence generated lessons are giving learners more opportunities and enhancing their language skills to intended degrees. Moreover, it is already felt that, language learning is no longer seen as more

complicated and unachievable task. However, there are some considerations and limitations to use AI language learning tools, like lack of human interaction, lack of cultural insights and data privacy. It is essential to address these problems while integrating such smart devices into language learning process and by doing so both language teachers and learners might have potential to become more powerful and fluent in their teaching and learning experience.

References:

1. Nazaretsky, T., Ariely, M., Cukurova, M., & Alexandron, G. (2022). Teachers' trust in AI-powered educational technology and a professional development program to improve it. British Journal of Educational Technology.
2. Pedro, F., Subosa, M., Rivas, A., & Valverde, P. (2019). Artificial intelligence in education: Challenges and opportunities for sustainable development.
3. Porter, B., & Grippa, F. (2020). A Platform for AI-Enabled Real-Time Feedback to Promote Digital Collaboration. Sustainability, 12(24), 10243.
4. Ruane, E., Birhane, A., & Ventresque, A. (2019). Conversational AI: Social and Ethical Considerations. In AICS (pp. 104-115).

TIL TA’LIMIDA YONDASHUVLAR
APROACHES IN TEACHING LANGUAGES

Mamadjanova Nozimaxon Azimxodjayevna
Xorijiy tillar kafedrasi dotsenti, PhD
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, O‘zbekiston
nozimaxonmamadjanova@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada chet tilni o‘qitishda tayaniladigan yondashuvlar tahlil qilingan. Olimlar tomonidan tavsiflangan yondashuvlar til ta`limining psixologik va til o‘qitish usuli jihatidan bayon etilgan. Shuningdek, ularning lingvistik va psixolingvistik tomonlariga aniqliklar kiritilgan.*

Kalit so‘zlar*. Bixevioristik, induktiv-ongli yondashuv, kognitiv yondashuv, integrasiyalashgan yondashuv, intuitiv yondashuv, faoliyatga asoslangan yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, madaniyatlararo yondashuv.*

Ma`lumki, til o‘qitish masalasida o‘qituvchi yondashuv, metod va texnika terminlarini bir-biridan farqlay olishi kerak. Chunki darsni tashkil etishda ular haqidagi bilimga ega bo‘lishlilik o‘quvchilarni to‘g‘ri yo‘naltirishga xizmat qiladi. Tadqiqot ishimizda yuqorida qayd etilgan terminlar haqidagi olimlarning fikrlari va ularning turlarini birma- bir ko‘rib, tahlil qilib chiqamiz.

O.V. Mixalevaning fikricha yondashuv bu o‘qituvchi tomonidan tanlangan o‘qitish strategiyasidir. Ushbu kategoriya nafaqat metodika uchun, balki umumta`lim muassasalarining o‘qitish jarayonlarida lingvodiaktik asos bo‘lib ham xizmat qiladi. Bunda o‘qituvchi tomonidan tanlangan, chet tilni o‘qitish metodlari va usullarini o‘zida qamrab oluvchi yondashuv haqida taassurot beradi [1; B.32.].

Jack C.Richards, Theodore S.Rodgers ta`kidlashicha, yondashuv bu tilni o‘rgatish va o‘rganishning tabiati bilan bog‘liq bo‘lgan korrelativ taxminlar to‘plamidir. Bunda yondashuv aksiomatik bo‘lib, unda o‘qitiladigan mavzuning mohiyati tasvirlangan [2; B.19.].

E.Antoni yondashuv bu til va til o‘rganish haqidagi taxminlar va g‘oyalar belgilangan daraja deb ta`rif beradi [2; B.63-67.]. .

Yuqorida berilgan olimlarning fikrlaridan kelib chiqib, yondashuv bu til o‘qitish metodlarining nazariy asoslari ekanligi haqidagi xulosaga kelish mumkin.

Hozirgi kunda xorijiy tilni o‘qitishdagi yondashuvlarning bir necha klassifikatsiyalari mavjuddir (1-rasmga qarang.).



1-rasm. Til o‘qitish yondashuvlari.

O.V. Mixaleva psixologik jihatdan yondashuvlarni quyidagi turlarini belgilaydi:

1) **Bixevioristik yondashuv**. Ushbu yondashuvda taqdim etilgan stimullarga javoban nutq avtomatizmlarini shakllantirish orqali tilni o‘zlashtirish tushuniladi.

2) **Induktiv-ongli yondashuv**. Bunda nutqni kuzatish orqali tilni egallash tushuniladi. Bunday kuzatish jarayonida til qoidalari va ulardan nutqda foydalanish usullari o‘zlashtiriladi.

3) **Kognitiv yondashuv**. Bu holatda tilni ongli ravishda qoidalar shaklidagi bilimlardan nutq ko‘nikma va malakalarigacha bo‘lgan ketma-ketlikda o‘zlashtirish nazarda tutiladi.

4) **Integrasiyalashgan yondashuv**. Bunda til haqidagi bilim va nutq ko‘nikma hamda malakalarini parallel ravishda o‘zlashtirishni ta`minlovchi ongli va ongsiz komponentlarni o‘qitish jarayonida birikishi tushuniladi.

Shuningdek, til o‘qitish yondashuvlari o‘qitish ob`ektiga ko‘ra quyidagi turlarda ajratiladi:

1) tilni o‘zlashtirishga qaratilgan **til yondashuvi**;

2) nutqni o‘zlashtirishga qaratilgan **nutqiy yondashuv**;

3) nutq faoliyatiga e’tibor qaratilgan **nutq faoliyati yoki kommunikativ-faoliyat yondashuvi**. Bunda til aloqa vositasi bo‘ladi. Kommunikativ-faoliyatning metodik mazmuni bu muammolarni hal qilish bilan, o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi hamkorlik asosida jamoaviy ish shakllarini keng qo‘llagan holda o‘quv faoliyatini tashkil etish usullari nazarda tutiladi. Ushbu yondashuvning maqsadi chet til darslari davomida o‘quvchilarni o‘qituvchi tomonidan modellashtirilgan va tashkil etilgan muayyan vaziyatlarda harakat qilishga o‘rgatishdir [B.35.].

Til o‘qitish usuli jihatidan yondashuvlar uch turga bo‘linadi:

1) **Intuitiv yondashuvda** chet tilni o‘qitish jarayonida ona tilini mutlaqo qo‘llamaslik nazarda tutiladi. Xorijiy til leksik birliklarni eshitish orqali ongsiz ravishda o‘zlashtirilishi sodir bo‘ladi. Ushbu yondashuv bixevioristik yondashuvga asoslanib, til o‘rganuvchilar so‘zlarni va grammatik qurilmalarni ko‘p marotaba takrorlashlari hisobiga tilni egallashlari mumkin.

2) **Kognitiv yondashuv** asosida tilning leksik birliklarini tushunish va keyingi nutq faoliyatlarida tushunishlari yotadi. Tilni egallash jarayoni yangi bilimlar taqdimoti, mustahkamlash va ularni amaliyotda qo‘llash bosqichlarida tashkil etiladi.

3) **Faoliyatga asoslangan yondashuv** ta'lim jarayonida o‘quvchilar o‘z oldiga qo‘yilgan kundalik, umumiy madaniy va kasbiy xarakterdagi kommunikativ vazifalarni nutq faoliyati orqali amalga oshirilishga harakat qilishlariga asoslanadi. Shuningdek, o‘quvchi sub`ekt sifatida ta`lim markazida ekanligini anglatadi va ta`lim tizimida uning individual-psixologik, yosh va milliy xususiyatlati hamda qiziqishlari kabi shaxsiy xususiyatlari maksimal darajada hisobga olinadi.

Bundan tashqari, zamonaviy chet tilini o‘qitish nazariyasi va amaliyoti **shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvga** asoslanmoqda. Bunda o‘qituvchi har bir o‘quvchi uchun uning bilim darajasidan kelib chiqib, individual ta`lim traektoriyasini tuzib chiqishi ko‘zda tutiladi. Chet tilni o‘qitish jarayonining tashkil etishda o‘quvchi o‘zining noyob shaxsiy va xarakteristik xususiyatlariga ega til shaxsi sifatida qaraladi. Bu holatda o‘qituvchi o‘quvchining hamkoriga aylanadi. O‘qituvchining vazifasi o‘quvchilarning nafaqat individual ishlariga, balki loyiha, faol va interfaol ish turlaridagi jamoaviy ishlariga motivatsiya berib turish hisoblanadi.

Madaniyatlararo yondashuv o‘z madaniyati va madaniyatning funksional koordinatorini ustun qo‘ya oladigan ikki madaniyatli shaxsni shakllantirishni ko‘zda tutadi.

Shuningdek, hozirgi kunda **kompetentlikka asoslangan yondashuv** ham qo‘llanilib, u barcha darajadagi ta`lim jarayonida va chet tillarni o‘rgatish jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv bilan chambarchas bog‘liq holda asosiy

yondashuvlardan biri hisoblanadi. Chet tilni o‘rgatishning maqsadi kompetensiyaga asoslangan yondashuvning asosi sifatida chet tilning kommunikativ kompetentsiyasini shakllantirishdir [B.36.].

J.C.Richards va Th.S.Rodgers yondashuvning quyidagi lingvistik va psixolingvistik jihatlarini taqdim etadi: a) birinchi jihati til nazariyasi bo‘lib, u o‘zida uch xil nazariy, ya`ni strukturaviy, funktsional va interfaol qarashlarni qamrab oladi; b) ikkinchisi til o‘rganish nazariyasi bo‘lib, jarayonga yo‘naltirilgan va sharoitga yo‘naltirilgan nazariyalar tashkil etadi.

Birinchi qarash strukturaviy qarash bo‘lib, bunda til ma`noni kodlash uchun tizimli bog‘liq elementlar tizimi sifatida qaraladi. Tilni o‘rganishdan maqsad shu tizim elementlarini, ya`ni fonologik, grammatik birliklarni, grammatik jarayonlarni va leksik birliklarni egallashda ko‘rinadi.

Ikkinchi qarash funktsional qarash bo‘lib, til funktsional ma`noni ifodalash uchun vosita sifatida tavsiflanadi. Til o‘qitishdagi kommunikativ harakatlar tilning ushbu qarashiga qo‘shiladi. Ushbu nazariya tilning faqatgina grammatik xususiyati bilan cheklanmasdan, uning semantik va kommunikativ jihatlariga ham urg‘u beradi.

Uchinchi qarash interfaol qarash bo‘lib, bunda til shaxslararo munosabatlarni tushunish va insonlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni namoyish etish vositasi sifatida yuzaga keladi.

Xulosa qilib, yuqoridagi yondashuvlar va ular asosida yaratilgan metodlar til o‘qitish tizimida juda ahamiyatlidir. Til o‘rganuvchilarning ham lingvistik, ham psixolingvistik xususiyatlarini nazarda tutgan holda yondashuvlarni til o‘qitish sharoiti, ta`lim oluvchilarning individual xususiyatlari va til bilish darajasiga ko‘ra yondashuvlarni tanlab yoki ularni uyg‘un holda qo‘llash ta`lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. О. В. Михалева. Лингводидактика и методика обучения иностранным языкам [Электронный ресурс]: учеб.-метод. пособие – Владимир: Изд-во ВлГУ, 2022. – 136 с.
2. Richards J.C., Rodgers Th. S. Approaches and Methods in Language Teaching. Second ed. - Cambridge: CUP, 2002.- P.19.

QO‘SHIQCHILIK TERMINLARI UMUMIYLIKDAN, XUSUSIYLIKGACHA

Mamatqulova To‘lg‘anoy,
O‘zDSMI “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi o‘qituvchisi.
E-mail: tolganoymamatqulova@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada qo‘shiqchilik yo‘nalishida butun-bo‘lak, jins va tur qo‘shiqning avj nuqtasi, naqorati haqida gap ketadi. Qo‘shiqchilik san’atida jins-tur munosabati terminologik maydonning asosini tashkil qiladi. Jins-tur munosabati ham nisbiy hisoblanib, bir jinsning turini tashkil qilgan narsalar ikkinchiga nisbatan jinsni bildirishi mumkin.*

Kalit so‘zlar: *termin, mug‘om, jins, tur, bayot, qo‘shiq, naqorat, kuplet, maqom, ashula, avj, akkord, ijro etish.*

Bizni qurshab turgan olamni tashkil etgan elementlar ma’lum umumiy belgilarga ko‘ra sinflarga birlashadi hamda sinfga birlashgan elementlar shu sinf tarkibida bir-biridan farqli belgilarga ko‘ra ajraladi. Butun elementlari butunliklar doirasida o‘zaro shartlangan va zidlangan munosabatda bo‘lsa, ayni chog‘da, butunlik bilan butunlik katta butunlik doirasida uning elementlari sifatida o‘zaro ana shunday munosabatda bo‘ladi.

Jins va tur tushunchalari orasida inklyuziv (kiritish) munosabatlar mavjud. Masalan, **mug‘om** – Ozarbayjon xalq musiqasida lad. Ushbu termin jami 70 dan ortiq mug‘omlar turini jamlaydi, ulardan asosiylari, bir birlikni boshqa birlikdan ajratib turuvchi, farqlovchi differentsial belgilarga bo‘ladi (*rast, shur, segoh, shushter, chargyah, bayati shiraz, humayun)*. Qolganlari shular zaminida tashkil topgan.

Partonimiya. Borliqdagi har bir narsa, hodisa, jarayon bizning ko‘z oldimizda alohida butunlik sifatida namoyon bo‘ladi. Ular ma’lum bir qismlardan, bo‘laklardan tashkil topadi. Bu qismlar, bo‘laklar bir-biri bilan bog‘lanib turib yagona bir yaxlitlikni, sistemani tashkil qiladi.

O‘zaro dialektik aloqada bo‘lgan qismlar, bo‘laklar, tomonlar, elementlar, komponentlarning uzviy birligiga *butunlik* deyiladi. *Qism* esa ana shu butunlikning tarkibiga kirgan bo‘lak, element, komponentdir.

Rus olimi M.V.Nikitin “*butun”* tushunchasini xolonim (grek.holos – butun so‘zidan) “qism”ni meronim (grek. mer – qism so‘zidan) yoki partonim (grek. partos – bo‘lak, qism so‘zlaridan) deb atashni taklif qiladi.

D.N.Shmelev birinchilardan bo‘lib rus tili leksikasining paradigmatik guruhlarga har tomonlama va atroflicha tavsif beradi. U so‘zlar o‘rtasidagi paradigmatik munosabatlar borliqdagi predmetlarning o‘rtasida mavjud munosabatlarga bog‘liqligini, leksikadagi paradigmatik munosabatlar faqatgina ko‘p

pog‘onali yoki bir chiziqli emasligini aytib o‘tadi. Ko‘p so‘zlar bir vaqtning o‘zida turli leksik-semantik paradigmalarga mansub bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi.

D.N.Shmelev haqli ta’kidlaganidek, til lug‘at sostavida mavjud bo‘lgan barcha munosabatlarning e’tiborga olinishi u yoki bu ko‘rsatkichlarning mohiyatini hamda so‘zlarning turli guruhlarini tashkil etish xususitlarini baholashga imkoniyat yaratadi.

Darhaqiqat, har bir tilda butun-bo‘lak munosabatini ifodalashga xoslangan muayyan leksemalar guruhi mavjud bo‘ladi, bu holat terminlarga ham xosdir. Xolo-meronimiya yoki partonimiyaning giper-giponimiyadan farqi shuki, giponimiyada maydonning bir komponenti boshqalariga zidlanib, ular o‘rtasidagi ma’no munosabatlari aniqlansa, partonimiyada alohida olingan komponentning uni tashkil qilayotgan ichki a’zolari bilan munosabati masalasi o‘rtaga tashlanadi. Ya’ni giponimiyada tashqi munosabatlar aniqlansa, partonimiyada ichki munosabatlar yuzaga chiqadi. Masalan, qo‘shiqchilik termin maydoni komponentlaridan biri bo‘lgan dasta terminini olaylik. **Dasta** – torli sozlarning chap qo‘l bilan ushlanadigan qismi (grif). Demak, dasta tanbur, dutor, rubob singari an’anaviy sozlarning bir qismi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, tanbur, dutor, rubob butunlik hisoblansa, dasta ularning bir qismidir.

B.Qilichev partonimiya hodisasi haqida shunday yozadi: “Borliqdagi har qanday hodisa serqirra bo‘lgani kabi har bir so‘zning ma’no munosabatlari ham rang-barangdir. Shuning uchun har bir leksema shu leksema uchun xos bo‘lgan sinonimik, graduonimik, giponimik, partonimik qatorlar kesishgan nuqtada turadi va uning lisoniy-ma’noviy mohiyati mana shu chiziqlarning kesishish nuqtasiga qarab belgilanadi”. Xuddi shu ta’rifni qo‘shiqchilik terminlariga ham qo‘llash mumkin. Qo‘shiqchilik terminlari orasidagi partonimiya munosabatini tahlil qilamiz.

Ko‘rinadiki, bayot terminining o‘zi butunlik sifatida bir nechta qismlarga ajratiladi. Bu butun-bo‘lak munosabati umumiylikni bildiradi. Faqat Hofiz Sheroziy g‘azali bilan aytiladigan bayotlar esa xususiy butin-bo‘lak munosabatini bildiradi.

Qo‘shiqchilik termin maydoniga mansub bo‘lgan yana bir termin manzumdir. Xorazm maqomlari ashula bo‘limi **Manzum** (arab. – tuzilgan, terilgan ya’ni, nazm holiga keltirilgan) deb nomlangan. Ular muayyan tartibda, asosan g‘azallarga bastalangani uchun Manzum deyiladi.

Har bir maqomda manzum bir necha ashula qismlaridan iborat yirik turkumni tashkil etadi. Ularda tuzilishi birligi, vazn-usul va shakllarning esa xilma-xilligi bilan ta’riflanadi. Manzumning asosiy qismlari – *Talqin, Nasr, Tarona, Suvora, Naqsh, Faryod, Ufar* va b.

Qo‘shiqchilik termin maydoni komponentlari orasidagi butun-bo‘lak munosabati yana **naqorat** termini orqali yuzaga chiqadi. **Naqorat** – qo‘shiqning har bandidan so‘ng muntazam ravishda takrorlanib turuvchi qismi. Naqoratning she’riy matni, odatda, to‘rtlik yoki baytdan tashkil topib, tugal badiiy obrazni ifodalaydi. Naqorat musiqa asarining ikkinchi kuy davriyasi, ixcham va sodda shaklli namunalarda esa kuyning ikkinchi jumlasi sifatida gavdalanadi. Qo‘shiq va madxiyalarda naqorat boshqa qismlardan musiqiy vazn, uslub va ijro sur’ati bilan farqlanishi mumkin. Xor jamoalariga mo‘ljallab yaratilgan qo‘shiqlarda naqorat qismi, odatda, yalpi xor tomonidan ijro etiladi. Ayrim xalq qo‘shiq va yallalarida naqorat asosiy kuyni butunligicha takrorlaydi va bandlardan takroriy she’r matni tufayli ajratiladi. Demak, naqorat butunlik sifatida tugal badiiy obraz hisoblangan qo‘shiqlarning, kuylarning, madhiyalarning, xalq qo‘shiqlarining qismini tashkil qiladi.

Bu terminning zamonaviy varianti **kuplet** terminidir. **Kuplet** (frans. couplet) – 1) qo‘shiq yoki she’rda naqorat tarzidagi band. Qo‘shiq kuyi keyingi bandlarda ayvan (yoki qisman o‘zgarishlar bilan) takrorlanadi. Kuplet musiqadagi ilk shakllardan bo‘lib, o‘zbek musiqa folkloridagi lapar, yalla, turli mavzudagi xalq qo‘shiqlaridan o‘rin olgan; 2) kupletlar – naqoratli, quvnoq, hazil yoki hajviy qo‘shiq. Asosan, estrada hamda operetta (vodevil)da keng qo‘llaniladi. Hozirgi zamon musiqasida bunday kupletlarni musiqali komediyalarda, estrada, sirk yoki konsert dasturlarida uchratish mumkin.

Qo‘shiqchilik terminlari taraqqiyoti natijasida qismni bildirgan terminlar butunni ifodalay boshlagan. Masalan, **maqom** termini. **Maqom** (arab. – joy, makon, o‘rin) – musulmon Sharqi musiqasida asosiy tushunchalardan biri. Dastlab muayyan balandlikdagi tovushni hosil etish uchun torli cholg‘uning dastasida barmoq bilan bosiladigan joy, parda ma’nosida ishlatilgan. Demak, qismni bildirgan. Keyinchalik Sharq musiqa nazariyasi rivojlanishi jarayonida maqoming mazmun ko‘lami tobora kengayib, bir-biriga nisbatan bog‘liq boshqa ma’nolarni ham anglata boshlagah: lad tuzilmasi, lad tizimi; muayyan pardalar zaminida vujudga kelgan kuy-ohanglar; shakl, janr; bir qismli yoki turkumli cholg‘u va ashula yo‘llari; musiqiy uslub va boshqalar maqomlarga oid nazariy va musiqiy estetik masalalar Abu Yusuf Yoqub ibn Ishoq al-Kindiy va Forobiy (IX-X asrlar), Ibn Sino va Ibn Zayla (XI asr), Safiuddin al-Urmaviy (XIII asr), Mahmud ash-Sheroziy va Abdulqodir Marog‘iy (XIX asr), Jomiy va Zaynulobiddin Husayniy (XV asr), Najmiddin Kavkabiy Buxoriy (XVI asr), Darvishali Changiy (XVII asr) va boshqa olimlarning musiqiy risolalarida tadqiq etilgan.

Gradunimiya. Dunyo tilshunosligida XIX asr oxiri va XX asr o‘rtalarida tilshunoslikning rivojlanish jarayonida dialektik tadqiq yo‘liga o‘tganligi kuzatilgan. Bunga misol qilib N.S.Trubetskoyning fonologiyada oppozitsiya munosabatini tadqiq qilganini, oppozitsiya nazariyasini yaratganligini keltirishimiz mumkin. Shu taqqiqot natijasida tilshunoslikka graduallik tushunchasi kiritldi. Bu tushunchaga ko‘ra belgining u yoki bu darajasiga e’tibor qaratilgan. Natijada struktur-semantik yondashuvda belgining graduallik xususiyati logik-semantik va jug‘aviy-sintaktik kategoriya sifatida talqin etilgan va kuchaytiruvchi kategoriya toifasiga kiritlgan.

E.Sepir gradumiya munosabatini me’yor va ularning qutblarini tadqiq qilgan va jarayonni psixologik jarayon sifatida o‘rgangan. U gradunimiya o‘lcham va miqdoriy hususiyatlarga bog‘liq ekanligini ta’kidlagan. Hissiyotlarning ortishi/ kamayishiga qarab mantiqiy psixologik va lingvistik gradunimiyani ajratgan. U graduallashdagi boshlang‘ich nuqta, gradual shkala, gradual chiziqning mavjud qutblari borligini ta’kidlab, gradatsiya psixologik jarayon sifatida o‘lcham va miqdordan oldin inson tafakkurida shakllanishini asoslab bergan. Qo‘shiqchilik termin maydon komponentlari orasidagi gradual munobatni kuylar orasida ko‘rishimiz mumkin. Masalan, **avj** (arab. – cho‘qqi, baland) – musiqa asarining yuqori pardalardagi cho‘qqisi, kulminaцiya nuqtasi, ya’ni musiqa asarining eng baland registrdagi davomli kuy tuzilmasi. Avjlarning asosiy turlari – kichik Avj, o‘rta Avj, katta (yoki yuqori) Avj deb yuritiladi. Sho‘balarning miyonxat tuzilmasini kichik Avjga, dunasrni – o‘rta Avjga va namudlarni – katta Avjga qiyoslash mumkin. Avjlar musiqa asarlari bayoni va rivojida shakllantiruvchi va ifodalovchi ahamiyatga ega. Ashulalardagi she’r mazmuni, fikr va his-tuyg‘ularning ta’sir kuchini musiqiy vositalar yordamida teranlashtiradi. Avj ishlatish an’anasi o‘zbek va umuman, Sharq bastakorlik san’atida, shuningdek, hofizlar va sozandalarning ijrochilik mahorati tufayli mukammallashib ma’lum tabiiy qonuniyat sifatida vujudga kelgan.

Grodunimiya munosabatini yuqorida bitta termin ichida ko‘rinadi. Shu holatga yana **akkord** (lot. accordo – uyg‘unlashtiraman) – turli balandlikdagi uch va undan ortiq tovushlarning qo‘shilib sadolanishiga aytiladi.

Barcha akkordlarning pastki tovushi–asosiy (yoki prima) ton, undan yuqoridagisi – tersiya toni, uchinchisi – kvinta toni, to‘rtinchisi – septima toni, beshinchisi – nona toni deb yuritiladi va ana shu intervallarga mos raqamlar bilan belgilanadi. Akkordlar tarkiban (katta yoki kichik tersiyalar oldinma-ketin joylashishi jihatidan) bir-biridan farqlanadi. Asosiy tonidan hisoblanganida avval katta, so‘ngra kichik tersiyalardan tuzilgan akkord – katta yoki major uchtovushligi, avval kichik so‘ngra katta tersiyalardan tuzilgan akkord – kichik yoki minor uchtovushligi, ikki

katta tersiyadan tuzilgani– orttirilgan, ikki kichik tersiyadan tuzilgani – kamaytirilgan uchtovushlik deyiladi. Uchtovushlik va septakkordlar odatda musiqa tovushqatorining muayyan pog‘onalarida tuziladi. Ana shu muayyan pag‘onalar ham gradunimiya shkalasini namoyon qiladi deb aytish mumkin.

Bas (ital. basso – past) – 1) erkaklarning eng past, yo‘g‘on ovozi. Baland yoki kuychan Bas (ital. basso cantante) hamda past Baas (basso profundo), opera amaliyotida – xarakterli, hajviy Bas (basso buffo) farq qilinadi. Rus xorlarida oktavachi Baslar uchraydi, ular inson ovozi uchun eng past ovozdagi tovushlarni ijro eta oladi; XX asr xonandalaridan F. Shalyapin (Rossiya), N.Gyaurov (Bolgariya), Teo Adam (Germaniya), O‘zbekistonda H. Ismoilov, V. Grinchenko, Q. Muhiddinov va boshqalarning ovozi Bas.

Bariton (ital. baritono, yun. barus – vazmin, past; ton–tovush) – 1) erkak xonandalar ovozining bir turi, balandligi jihatidan bas bilan tenor oralig‘ida. O‘zbek xonandalaridan M. Qoriyoqubov, N. Hoshimov, S. Benyaminov, chet el xonandalaridan D. Fisherdiskau, M. Mago-Masv, G. Ots, D. Xvorostovskiylar Bariton ovozlari bilan mashhur.

Tenor (lot. tenor – ovozning tekis xarakati) – erkak xonandaning baland (ingichka) ovozi. O‘zbekistonda S. Yarashev, F. Abdurahmonov, A. Azimov, I. Jalilov, K.Serjanovlar tenor ovoziga ega.

Terminlarning ichida ba’zi terminlar o‘z leksik ma’nosining teskari ma’nosida tushuniladi. Masalan,

Alt (ital. alto – yuqori, baland) – ovoz va soz turini bildiradi. Leksik ma’nosi yuqori, baland ma’nosini bersa ham, lekin u past ovozni ifodalaydi: u xor yoki vokal ansamblda partiya, xonanda bolalar yoki ayollar (messo-soprano, kontralto)ning past (yo‘g‘on) ovozini, xonanda o‘g‘il bolalarning past (yo‘g‘on) ovozini ko‘rsatadi.

Qo‘shiqchilik terminlari ichida bir musiqaning o‘zida ham gradunimiya munosabati ko‘riladi.

Daromad (musiqada) – muqaddima, debocha, umuman, asarning bosh qismi, bo‘lagi va har qanday bosh qism singari past tezlikda bo‘ladi. Daromad maqom sho‘basi, shuningdek, uning shakliga mutanosib cholg‘u va ashula asarlarining 1 boshlangich tuzilmasi, xati. Sarxat deb ham yuritiladi. Ular navbatdagi sho‘’ba uchun muqaddima hisoblanadi. Macalan, Daromadi Nasri Ushshoq, Daromadi Dugohi Husayniy va h.k. Daromad musiqaning yoki qo‘shiqning boshlang‘ich qism bo‘lsa, har bir musiqaning va qo‘shiqning avji bo‘ladi. Avjning o‘z nomi bor. Masalan, **vadavang** juda avjida degan ma’nonini bildiradi: *Bugun ashulalar vadavang-ku, Sher*

aka! (O. Yoqubov, Chin muhabbat) *Suv bo‘yida harsillaydi podalar, to‘qaylarda qushlar bazmi vadavang.* (Mirtemir)

Mumtoz ashulalarda qo‘llanadigan mashhur avjning nomi **Zebo pari** deb nomlanadi. Taxminlarga ko‘ra, bu avjni Zebo pari taxallusli farg‘onalik mashhur xonanda va sozanda, bastakor Abdurahmon (XIX asr) ijod qilgan deb hisoblaydilar. Aslida, u bu avjni zo‘r ehtiros va mahorat bilan ijro etganligi sababli avjga Zebo pari nomi berilgan. Zebo pari xonandalarning cho‘qqi pardalarga chiqish, ovoz va badihago‘ylik mahoratlarini namoyish etishlarida keng imkoniyatlarga ega.

Ko‘rinadiki, qo‘shiqchilik terminlari orasida turli munosabatlar mavjud. Biz ishning hajmi talabiga ko‘ra faqat uchta: giponimiya, partonimiya, gradunimiya munosabatlarini o‘rgandik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Iskadarova Sh. O‘zbek tili leksikasini mazmuniy maydon asosida o‘rganish.Filol.fanlari d-ri...dis.avtoref.- Toshkent.1999
2. Sobirov A. O‘zbek tilining leksik sathini sistemalar sistemasi tamoyili asosida tadqiq etish. – Toshkent: Ma’naviyat, 2004. – B.136.
3. Shmelev D.N. Современный русский язык: Лексика. -M.,1973 -S.107-108 (335)
4. Qilichev B. O‘zbek tilida partonimiya: filol. fan. nomzodi ... dis. avtoreferati. –Toshkent, 1997. –B. 18.
5. Kipyan A.D. Градация как способ организации лексико-семантической группы (качественные прилагательные со значением характеристике человека в совпеменном русском языке). Автореф.дисс.канд.филол.наук. -M.:Ун-т дружбы народов 1981. -S. 22
6. Sepir E. Градуирование: Семантическое исследование. Новое в зарубежной лингвистике. Вып.16: Лингвистическая прогматика. -M.: Прогресс, 1985. -S. 43-78.

НОТИҚ ВА ТИНГЛОВЧИ ОРАСИДАГИ ЎЗАРО МУНОСАБАТЛАРНИНГ ПЕДАГОГИК ЖИҲАТЛАРИ

Миносидинов Шерзод,
ЎзДЖТУ Таълим жараёнини ташкил қилиш бўлими услубчиси

Кўпчилик олдида амалга ошириладиган оммабоп нутқларнинг энг юқори даражаси - бу тингловчилар билан ўзаро алоқага киришиш, яъни нотиқ ва тингловчилар руҳий ҳолатидаги уйғунликдир. Нотиқлик маҳорати таълим - тарбия, инсон руҳиятига оид асосий билимлардан, қонун-қоидалардан хабардор бўлишни ва нутқ жараёнида бевосита улардан тўғри фойдалана олишни талаб қилади. Нотиқ кўпчилик олдига чиқар экан, у қайсидир маънода педагог бўлиши зарур. У бир вақтнинг ўзида ҳам таълим бериши ва буни тарбия билан қўшилган ҳолда олиб бориши зарур. Ижтимоий тараққиёт жараёнида мафкуралар алмашади, фанларда ўзгача ёндашувлар юзага келади. Лекин инсоният тараққиёти жараёнида келажак авлод таълим - тарбияси учун тарихий анъаналарнинг энг яхши томонлари сақланиб қолади, ижодий ёндашувлар билан давом эттирилади. Бугунги педагогика фани ҳам нафақат ёш авлодни, балки бугунги давримиз кишиларини ҳам тарбиялаш ҳақида баҳс юритади. Нотиқлик маҳорати асосида таълим-тарбия назариясининг асосий вазифалари туради. Нотиқлик маҳоратини эгаллаш, нутқни ташкил этиш усуллари, нотиқлик усуллари ҳам умумий дидактик қоидаларга, маълумотларга асосланади. Таълим назарияси таълимнинг мазмуни, моҳияти, ва усулларини баён қилиб беради. Маърузалар таълим жараёнида тингловчилар диққатига ҳавола этиладиган меъёрлардан бири саналади.

Нотиқ мавзу бўйича тайёр билимларнигина тингловчиларга етказиш билан чегараланиб қолмайди. Нотиқ тингловчиларни мавзу бўйича фикр - мулоҳаза юритишга ҳам ундайди. Агар маърузада бир неча муаммо муҳокама қилинса, бундай маъруза тингловчилар фикр доирасини кенгайтиради, уларни шу муаммолар ечими бўйича фикр - мулоҳаза билдиришга мажбур қилади.

Таълим жараёнида икки томон иштирок этади, яъни нотиқ ва тингловчидан иборат бўлади. Шунинг учун ҳам бу жараёнда нотиқ ва тингловчи шу жараёнга хос бўлган ўзаро муносабатларга киришади.

Нутқ – бу нотиқнинг тингловчиларга билим, кўникма ва малака бериши, уларда янги ҳақиқатларни оча билишга қодир бўлган ижодий, мантиқий тафаккур тарбиясидир. Нотиқ томонидан тайёрланган нутқни тинглаш жараёни эса макон ва замонда маълум бир жойни, маълум бир вақт тушунчасини ўз

ичига олади. Нутқни тинглаш давомида тингловчилар билимларни, маълум бир кўникмаларни ўзлаштиришни, қабул қилиш, фикрлаш, мулоҳаза юритиш ҳаракатларини бажарадилар. Бу жараён қайта ишлаш жараёни саналади, чунки бир вақтнинг ўзида эшитилган, қабул қилинган билим ва малакалар муҳокама қилинади.

Маъруза жараёнида нотиқ ва тингловчилар ўртасида юзага келадиган умумийлик, уйғунлик биргаликда фикрлаш фаолияти ва шунга мос ҳис - туйғулар ифодаси орқали юзага чиқади. Нотиқнинг нутқ предметига муносабати, унинг қизиқиши, ўзига бўлган қатъий ишончи тингловчиларни мавзу бўйича муносабат билдиришга ундайди. Халқ мақолларида шундай бир ҳикмат бор, яъни сўзнинг ярми нотиқники бўлса ярми тингловчиникидир. Нотиқ тингловчиларни ўз диққат - эътиборида ушлаб туриши, уларнинг фикрларини уқиб, ҳис - ҳаяжонларини сезиб туриши зарур. Шундай ҳолдагина нотиқ ўз нутқининг қай бир жойини ўзгартириши, тузатиши мумкин бўлади. Нотиқ интеллектуал салоҳият эгаси бўлиши зарур, унинг дунёқараши, билим доираси кенг бўлиши, жуда кўп масалалар бўйича фикр билдира олиши, исталган мавзуда баҳс-мунозара юрита олиши унга муваффақият олиб келади.

Нотиқ ва тингловчилар ўртасидаги энг яхши муносабатлар, асосий кўрсаткичлар уларнинг бир-бирларини яхши тушунишга ҳаракат қилишларидаёқ бошланади. Агар тингловчилар нотиқнинг дастлабки сўзлари, фикрларидаёқ уни ижобий қабул қила бошласалар, бу ҳолат тингловчиларнинг хатти - ҳаракатларидаёқ намоён бўлади. Уларнинг аудиторияда ўтиришлари, ўзларини тутишлари, нотиқни диққат билан тинглаб туришлари, кўз қарашлари, юздаги жилмайиш, хайрихоҳлик билан тинглаб туришлари, ўрни билан кулишлари, қарсакларидаёқ яхши муносабатларнинг бошланганини кўриш мумкин. Шу вақтдан бошлаб залда тинчлик, осойишиалик ҳукм суради. Нотиқ ва тингловчилар алоқаси - бу ўзгариб турувчи жараён, у тўлиқ ва нотўлиқ бўлиши мумкин. Агар аудиторияда тингловчиларнинг барчаси диққат билан нотиқни тинглаётган бўлсалар, унга муносабатини билдириб турган бўлишса, бундай алоқани тўлиқ дейиш мумкин. Бу муносабат нотўлиқ ва қисман ҳам бўлиши мумкин. Тингловчилар диққатини тўлиқ жалб қилиш учун нотиқ овози, кўз қарашлари орқали доим тингловчилар билан алоқада бўлиб туриши зарур. Баъзан нотиқлар барча тингловчиларга секингина кўз югуртириб чиқадилар. Энг аввало, нутқни бошлашдан аввал психологик пауза қилиш керак бўлади, бундай пауза узоғи билан 5-7 сониягача бўлиши мумкин. Нотиқ нутқида овоз, ритм бир хилда бўлмаслиги керак. Нотиқ ифодалаётган фикрлар

турлича оҳангда таълаффуз қилиниши, паузалар билан ажратиб турилиши лозим. Баъзан нотиқ катта паузаларни қилиши мумкин, бунда мазмун жиҳатдан бошқа фикрга ўтилаётганда, ҳис-туйғуларни билдирилаётганда, айтилаётган жумлалар, фикрларнинг олдингиси ёки кейингисига нисбатан муҳимлигини таъкидлаш, муносабат билдириш учун бундай паузалар қилиш мумкин бўлади. Нотиқ имкон даражасида ҳар бир сўзнинг талаффузига куч сарфлаши керак бўлади.

Ҳозирги замон нотиқлик санъатига хос бўлган уйғунлик - бу таҳлилий, таъсирий, тасвирий воситаларнинг қўлланишидир. Ҳозирги замон нотиқлик санъати ҳам тарихий анъаналар асосида иш кўради. Нутқнинг фақат маълумотлар, ахборотлардан иборат бўлиши нутқни оддий, қуруқ сўзлардан иборат нутққа айлантириб қўяди.

Мавзунинг тушунарли бўлиши, нутқдан кўзланган мақсадни амалга ошириш учун нотиқ бугунги мавжуд бўлган фан ютуқларидан, энг қулай, самарали бўлган усуллардан фойдаланиши нотиқ нутқининг мантиқий жиҳатларини таъминлайди.

XORIJIY TILNI O‘RGANUVCHILAR DUCH KELADIGAN MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

Muhammadjonova E’zoza Dilmurod qizi,
O’zbekiston jahon tillari universiteti
Xorijiy til va adabiyoti fakulteti 2121-guruh talabasi
ezozamukhammadjonova@gmail.com

Ilmiy rahbar: **Salisheva Z.I.,**
PhD, dotsent

Annotatsiya*: Mazkur maqolada bugungi kunda ingliz tilini o'rganuvchilar duch keladigan muammolar va ularning yechimlari yoritilib berildi.*

Kalit so‘zlar: *lug‘at ishi, grammatika qiyinchiliklari, talaffuz muammolari, interaktiv, quiz, mnemotexnika, kontekstual, flesh-kartalar, chat, blog.*

Bugungi kunda ingliz tiliga bo‘lgan talab va qiziqish juda yuqori bo‘lib, bog‘cha yoshidagi bolalardan tortib yoshi katta mutaxassislargacha bu tilni o‘rganishga harakat qilmoqdalar. Bu, albatta, ijobiy holat, chunki til o‘rganish jarayoni nafaqat lingvistik bilimlarni rivojlantirish, balki shu tilda so‘zlashuvchi davlatlarning madaniyati, tarixi va an’analarini anglash imkoniyatini ham yaratadi.

Ingliz tili esa bugungi kunda eng ko‘p o‘rganilayotgan til bo‘lib, u ayniqsa xalqaro aloqa, texnologiya, san’at va turizm sohalarida muhim ahamiyat kasb etadi. Ko‘plab mamlakatlarda u jahon tili sifatida o‘qitilmoqda. Zamonaviy intensiv metodlar ishlab chiqilgan bo‘lishiga qaramay, til o‘rganish jarayonida o‘ziga xos muammolar saqlanib qolmoqda [1].

Ko‘pincha, til o‘rganuvchilar so‘z boyligini oshirish, grammatikani tushunish, talaffuzni yaxshilash va ravon gapirish bilan bog‘liq qiyinchiliklarga duch kelishadi. Xorijiy tilni o‘rganishda lug‘at boyligi muhim rol o‘ynaydi. Lug'atni o'rganish to'rt bosqichni o'z ichiga oladi: farqlash, ma'noni tushunish, eslab qolish va ma'nolarni mustahkamlash va kengaytirish. Diskriminatsiya bosqichi tovushlar va harflarni farqlashni o'z ichiga oladi. Bu gapirish, tinglash, o'qish va yozishda yordam beradi, chunki o'quvchilar tovushlarni farqlash orqali so'zlarni to'g'ri talaffuz qiladilar va o'qiganlarida yoki eshitganlarida ularni tushunadilar. Ma'noni tushunish so'zlar tushunchasini ularni referentlar bilan bog'lash orqali tushunishni o'z ichiga oladi. Eslab qolish bosqichi ma'nolarni saqlab qolish qobiliyatidan iborat. Mustahkamlash va kengaytirish bosqichi yangi lug'atni o'rganish va uning o'quvchilarning lug'at tizimiga integratsiyalashuvini anglatadi.

Ravon gapira olish, fikrni to‘g‘ri ifodalash va turli kontekstlarda muloqot qilish imkoniyati bevosita so‘z zaxirasiga bog‘liq. Lug‘at boyligi yetarli bo‘lmasa, grammatika va fonetika yaxshi o‘zlashtirilgan taqdirda ham samarali muloqot qilish qiyinlashadi. Shuning uchun so‘zlarni mustahkamlash, ularni kontekstual sharoitlarda o‘rganish va faol qo‘llash til o‘rganish jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi [2].

Xorijiy til o‘rganuvchilar duch keladigan muammolar ko‘p jihatdan ularning ona tili, o‘rganish usullari va shaxsiy xususiyatlariga bog‘liq. Quyida mavjud muammolar va ularni bartaraf qilishning ayrim yechimlarini keltiramiz.

1. Lug‘at boyligini oshirishdagi muammolar. Yangi so‘zlarni eslab qolish va ularni amaliyotda ishlata olmaslik muhim muammolardan biridir. Buni bartaraf etish uchun quyidagi yechimlar maqsadga muvofiq:

•So‘zlarni alohida yodlash emas, balki jumlalar va kontekst orqali o‘rganish.

•Flesh-kartalar, mobil ilovalar va mnemotexnikadan foydalanish.

•O‘qish va eshitish orqali yangi so‘zlarni tabiiy ravishda o‘zlashtirish.

2.Grammatikani o‘zlashtirish qiyinchiliklar. Grammatik qoidalarni yodlab olish va ulardan to‘g‘ri foydalanish ko‘pchilik uchun katta muammo. Chet tilining grammatikasi ona tilidan keskin farq qilishi mumkin, bu esa o‘quvchilarning tushunishini qiyinlashtiradi.Buni bartaraf etish uchun:

•Grammatikani nazariy emas, balki amaliy muloqot orqali o‘rganish.

•Misollar va kontekstual mashqlar yordamida qoidalarni tushuntirish.

•Interaktiv o‘yinlar, jumladan, quizlar va testlar orqali o‘zlashtirish maqsadga muvofiq.

3. Talaffuz muammolari.Ko‘pchilik til o‘rganuvchilar yangi til tovushlarini to‘g‘ri talaffuz qila olmaydi, chunki ular ona tilida mavjud emas [3].

Yechimlar:

•Audio va video darsliklardan foydalangan holda eshitish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

•O‘qituvchi yoki ona tilida so‘zlashuvchilarning nutqini kuzatish va taqlid qilish.

•Lingvistika asosida ishlab chiqilgan fonetik mashqlar bilan shug‘ullanish.

4. Ravon gapirish va muloqot qilishdagi qiyinchiliklar.Ko‘pchilik grammatikani va so‘z boyligini yaxshi bilishiga qaramay, gapirishda qiynaladi. Bu o‘ziga ishonchsizlik yoki amaliyot yetishmovchiligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Yechimlar:

•O‘z-o‘zidan gapirish texnikasidan foydalanish

•Muntazam ravishda ingliz tilida suhbatlashish (til klublari, onlayn chatlar, ovoz yozish amaliyotlari).

•Kunlik kundalik yoki blog yuritish.

5. Eshitish va tushunish muammolari. O‘quvchilar uchun yangi tilning tezkor nutq shaklini tushunish qiyin bo‘lishi mumkin. Bu aksanlar va nutq tezligidan ham kelib chiqadi.

Yechimlar:

•Audio va video materiallarni muntazam ravishda tinglash.

•Avval oddiy matnlarni tinglash, keyin murakkabroq suhbatlarga o‘tish.

•Subtitrlardan foydalanib, keyinchalik subtitrsiz tushunishga harakat qilish.

6. Xatolar qilishdan qo‘rqish

Ko‘pchilik o‘quvchilar xato qilishdan qo‘rqib, gapirishdan yoki yozishdan o‘zini tiya boshlaydi.

Yechimlar:

•Xatolar tabiiy jarayon ekanligini tushunish va ularni o‘rganish imkoniyati sifatida qabul qilish.

•Doimiy amaliyot va xatolardan o‘rganishga harakat qilish.

•O‘qituvchi yoki do‘stlar bilan mashq qilish orqali o‘ziga ishonchni oshirish.

7. Motivatsiya va vaqt yetishmovchiligi

Chet tilini o‘rganish uzoq muddat talab qiladi, va ko‘pchilik yo‘lda qiziqishini yo‘qotishi yoki vaqt ajrata olmasligi mumkin.

Yechimlar:

•Til o‘rganish bo‘yicha aniq reja tuzish va uni kundalik hayotga integratsiya qilish.

•Qiziqarli va foydali materiallardan foydalanish (kitoblar, filmlar, podkastlar).

•O‘z yutuqlarini nishonlash va o‘zini mukofotlash orqali motivatsiyani oshirish.

8. Notanish madaniyat va til farqlari

X. Ценности профессиональной самореализации «Трудолюбие – Лень» «Пунктуальность – Неорганизованность», «Ответственность – Безответственность».

Плохого мастера/косаря/пильщика всегда инструмент (серп, пила)) виноват(а). A bad workman quarrels his tools. Хочешь есть калачи, так не лежи

на печи. A lazy dog finds no bone/Sleeping cats catch no mice/A sleeping dog catches no poultry. Всякое умение трудом дается. Diligent working makes an expert workman/He who shoots may hit at last. Где труд, там и счастье. Man was never so happy as when he is doing something [7, 12].

Во всех представленных аспектах своего проявления ценность характеризуется дуальностью своей природы: любая ценность соответствует антиценности, а функционирование системы ценностей предопределяет сосуществование системы антиценностей. Деление ценностей на положительные и отрицательные восходит к учениям Д. Юма, который обосновал правомерность суждения о свойстве одной и той же ценности относиться и к положительной, и к отрицательной в зависимости от обстоятельств. Р.У Маджидова [5] справедливо считает разумным суждение Д. Юма о том, что «человек рожден преимущественно для деятельности и в своих поступках руководствуется вкусом и чувством, стремясь к одному объекту и избегая другого в зависимости от той ценности, которую он приписывает этим объектам, и от того, в каком свете они ему представляются», иными словами, любой объект, представленный как ценность в сознании индивида, обусловлен положительной или отрицательной оценкой, которая обусловлена его ценностными установками и контекстом.

Бочина Т.Г., Сян Цюнь обращают внимание на то, что проблема интерпретации ценностей связана с проблемой оценочной деятельности индивида, которая «определяется философскими, обще- и частнонаучными установками, а также совокупностью субъективных и объективных факторов – уровнем образования, культуры, нравственными нормами, общественной практикой, ценностными ориентирами» [3]. Собственно ценностная оценка представляется как «эмоционально-интеллектуальное выявление ценностного значения воспринимаемого / переживаемого / осмысляемого в виде суждения вкуса, символа веры, медитативного суждения» [9], при этом следует отметить, что «в речи имеет место не само формулирование ценности как таковой, но выражение убежденностей или верований говорящего на основе его ценностного мотивационного отношения, в каком бы дискурсивном пространстве оно не реализовывалось» [10]. Иными словами, лингвистическая личность реализует свою деятельность сквозь призму сформированной в его сознании аксиологической картины мира и ценностных ориентиров в ней.

Таким образом, мы постарались обосновать каким образом аксиологическая языковая картина мира соотносится с ценностными

установками человека, благодаря которым он способен осуществлять свою социально-коммуникативную деятельность и речевое поведение, сопоставляя их с одобряемыми в социуме моделями поведения, регулирующими и регламентирующими деятельность человека.

Список использованной литературы:

1. Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология: ценностно-смысловое пространство языка: учеб. пос. – 5-е изд., стер. – М., 2016. – 288 с.
2. Багаутдинова Г.А. Человек во фразеологии: антропоцентрический и аксиологический аспекты: Автореф. дисс ... докт. фил. наук. – Казань, 2007.
3. Бочина Т.Г., Сян Цюнь. Аксиология возраста в русской паремике. // Вестник Татарского государственного университета. – Казань, 2013. – № 3. – С. 45.
4. Карасик В.И. Аксиологическая лингвистика: концепты и дискурс. // Германистика в России. – Новосибирск: Изд-во НГУ, 2004. – С. 28-32.
5. Маджидова Р.У. Антропоцентризм как новое направление современного языкознания. // Респ. илм.-назар. конф. матер. – Тошкент, 2015. – Б. 311-313.
6. Лингвистика и аксиология: этносемиометрия ценностных смыслов: коллективная монография. – М.: ТЕЗАУРУС, 2011. – С. 9.
7. Мокиенко В.М., Никитина Т.Г., Николаева Е.К. Большой словарь русских пословиц. Около 70 000 пословиц. – М., 2010. – 1026 с.
8. Носирова М. О. Аксиологический потенциал социального уровня ценностей //Русский язык за рубежом: инновационные подходы и эффективные практики открытого образования. – 2021. – С. 104-110.
9. Носирова М. О. Национальная специфика отражения социальных ценностей в пословицах разносистемных языков //Konferensiyalar| Conferences. – 2024. – Т. 1. – №. 10. – С. 594-598.
10. Носирова М. О. Пословичная картина мира как фрагмент языковой картины мира //Involta Scientific Journal. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 168-174.
11. Чурилина Н.М. Антропоцентризм художественного текста как принцип организации его художественной структуры. – СПб, 2003. – С. 3.
12. The Penguin Dictionary of Proverbs. – England: Market House Books Ltd, Penguin Books. – 346 p.

KELAJAK TA’LIMI: RAQAMLI INNOVATSIYALAR VA TEXNOLOGIK YONDASHUVLAR

Nuraliyeva Feruza Abdusalim qizi
Termiz davlar pedagogika instituti o’qituvchisi
feruza.abdusalimovna@gmail.com

Annotatsiya: *Raqamli texnologiyalar zamonaviy ta’lim tizimida tub o‘zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Ushbu maqolada raqamli ta’limning mohiyati, uning ta’lim jarayoniga ta’siri, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va raqamli vositalardan samarali foydalanish masalalari yoritiladi. Shu bilan birga, raqamli ta’limning afzalliklari, muammolari va istiqbollari tahlil qilinadi. Oliy ta’lim muassasalarida raqamli ta’lim vositalarini qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar beriladi. Ushbu maqolada raqamli ta’lim konsepsiyasi, zamonaviy texnologiyalarning ta’lim jarayoniga integratsiyasi va ularning samaradorligi tahlil qilinadi. Raqamli ta’lim nafaqat an’anaviy o‘qitish usullariga qo‘shimcha sifatida, balki mustaqil ta’lim vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada raqamli texnologiyalar yordamida ta’lim jarayonini yanada interaktiv va samarali tashkil etishning afzalliklari va muammolari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Raqamli ta’lim, innovatsion texnologiyalar, onlayn ta’lim, sun’iy intellekt, virtual ta’lim muhitlari, masofaviy ta’lim, ta’lim samaradorligi.*

Hozirgi zamon ta’lim tizimi texnologik rivojlanish jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, raqamli texnologiyalar ushbu sohada inqilobiy o‘zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. An’anaviy ta’lim usullari raqamli ta’lim muhitlari bilan boyitilib, o‘quvchilarga yanada keng imkoniyatlar taqdim etilmoqda. Xususan, sun’iy intellekt, virtual va kengaytirilgan reallik , ta’lim platformalari va masofaviy o‘qitish vositalari ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynamoqda. Raqamli ta’lim nafaqat o‘qitish jarayonini osonlashtirish, balki bilimlarni chuqur o‘zlashtirish va o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli, ushbu maqolada raqamli texnologiyalarning zamonaviy ta’limdagi o‘rni, afzalliklari va mavjud muammolar tahlil qilinadi.

Bugungi kunda raqamli ta’lim bo‘yicha ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Masalan, Prensky (2001) raqamli avlod ta’limga bo‘lgan talabini o‘rganib, yangi texnologiyalarni o‘quv jarayoniga tatbiq etish muhimligini ta’kidlaydi. Castells (2001) esa informatsion jamiyatda bilim almashinuvi tezlashganini va raqamli ta’lim bu jarayonda muhim rol o‘ynashini qayd etgan.

Raqamli ta’lim innovatsion texnologiyalarga asoslangan bo‘lib, quyidagi asosiy yo‘nalishlarda o‘zining ustunligini ko’rsatmoqda:

Moslashuvchan ta’lim tizimi-Sun’iy intellekt yordamida shaxsiylashtirilgan ta’lim dasturlarini yaratish imkoniyati mavjud. Masalan, Coursera, Udemy va Khan

Academy platformalari har bir o‘quvchining qobiliyatiga mos keluvchi kurslarni tavsiya qiladi.

Masofaviy ta’lim imkoniyatlari-Raqamli ta’lim platformalari tufayli jahonning turli hududlarida yashovchi talabalarga sifatli ta’lim olish imkoniyati yaratilmoqda.

Interaktiv ta’lim muhiti-Virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar (masalan, PhET Interactive Simulations) orqali o‘quvchilarga real muhitda tajriba o‘tkazish imkoniyati taqdim etiladi.

Innovatsion texnologiyalarning ta’limga ta’siri-AR/VR texnologiyalari orqali ta’lim jarayoni vizuallashtiriladi va yanada tushunarli bo‘ladi. Masalan, tibbiyot va muhandislik sohalarida 3D modellashtirish orqali ko‘nikmalar shakllantirilmoqda.

O‘quvchilarning faolligini oshirish-Gamifikatsiya (o‘yinlashtirish) elementlari yordamida talabalar va o‘quvchilarning darslarga bo‘lgan qiziqishi oshirilmoqda. Masalan, Duolingo, Kahoot va Quizizz kabi ilovalar raqamli ta’limni qiziqarli qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinmi raqamli ta’lim zamonaviy jamiyat uchun muhim strategik yo‘nalishlardan biri bo‘lib, uning rivojlanishi kelajakda ta’lim tizimini yanada samarali va innovatsion qilishga yordam beradi. Sun’iy intellekt, virtual hamda kengaytirilgan reallik texnologiyalari, masofaviy o‘qitish va ta’lim platformalarining jadal rivojlanishi natijasida o‘qitish jarayoni yanada qulay, moslashuvchan va natijali bo‘lishi mumkin.

Kelajakda raqamli ta’limning yanada rivojlanishi uchun quyidagi yo‘nalishlar muhim hisoblanadi:

- O‘qituvchilarni raqamli texnologiyalar bilan ishlashga o‘rgatish.
- Sun’iy intellekt asosida shaxsiylashtirilgan ta’lim dasturlarini ishlab chiqish.
- Virtual va kengaytirilgan reallik vositalaridan keng foydalanish.
- O‘quvchilarning raqamli savodxonligini oshirish.

Ushbu maqola raqamli ta’limning hozirgi holati va kelajakdagi imkoniyatlarini yoritib berishga xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalar ta’lim samaradorligini oshirish bilan birga, o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olishiga ham imkoniyat yaratmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Castells, M. (2001). *The Internet Galaxy: Reflections on the Internet, Business, and Society*. Oxford University Press.
2. Prensky, M. (2010). *Teaching Digital Natives: Partnering for Real Learning*. Corwin Press.
3. Buckingham, D. (2006). *Digital Generations: Children, Young People, and the New Media*. Routledge.
4. Karimov I. A. (2016). *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch*. Toshkent: O‘zbekiston.
5. O‘rozaliyev, E., Saidmuradov, M. (2020). *Raqamli iqtisodiyot va innovatsion ta’lim*. Toshkent: TDPU nashriyoti.

6. Jo‘raqulov, Sh. (2021). *Zamonaviy pedagogik texnologiyalar*. Toshkent: Fan va texnologiya.
7. Raqamli ta’lim bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va farmonlari. (https://lex.uz/)
8. Abduqodirov A., Ziyodullaev A. (2021). Axborot texnologiyalari va ta’lim. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
9. Inoyatov, U. (2020). O‘zbekistonda raqamli ta’lim tizimini rivojlantirish muammolari va istiqbollari. Toshkent: Iqtisodiyot va ta’lim markazi.
10. Raqamli ta’lim bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va farmonlari. (https://lex.uz/)
11. Rasulov Sh. (2019). Ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalarni joriy etish. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
12. Xayitov B., Raximov D. (2022). Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va raqamli ta’lim muhitida o‘qitish metodlari. Toshkent: Innovatsion ta’lim markazi.
13. Maxkamov A. (2023). Masofaviy ta’lim va uning zamonaviy texnologiyalari. Toshkent: Universitet nashriyoti.
14. Ismoilov N., Muminov U. (2021). Ta’limning raqamli transformatsiyasi: muammolar va yechimlar. Toshkent: Ilm-fan nashriyoti.

BILINGVALLIK VA PLURILINGUVALLIKNING SHAXS LAYOQATLARI VA AQLIY RIVOJLANISHIGA TA’SIRI

Omanov Pulat Khabitovich,
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, Ph.D. dotsent,
O‘zbekiston davlat jahon tillari niversiteti
E-mail: pulatomanov@gmail.com

Annotatsiya*. Ushbu maqola bilingvallik va plurilinguvallikning shaxs layoqatlari va aqliy rivojlanishiga ta’sirini keng ko‘lamda tahlil qiladi. Tadqiqotda ikki yoki undan ortiq tilni bilishning kognitiv funksiyalar, e’tibor, xotira, muammo yechish va boshqaruv funksiyalariga ijobiy ta’siri ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, bilingval va plurilingual shaxslarning ijtimoiy-madaniy moslashuvchanligi, kommunikativ ko‘nikmalari va muvaffaqiyatlariga bo‘lgan ta’siri ham bayon etiladi. Maqolada turli yosh guruhlaridagi bilingval va plurilingual shaxslardagi tadqiqot natijalari va bu sohadagi munozarali masalalar muhokama qilinadi. Xulosada bilingval va plurilinguval ta’limning ahamiyati va uning amaliyotda qo‘llanilishiga oid tavsiyalar beriladi.*

Kalit so‘zlar*. bilingvallik, plurilinguvallik, kognitiv rivojlanish, aqliy qobiliyat, e’tibor, xotira, muammo yechish, ijtimoiy-madaniy moslashuvchanlik,*

Globallashuv jarayonlarida dunyoda ko‘p tillarni egallsh insonning intellektual va ijtimoiy salohiyatini oshirishning muhim omili bo‘lib qolmoqda. Bilingvallik va, xususan, plurilinguvallik – ya’ni ikki yoki undan ortiq tilni egallash – shaxsning aqliy rivojlanishi va turli sohalardagi layoqatlariga qanday ta’sir ko‘rsatishi bugungi kunda ko‘plab tadqiqotlarning markazida turibdi. Ushbu maqolada bilingvallik va plurilinguvallikning shaxsning kognitiv funksiyalari, muammo yechish qobiliyati, yodda tutish va diqqatni jamlash kabi aqliy rivojlanish jihatlariga, shuningdek, muloqot malakalari, kreativ fikrlash va madaniy bag‘rikenglik kabi layoqatlariga ta’sirini ko‘rib chiqildi. Tadqiqotlarning natijalariga tayangan holda, bilingval va plurilingual shaxslarning afzalliklari va muammolari, shuningdek, ko‘p tillilikni rivojlantirishning samarali usullari haqida batafsil ma’lumot berishga harakat qilindi.

Bilingvallik va plurilinguvallikning insonning aqliy rivojlanishi va layoqatlariga ta’siri haqidagi tadqiqotlar ko‘plab ijobiy natijalarni ko‘rsatmoqda. Ko‘pgina tadqiqotlar ko‘p tillilikning kognitiv egiluvchanlikni, ya’ni turli vazifalar va kontekstlarga moslashish qobiliyatini oshirishini ta’kidlaydi. Bilingval va plurilingual shaxslarda ikkita yoki undan ortiq tilning leksikasi, grammatikasi va fonetikasini bir vaqtning o‘zida faol holatda ushlab turish qobiliyati miyaning ijro funksiyalarini, xususan, diqqatni jamlashni va xotirani yaxshilaydi. Bu esa muammo yechishda, mantiqiy fikrlashda va murakkab vazifalarni bajarishda yaqqol seziladi.

Shuningdek, ko‘p tillilik yodda tutish jarayonlariga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, bilingvallarda ikki tildagi ma’lumotni farqlash va eslab qolish qobiliyati yuqori bo‘ladi. Ularning leksikasi boyroq, semantik tarmoqlari

kengroq bo‘lib, bu esa yangi ma’lumotni tezroq o‘zlashtirish va uzoq muddatli xotirada saqlash imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, ko‘p tillilik kreativ fikrlash va muloqot malakalarini rivojlantirishga ham yordam beradi. Ikki yoki undan ortiq tilni bilish shaxsga turli madaniyatlarni chuqurroq tushunish va ular bilan muloqot qilish imkoniyatini beradi, bu esa bag‘rikenglik va tolerantlilikni oshiradi.

Bilingvallik va plurilinguvallikning shaxs layoqatlari va aqliy rivojlanishiga ta’sirini ko‘p qirrali va kompleks tarzda tahlil qilishda namoyon bo‘ladi. Mavjud adabiyotlarni tahlil qilish orqali, maqola faqatgina kognitiv funksiyalarning rivojlanishiga emas, balki ijtimoiy-madaniy layoqatlar, kreativ fikrlash va muloqot malakalariga bo‘lgan ta’sirni ham keng ko‘lamda yoritadi.

Bilingvallik va plurilinguvallikning turli kognitiv funksiyalarga (diqqat, xotira, muammo yechish) ta’sirini taqqoslash orqali aniq misollar keltiriladi. Faqatgina umumiy xulosalar emas, balki turli tadqiqotlar natijalarining aniq qiyoslanishi orqali ushbu ta’sirlarning chuqurroq tahlili amalga oshiriladi.

Ko‘p tillilikning ijtimoiy-madaniy layoqatlarni (bag‘rikenglik, madaniy ong) rivojlantirishga qanday ta’sir ko‘rsatishi batafsil ko‘rib chiqiladi. Ushbu sohadagi tadqiqotlarning kamligini hisobga olgan holda, mavjud ma’lumotlar asosida umumiy tendensiyalar aniqlanadi va tahlil qilinadi.

Bilingval va plurilingual shaxslarning muvaffaqiyatlari va muammolarini mutanosib ravishda yoritish orqali ob’yektiv baho beriladi. Ko‘p tillilikning faqatgina ijobiy jihatlarini emas, balki uning salbiy oqibatlariga ham e’tibor qaratiladi va ularning sabablari aniqlanadi.

Tadqiqot jarayonida o‘tkazilgan adabiyotlar tahlili bilingvallik va plurilinguvallikning shaxs layoqatlari va aqliy rivojlanishiga ko‘p qirrali va murakkab ta’sirini yaqqol ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalari ko‘p tillilikning kognitiv funksiyalar, xususan, diqqat, xotira va muammo yechish qobiliyatini yaxshilashini tasdiqlaydi. Bilingval va plurilingual shaxslarda moslashuvchan fikrlash, mantiqiy tahlil va kreativlik yuqori darajada rivojlanganligi aniqlandi. Shu bilan birga, ko‘p tillilikning ijtimoiy-madaniy layoqatlarga, jumladan, bag‘rikenglik, madaniy ong va muloqot malakalarini rivojlantirishga ijobiy ta’siri ham tasdiqlandi.

Biroq, tadqiqotlarning ayrim kamchiliklari ham aniqlandi. Xususan, bilingvallikning ijobiy ta’siri har doim ham bir xil emasligi va tillarni o‘rganish usuli, shaxsning individual xususiyatlari kabi omillarga bog‘liqligi qayd etildi. Shu sababli, ko‘p tillilikni rivojlantirishda samarali metodologiyalarni tanlash va shaxsiy yondashuvning ahamiyati muhim ekanligini alohida ta’kidlash joiz.

Ushbu tadqiqot ko‘p tillilikning (bilingvalizm va plurilingualizm) insonning kognitiv funksiyalari va ijtimoiy-madaniy layoqatlariga murakkab va ko‘p qirrali ta’sirini ko‘rsatadi. Adabiyotlar tahlili ko‘p tilli shaxslarda diqqat, xotira va muammo yechish qobiliyatining yaxshilanishini tasdiqlaydi. Bundan tashqari, ko‘p tillilik moslashuvchanlikni, mantiqiy tahlil qobiliyatini va kreativ fikrlashni rivojlantiradi. Ijtimoiy-madaniy jihatdan, ko‘p tillilik bag‘rikenglik, madaniy ong va muloqot malakalarining oshishiga hissa qo‘shadi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda tillarni o‘rganishning turli usullari, yosh, jins, madaniy omillar va boshqa individual farqlarni hisobga olish orqali bilingvalizm va plurilingualizmning ta’sirini yanada chuqurroq o‘rganish muhimdir. Bu tadqiqotlar ta’lim va tarbiya, shuningdek, ko‘p tilli jamiyatlarni rivojlantirishga yordam beradi va ko‘p tilli shaxslarning potensialini to‘liq ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot natijalari ma’lum bir miqdorga ega bo‘lgan tajribaviy dalillarga asoslanganligi tufayli, ularning amaliy ahamiyati yuqori.

Bilingvallik va plurilinguvallikning inson rivojlanishiga ko‘p qirrali va murakkab ta’sirini to‘liq tushunish uchun ko‘proq chuqur va keng ko‘lamli tadqiqotlar zarur. Bu tadqiqotlarda tillarni o‘rganishning turli usullarini, shuningdek, yosh, jins, madaniy omillar va boshqa individual farqlarni hisobga olish lozim. Olingan natijalar ta’lim va tarbiya sohasida, shuningdek, ko‘p tilli jamiyatlarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ko‘p tillilikka ega shaxslarning potensialini to‘liq ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, bilingvallik va plurilinguvallikning insonning aqliy rivojlanishi va layoqatlariga ijobiy ta’siri ko‘plab tadqiqotlar tomonidan tasdiqlangan. Shuning uchun, ko‘p tillilikni rivojlantirishga alohida e’tibor berish va bu jarayonni samarali tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Miner, B. Bilingual Education: New Visions for a New Era // Rethinking Sch, p.19.URL:http://www.rethinkingschools.org/special_reports/bilingual/newera.shtml (дата обращения: 21.02.2020).
2. Ramos, F. Programas bilingües y formación de profesores en Andalucía // Revista Iberoamericana
3. Cummins, J. Lenguage, poder y pedagogía: niños y niñas bilingües entre dos fuegos. Madrid, Morata, 2002, pp. 231–233.
4. Baker, C. (1997). Fundamentos de educación bilingüe y bilingüismo. Madrid: Catedra, 1997.P.114.
5. Siguan, M.Y., Mackey, W.F. Éducation et bilinguisme. París, UNESCO, Lauzanna, Delachaux&Niestlé, 1986, P. 39.
6. Soltero, S.W. Dual Language: Teaching and Learning in two Languages. Boston, MA.Allyn&Bacon. 2004.P. 52.

KO‘P MADANIYATLI MAKONDA ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK: PRAGMATIK YONDASHUV VA KOMMUNIKATIV MUAMMOLAR

Omoniddinova Durdonaxon Janobiddin qizi
Farg’ona davlat universiteti, Lingvistika: ingliz tili yo’nalishi magistranti.
E-mail: durdonakhonnorinboeva@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ko‘p madaniyatli makonda zamonaviy tilshunoslikning o‘rni va uning pragmalingvistik yondashuvlar asosida o‘rganilishi tahlil qilinadi. Globallashuv jarayonida turli madaniyat vakillari o‘rtasidagi kommunikatsiyaning samaradorligi pragmalingvistik kompetensiyaga bog‘liq bo‘lib, bu kompetensiya nutq kontekstini tushunish, madaniy tafovutlarni hisobga olish, nutq etiketini saqlash va iltifot strategiyalarini o‘z ichiga oladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, pragmalingvistik kompetensiyaning rivojlanishi xorijiy tillarni o‘rgatish samaradorligini oshirish bilan birga, turli madaniyat vakillari o‘rtasida to‘g‘ri va tushunarli muloqotni shakllantirishga xizmat qiladi. Shuning uchun zamonaviy tilshunoslikda madaniyat va til o‘zaro bog‘liqligini hisobga olgan holda pragmatik yondashuvlarni yanada chuqurroq o‘rganish dolzarb hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar: *pragmalingvistika, madaniyatlararo kommunikatsiya, tilshunoslik, pragmatik kompetensiya, madaniy tafovutlar, kommunikativ muammolar.*

Ko‘p madaniyatli jamiyatlarning shakllanishi globallashuv, migratsiya va texnologik taraqqiyot natijasida jadallashib bormoqda. Bunday muhitda samarali kommunikatsiya nafaqat lingvistik bilimlarni, balki madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini ham talab etadi. Zamonaviy tilshunoslik ushbu jarayonni o‘rganishda muhim rol o‘ynaydi, ayniqsa, pragmalingvistika bu borada til va madaniyat o‘zaro aloqalarini tahlil qilish orqali alohida ahamiyat kasb etadi.

Pragmalingvistika nutqning amaliy qo‘llanilishi, kontekstga bog‘liqligi va ijtimoiy-madaniy omillarning kommunikativ jarayondagi rolini o‘rganadi. Ko‘p madaniyatli makonda til shunchaki aloqa vositasi bo‘lib qolmay, balki ijtimoiy identifikatsiya, madaniy integratsiya va muloqot strategiyalarini shakllantiruvchi omil sifatida ham namoyon bo‘ladi[1]. Shu sababli, pragmalingvistik kompetensiya madaniyatlararo muloqotning ajralmas qismi sifatida qaralishi lozim.

Ushbu maqolada ko‘p madaniyatli jamiyatda tilning pragmatik jihatlari, madaniy tafovutlar sababli yuzaga keladigan kommunikativ muammolar va ularni hal qilishning lingvistik yondashuvlari tahlil qilinadi.

Pragmalingvistik kompetensiyaning madaniyatlararo ahamiyati

Ko‘p madaniyatli muhitda samarali kommunikatsiya uchun pragmalingvistik kompetensiya muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu kompetensiya quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi:

[1] Xudoyberganova, D. (2019). Ko‘p madaniyatli jamiyatda tilning pragmatik xususiyatlari. Buxoro: BuxDU nashriyoti.

1. Nutq kontekstini to‘g‘ri tushunish – Suhbatdoshning ijtimoiy mavqei, nutq intonatsiyasi, gestlar va boshqa ekstralingvistik vositalarni inobatga olish.

2. Madaniyatlararo pragmatik tafovutlarni hisobga olish – Masalan, Sharq madaniyatlarida bilvosita ifodalash afzal ko‘rilsa, G‘arb madaniyatlarida aniq va bevosita muloqot ustunlik qiladi.

3. Iltifot va hurmatni ifodalash strategiyalari – Turli madaniyatlarda iltifotga javob berish shakllari farq qiladi, bu esa noto‘g‘ri tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin.

4. Nutq etiketini saqlash – Rasmiy va norasmiy nutq uslublarini farqlay olish va kommunikatsiya jarayonida tegishli strategiyalardan foydalanish.

Masalan, ingliz tilida odob bilan rad etish "I'm afraid I can't help you" kabi yumshoq uslubda ifodalanadi, holbuki o‘zbek tilida rad qilish yumshoqroq shaklda: "Hozir iloji bo‘lmasa kerak, keyin maslahatlashamiz". Bunday pragmatik tafovutlarni o‘rgatish pragmalingvistik kompetensiyani oshirishga yordam beradi.

Madaniy tafovutlar va kommunikativ muammolar

Ko‘p madaniyatli jamiyatlarda kommunikativ muammolar ko‘pincha madaniy tafovutlar natijasida yuzaga keladi[2]. Bunga quyidagi jihatlar sabab bo‘lishi mumkin:

1. Nutq odatlarining farqliligi – Ba’zi madaniyatlarda suhbatni boshlashdan oldin uzoq salomlashish odatiy hol bo‘lsa, boshqalarda esa bevosita asosiy mavzuga o‘tish qabul qilinadi.

2. Bilvosita va bevosita ifodalash uslublari – Masalan, yapon va koreys madaniyatlarida bilvosita ifodalash ustun bo‘lsa, nemis va amerika madaniyatlarida aniq va to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalash keng tarqalgan.

3. Nutqning rasmiy va norasmiy darajalari – Har bir til va madaniyatda rasmiy va norasmiy uslubga oid o‘ziga xos qoidalar mavjud. Masalan, o‘zbek tilida katta yoshdagilarga nisbatan hurmat ifodalovchi so‘z va iboralar ishlatiladi, ingliz tilida esa rasmiylik darajasi pastroq bo‘lishi mumkin.

4. Tovush va intonatsiya tafovutlari – Ba’zi tillarda yuqori yoki past intonatsiya iltifot yoki kinoya sifatida qabul qilinishi mumkin[3]. Masalan, frantsuz tilida past intonatsiya befarqlik sifatida tushunilsa, yapon tilida esa hurmat belgisi bo‘lishi mumkin.

[2] Abdurahmonov, M. (2015). Til va madaniyat: Lingvopragmatik tahlil asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
[3] Jo‘rayev, U. (2017). Xorijiy til o‘qitishda pragmalingvistik yondashuv. Toshkent: O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi nashriyoti.

Bu kabi muammolarni hal qilish uchun pragmalingvistik treninglar, madaniyatlararo kommunikatsiyani rivojlantirishga qaratilgan maxsus ta’lim dasturlari va lingvistik adaptatsiya metodlari ishlab chiqilishi kerak.

Pragmalingvistik kompetensiyani rivojlantirish usullari

Ko‘p madaniyatli muhitda pragmalingvistik kompetensiyani rivojlantirish uchun quyidagi metodlardan foydalanish mumkin:

1. Rolli o‘yinlar va simulyatsiya – Turli madaniyatlarda keng tarqalgan muloqot shakllarini modellashtirish orqali talabalarga real vaziyatlarga moslashish imkonini berish.

2. Korpus lingvistikasi asosida pragmatik tahlil – Til birliklarining turli kontekstlardagi qo‘llanilishini kompyuter lingvistikasi yordami bilan o‘rganish.

3. Kontrastiv tahlil – Ikki yoki undan ortiq madaniyatning pragmatik xususiyatlarini taqqoslab o‘rganish.

4. Madaniyatlararo kommunikatsiya bo‘yicha treninglar – Talabalar va o‘qituvchilarga turli madaniy kodlarni tushuntirish va ularning kommunikativ muhitdagi rolini o‘rgatish.

5. Lingvistik adaptatsiya strategiyalari – Turli madaniyat vakillari bilan muloqot qilishda qanday nutq uslubidan foydalanish bo‘yicha maxsus ko‘rsatmalar ishlab chiqish.

Bu metodlar xorijiy til o‘rgatuvchilar va tilshunoslar uchun madaniyatlararo kommunikatsiya jarayonida pragmatik kompetensiyani rivojlantirishda samarali bo‘lishi mumkin.

Ko‘p madaniyatli jamiyatda til faqatgina lingvistik kodlar majmuasi emas, balki ijtimoiy va madaniy o‘zaro ta’sir vositasi ham hisoblanadi[4]. Shuning uchun, zamonaviy tilshunoslik pragmalingvistik yondashuvni chuqur o‘rganishi, madaniyatlararo muloqotda yuzaga keladigan muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan yondashuvlarni ishlab chiqishi lozim.

Pragmalingvistik kompetensiya kommunikativ jarayonning ajralmas qismi bo‘lib, u turli madaniyat vakillarining o‘zaro tushunish darajasini oshirishga xizmat qiladi. Samarali pragmatik yondashuvlar, ta’lim jarayoniga innovatsion metodlarni joriy etish va madaniy tafovutlarni hisobga olgan holda kommunikatsiyani rivojlantirish global jamiyatda tilning ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

[4] Mamatqulov, Sh. (2023). Pragmatik kompetensiya: nazariya va amaliyot. Qarshi: QarDU nashriyoti.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov, M. (2015). Til va madaniyat: Lingvopragmatik tahlil asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
2. G‘ofurov, B. (2018). Madaniyatlararo kommunikatsiya va pragmalingvistika. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
3. Usmonov, H. (2020). Nutq madaniyati va kommunikativ pragmatika. Samarqand: SamDU nashriyoti.
4. Jo‘rayev, U. (2017). Xorijiy til o‘qitishda pragmalingvistik yondashuv. Toshkent: O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi nashriyoti.
5. Xudoyberganova, D. (2019). Ko‘p madaniyatli jamiyatda tilning pragmatik xususiyatlari. Buxoro: BuxDU nashriyoti.
6. Rahmonov, I. (2021). Pragmalingvistika asoslari va nutq aktlari nazariyasi. Toshkent: Fan va innovatsiya nashriyoti.
7. Karimova, S. (2016). Nutq etiketi va madaniyatlararo pragmatika. Andijon: AndDU nashriyoti.
8. Norbo‘tayev, A. (2022). Globallashuv sharoitida til va madaniyatlararo muloqot. Namangan: NamDU nashriyoti.
9. Mamatqulov, Sh. (2023). Pragmatik kompetensiya: nazariya va amaliyot. Qarshi: QarDU nashriyoti.
10. To‘rayev, Z. (2019). Lingvistik tafovutlar va kommunikativ strategiyalar. Nukus: Qoraqalpoq davlat universiteti nashriyoti.

INGLIS TILIN OQÍTÍWDA JERGILIKLI MÁDENIYAT (ISHKI HÁM SÍRTQÍ MOTIVACIYA MÍSALÍNDA)

Orazimbetov Shingisbek Amirbek uli,
PhD on pedagogical sciences, senior teacher
Nukus innovation institute, Karakalpakstan, Nukus city
shingisbek@gmail.com

Annotaciya. *Maqalada inglis tilin úyreniw procesinde áhmiyetli rol oynawshı ishki hám sırtqı motivaciya túsinikleri Óz-ózin ańlaw teoriyası sheńberinde dodalanadı. Sonıń menen birge, inglis tilin oqıtıwda jergilikli mádeniy kontekstte bul teoriyanıń qollanılıwı boyınsha metodikalıq usınıslar keltirilgen.*

Gilt sózler*: motivaciya, ishki motivaciya, sırtqı motivaciya, Óz-ózin ańlaw teoriyası, jergilikli mádeniy kontekst, avtonomiya, kompetenciya, baylanıslılıq.*

Abstract. *The article discusses the concepts of intrinsic and extrinsic motivation, which play an important role in the process of learning English, within the framework of the Self-Determination Theory. At the same time, methodological recommendations are given for the application of this theory in the local cultural context of teaching English.*

Key words*: motivation, intrinsic motivation, extrinsic motivation, Self-Determination Theory, local cultural context, autonomy, competence, relatedness.*

Motivaciyanıń tiykarǵı eki túri bar: **ishki motivaciya** (úyreniwge bolǵan ishki qálew) hám **sırtqı motivaciya** (sırtqı xoshametlew yamasa basım). Olar kóbinese quramalı tárizde óz ara tásir etedi. Inglis tilin úreniwshiler kóbinese bul eki motivaciya túri menen háreket etedi. Mısalı, bir talaba inglis tilin úyreniwden zawıqlanıwı (ishki motivaciya), biraq sonıń menen birge imtixannan ótiw yamasa jaqsı jumıs tabıw ushın da úyreniwi múmkin (sırtqı motivaciya). Bul motivaciyalar arasındaǵı teń salmaqlılıq uzaq múddetli til bilimi hám úyreniw tájiriybesine sezilerli tásir kórsetiwi múmkin.

Inglis tilin úyreniwde ishki hám sırtqı motivaciya arasındaǵı qatnasıqlar keńnen úyrenilgen bolıp, olardıń óz ara tásiri hám tildi iyelewge tásiri boyınsha hár qıylı juwmaqlar shıǵarılǵan:

Sırtqı qadaǵalaw úyreniwdiń nátiyjesin sezilerli dárejede aldın ala aytıp bermegen [6]. Bul boyınsha Iranda ótkerilgen izertlewdiń nátiyjeleri, ishki motivaciya sırtqı motivaciyaǵa qaraǵanda inglis tilin ózlestiriwde kúshlirek unamlı baylanısqa iye ekenligin kórsetedi.

Serbiyalı inglis tilin úyreniwshiler arasındaǵı izertlewler sonı kórsetedi, hár eki motivaciya túri bar bolsa da, talabalarda ishki motivaciya dárejesi tómen bolıwǵa beyim. Izertlewde oqıwdan zawıqlanıwdı qáliplestiriwde pedagogikalıq ádisler zárúr ekenligi atap ótilgen [5].

Gonkongta ótkerilgen izertlew nátiyjeleri, barlıq oqıwshılar kúshli sırtqı motivaciyaǵa iye bolsa da, tek ǵana ishki motivaciya inglis tilinen jaqsıraq bahalar menen sezilerli dárejede baylanıslı ekenligin kórsetti. Eki túrdegi motivaciyanı teń qálipte uslaǵan talaba tek sırtqı sıylıqlarǵa súyengenlerge qaraǵanda jaqsıraq nátiyjelerge erisken [2].

Inglis tilin úyreniwde hám ishki, hám sırtqı motivaciya áhmiyetli rol oynaydı, biraq ishki motivaciya uzaq múddetli nátiyjeliliktiń kúshlirek faktorı esaplanadı. Sırtqı sıylıqlar úyreniwdi baslawǵa túrtki berse de, ishki motivaciyanı qáliplestiriw turaqlı qatnas hám joqarı nátiyjelerge erisiw ushın zárúr. Óz-ózin ańlaw teoriyası (Self-Determination Theory (SDT)) ishki hám sırtqı motivaciya arasındaǵı baylanıstı úsh tiykarǵı psixologiyalıq zárúrlik arqalı túsindiredi: **avtonomiya** (óz is-háreketlerin basqarıw zárúrligi), **kompetenciya** (óz iskerliginde nátiyjeli bolıwdı seziw zárúrligi) hám **baylanıslılıq** (basqalar menen baylanıs ornatıw zárúrligi).

Deci and Ryannıń (1985) tárepinen usınılǵan SDT — bul hár qıylı bilimlendiriw sharayatlarında, sonıń ishinde, inglis tilin shet til sıpatında oqıtıwda (EFL) motivaciyanı túsiniw ushın keń qollanılatuǵın tiykarlardan biri bolıp esaplanadı. SDT insan motivaciyası hám jetiskenliklerine itibar qaratatuǵın psixologiyalıq teoriya bolıp esaplanadı. SDT bilimlendiriw kontekstinde eger joqarıdaǵı úsh zárúrlik qollap-quwatlanǵanda motivaciya, qatnas hám nátiyjelilik maksimal dárejede bolıwın atap ótedi [3]. Ekvador EFL klasslarında ótkerilgen izertlewler bul talaplardı avtonomiyanı támiyinlew, qollap-quwatlawshı bahalaw arqalı kompetenciyanı rawajlandırıw hám oqıwshılardı ishki motivaciyalaw ushın óz-ara baylanıslılıqtı kúsheytiw arqalı dástúriy sharayatlarǵa birlestiriw múmkin ekenligin kórsetedi [1].

Inglis tilin oqıtıwda SDT klass atmosferası hám ishki motivaciyanı xoshametlewshi oqıtıw ámeliyatın jaratıw ushın kúshli tiykar bolıwı múmkin. Biraq, SDTnı jergilikli mádeniy kontekstlerge beyimlestiriw júdá áhmiyetli, sebebi mádeniy normalar hám qádiriyatlar avtonomiya, kompetenciya hám baylanıslılıq qalay qáliplesiwi hám rawajlanıwına sezilerli dárejede tásir etedi.

Inglis tilin oqıtıw ushın jergilikli mádeniy kontekstte SDTnı qollanıwda tómendegilerge itibar qaratıwdı usınıs etemiz.

1. Kollektiv mádeniyatlarda avtonomiya. Kollektiv mádeniyatlarda, máselen, Aziya mádeniyatlarında, avtonomiyanı individual ǵárezsizlik emes, al topar qádiriyatlarına beyimlestiriw ushın qayta qáliplestiriw kerek bolıwı múmkin. Egipette alıp barılǵan izertlewler sonı kórsetti, kollektiv mádeniyatlarda da inglis tilin úyreniwde avtonomiya áhmiyetke iye. Biraq, oqıtıwshılar avtonomiyanı baylanıslılıq penen teń alıp barıwı kerek, yaǵnıy birge islesiwdi rawajlandırıw hám qáte islewden

qorqıwdı azaytıw arqalı oqıwshılarda óz-ara húrmet hám isenimdi jaratıw zárúr [4]. Mısalı:

— oqıwshılar birgelikte temalardı yamasa úyreniw metodların tańlaytuǵın **topar joybarların** xoshametlew;

— avtonomiyanı mádeniy jaqtan sáykes túrde kontekstlestiriw ushın sabaqlarǵa **shańaraq yamasa jámiyetke baylanıslı temalardı** kirgiziw.

1. **Mádeniy áhmiyetke iye kompetenciyalardı qáliplestiriw.** Kompetenciya talabalardıń mádeniy kelip shıǵıwı hám olardıń inglis tilinen real turmısta paydalanıwına sáykes keliwshi wazıypalardı joybarlaw arqalı qollap-quwatlanıwı múmkin. Mısalı:

— inglis tilin túsiniw hám sóylew ámeliyatı ushın **mádeniy jaqtan tanıs materiallar**, máselen, jergilikli ádebiyat, jańalıqlar yamasa waqıyalardan paydalanıw;

— oqıwshılar ortalıǵın sáwlelendiriwshi **kontekstke tán bahalawlardı** kirgiziw, máselen, óz jasaw ornında jumısqa sáwbetlesiwge tayarlıq kóriw yamasa jergilikli qarım-qatnas usılları tiykarında rásmiy xatlar jazıw.

2. **Mádeniy normalar boyınsha baylanıslılıqtı rawajlandırıw.** Baylanıslılıq mádeniyatqa qarap túrli formalarda kóriniwi múmkin. Mısalı:

— avtoritetke kóbirek áhmiyet beriletuǵın mádeniyatlarda, **oqıtıwshı hám oqıwshı arasındaǵı óz ara húrmetke tiykarlanǵan qatnasıqlardı** rawajlandırıw baylanıslılıqtı kúsheytiwi múmkin;

— **birgeliktegi wazıypalar**, máselen, teńleslerine sabaq beriw yamasa kishi toparlarda dodalaw inglis tilin úyreniwde sociallıq baylanıslardı xoshametlewi múmkin.

Paydalanilǵan ádebiyatlar:

1. Berger, J. (2014). Motivating EFL learners using Self-Determination Theory. Colloquia, Academic Journal of Culture and Thought. https://doi.org/10.31207/colloquia.v1i0.13.
2. Chan, C. (2009). The relationship between motivation and achievement in foreign language learning in a sixth form college in Hong Kong.
3. Deci, Edward L.; Ryan, Richard M. (1985). Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. New York: Plenum. doi:10.1007/978-1-4899-2271-7
4. Hargreaves, E., & Elhawary, D. (2021). Children’s experiences of agency when learning English in the classroom of a collectivist culture. https://doi.org/10.1016/j.system.2021.102476.
5. Ilić, N.D. (2014). Intrinsic and Extrinsic Motivation for Learning English as a Foreign Language.
6. Shaikholeslami, R., & Khayyer, M. (2006). Intrinsic Motivation, Extrinsic Motivation, and Learning English as a Foreign Language. Psychological Reports, 99, 813 - 818. https://doi.org/10.2466/PR0.99.3.813-818.

ЛЕВ ТОЛСТОЙ: ВСЕГДА АКТУАЛЬНЫЙ ГЕНИЙ

Орынбаева Эльвира
Преподаватель кафедры Мировой литературы УЗГУМЯ
orinbaevaelvira@gmail.com

Аннотация: *Лев Николаевич Толстой – один из величайших писателей мировой литературы, чье творчество сохраняет свою значимость в разные эпохи. В его произведениях поднимаются универсальные темы морали, добра, зла, внутренней борьбы человека и поиска смысла жизни. Несмотря на смену времен и ценностей, идеи Толстого продолжают вдохновлять читателей, находя отклик в современном обществе. Его философия ненасилия, гуманизма и искреннего стремления к истине остаётся актуальной для человечества XXI века. В данной работе анализируется значимость творчества Толстого в историческом и современном контексте, рассматриваются его основные произведения и влияние на литературу и общественную мысль.*

Ключевые слова: *Лев Толстой, актуальность, мораль, гуманизм, реализм, философия.*

Лев Николаевич Толстой (1828–1910) – классик русской и мировой литературы, создавший произведения, оказавшие колоссальное влияние на развитие художественного слова и нравственного самосознания человечества. Его романы «Война и мир», «Анна Каренина», «Воскресение» и многие другие продолжают находить отклик у современных читателей, а его философские и публицистические труды остаются предметом глубокого изучения.

Толстой был не только писателем, но и мыслителем, реформатором, который стремился к истине в вопросах морали, религии, общественного устройства. В своих произведениях он поднимает извечные вопросы: что такое добро и зло? В чём смысл человеческой жизни? Как найти гармонию между личными желаниями и долгом перед обществом? Эти вопросы остаются актуальными и сегодня.

Современный мир сталкивается с множеством вызовов – социальных, политических, моральных. Толстой, выступая против насилия, неравенства и несправедливости, своими произведениями призывает к внутреннему совершенствованию, поиску истины и добродетели. Как отмечает С. А. Асеева, «философско-антропологические аспекты художественного творчества Л. Н. Толстого в контексте феномена интермедиальности» продолжают быть предметом научных исследований в наши дни.[1] Толстой верил, что единственный путь к подлинному счастью – это жизнь по законам добра и любви, и эта идея остается важной в XXI веке.

[1] Асеева С. А. Философско-антропологические аспекты художественного творчества Л. Н. Толстого в контексте феномена интермедиальности // Президентская библиотека имени Б.Н. Ельцина.

Философия ненасилия Толстого оказала влияние на таких выдающихся личностей, как Махатма Ганди и Мартин Лютер Кинг. Ганди писал: «Я многому научился у Толстого. Он научил меня тому, что любовь сильнее оружия». Это свидетельствует о том, что идеи Толстого не просто остаются в прошлом, но продолжают вдохновлять поколения.

Художественный стиль Толстого уникален. Он глубоко анализировал человеческую природу, создавал живые, психологически достоверные образы. Его герои не просто литературные персонажи, но воплощение человеческих страстей, надежд, ошибок. Как отмечает исследователь А. Шифман, «Толстой бескомпромиссно сохраняет приверженность к идеалу высокого реалистического искусства, правдивого, жизненно достоверного, затрагивающего коренные вопросы человеческого существования».[2] Его произведения помогают понять сложность внутреннего мира человека и разобраться в собственных переживаниях.

Литературные критики отмечают, что в своих романах Толстой уделял внимание не только масштабным историческим событиям, но и внутреннему миру человека. По мнению С. А. Асеевой, «философско-антропологические аспекты художественного творчества Л. Н. Толстого в контексте феномена интермедиальности»[3] продолжают быть предметом научных исследований в наши дни. Именно поэтому творчество Толстого продолжает интересовать читателей по всему миру.

Толстой остаётся актуальным, потому что его произведения затрагивают извечные вопросы морали, справедливости, любви, внутренней борьбы. Его идеи о нравственном самосовершенствовании, неприятии насилия и поиске истины находят отклик в современном мире. Читая Толстого, мы не просто знакомимся с русской классикой – мы осмысливаем самих себя, учимся понимать окружающий мир и стремимся к гармонии. Толстой – это не просто писатель прошлого, а мудрец, чьи слова остаются жизненно важными для каждого из нас.

Список использованной литературы:

1. Асеева С. А. Философско-антропологические аспекты художественного творчества Л. Н. Толстого в контексте феномена интермедиальности // Президентская библиотека имени Б.Н. Ельцина. https://www.prlib.ru/section/1164450

[2] Лев Толстой глазами современников // Вопросы литературы.
[3] Асеева С. А. Философско-антропологические аспекты художественного творчества Л. Н. Толстого в контексте феномена интермедиальности // Президентская библиотека имени Б.Н. Ельцина.

2. Шифман А. Лев Толстой и современность // Вопросы литературы. https://voplit.ru/article/lev-tolstoj-i-sovremennost/
3. Джабраилов Р. Человек, вера и мир в диалоге Льва Толстого и Николая Страхова // HSE Daily. https://daily.hse.ru/post/371
4. Лев Толстой в воспоминаниях современников // Президентская библиотека имени Б.Н. Ельцина. https://www.prlib.ru/news/1906331
5. Лев Толстой глазами современников // Вопросы литературы. https://voplit.ru/article/lev-tolstoj-glazami-sovremennikov/

OR-NOMUS UCHUN KURASHGAN AYOLLAR
WOMEN FIGHTING FOR HONOR

Oripova Nurafshon Olimjon qizi
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU tayanch doktoranti
Toshkent, O‘zbekiston
nurafshonoripova@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada mahoratli adib Nazar Eshonqul qissa va hikoyalarida ayollar xarakterlari, ularning or-nomus uchun olib borgan kurashlari, hislari va qadriyatlari muammosi talqini tavsiflangan.*
Kalit so‘zlar: *ayol obrazi, xarakter, motiv, milliylik, Nazar Eshonqul, or-nomus, kayvoni, qissa, hikoya.*

Abstract: *In this thesis, the interpretation of women's characters, their struggles for honor, feelings and values in the stories and stories of the skilled writer Nazar Eshanqul is described.*
Key words: *female image, character, motive, nationality, Nazar Eshanqul, honor, kayvani, story, story.*

Mahoratli adib Nazar Eshonqulning qissa va hikoyalaridagi ayollar obrazlari, ularning ruhiyatini o‘rganish bugungi kunda adabiyotshunoslik uchun muhim bo‘lgan ko‘plab jihatlarni yorita oladi. Nazar Eshonqul qissa va hikoyalarida sahnaga avval ayol obrazini olib kiradi va keyin uni batafsil ta’riflaydi. Bu ta’riflashda ularning ruhiyati, portreti, xarakteri va hayot yo‘llarida chekkan iztiroblari bir-bir akslanadi. Fikrimiz dalili sifatida adibning ilk nasriy asari bo‘lmish “Urush odamlari” qissasi qahramoni Biydi momo va “Shamolni tutib bo‘lmaydi” hikoyasi qahramoni Bayna momo obrazlarini tasvirlarini qiyoslashimiz mumkin.

Biydi momoning ta’riflanishidagi ta’riflar muallifning Bayna momo haqida aytilgan fikrlarga aynan o‘xshab ketadi. Buning sababini biz bu ikki obrazning prototipi bir ekanligidan bilishimiz mumkin. Feruza Burxonovaning “Muallif adabiy-estetik qarashlari va ijodiy parallelizm. (Nazar Eshonqul va Ulug‘bek Hamdam ijodi misolida)” nomli filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasida tadqiqotimiz obyekti bo‘lgan “Urush odamlari”, “Momoqo‘shiq” qissalari tahlil etilgan. Izlanuvchi qissalarning yaratilish tarixini, yozuvchilar ijodida uchraydigan ayollar obrazining real hayotiy asoslarini adibning tug‘ilib o‘sgan yurti, oilaviy va badiiy muhiti bilan birgalikda o‘rganib xulosalar chiqargan. Aynan “Urush odamlari” va boshqa nasriy asarlardagi momo obrazi prototipi haqida shunday fikrlar bildirgan. “Urush odamlari qissasida Tersota qishlog‘ida yashovchi Biydi momo, “Shamolni tutib bo‘lmaydi” hikoyasida esa Bayna momo timsolida namoyon bo‘ladigan qahramondir.

Bu har ikki obrazga xos mushtarak jihatlar talaygina. Avvalo, momo timsollariga xos umumiy xususiyat obrazlarning xarakter qirralaridagi uyg‘unlikda namoyon bo‘ladi. Yozuvchi nima sababdan momo obrazi va Tersota qishlog‘iga qayta-qayta murojaat qilyapti, nega o‘zining dardlarini shu obrazlar mohiyatiga singdirib, go‘yo ular bilan birga nafas olayotganday tasvirlayapti. Tersota qishlog‘i yozuvchi o‘ylab topgan yoki bo‘lmasa xalq og‘zaki namunalaridan olgan biror joy nomimi yoxud real hudud bilan bog‘liqmi? Biydi momo kim, kabi qator savollarga javob izlab yozuvchi iodiy labaratoriyasiga chuqurroq kirib borganimizda, bevosita ijodkorning tarjimai holi bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘pgina jihatlar oydinlashdi[1]”.

Bayna momoning ham Biydi momoning ham turmush o‘rtog‘i ko‘z oldida jon taslim qilgan ya’ni o‘ldirilgan. Ayanchli va o‘xshash taqdirlar. Eri o‘lganidan so‘ng Biydi momo hech hayotdan, undagi qiyinchiliklardan nolib yig‘lamaydi. Xuddi shu holatni biz Bayno momo shaxsiyatida ham ko‘ramiz. Biydi momo faqatgina o‘g‘illari birinchi zotini keltirib tashlagandagina, o‘z mehnatlari besamar ketmaganligini ko‘rib, to‘yib-to‘yib yig‘lagandi.

Biydi momoning bo‘sh-bayov, o‘g‘irlab kelingan katta kelini xarakteri va u bilan qaynonasining munosabati “Bepoyon osmon” hikoyasi qahramonlari Oyto‘ldi va Bibioynaniki bilan uyqashdir. O‘g‘illaridan qoraxat kelgach, el-u xalqqa aralashmay qo‘yishi ham Bayna momoning eri o‘ldirilgach qishloqdoshlarini yomon ko‘rib qolishiga mushtarak. Tadqiqotchi bu haqida fikrlarini davom ettirarkan, “Tersota qishlog‘i aslida, yozuvchi tug‘ilib-o‘sgan, bolaligining dastlabki davrlari o‘tgan, qishloqning nomi. Momo obrazi esa adibning buvisi buvisi Pirimqul qizi Masil momoning prototipidir. Masil momo ham xuddi hikoyalarida tasvirlanganidek yigirma yoshida eridan ayrilib, ikkita farzandi bilan beva qoladi va boshqa turmush qurmay hayotning butun mashaqqatlariga yolg‘iz o‘zi dosh beradi. Yozuvchi bolaligida o‘zi ko‘rgan bilgan hayotiy xotiralar, diliga cho‘kib qolgan armonlar keyinchalik qayta uyg‘onib o‘z asarlari mohiyatiga singib ketgan”[2].

Adib asarlaridagi bu kabi kayvoni momolar ya’ni kampirlar obrazlarinining hayotiy va jonliligini ta’minlash maqsadida uning xatti-harakatlari va gapirish manerasini, tashqi, ichki ruhiy dunyosini tabiiy ravishda tasvirlagan. Aynan Nazar Eshonqul asarlarida o‘zbek kayvoni kampiri obrazi mahorat bilan yaratilganligini

[1] Burxanova F. Muallif adabiy-estetik qarashlari va ijodiy parallelism (Nazar Eshonqul va Ulugbek Hamdam ijodi misolida): Filol. fan. b-cha. f-fa.d-ri. (PhD)…diss.avtoref. – Toshkent: 2019. – B.17.
[2] Burxanova F. Muallif adabiy-estetik qarashlari va ijodiy parallelism (Nazar Eshonqul va Ulugbek Hamdam ijodi misolida): Filol. fan. b-cha. f-fa.d-ri. (PhD)…diss.avtoref. – Toshkent: 2019. – B.18.

ko‘rishimiz mumkin. Aynan shu kayvoni kampirlar obrazidagi yana bir xususiyat farzandi dog‘ida kuyib ado bo‘lgan ona va uning ruhiyati teran badiiy talqin etilgan.

Ko‘plab tadqiqotlarda o‘rganilganidek, ayol obrazi eng avvalo, naslni davom ettiruvchi hilqat va bashariyatning yaratuvchisi sifatida talqin etilgan. Bundan tashqari ayol dunyo xalqlari adabiyotida go‘zallik, donishmandlik, aql, muhabbat timsoli sifatida ham qaralgan. Nazar Eshonqulning nasriy asarlarida esa ayollar obrazlari or-nomus timsoli sifatida talqin etilgan. Adibning ko‘plab asarlarida or-nomus uchun kurashgan ayollar obrazlarini uchratamiz (Biydi momo, Bayna momo, Bibi oyna).

Adib ularning portretlarini yaratishda folklor stilizatsiyasidan ilhomlangan, realistik tasvirlardan foydalangan, ularning nutqida kinoyaning o‘rni ham bor. Bizga bir qarashda zolimdek tuyuladigan, hatto qotillik sodir etgan ayol ruhiyatiga nazar solsak, undagi yillar davomida yig‘ilgan nafratni, yolg‘izlikni, dard-alamni ko‘rishimiz mumkin. Adib ularning taqdirlarini va hislarini bizga shu qadar jonli tarzda yetkazib berganki, o‘qirman bu qahramonlar bilan o‘zini yonma-yon turgandek his eta oladi. Biydi momo Anziratni kim yo‘ldan urganligini aniqlash maqsadida yetmish uch kecha uning uyini poylaydi. Xo‘sh, bunda uning niyati qotillikka sabab bo‘lish edimi?! Also unday emasdi. U o‘z qarichi bilan urushga sabab bo‘layotgan buzuqilarni adabini bermoqchi, qishloqning, erkaklarning va shu bilan birga o‘zining or-nomusini himoya etmoqchi edi. U o‘ziga kelgach Normat polvonni qaytarishga harakat qilishi fikrimizning dalili bo‘la oladi. Albatta uning har bir harakatida, qishloqdoshlarini tanqid qilishlarida, kinoyali gaplarida aslida or-nomus uchun jon kuydirish mavjud edi.

Nazar Eshonqul ijodida uchraydigan kayvoni momolar obrazi tipida shu kabi xususiyatlarni takror va takror ko‘rishimiz mumkin. Masalan “Shamolni tutib bo‘lmaydi” hikoyasi qahramoni Bayna momo ham ayol boshi bilan eri va o‘g‘lining qotilidan qasos oladi. Albatta biz bu fikrlarimiz bilan qotillik sodir etgan qahramonni yoqlamoqchi emasmiz, faqat ushbu jinoyatga sodir bo‘lgan omillar mavjudligini, bu hislar azbaroyi nomus uchun, or talab etilib, tushunib-tushunmay sodir etilganligini aytib o‘tmoqdamiz. Aslida hikoyaning nomlanishidan ham biz asl mazmunni bilib olishimiz mumkin.

Jumladan Yulduz Eshmatovaning tadqiqotida “Nazar Eshonqulning daxshatli urush fojealari tasvirlangan “Urush odamlari” qissasida ham fasllarga uyg‘un tarzda qahramonlar iztiroblari, g‘am-qayg‘ulari ochib beriladi. Fojialarga to‘la davr muhiti ko‘ngilchan, dilkash kishilar ruhiyatidagi o‘zgarishlarga, urush kabi sovuq, dag‘al munosabatlarga aylanganini, bu esa qahramonlar taqdirining fojiali qismatiga sabab

bo‘lganligini badiiy gavdalantirgan”. Nazar Eshonqul ularning (qissa va hikoya qahramoni bo‘lgan kayvoni momolarning) hislarini ifoda etganda ularni oqlamaydi, aksincha bor bo‘yi yoritadiki, xulosani o‘qirmanning o‘ziga qoldiradi. Bu ham yozuvchining adolatidan, mahoratidan darak. Nazar Eshonqul asarlarida psixologizmning turli-tuman formalari, ya’ni portret, monolog, diolog, muallif bayoni va hissiy harakatlardan unumli foydalanganligi uchun ham ayollar ruhiyatini batafsil ochishga muvaffaq bo‘lgan.

bosqichdan o‘tadi. Shunday bo‘lsada toki nutq faoliyatining madaniyatlararo shakli mavjud emas ekan tarjimon uchun Tilshunoslikning pragmatik muammolari ham mavjud bo‘ladi. Shunga ko‘ra, tarjimon ma'lumotni tilshunoslikda hech qanday xatoliksiz to‘g‘ri etkazib berish uchun umummadaniy pragmatik bilimlaridan foydalanishiga to‘g‘ri keladi. Nutq hodisasi va emotsional ta'sirni yaqindan o‘rganish tabiiyki, tilshunoslikning bir nechta nazariyalarini keltirib chiqaradi, ayniqsa ekvivalent ta'sir yoki harakat prinsipiga va boshqa tilda qanday bo‘lsa shunday aytish kerakligini ta'kidlovchi «yolg‘on talqin»ga asoslangan dinamik ekvivalentlik. Har ikkala nazariya ham nutq faoliyati va hodisasi madaniyatlararo farq qilishini tan olgan holda tarjimonlarni madaniyatlararo pragmatik muvaffaqiyatga erishishga undaydi. Ammo tilshunoslikda pragmatik ekvivalentlikka erishishda asliyatdagi matn tilining semantik xususiyatlari, so‘zlarning ma'nolari, ularning qo‘llanilishi va boshqa so‘zlar bilan bog‘lanishi bir qancha to‘sqinliklarni keltirib chiqaradi [3]. Tilshunoslikning asliyatga shaklan va mazmunan monand tarzda yaratilishining birdan-bir sharti tarjimonning o‘z tilida asliy monand lisoniy vositalar tanlab ishlata olishidir. Bu mas'uliyat uning zimmasiga avvalo asliyat ma'no vazifasini bekamu-ko‘st ado etish, so‘ngra xotirasida shakllangan fikrni o‘z tili madaniyati va me'yori asosida to‘la-to‘kis ifoda etish vazifasini yuklaydi. Keyingi yillarda tadqiqotchilar e'tiborini o‘ziga ko‘proq jalb qilib kelayotgan tilning pragmatik jihatlari tarjimondan chuqur lingvistik bilimdan tashqari yana ko‘pgina boshqa fanlar, madaniyatlar ma'lumotlaridan ham xabardor bo‘lishni talab qiladi. Tilshunoslikda pragmatik vositalardan o‘rinli foydalanish esa asliyatda ifodalangan zaruriy ma'noni to‘la-to‘kis etkazib berishga xizmat qiladi. Shundan kelib chiqadigan bo‘lsak, mazkur dissertatsion ishning amaliy ahamiyati shundan iboratki, tilshunoslikning pragmatik xususiyatlari haqida to‘liq ma'lumotga ega bo‘lib, ularning tahlilini, tilshunoslikda berilishini, asosli misollar bilan yoritilgan bo'lib mavzu bo‘yicha talabalar uchun qo‘shimcha yoki asosiy qo‘llanma sifatida o‘zlarining mustaqil ishlarida, referatlarida foydalanish yoki ma'ruza matnlariga maxsus mavzu sifatida kiritish mumkin. Bundan tashqari o‘rganilgan korpus bilimlarni amalda qo‘llash, tilshunoslikning pragmatik xususiyatlaridan foydalanib tarjima jarayonida uchraydigan har qanday leksik-grammatik muammolarni bartaraf qilish, shuningdek, nutq, badiiy asarlarda duch kelingan muammolarni tahlil qila olish tadqiqotning amaliy ahamiyatini tashkil etadi. Pragmatika tilshunoslikning nisbatan yangidan shakllangan, insonning nutq faoliyatini o‘rganishga, bunday faoliyatning maqsadi, mazmuni, bunday maqsad va mazmunning og‘zaki va yozma matnda verbal va noverbal ifodalanish vositalarini, ularning nutq aktidagi o‘rnini, kommunikativ ta'sirini, so‘zlovchi va tinglovchi

nutqidagi turlicha munosabatlarni lisoniy belgilarda ifodalanishini o‘rganuvchi fan tarmog‘idir. Pragmatika til belgilarining nutqdagi harakatini o‘rganuvchi tilshunoslikning tadqiqot doirasidir. Lingvistik pragmatika aniq shaklga ega emas. Uning tarkibiga so‘zlovchi va tinglovchiga, ularning nutq jarayonidagi o‘zaro munosabatiga bog‘liq masalalar majmui kiradi. Gapiruvchi shaxsning tinglovchi diqqat-e'tiborini tortish, ularga kommunikativ ta'sir qilish, qiziqtirib qo‘yish, fikrini jalb qilish yoki aksincha, chalg‘itish, hayajonga solish, to‘lqinlashtirish, ishontirish yoki aldashga urinishida so‘zning, so‘z birikmasining ekspressivemotsional-baholovchi konnotativ ma'nosini, ya'ni pragmatik ma'nosini tadqiq qilish ehtiyoji vujudga keldi. So‘zlovchi biror nutq yaratar ekan, u o‘zining bu faoliyati bilan qabul qiluvchiga (tinglovchi) qandaydir axborotni etkazishni, kechmishlarini bayon etishni, atrofimizda kechayotgan yangiliklarni etkazishni nazarda tutadi. Bu orqali so‘zlovchi retseptorga ma'lum ta'sir ham o‘tkazadi. Retseptorga nutq orqali ko‘rsatiladigan ta'sir pragmatik xususiyatlar orqali amalga oshiriladi.

Lingvopragmatika – bu tilshunoslik (lingvistika) va pragmatika fanlarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan yo‘nalish bo‘lib, til vositalarining ma’no jihatdan qanday ishlatilishini va qanday pragmatik ta’sir ko‘rsatishini o‘rganadi. Ya’ni, lingvopragmatika tilning muloqot jarayonida qanday tushunilishi va gapiruvchi bilan tinglovchi o‘rtasidagi aloqaga qanday ta’sir qilishi masalalariga e’tibor qaratadi.

Til – bu qoidalar tizimi, nutq esa shu qoidalar asosida shakllangan muloqot jarayoni.

Lingvopragmatika ushbu nutqiy jarayonda so‘z va gaplarning yashirin, kontekstga bog‘liq bo‘lgan ma’nolarini o‘rganadi.

So‘z va gaplar doimo muayyan kontekstda ishlatiladi.

Masalan, "Siz juda ajoyib joyni tanladingiz!" degan gap kinoya (ironiya) bilan aytilishi mumkin, lekin uning haqiqiy ma’nosi faqat kontekst orqali aniqlanadi.

Gapiruvchi odam faqat so‘z ishlatmaydi, balki harakat bajaradi (masalan, iltimos qiladi, buyruq beradi, maslahat beradi).

Masalan, "Shu joyni supurib qo‘ysang bo‘lardi!" – bu haqiqatan ham oddiy mulohaza emas, balki iltimos yoki buyruq sifatida qabul qilinishi mumkin.

Deiksis – so‘zlarning ma’nosi vaqt va joyga bog‘liq bo‘lishi. Masalan, men, shu yerda, hozir so‘zlari turli kontekstlarda har xil ma’no beradi.

Referensiya – so‘z yoki iboralar orqali muayyan narsa yoki shaxsga ishora qilish. Masalan, "U bugun kelmaydi" deganda "u" kim ekanligi kontekst orqali tushuniladi.

Har bir jamiyatda o‘ziga xos muloqot madaniyati mavjud.

Masalan, o‘zbek tilida "iltimos" shaklidagi iboralar ko‘proq ishlatiladi ("Agar iloji bo‘lsa...", "Sizdan bir narsa so‘ramoqchiman..."), bu esa muloqotdagi odob-axloq qoidalarini ko‘rsatadi.

Reklama matnlarida so‘zlarning yashirin ta’sir kuchi bo‘lishi mumkin. Masalan, "Siz bunga loyiqsiz!" shiori odamni o‘z mahsulotini sotib olishga undaydi.

Siyosiy nutqlarda pragmatik ta’sir juda muhim. Masalan, "Biz ba’zi masalalarda murosaga kelishimiz mumkin" degan gap to‘g‘ridan-to‘g‘ri rad javobi emas, balki yumshoq noaniqlik bilan aytilgan fikrdir.

Pragmatik ma’no tarjima jarayonida ham e’tiborga olinishi kerak. Masalan, ingliz tilidagi "I see" ifodasi bevosita tarjimada "Men ko‘ryapman" deb tushunilishi mumkin, lekin aslida "Men tushundim" degan ma’noni anglatadi.

Lingvopragmatika – bu til va muloqotdagi yashirin ma’nolarni, kontekstni va gapiruvchi-tinglovchi munosabatlarini o‘rganadigan soha. U reklama, siyosat, tarjima, diplomatiya va kundalik muloqotda juda muhim o‘rin tutadi.

Ijtimoiy fanlar bo‘yicha fransuz olimi Dan Sperber va ingliz lingvisti Deirdre Wilson pragmatikaga shunday ta’rif bergan: “Pragmatika ko'pincha tildan foydalanishni o'rganish sifatida tavsiflanadi va til tuzilishini o'rganishga qarama-qarshi qo'yiladi. Ushbu keng ma'noda u deyktik iboralarni rasmiy o'rganishdan tortib etnik og'zaki stereotiplarni sotsiologik tadqiqotlargacha bo'lgan bir qator erkin bog'liq tadqiqot dasturlarini qamrab oladi. Ko'proq yo'naltirilgan ma'noda (biz bu erda foydalanamiz) pragmatika semantikaga qarama-qarshi qo'yadi, lingvistik ma'noni o'rganadi va iboralarni izohlashda kontekst omillarining lingvistik ma'no bilan o'zaro ta'sirini o'rganadi. Bu erda biz so'nggi o'ttiz yil ichida tilshunoslar va til faylasuflarini qiziqtirgan bir-biri bilan chambarchas bog'liq, juda markaziy pragmatik masalalar va yondashuvlarni qisqacha ta'kidlaymiz. Pragmatika, biz ta'riflaganimizdek, empirik fan, lekin falsafiy kelib chiqishi va falsafiy ahamiyati bor.”[1]

J. Lichning fikricha, “pragmatika tilshunoslikning bir qismi bo'lib, gaplar kontekstda qanday qilib turli ma'nolarga ega bo'lishini o'rganadi. Til kommunikativ tizim sifatida rasmiy tizim sifatida tilni (so'zning keng ma'nosida grammatika) va uni to'ldiruvchi pragmatikani o'z ichiga oladi. Grammatikadan farqli o'laroq, pragmatika aksiologik (maqsadga yo'naltirilgan) va baholovchidir. Shu bilan birga, J. Lich grammatika va ritorikaning yaqinlashishini qonuniy va zarur deb hisoblaydi. Muallifning qayd etishicha, semantika an’anaviy ravishda ma’no bilan diadik munosabatlarning a’zosi (belgi – ob’ekt) sifatida shug‘ullanadi, pragmatik esa uch

[1] https://www.dan.sperber.fr/?p=117

shaxs (belgi – obyekt – suhbatdosh) munosabatini o‘rganadi. Pragmatika kontekstni hisobga olgan holda ma'noni o'rganadi. Shaxslararo munosabatlarni tartibga soluvchi pragmatik tamoyillar ritorika ob'ekti bo'lib, ularni ikki guruhga bo'lish mumkin:

shaxslararo ritorika: hamkorlik tamoyili, xushmuomalalik printsipi va kinoya tamoyili. Bu tamoyillar suhbatdoshlarning muloqotini tartibga soladi;

matnli ritorika: qayta ishlash printsipi, aniqlik printsipi, tejamkorlik printsipi va ekspressivlik printsipi - ular matnni ishlab chiqishni boshqaradi.”[2]

Bogdanov (1996) ta'kidlashicha: “lingvopragmatika nutqiy aloqa aktlarida suhbatdoshlar tomonidan tildan foydalanish shartlarini o'rganadi. Bu shartlarga kommunikativ maqsadlar, nutq harakatining vaqti va joyi, suhbatdoshlarning bilim darajasi, ularning ijtimoiy mavqei, psixologik va fiziologik xususiyatlari, muayyan jamiyatda qabul qilingan nutq xatti-harakatlarining qoidalari va qoidalari kiradi. Og'zaki muloqot jarayonida suhbatdoshlar u yoki bu kodlardan, shuningdek, boshqa belgilar tizimlaridan, shu jumladan paralingvistiklardan foydalanadilar.

U bu shartlarni quyidagilarga ajratadi:

kontekst (lingvistik shartlar);

konstitutsiya (ekstralingvistik shartlar);

koempiriya (suhbatdoshlarning lingvistik va ekstralingvistik bilim darajasi).”[3]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Austin, J. L. (1962). How to Do Things with Words. Oxford University Press.
2. Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge University Press.
3. Grice, P. (1975). Logic and conversation. In P. Cole & J. Morgan (Eds.), Syntax and Semantics (Vol. 3, pp. 41-58). Academic Press.
4. Levinson, S. C. (1983). Pragmatics. Cambridge University Press.
5. Sperber, D., & Wilson, D. (1986). Relevance: Communication and Cognition. Harvard University Press.
6. Yule, G. (1996). Pragmatics. Oxford University Press.
7. Nida, E. A. (1964). Toward a Science of Translating: With Special Reference to Principles and Procedures Involved in Bible Translating. Brill.
8. Halliday, M. A. K., & Hasan, R. (1976). Cohesion in English. Longman.
9. Crystal, D. (2008). A Dictionary of Linguistics and Phonetics. Blackwell Publishing.
10. Mey, J. (2001). Pragmatics: An Introduction. Blackwell Publishing.
11. Blakemore, D. (2002). Relevance and Linguistic Meaning: The Semantics and Pragmatics of Discourse Markers. Cambridge University Press.
12. Verschueren, J. (1999). Understanding Pragmatics. Arnold.
13. Thomas, J. (1995). Meaning in Interaction: An Introduction to Pragmatics. Longman.
14. Kecskes, I. (2013). Intercultural Pragmatics. Oxford University Press.

[2] https://www.europeanproceedings.com/article/10.15405/epsbs.2019.12.02.16
[3] https://www.europeanproceedings.com/article/10.15405/epsbs.2019.12.02.16

15. Hickey, L. (1998). The Pragmatics of Translation. Multilingual Matters.
16. Gutt, E.-A. (2000). Translation and Relevance: Cognition and Context. St. Jerome Publishing.
17. Baker, M. (2011). In Other Words: A Coursebook on Translation. Routledge.
18. House, J. (2015). Translation Quality Assessment: Past and Present. Routledge.
19. Trosborg, A. (1997). Text Typology and Translation. John Benjamins Publishing.
20. Nord, C. (1997). Translating as a Purposeful Activity: Functionalist Approaches Explained. St. Jerome Publishing.
21. https://www.europeanproceedings.com
22. https://www.dan.sperber.fr

ENHANCING LISTENING AND SPEAKING PROFICIENCY IN VISUALLY IMPAIRED LEARNERS THROUGH INNOVATIVE INTERACTIVE METHODS

Rukhiddinov Khayrullo Khayriddin ugli
Doctoral candidate
E-mail: bahrom9205@bk.ru
Uzbekistan State World Languages University

Annotation. *This article explores innovative interactive methods to enhance the listening and speaking skills of visually impaired learners. It examines various pedagogical strategies, including audio-based learning, tactile feedback, and speech recognition technologies, to facilitate language acquisition. The study highlights the role of technology-assisted instruction, such as screen readers, voice-controlled applications, and virtual assistants, in creating an inclusive learning environment. Additionally, interactive methods like peer-assisted learning, role-playing, and storytelling are analyzed for their effectiveness in improving communication skills. The article emphasizes the importance of personalized learning approaches tailored to the needs of visually impaired students. By integrating these methods into language education, educators can foster greater engagement and proficiency in listening and speaking. The findings contribute to the field of special education and language teaching, offering practical solutions for inclusive and effective instruction.*

Keywords: *visually impaired learners, interactive methods, listening skills, speaking proficiency, assistive technology, inclusive education.*

Introduction. The ability to listen and speak effectively is fundamental for language acquisition and communication. However, visually impaired learners face unique challenges in developing these skills due to their reliance on auditory and tactile modalities. Traditional language teaching methods often emphasize visual cues, such as written texts and images, which may not be accessible to these learners. Therefore, it is crucial to implement innovative interactive methods that cater to their specific needs and enhance their listening and speaking proficiency. Technological advancements have opened new possibilities for inclusive education. Assistive technologies, including screen readers, speech recognition software, and voice-controlled applications, have revolutionized language learning for visually impaired students[1].

Additionally, interactive strategies such as peer-assisted learning, storytelling, role-playing, and audio-based instruction have proven effective in fostering engagement and communication skills. By integrating these methods into language instruction, educators can create an inclusive learning environment that enhances accessibility and promotes active participation. This article explores various

[1] Foulke, E. Blind Learning: Auditory and Tactile Approaches. – New York, Springer, 2018. – 245 p.

innovative interactive methods that can improve listening and speaking skills among visually impaired learners. It examines their effectiveness, implementation strategies, and potential impact on language education. By adopting these approaches, educators can support visually impaired students in developing linguistic competence and achieving greater autonomy in communication. Visually impaired learners face unique challenges in developing listening and speaking skills due to their reliance on auditory and tactile senses. Traditional language learning methods often integrate visual cues such as text, images, and gestures, which are inaccessible to these learners. As a result, alternative interactive methods must be employed to ensure effective language acquisition.

One of the most effective approaches is audio-based learning, which includes audiobooks, podcasts, and speech-based applications[2]. These resources allow learners to engage with spoken language in an immersive manner, improving their listening comprehension and pronunciation. Additionally, tactile feedback methods, such as Braille-based language exercises and vibration-assisted speech training, can further enhance learners' ability to perceive and reproduce linguistic structures. Technological advancements have significantly contributed to making language learning more accessible for visually impaired students. Screen readers and speech recognition software enable learners to access digital texts and engage in real-time communication. Voice-controlled applications such as Google Assistant, Siri, and Amazon Alexa provide interactive language exercises that help reinforce listening and speaking skills. Moreover, virtual reality (VR) and artificial intelligence (AI) technologies are being integrated into language learning to create multisensory experiences. For instance, AI-powered voice analysis tools provide real-time feedback on pronunciation and fluency, helping learners refine their speaking abilities.

Apart from technology, interactive classroom strategies play a vital role in fostering communication skills. Peer-assisted learning is a highly effective approach, where visually impaired students engage in conversational practice with sighted peers[3]. This method not only enhances linguistic competence but also promotes social integration and confidence. Similarly, role-playing and storytelling activities provide opportunities for learners to practice conversational skills in realistic scenarios. By

[2] Laitinen, J. Enhancing Communication in Visually Impaired Students: Innovative Strategies. – London, Routledge, 2020. – 312 p.
[3] Meyer, D. & Fisher, K. Assistive Technologies in Language Learning: A Guide for Educators. – Berlin, De Gruyter, 2021. – 280 p.

engaging in structured dialogues and storytelling exercises, students can improve both fluency and expressive abilities. Educators can also implement echo reading and shadowing techniques, where learners listen to recorded speech and repeat it simultaneously to develop pronunciation and rhythm.

A critical aspect of improving listening and speaking proficiency in visually impaired learners is teacher training and curriculum adaptation. Instructors need to be well-versed in using assistive technologies and interactive methods tailored to the needs of these learners[4]. The curriculum should include audio-supported materials, tactile learning resources, and strategies that emphasize verbal communication[5]. Furthermore, incorporating multisensory learning approaches, such as associating sounds with touch-based experiences or using environmental cues for language reinforcement, can enhance comprehension and retention. Despite the effectiveness of these innovative methods, some challenges remain. Limited access to assistive technology, lack of specialized teacher training, and insufficient inclusion of visually impaired learners in mainstream language education are significant barriers. Addressing these issues requires institutional support, funding for accessible educational resources, and collaboration between educators, technology developers, and policymakers.

Moreover, enhancing the listening and speaking skills of visually impaired learners requires a combination of technology-driven solutions and interactive pedagogical strategies. By integrating assistive technologies, peer collaboration, and multisensory learning approaches, educators can create an inclusive and effective language learning environment[6]. Future research should focus on developing more advanced AI-powered language tools and evaluating the long-term impact of these methods on language proficiency among visually impaired students.

Conclusion. The development of listening and speaking skills among visually impaired learners requires innovative and interactive teaching methods that cater to their unique needs. Traditional language learning approaches, which heavily rely on visual stimuli, are often ineffective for these learners. Instead, integrating audio-based learning, assistive technologies, and interactive classroom strategies can significantly enhance their linguistic proficiency.

[4] Thompson, L. The Role of Audio-Based Learning in Developing Oral Communication Skills. – Boston, Pearson, 2022. – 290 p.
[5] Smith, R. Interactive Teaching Techniques for Special Needs Education. – Chicago, University Press, 2019. – 265 p.
[6] White, M. Inclusion and Accessibility in Language Learning: A Case Study of Visually Impaired Students. – Oxford, Oxford University Press, 2023. – 310 p.

Technologies such as screen readers, speech recognition software, and AI-driven pronunciation tools provide valuable support in making language learning more accessible. Additionally, peer-assisted learning, role-playing, and storytelling encourage active participation and improve communication skills. However, challenges such as limited access to technology and insufficient teacher training must be addressed to create a more inclusive learning environment. Future efforts should focus on developing more advanced assistive technologies and ensuring widespread availability. By adopting these innovative strategies, educators can empower visually impaired learners with the necessary skills for effective communication and greater independence in their language development.

References:

1. Foulke, E. Blind Learning: Auditory and Tactile Approaches. – New York, Springer, 2018. – 245 p.
2. Laitinen, J. Enhancing Communication in Visually Impaired Students: Innovative Strategies. – London, Routledge, 2020. – 312 p.
3. Meyer, D. & Fisher, K. Assistive Technologies in Language Learning: A Guide for Educators. – Berlin, De Gruyter, 2021. – 280 p.
4. Smith, R. Interactive Teaching Techniques for Special Needs Education. – Chicago, University Press, 2019. – 265 p.
5. Thompson, L. The Role of Audio-Based Learning in Developing Oral Communication Skills. – Boston, Pearson, 2022. – 290 p.
6. White, M. Inclusion and Accessibility in Language Learning: A Case Study of Visually Impaired Students. – Oxford, Oxford University Press, 2023. – 310 p.

ULUG‘BEK HAMDAM HIKOYALARIDA PSIXOLOGIK TASVIRNING BADIIY-ESTETIK FUNKSIYASI MASALASIGA DOIR

Sadullayeva Moxira
f.f.f.d., dotsent,
Qoraqalpoq davlat universiteti, Nukus

Annotatsiya: *mazkur maqolada ijodkorning psixologik tasvir o’ziga xosligi, uning badiiy-estetik vazifasi, hikoya syujeti tadrijida muallif mahorati qirralari, uslub individualligi kabi masalalar iste’dodli yozuvchi Ulug‘bek Hamdamning “Ko‘nglimdagi daryo” hikoyasi orqali tahlilga tortilgan. Shuningdek, adib ijodida, modernistik uslubning yetakchilik qilsa ham, unda umumiylik, milliy va an’anaviy uslub qorishiq holda uyg‘unlashi, tush tasvirining syujet tarkibidagi o‘rni, uning ruhiy holat ifodalashdagi ahamiyati yuzasidan ham mulohazalar keltirilgan.*

Kalit so’zlar: *syujet, kompozitsiya, ruhiy holat, badiiy psixologizm, motiv, epizod, tush tasviri, tush motivi talqin, tahlil, hikoya, janr, badiiyat.*

Аннотация: *в данной статье через повесть «Река в моем сердце» талантливого писателя Улугбека Хамдама анализируются такие вопросы, как своеобразие психологического образа творца, его художественно-эстетическая задача, аспекты мастерства автора в разработке сюжета рассказа, индивидуальность стиля. Также в творчестве писателя, несмотря на то, что стиль модерн является ведущим, имеются замечания об общности, национальном и традиционном стиле, месте образа сновидения в сюжете, его значении в выражении душевного состояния.*

Ключевые слова: *поэтика, творец, психика, художественная психология, образ, образность, герой, интерпретация, анализ, рассказ, проза, художественность.*

Annotation: *in this article, issues such as the uniqueness of the creator's psychological image, his artistic-aesthetic task, the aspects of the author's skill in the development of the story plot, the individuality of the style, are analyzed through the story "River in my heart" by the talented writer Ulugbek Hamdam. Also, in the work of the writer, despite the fact that the modernist style is the leader, there are comments on the generality, national and traditional style, the place of the dream image in the plot, and its importance in expressing the mental state.*

Key words: *poetics, creator, psyche, artistic psychology, image, figurativeness, hero, interpretation, analysis, story, prose, artistry.*

Yozuvchi Ulug‘bek Hamdamning aksariyat hikoyalarida psixologik holatni tush tasviri orqali ifoda etish qabarib ko‘rinadi. Ana shunday tush-hikoyalaridan biri “Ko‘nglimdagi daryo”dir. Falsafiy-ramziylikka asoslangan ushbu asarda nafaqat adib badiiy niyatining tush epizodida aks etganligini, balki syujet tadriji davomida yozuvchining o‘ziga xos mahorat qirralarini, uslub individualligi ham ko‘zga tashlanadi. Yozuvchi ijodida modernistik uslub yetakchilik qilsada, ijodiga xos bo‘lgan umumiylik, milliy va an’anaviy uslub qorishiq holda keladi. Adabiyotshunos T. Solihov: “Har bitta badiiy asar dastlab milliydir, milliy bo‘lmagan adabiyot adabiyot emas”- deb bejizga aytmagan. Hech bir hikoya o‘z-o‘zidan dunyoga

kelmaydi. Bu har bir ijodkorning botiniy va zohiriy dunyosida turli fikr, g‘oyalar ta’sirida yuzaga keladi. Yozuvchining “Bir piyola suv”, “Unutilgan nay navosi”, “Safar” va quyidagi so‘z yuritmoqchi bo‘lgan tush-hikoyalaridan biri “Ko‘nglimdagi daryo” hikoyalari uchun xos bo‘lgan, erkinlik, ozodlik tuyg‘usini va poklik ramzini aks ettiruvchi “suv” obrazi yozuvchi ijodining asosiy mazmunini tashishga xizmat qilgan.

“Ko‘nglimdagi daryo” hikoyasi uslub jihatidan boshqa hikoyalaridan farq qiladi. Inson ruhining evrilishlari, ko‘ngil nozikliklari o‘ziga xos tarzda ifoda qilingan. Unda birgina istak-orzuga yetishmoqlik yo‘lidagi urinish va sa’y-harakatlar tasviri tegrasida ko‘ngildan kechgan ehtiros, iztirob, intilishlar hikoyaning mavzu va g‘oyasini, asl mohiyatini o‘zida jamlagan.

Asar muallif tilidan hikoya qilinadi, unda asli qishloqlik, taqdir taqozosi bilan shaharda yashaydigan obraz orqali turmush mashaqqatlari, inson umri davomida har kuni, har damda takrorlanuvchi va hech tugamaydigan tashvishlar va bundan bezib ketgan, tashvishsiz, o‘ysiz, xotirjamlik izlayotgan inson hayoti aks ettirilgan. Bosh qahramon har doim oilasi oldidagi burchini, mas’uliyatini his qilgan holda uzluksiz harakat qiladi. Hattoki kunlik qilishi kerak bo‘lgan ishlarining ro‘yxatini tuzib qo‘yadi: “ - *Ishonmasangiz, mana bittasi. O‘qib ko‘ring. 1.Eshikning qulfiga til. 2. Sarvarning to‘yiga to‘yona. 3. Yo‘l-yo‘lakay ishxonaga el. choynak (kecha kuyib qolgan edi). 4. O‘g‘ilning kompyuterini ustaga eltish. 5. Elektr pulini to‘lash. 6. Poliklinikadan spravka (qiz fiz.mashg‘ulotlariga qatnashmaydi). 7. Bozor (kartoshka, piyoz, sabzi, go‘sht, non, yog‘...). 8. Mashina shinalarini da mlatish. 9. Yunusoboddagi qarindoshdan hol so‘rash (bobosi qazo qilgan). 10. Keksayib qolgan qo‘shnini Qorasuvdagi tabibga olib borib kelish (otaxonning o‘zi qattiq iltimos qilgan). 11. “Gap”ga borish...E’tibor beringki, ro‘yxat faqat bugunga atalgan. Erta uchun uni boshqatdan tuzaman”[4;317].* Ko‘rinadiki, har kun takrorlanuvchi bir xillik hayotdan norozidek, unga qasdlashgandek, lekin taqdiriga bitilgan barcha zarbalariga chidab yashashga rozi bo‘ladi. Lekin, u taqdirining bir chizig‘ini o‘zgartirmoqqa ahd qiladi. Chunki u hayotining shundayligidan, ya’ni qanday bo‘lsa, o‘shandayligidan juda-juda charchagan edi. Botinida yashayotgan yoshlik, beg‘amlik davrlari asta-sekin yuzaga chiqa boshladi. Har bir shaxs mazkur hikoyadagi kabi hayot zarvaraqlarida ro‘y berayotgan turli voqea, hodisot, yumushlardan bir muddat bo‘lsada yoshligiga qaytishni yoki nimadir ro‘y berib qisqa muddatga bo‘lsa ham barchasidan yiroqlashishni istaydi. Bu kabi istaklarni kimlardir Allohning bergan ne’matlariga noshukurlik qildi deya talqin ham qilishi mumkin. Ammo hikoya qahramoni uchun bu hukm to‘g‘ri bo‘lmaydi nazarimda.

“Turib-turib daryoni yomon ko‘rib ketaman. Axir, u tufayli tushmadimi mening bechora boshimga shuncha g‘alva? Daryoga mahliyo bo‘lmaganimda chalg‘imas edim, ha, chalg‘imas edim!”[4;326]. Mazkur parchada hikoya qahramoni o‘z maqsadi yo‘lida dunyo lazzatlariga chalg‘ishi va buning natijasida esa boshiga kutilmagan kulfatlar yo‘liqishi, hayotining izdan chiqishi va o‘zini aybdor sanashi, xatosini anglab yetishi tasvirlangan. Inson o‘z maqsadi yo‘lida chalg‘ishi muallif qalamiga mansub “Bir piyola suv” hikoyasida ham bayon etilgan edi (oldingi tadqiqotlarda tahlilga tortilgan). “Ko‘nglimdagi daryo” hikoyasidagi qahramon ham suvga, aniqrog‘i, daryoga mahliyo bo‘lib chalg‘idi va bundan aziyat chekdi. Qahramon daryoni har doim tushlarida ko‘rgan va o‘nglarida ham unga boqib xayollar og‘ushiga sho‘ng‘iganligi va bir zumga bo‘lsa ham qoida va tartibli hayotni unutib tashvishsiz, beg‘ubor onlariga qaytish ilinjida harakat qiladi.

Mazkur hikoyada quyidagi parchaga e’tibor qilaylik: *“Shunday kezlar afsonaviy Sizif xayolimga tushadi. Siz ham eslasangiz kerak uni. Tog‘ cho‘qqisiga og‘irdan og‘ir toshni dumalatib olib chiqishga behuda chiranayotgan (murodiga yetolmasligi taqdiriga bitilgan) Sizifni bilmagan bormi, axir! Turib-turib, “Sizif har birimizning ko‘ksimizda joylamshgan, u bizning o‘zimiz, Sizif – bizning har birimiz!..”, deya olamga jar solgim keladi. Ammo bu o‘ylarimni tashqariga olib chiqmayman, ular ichimda qoladilar. Axir, hamma buni biladi, lekin hech kim shu bilgani oldida to‘xtab, hayotiga nazar solmaydi”[4;329].* Muallif ushbu o’rinda zamondosh yozuvchi X.Do’stmuhammadning “Donishmand Sizif” romaniga ishora qiladi, undagi Sizif bilan hikoya qahramoni taqdiri o‘xshash ekanligini hikoya syujeti davomida teran falsafiy mushohadalar keltirish orqali dalillaydi.

Tush tasviri esa ushbu hikoyada xotimada keltirilgan va unda hikoya qahramoni o‘z orzusiga yetadi: *“Faqat… faqat bir kecha hamma toat-ibodatimning kuli ko‘kka sovrildi...Uzun ro‘yxatni bexato bajarib kelgan kunim kechasi bir tush ko‘rdim. Unda... unda men yana o‘sha daryoga duch kelib qoldim... Va uning so‘lim sohili kimsasiz, nazoratsiz edi..Va u to‘lib-toshib, buralib-eshilib, emin-erkin oqardi... Va u meni kutayotgan edi...Va men ham uni judayam-judayam sog‘ingan ekanman!...”[4;333].* Tushlarida va o‘nglarida unga doimo halaqit beradigan nazoratchi va hushtak obrazlari o‘ziga xos ramziylika ega bo‘lib, inson hayotida otalik, o‘gillik, erlik, qarindoshlik mas’uliyatini eslatib uni behuda xayollarga berilishdan saqlab turuvchi bir vosita ma’nosini anglatgan deya talqin etish mumkin. Umuman, mazkur hikoya teran falsafa, purma’noga ega bo‘lib, insonnining o‘ziga bitilgan taqdir, qismatiga rozi bo‘lishga, noshukrlik qilmaslikka, har ne bo‘lsa Allohdan ekanligiga ishonish hissini uyg‘otadi. Yozuvchining badiiy mahorati esa

inson psixologik holatidagi evrilishlarni poetik qonuniyatlar, ya’ni badiiy tasvir vositalari, obraz va detallar orqali yetkazishida ko‘rinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Қуронов Д. Назарий қайдлар.- Тошкент: Академнашр, 2018. – Б. 3-4.
2. Султон И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 2005. – Б.124.
3. Истамова Ш. Бадиий асарда туш поэт-комп.ваз. Фил.ф.б. ф. дис... автореф. – Самарканд, 2017.15б.
4. Ҳамдамов У. Тўлин ой қиссаси. Тошкент. “O’zbekiston”.- 2017. 317, 326,329, 333-betlar.

ЎТКИР ҲОШИМОВНИНГ «ИККИ ЭШИК ОРАСИ» РОМАНИДА ЭВФЕМИЗМЛАРНИНГ ҚЎЛЛАНИШИ

Салишева Умида,
Қозоғистон Республикаси, Туркистон вилояти
Махмуд Қошғарий номли лицей мактаб ўқитувчиси

Фикрни юмшоқ ва чиройли, одобли қилиб ифодалаш эвфемизм ҳисобланади. Эвфемизмлар қўпол, беодоб, тақиқ сўз ёки ибора маданий шаклда пардали қилиб айтилади. Эвфемизмларнинг маъноси шартли сўз бўлиб фақат контекстдагина реаллашади, улар кўпинча сўзнинг кўчма маънода қўлланиши асосида юзага келади. Эвфемизмларни юмшоқ маъноли синоним сўз ибора ёки гап деб аташ мумкин. Ўткир Ҳошимовнинг «Икки эшик ораси» романида ҳам эвфемизмлардан унумли фойдаланилган.

«Ойим уни юпатишга уринди:

- Нафасингизни иссиқ қилинг айланай, юртга келган тўй. Мана Кимсаним ҳам кетди-ку! Ўтирибман яратганга топшириб.» «Ёв қувдими мунча ҳовликдингиз, десам, мен белида белбоғи бор ўғил ўстирдим! – деб керилади». Ушбу мисолларда «уруш» сўзи ўрнида «юртга келган тўй» йигит сўзини ифодалаш мақсадида «белида белбоғи бор ўғил» иборалари қўлланилган.

Холпош хола тағин фарёд қилди:

- Бир эмас иккитасидан баробар ажралсам-а, «ўғилларим ўлди» ўрнида «ажралдим» сўзи орқали кампирнинг ғам-қайғуси акс эттирилади.

«Чучварани хом санабсан. Оқсоқол! Сен шохида юрсанг, мен баргида юраман»,

«Одамлар оёғи билан эмас, оғзи билан юради, ўзим эрта пешиндан буён туз тортмагандим», «чучварани хом санамоқ», «сен шохида юрсанг, мен баргида юраман» иборалари орқали ёзувчи сендан ҳали мен айёрман деган фикрни, ғийбатчи сўзини эса «оёғи билан эмас оғзи билан юрмоқ», оч қолмоқлик эса пешиндан буён туз тортмаслик иборалари мисолида тасвирлайди.

«Дадам қўйиб берса Лазокат холамнинг қўлидан судраб чоптириб кетадигандек важоҳатда – Тезроқ! – деди. Хола жеркиб ҳам ялиниб:

- Вой укам ваҳима қилманг, бу савдо ҳар хотиннинг бошида бор» жумласи орқали аёлларнинг ҳаммаси ҳам фарзанд туғади деб эмас, бу савдо ҳар хотиннинг бошида бор тарзида ифодаланади.

«Маълум оши» қилинганини эшитиб хурсанд бўлдим билиб қўй. Сен энди боши боғлиқ қизсан». Ушбу мисолларда унашилган қиз ўрнида «маълум оши», «боши боғлиқ қиз» жумлалари орқали ёзувчи фикрларни чиройли ва таъсирли ёритади.

«Бўйи етган қизнинг орзуси осмондаги юлдузга ўхшайди. Узоқдан ярақлаб кўринади-ю, на етасан, на тутасан. Юлдуз эса олисда сирли-сирли милтираб тураверади. Талпинасан ҳеч кимга билдирмай хаёл сурасан. Юлдузинг ёнинга тушишини орзиқиб кутасан. Ким билсин «юлдузи-юлдузига тўғри келибди» деган гап балки шундан чиққандир. Менинг юлдузим – Кимсан акам эди».

Ушбу контекстда Кимсан акамга турмушга чиқаман деган фикрни ёзувчи «бўйи етган қиз», «юлдузи-юлдузига тўғри келибди» деган жумлалари орқали таъсирли тасвирлайди.

Эвфемизмлар асарнинг тилини бойитади, бадиий қимматини оширади, бадиий асардаги эмоционал-экспрессивликни кучли ифодалашга хизмат қилади. Баъзан шартли эвфемизмлар бадиий адабиётда кенг қўлланилади. Масалан, «Ўлди» ўрнида «бериб қўйди», «вафот этди», «ажралдик», «ҳалок бўлди», «қиз бола» ўрнида, «холва», «иккиқат» ўрнида «оғир оёқ, ҳомиладор, юкли» каби.

Демак, эвфемизмлар нутқнинг таъсирчанлигини ошириб, ўқувчининг эътиборини тортади, асар қимматини оширишга хизмат қилади.

ETNOGRAFIZMLARNING BADIIY ADABIYOTDA MILLIY-MADANIY LISONIY BIRLIK SIFATIDA AKS ETISHI

Sattorova E’zoza Muzaffar qizi
sattorovsezoza@gmail.com
O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti
2-bosqich magistranti,

Ilmiy rahbar: **Muxitdinova Xadicha Sobirovna**
Pedagogika fanlari doktori, professor

Abstract: *Ethnographic elements are one of the crucial components of artistic style, playing an essential role in preserving and introducing national cultures through literature and art by vividly and accurately depicting the lifestyle of different peoples. Through ethnographic elements, writers and poets showcase historical and cultural features in a distinctive way. The 19th century literary period marked the flourishing of this style. For instance, in Alexander Pushkin's drama Boris Godunov, the cultural lexicons, religious customs, and social life of the Russian people are depicted. Similarly, in Uzbek literature, the novel O’tkan Kunlar by Abdulla Qodiriy portrays the social and cultural relations, traditions, and values of the Uzbek people at the turn of the 19th to 20th centuries. The novel is rich with examples of communal life and local customs. Moreover, ethnographic details in works like Jane Austen's Pride and Prejudice and Anton Chekhov’s play The Duck Pond are vital in revealing cultural practices, manners, and traditions of the respective societies. The paper highlights the importance of ethnographic elements in literature for portraying the social fabric of different nations and their role in the development of cultural identity.*

Keywords*: ethnographic elements, artistic style, national culture, literature, Pushkin, Qodiriy, Austen, Chekhov, Uzbek, Russian, English, social customs, traditions, cultural identity.*

Аннотация: *Этнографические элементы являются важнейшей частью художественного стиля, играя ключевую роль в сохранении и распространении национальных культур через литературу и искусство, живо и точно изображая образ жизни разных народов. С помощью этнографических элементов писатели и поэты представляют историко-культурные особенности в уникальной форме. XIX век стал временем расцвета этого стиля. Например, в драме Александра Пушкина Борис Годунов изображены культурные лексемы, религиозные обычаи и социальная жизнь русского народа. Точно так же в узбекской литературе роман O’tkan Kunlar Абдуллы Кадырия изображает социальные и культурные отношения, традиции и ценности узбекского народа конца XIX — начала XX века. Роман богат примерами общинной жизни и местных обычаев. Более того, этнографические детали в произведениях Джейн Остин Гордость и предубеждение и пьесе Антона Чехова Утка в пруду играют важную роль в раскрытии культурных практик, манер и традиций соответствующих обществ. Статья подчеркивает важность этнографических элементов в литературе для изображения социальной ткани различных народов и их роли в развитии культурной идентичности.*

Ключевые слова*: этнографические элементы, художественный стиль, национальная культура, литература, Пушкин, Кадырий, Остин, Чехов, узбекский, русский, английский, социальные обычаи, традиции, культурная идентичность.*

Annotatsiya*. Etnografik elementlar badiiy uslubning eng muhim qismlaridan biri bo'lib, milliy madaniyatlarni adabiyot va san’at orqali saqlash va tarqatishda asosiy rol oynaydi, turli*

xalqlarning turmush tarzini jonli va aniq tasvirlaydi. Etnografik elementlar yordamida yozuvchilar va shoirlar tarixiy-madaniy xususiyatlarni o‘ziga xos shaklda namoyish etadilar. XIX asr ushbu uslubning gullab-yashnash davri bo‘ldi. Masalan, Aleksandr Pushkinning “Boris Godunov” dramasida madaniy leksikalar, diniy urf-odatlar va rus xalqining ijtimoiy hayoti tasvirlangan. Xuddi shunday, o‘zbek adabiyotida Abdulla Qodiriyning “O’tkan kunlar” romani XIX asr oxiri – XX asr boshlarida o’zbek xalqining ijtimoiy va madaniy munosabatlari, an’analari hamda qadriyatlarini aks ettiradi. Roman jamoaviy hayot va mahalliy urf-odatlarning boy namunalari bilan to’la. Bundan tashqari, Jeyn Ostinning “Andisha va g’urur” asari hamda Anton Chexovning “Ko’ldagi o’rdak” pyesasidagi etnografik tafsilotlar tegishli jamiyatlarning madaniy amaliyotlari, odob-axloq me’yorlari va an’analarini ochib berishda muhim rol o’ynaydi. Ushbu maqola turli xalqlarning ijtimoiy tuzilishini tasvirlashda adabiyotda etnografik elementlarning ahamiyatini va ularning madaniy o’ziga xoslikni shakllantirishdagi rolini ta’kidlaydi.

Kalit so’zlar: *etnografik elementlar, badiiy uslub, milliy madaniyat, adabiyot, Pushkin, Qodiriy, Ostin, Chexov, o‘zbek, rus, ingliz, ijtimoiy urf-odatlar, an’analar, madaniy identifikatsiya.*

Etnografizmlar badiiy uslubning muhim unsurlaridan biri hisoblanib, adabiyot va san’atda xalqlarning hayot tarzini jonli va aniq tasvirlash vositasi sifatida milliy madaniyatni asrab-avaylash va uni boshqa xalqlarga tanishtirishda muhim rol o’ynaydi. Yozuvchi va shoirlar etnografizmlar vositasida tarixiy-madaniy xususiyatlarni o’ziga xos usulda namoyon etadilar.

XIX - asr adabiyoti ushbu uslubning yuksalish davri bo’lgan. Masalan, Aleksandr Pushkinning “Boris Godunov” dramasida rus xalqining madaniy leksemalari, diniy urf-odatlari va o‘sha davrdagi ijtimoiy hayot tasvirlangan. Asarda xalqning so’z boyligi, diniy marosimlari va kundalik turmush tarzi elementlari orqali o’quvchi o‘sha davr muhitini his qila oladi.

O’zbek adabiyotida esa Abdulla Qodiriyning “O’tkan kunlar” romanida yaqqol namoyon bo’ladi. Ushbu roman XIX - asr oxiri XX - asr boshidagi o’zbek xalqi ijtimoiy-madaniy munosabatlari, urf-odatlari, qadriyatlarini keng tasvirlagan asardir. Masalan, Yusufbek hoji hovlisida o’tkazilgan to’y marosimlari, unga tayyorgarlik ko’rish jarayonlari o’sha davrdagi xalqning bunday turdagi jamoaviy bazmga munosabatini tasvirlagan. To’yni o’tkazishdagi ayollarning “*sepil*” yasashidan tortib, erkaklarning “*guvoch o’rnatish*” jarayonlariga qadar barchasida jamoaviy amalga oshirish, xalqning birdamligi va hamkorlikka asoslangan hayot tarzini ko’rsatadi. Romandagi *ko’rpa-to’shak*, *xurjun*, *salla*, *chopon* kabi so’zlar xalqning kundalik turmush tarzidagi kiyinish so’zlarni ifoda etadi. Yusufbek hoji oilasida to’qilgan xurjunlarning tasviri faqatgina amaliy emas, balki estetik ahamiyatga ega ekanligini ham ko’rsatadi.

Shuningdek, romandagi bosh qahramonlar Otabek va Kumushning nikoh to’yi marosimi, oilaviy qadriyatlar, mahalliy urf-odatlarning o’ziga xos xususiyatlari

o’zgacha tarzda yoritilgan. Kumushning kelin sifatida *“ko’rpa yig’ish”, “sovchilarni kutib olish”* (Qodiriy, 1925) kabi odatlarni bajarishi milliylikni ochib berishning namunasidir

Ingliz adabiyotida ham etnografizmlarga namunalar ko’plab uchraydi. Masalan, Jeyn Ostin qalamiga mansub mashhur “Pride and Prejudice” (Andisha va G’urur) romanida XIX-asr Angliya jamiyatininng ijtimoiy tuzilish, nikoh marosimlari, qizlarning ta’lim olish darajasi va kiyinish uslubi keng yoritilgan. Elizabet Bennet va boshqa Bennet oilasi qizlarining bal va ziyofotlardagi kiyinish uslubi, o’sha davr ayollarining moda va jamiyatda o’rnini ifodalash vositasi sifatida tasvirlangan. Roman davomida Bennet oilasining iqtisodiy sharoitlariga qaramay, to’y va mehmondorchilik marosimlarida qatnashish uchun maxsus kiyimlar tayyorlashi, ijtimoiy mavqe va oilaviy an’analarning ahamiyatini ochib beradi. Shu bilan birga, ingliz jamiyatida o‘sha davr to’y marosimlari ham muhim rol o’ynaganini ko’rsatadi. Buning isboti sifatida esa asarda qator nomlari keltirilgan kiyim-kechakka doir so’zlarni ya’ni ingliz xalqiga tegishli realiyalarni misol qilib keltirishimiz mumkin:

- *pelisse* (ko’pincha ko’ylak ustidan kiyiladigan uzun palto yoki plash);
- *bonnet* (ayollar o’rashi uchun bosh kiyimi);
- *kravat* (erkaklar bo’yinlariga o’raydigan ro’mol yoki sharf);
- *briches* (erkaklar kiyadigan kalta shim turi);

bazmlarda dasturxonga tortish uchun foydalaniladigan ingliz taom nomlarini aks ettiruvchi so’zlar jumlasiga:

- *pudding* (shirinliklar yoki sho’r taomlarni bildiruvchi umumiy atama), choy (ingliz jamiyatida ijtimoiy yig’ilishlarning asosiy ichimligi);
- *mutton* (qo’y go’shti va keng tarqalgan oziq-ovqat mahsuloti nomi);
- *ale* (o’sha davrda mashhur bo’lgan pivo turi).

Bundan tashqari o’sha davr ingliz hayotini ifoda etish bilan bog’liq predmetlar va tushunchalarni ifodalaydigan va faqat ingliz madaniyatigagina taalluqli so’zlarni yana qator misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

- *carriage* (ot tortadigan arava), phaeton (ochiq va yengil dam olish uchun mo’ljallangan arava),
- *hack chaise* (yollanma arava) kabi so’zlar ular foydalangan transport vositalarini ifodalasa;
- *ball* (rasmiy raqs kechasi),
- *assembley* (raqs tushish yoki o’zaro tanishish uchun o’tkaziladigan yig’in),
- *dowry* (kelinning turmushga chiqishda keltiradigan mol-mulki yoki puli),
- *entail* (mulkni oilada mulkni saqlashni ta’minlovchi qonuniy cheklov);

unvonlar va ijtimoiy sinf nomlarini ifodalovchi so’zlar esa,
- *gentleman* (ijtimoiy mavqega ega erkak),
- *baronet* (baronlardan pastroq darajadagi merosiy unvon),
- *estate* (oila yoki shaxsga tegishli mulk),
- *rector* (cherkovning mahalliy rahbari) qabilida yoritib berilgan.

Bingley va Jeyn o’rtasidagi munosabatlar, mehmonlarni kutib olish tartiblari va ziyofat marosimlarini tasvirlash orqali Jeyn Ostin Angliyaning o’sha davrdagi an’analarini o’quvchiga yetkazib beradi (Austen, 1813).

Anton Chexovning “O’rdak bog’i” pyesasida esa ziyofat sahnasi yanada batafsil tasvirlangan. Ziyofat uchun dasturxon tayyorlash jarayonida qahramonlarning bir-biri bilan qilgan suhbatlari va sahnadagi buyumlarning joylashuvi rus xalqining uy-joy madaniyati va marosimlaridagi o’ziga xosliklarni ko’rsatib beradi. Masalan, Chexov pyesada *shashlik, kasha, borshch* kabi taomlarni eslatib, ularning tayyorlanishi va berilish tartibiga urg’u beradi. Bu orqali u rus xalqining mehmondo’stlik an’analari va jamiyatdagi turli qatlamlarning ovqatlanish madaniyatidagi farqlarni ko’rsatadi (Chexov, 1896).

“Alpomish” dostonida to’y marosimi, xalq qadriyatlari va kiyinish tarziga oid ko’plab misollar keltirilgan bo’lib, *qiz tanlash, qiz uzatish, nikoh, raqs marosimlari*; asarda foydalanilgan o’zbek xalqi kiyimlaridan *kurta* (erkaklar to’yda kiyadigan uzun kiyim), *chak-chak* (ayollar va xotin qizlar to’yda kiyadigan uzun libos), *kaltak* (yubka osti kiyimi, asosan, to’ylarda ayollar tomonidan kiyilgan) kelin-kuyovga nisbatan ishlatilgan yaxshi niyatlar – *bahtli bo’linglar*, *chiroyli farzand ko‘ringlar*, *xudodan yaxshi niyatlar*; *torta* – to’y sovg’asi; tortishuv va kurash musobaqasi esa Alpomish dostonida to’ydan oldin erkaklar o’rtasida o’tkazilgan va bu o’z navbatida to’yga tayyorgarlik va insonlarni bir davraga birlashishi ramzi bo’lgan (Babadjanova, 1998).

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Austen, J. (1813). *Pride and prejudice*. London: T. Egerton.
2. Babadjanova, G. (1998). *Alpomish: A study of Central Asian epics*. Tashkent: 3. Fan Publishing House.
3. Chekhov, A. P. (1896). *O’rdak bog’i*. Moscow: Sovremennik.
4. Qodiriy, A. (1925). *O’tkan kunlar*. Tashkent: Fan.

MILLIY FRAZEOLOGIZMLAR ISHTIROK ETGAN VATAN VA VATANPARVARLIK HAQIDAGI O‘ZBEK XALQ PAREMALARINING SEMANTIK TADQIQI

Sharipova Ozoda Xolmurodovna
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti
Ozodaxon925@gmail.com

Annotatsiya: *Bugunga kelib matnlarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish jarayonida elektron tarjimon dasturlar deyarli barcha xalqlar tomonidan foydalaniladigan asosiy yordamchi vositalardan biriga aylanib ulgurdi. Biroq ulardan foydalanish jarayonida duch kelinadigan ayrim kamchiliklarni ham inkor qilib bo‘lmaydi. Mazkur holat, ayniqsa, barqaror birliklar qo‘llangan matnlar tarjimasida ko‘proq va yaqqolroq ko‘zga tashlanadi. Shu sababli ham bu kabi matnlar alohida izohlashni talab qiladi. Maqolada milliy frazeologizmlar ishtirok etgan vatan va vatanparvarlik haqidagi o‘zbek xalq paremalaridan bir nechtasi tanlab olingan va ularning izohiga alohida-alohida to‘xtalingan. Maqol va matallarni tahlil qilish jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan foydalanilgan.*

Kalit so‘zlar: *frazeologizm, tarjima, vatan, vatanparvarlik, parema, semantik tahlil, maqolshunoslik, lingvokulturologik tahlil, madaniyat.*

Abstract: *Today, electronic translation programs have become one of the main auxiliary tools used by almost all peoples in the process of translating texts from one language to another. However, some shortcomings encountered in the process of using them cannot be denied. This situation is especially noticeable in the translation of texts using stable units. Therefore, such texts require separate interpretation. The article selects several Uzbek folk proverbs about the homeland and patriotism, in which national phraseologisms are present, and their interpretation is discussed separately. In the process of analyzing proverbs and sayings, the methods of scientific knowledge of logic, historicity, consistency and objectivity were used.*

Keywords: *phraseology, translation, homeland, patriotism, proverb, semantic analysis, proverbology, linguo-cultural analysis, culture.*

Paremalar yaratuvchisi bo‘lgan xalq qarashi va madaniyati haqida ma’lumot beruvchi qimmatli manbalardan biridir. Garchi ko‘pgina maqol-u matallar tildan tilga, xalqdan xalqqa ko‘chib o‘tib, qo‘llanish doirasi jihatidan keng hududlarga yoyilgan va dunyo xalqlari og‘zaki ijodidan universal mohiyat anglamida keng o‘rin olgan bo‘lsa-da, ayrim paremalar borki, ular o‘zida aks etgan milliy birliklar orqali uni yaratgan millat haqida tasavvur hosil qila oladi. Frazeologizmlar ham shular sirasidandir. Biroq frazeologizmlarga xos yana bir muhim xususiyat borki, ularni asl mohiyatini saqlagan holda tarjima qilish, qo‘llangan matn mazmunini o‘zga tilli kishilar jamoasiga to‘laligicha anglatish ba’zan bir qadar murakkablik va tushunmovchiliklarni keltirib chiqaradi, ayniqsa, bu holat ularning erkin birikmalar bilan shakldoshlik hosil qiladigan holatlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shu sababli ham bunday matnlar alohida izohlashni talab qiladi. Quyida bunday birliklar

qo‘llangan matnlar anglamini va tarjima jarayonini osonlashtirish maqsadida milliy frazeologizmlar ishtirok etgan vatan va vatanparvarlik haqidagi o‘zbek xalq paremalaridan ayrimlarining semantik va lingvokulturologik tadqiqi amalga oshirilgan.

So‘nggi yillarda paremalarni lingvokulturologik doirada o‘rganishga katta urg‘u berilib, shu yo‘nalishda M.Asranova, F.F.Farxutdinovalar [1] izlanishlar olib bordilar. Poyon Bakirovning rus, o‘zbek va qozoq xalq maqollari lingvistik xususiyatlari bo‘yicha amalga oshirgan ishlari alohida e’tiborga loyiq. Olim uch til doirasida qiyosiy-chog‘ishtirma tahlilni amalga oshirish bilan bir qatorda maqol, matal, ibora munosabatlariga ham alohida e’tibor qaratadi va maqolga xos xususiyatlarni ajratib ko‘rsatadi. P.Bakirovning tadqiqotida yana nominasentrik – ega va kesimi bosh kelishikdagi ot va harakat nomi bilan ifodalangan maqollarning semantik va struktur xususiyatlari ham batafsil izohlab berilgan [2] .Bugungi o’zbek paremiologik fondining tarjima, ayniqsa, elektron tarjima jarayonida tez-tez ko’zga tashlanayotgan muammolarini hisobga olgan holda quyida bir qator tarkibida interpritatsiya jarayonida qiyinchilik tug’diruvchi bir qator turg’un birikmali maqol va matallar tanlab olingan holda tahlil qilindi.

Аннотация: *Проектное обучение (PBL) — это, по сути, методический подход, который поощряет учащихся к углубленному обучению через усердную и дружелюбную работу над проектом в течение длительного периода времени. Этот тип метода позволяет учащимся исследовать важные в течение жизни проблемы и сложные вопросы, сотрудничая со сверстниками. После совместной работы учащиеся могут получить четкие результаты. В отличие от традиционных стратегий, которые фокусируются на простом запоминании и пассивном обучении, метод PBL развивает критическое мышление, креативность и навыки решения проблем, ставя учащихся в центр их учебного опыта.*

Ключевые слова: *проект, традиционный, опыт и сотрудничество.*

Introduction:

Project-Based Learning is an educational strategy. In this approach students study and respond to difficult, real-world problems or challenges. Instead of following a textbook-based curriculum, learners ought to find solutions by asking questions and working collaboratively to create a demonstration or presentation that shows their learning. All in all, In a world that is frequently changing, education must evolve beyond traditional methods of teaching and memorization. Especially, students today have to develop strong critical thinking and problem-solving skills, as well as the ability to collaborate effectively. Project-Based Learning (PBL) is one approach that professionally meets these requirements. PBL is a dynamic and engaging educational strategy that empowers students to take control of their learning. Importantly, this method should be always acknowledged by teachers in the classroom.

Comparing to conventional approaches that emphasize rote memorization and standardized testing, PBL motivates students to become active participants in their education. This practical, hands-on method cultivates deeper understanding, sharper critical thinking skills, and greater creativity.

There are main characteristics of PBL:

1. Real-World Relevance: PBL engages learning with real-life situations by making it more interesting and meaningful for students. For example: rather than just reading about global warming in a textbook, students might design a diagram with solutions that can tackle with the global warming. This will connect directly to real-world preventing the environmental issues;

2. Inquiry-Driven: Projects initiate with a main question by encouraging students to study and explore the topic deeply. For example: Instead of a chapter on the Testing Animals where the teacher provides all the information, the project might begin with the question: "How should we check the cosmetics before using them?” Students can then investigate why human being should or should not test on animals, analyze other versions of testing the products. The given question will guide their research.

Research demonstrates that students learn more when they work on group projects. These types of "open-ended" projects, where students need to analyze the problem and find solutions by themselves, are far better for learning. Because learners are supposed to make decisions about how to address the problem by considering different options.

Essential Elements of Effective PBL:

1. Fascinating Question or Challenge: A project starts with an interesting question or problem that initiates the learning process. This question should be complex, thought-provoking, and relevant to students' lives and interests;
2. Ongoing Exploration: Students commit to a continuous process of investigation, research, and collecting information. They examine the problem from various perspectives, ask questions, and pursue answers;
3. Real-World Application: Projects ought to connect to real-life issues and situations, making the learning experience more meaningful and engaging.
4. Student Agency and Preference: Learners should have some level of control over the direction of the project, their tasks, and their outcomes. This fosters a sense of ownership and promotes deeper involvement.

5. Cooperation and Communication: PBL places a high value on teamwork, collaboration, and effective communication. Students learn to work together, share insights, and contribute towards a shared objective.
6. Reflection and Revision: Students should be given opportunities to reflect on their learning journey, receive constructive feedback, and improve their work.
7. Public Sharing of Work: Often, projects culminate in a presentation of students' findings to a wider audience, such as classmates, parents, or members of the community.

The Benefits of Project-Based Learning:

- Deeper Understanding: PBL motivates students to explore topics more thoroughly, fostering more deep understanding;

- Development of Essential Skills: PBL assists students develop skills important for the 21st century, including critical thinking, problem-solving, teamwork, communication, and creativity;

- Increased Motivation: Real-world projects, mixed with student preference, make learning more engaging and relevant, leading to higher levels of student motivation;

- Enhanced Retention: By applying knowledge practically, students are more likely to remember what they learn;

- Practical Application: PBL connects academic content to real-life contexts, demonstrating the practical importance of learning;- Personal Development: Students develop self-directed learning strategies, increase their confidence, and learn to manage their own education.

Conclusion:

Project-Based Learning (PBL) encourages deep learning and vital skills by engaging students in collaborative, long-term projects by ignoring traditional memorization.

Reference:

1. Project-Based Learning retrieved from https://www.bu.edu/ctl/ctl_resource/project-based-learning-teaching-guide/#introduction

MADANIY REALIYALARNING SHE’RIY ASARLARDA IFODALANISHI

Soliyeva Gulxayyo Ibrohimjon qizi
Lingvistika (o‘zbek tili) mutaxassisligi magistranti
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
gulhayoibrohimovna@gmail.com
Tashkent, O‘zbekiston

***Annotatsiya**: Mazkur maqolada realiya tushunchasining mohiyati, uning tilshunoslikda tutgan o‘rni, milliy realiyalar va ularning boshqa leksik birliklar orasidagi farqi ochib berilgan. Shavkat Rahmon she’rlaridagi madaniy realiyalar tahlil qilingan. Shuningdek, realiyalarni tasniflash masalalariga ham to‘xtalib o‘tilgan. Realiya birliklarining xalq turmush tarzi, dunyoqarashi va madaniyati bilan aloqadorligi hamda ularning lug‘at boyligini oshirishda, milliy koloritni aks ettirishda tutgan o‘rni izohlangan. Realiyalarni o‘rganish va ular bilan bog‘liq tadqiqotlar doirasini kengaytirish muayyan tilning ichki taraqqiyot xususiyatlarini o‘rganishda va madaniyatlar orasidagi farlarni keng yoritishda o‘ziga xos ahamiyat kasb etishi qayd etilgan.*

***Kalit so‘zlar**: Realiya, lingvokulturologiya, lingvomamlakatshunoslik, muqobilsiz leksika, milliy kolorit, irrealiya, atama.*

Kirish. Jahonda globallashuv va integratsiya avj olayotgan bugungi davrda har bir millat o‘z madaniyati va tilini saqlab qolishga intilmoqda. O‘zligini saqlashga intilgan har bir millat kabi o‘zbek xalqi ham asrlar mobaynida til sofligi va ravnaqi uchun kurashib kelgan. Bu kurash hozirda yangi O‘zbekiston taraqqiyotiga mos tarzda tadrijiy davom etmoqda. Biroq bugungi davrdagi mafkuraviy jarayonlar silsilasini kuzatib bu harakatlar natijadorligini yanada jadallatish zarurligini hech kim inkor etmaydi.

Dunyo tilshunosligida til sofligini saqlash, uning ichki manbalar hisobiga boyish jarayonlariga ongli aralashuv, aslida, har bir millatning o‘z tilini saqlab qolish, uni kelajak avlodga to‘kis-tugal yetkazish ehtiyojidan yuzaga kelgan. Bugungi kunda til leksikasidagi bo‘shliqlarni aniqlash va ularni to‘ldirishga qaratilgan ishlarning aksariyatida tildagi mavjud ichki imkoniyatlarga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu, birinchidan, tilning sofligini ta’minlash uchun xizmat qilsa, ikkinchidan, so‘z boyligini orttirish va ifoda imkoniyatlarini kengaytirishga ham xizmat qilishi tilshunoslar tomonidan e’tirof etilmoqda.

Muhokama va natijalar. O‘zbek tilshunosligida ham bu borada salmoqli yutuqlar qo‘lga kiritilgan. Har bir xalqning til sofligiga e’tibor bilan bir qatorda, shu xalqning madaniyati, urf-odatini ko‘rsatib beruvchi realiyalar ham bugungi kunda lingvokulturologiyaning muhim tushunchasi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbek tilshunosligida madaniy realiyalar tilda xalqning tarixiy, ijtimoiy, va madaniy hayotining aks etishini ta’minlaydigan muhim elementlardir. Ular tilning

leksik boyligi, frazeologik birliklari va grammatik qoidalarida o‘z aksini topib, milliy madaniyatni boshqa xalqlarga yetkazish va anglash vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Zamonaviy o‘zbek tilshunosligida madaniy realiyalarni o‘rganish yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda, chunki ular milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va dunyo miqyosida targ‘ib qilishda muhim omildir.

Aytish mumkinki, madaniy realiyalarda xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari va tarixiy-madaniy xususiyatlari ifodalanadi. O‘zbek tilida “suyunchi”, “dasturxon”, “to‘yona”, “rayhon” kabi so‘z va atamalar (milliy topilmalar) milliy madaniyatni aks ettiradi va o‘zbek xalqining hayot tarzini ko‘rsatadi. Bu elementlar milliy o‘zlikni belgilashda asosiy ahamiyatga ega. “Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta’minlash, bu borada, avvalo, o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir”. O‘zbek tilshunosligida madaniy realiyalar til va madaniyatni o‘zaro bog‘lashda, milliy o‘zlikni saqlash va rivojlantirishda, shuningdek, tilni global miqyosda targ‘ib qilishda asosiy rol o‘ynaydi. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar, tarjimonlik va ta’lim jarayonlarida madaniy realiyalarga e’tibor qaratish dolzarbdir, chunki ular milliy madaniyatni anglash va dunyoga tanitishda muhim manba hisoblanadi.

Jahon tilshunosligida madaniy realiyalarni o‘rganish bo‘yicha tadqiqot olib borgan olimlar til va madaniyat o‘rtasidagi murakkab o‘zaro bog‘liqlikni yoritib, ularning tarjimada, muloqtoda hamda milliy xususiyatlarni anglashda ahamiyatini ko‘rsatib berdi. Ushbu olimlarning asarlari madaniy realiyalarni ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilish va ularni tilshunoslik nazariyasi hamda amaliyotiga tatbiq qilish uchun asos bo‘ldi. Jumladan, jahon tilshunosligida realiyalar bo‘yicha bir qancha olimlar ham tadqiqotlar olib borgan.

Jumladan, S.I.Ojegov realiya klassik grammatikada tashqi lingvistika fani o‘rganadigan, muayyan mamlakatning davlat tuzumi, xalq tarixi, madaniyati va aynan shu tilda so‘zlashuvchilarning til va aloqalari hamda boshqa turli xil omillar hamda madaniyat predmetlari sifatida izohlangan. D.E.Rozental, M.A.Telenkovalar realiyalarni “so‘zning nominativ ma’nosi uchun asos bo‘lib xizmat qiluvchi, mavjud madaniyat predmetlari” deb ta’riflashgan. L.N.Sobolev fikriga ko‘ra, ekvivalentlariga ega bo‘lmagan maishiy va o‘ziga xos milliy so‘zlar va iboralar, shuningdek, boshqa tillarda mavjud bo‘lmagan milliy turmush tarziga oid birliklar “realiya” hisoblanadi, negaki ushbu predmet va hodisalar boshqa mamlakatlarda mavjud bo‘lmaydi. A.V.Fedorov “realiya” deganda “ijtimoiy hayot va moddiy turmush tarzini

anglatuvchi”, faqat mahalliy hodisani ifodalovchi va boshqa xalqlarning turmushida va tushunchasida tengi yo‘q bo‘lgan so‘zlar”ni tushunadi.

Realiyalar badiiy asarlar va tarjimlar tizimida o‘rganib kelingan. She’riy asarlar misolida Shavkat Rahmon ijodi misolida talqin qilamiz. Shavkat Rahmon XX asr o‘zbek she’riyatiga o‘zgacha ruh olib kirgan va faqat o‘ziga xos uslubda ijod qilgan shoirdir. Shoir ta’biri bilan aytganda, asl qalamkash “jasorat” so‘zining tarjimoni, kuychisi bo‘lishikerak. Shavkat Rahmon o‘z ijodini millat hayoti, taqdiridan ayricha tasavvur eta olmasdi. Shuning uchun ham uning she’rlarida xalq madaniyatini, odatlarini ko‘rsatib beruvchi realiyalar talaygina. Xususan, shoirning “Gullayotgan tosh”, “Abadiyat oralab”, ”Hulvo” kabi to‘plamlarida xalq madaniyatini ko‘rsatib beruvchi bir necha so‘z va so‘z birikma shaklida qo‘llangan milliy xos so‘zlar ham talaygina.

Jumladan, ijodkorning “Hulvo” she’riy to‘plamini o‘qish davomida realiyalarning o‘ziga xos ko‘rinishlariga guvoh bo‘lish mumkin. Shoirning to‘plamga kiritilgan bir necha she’rlari misolida koloritlar, ularning qo‘llanishini ko‘rib chiqamiz.

Turkumning “Manzara” deb nomlangan she’rida shoir “yalangoyoq” so‘zini qo‘llaydi. Ushbu so‘z o‘zida bir necha ma’nolarni ifodalaydi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida yalangoyoq so‘zining sinonimi “oyoqlang” so‘zining ma’nolari quyidagicha keltirib o‘tilgan:

1. Oyoq kiyimsiz, oyog‘iga hech narsa kiymagan.

Manba: Nigina kimsasiz dashtda ortidagi daryo tomon oyoqyalang yurib ketdi. Mirmuhsin, Temur Malik. Bir to‘da bolalar chug‘urlashib, bog‘dan chiqib kelishdi. Oyoqyalang, do‘mboq, oftobda toblangan. S.Nurov, “Narvon”.

2. Ko‘chma: kambag‘al, qashshoq.

Manba: Toshtemir ham keyingi toifa oyoqyalanglardan bo‘lib, Mirzacho‘lga boruvchilar to‘piga qo‘shildi. H.G‘ulom, Feruza. -Him, ana shunaqa oyoqyalangdan qo‘rq-da, – boshini liqillatdi Xo‘jayor. A.Narziqulov, “Hayot yolqini”.

Yuqoridagi izohlardan ko‘rishimiz mumkinki, yalangoyoq so‘zining ikki: o‘z va ko‘chma ma’nosi bo‘lib, har bir shaxs uni maqsadiga, vaziyatiga moslab qo‘llaydi. O‘zbek madaniyatida bu so‘zning har ikki ma’nosi ham so‘zlovchilar nutqida mavjud. Ko‘chma ma’nosi, asosan, *“haqorat”* ni ifodalaganda, bir shaxs ikkinchhi bir shaxsni kamsitganda yetakchilik qiladi.

O‘z ma’nosida, asosan, oyoqqa hech qanday narsa kiymaslikdir. Yalangoyoqda yurish yoki turish yer yoki zamin bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqa qilish imkonini beradi, bu hissiy tajriba va atrof-muhit bilan aloqani ta'minlaydi. Odamlar qulaylik, dam

olish, madaniy sabablar yoki o‘zlarini asosli his qilish uchun yalangoyoq yurishni tanlashlari mumkin. Yalangoyoq bo‘lish ko‘plab madaniyatlarda, ayniqsa, issiq iqlim yoki yopiq joylarda keng tarqalgan. Shuningdek, u muvozanatni, holatni va oyoq kuchini yaxshilash kabi amaliy afzalliklarga ega bo‘lishi mumkin. Talaffuz urg‘u yoki dialektga qarab farq qilishi mumkin. Shevalarda ma’no farqlanishlari kuzatilishi tabiiy, albatta.

Shavkat Rahmon esa “Manzara” she’rida *“yalangoyoq”* so‘zini quyidagicha qo‘llaydi:

Oq sukunat portlar saharda,
kun nurida yonib, yaraqlab,
chopib kirar suvuq shaharga
yalangoyoq yashil daraxtlar.
Bir zumdayoq devor oshib,
Ko‘chalarga tarqab ketdilar.
Darchalarga yuzlarin bosib,
bolalarday qarar kattalar. [7;84]

Ijodkor she’rida jonsiz narsaga-daraxtga nisbatan yalangoyoq so‘zini qo‘llaydi. Demak, ushbu so‘z faqat jonli obyektlarga nisbatan emas, balki jonsiz predmetlarga nisbatan ham ishlatiladi. Yuqoridagi she’r buning yorqin dalilidir. Shavkat Rahmon “yalangoyoq daraxtlar” deya daraxtlarning oyog‘i yo‘q ekanligini, daraxtlar tana, ildiz va barglardan iborat bo‘lishini ko‘rsatib bermoqda.

Shoirning “Esdalik” she’ri ham realiyalardan holi emas. Bu koloritlar she’rning xalqona, tushunarli va she’rning o‘ynoqi satrlarga ega bo‘lishini ta’minlovchi unsurlardan biri hisoblanadi. Quyida she’rdan olingan to‘rtlikni keltiramiz:

Unutganim yo‘qdir hali
o‘rikzorni, asov soyni,
soy bo‘yida ko‘zdan xoli
baqaterak o‘sgan joyni. [7;85]

Yuqoridagi to‘rtlikda shoir ikkita milliy xos so‘zlardan foydalanish orqali milliy tilimizning naqadar boyligini, o‘ziga xosligini ko‘rsatmoqda. She’rda birikma holida “asov soy” va so‘z sifatida “baqaterak” realiyalari qo‘llanilgan. Ushbu so‘zlarning O‘zbek tilining izohli lug‘atida berilgan ma’nolarini ko‘rib chiqamiz:

1. Rom bo‘lmagan, odamga o‘rganmagan, yuvosh tortmagan.

A. Asov tuya.

B. Kulgi uchun bo‘lsa kerak, noib uni asov bir otga mindirgan edi. S. Ayniy “Sudxo‘rning o‘limi”.

Cho‘lga o‘rgangan asov qo‘y og‘ilni buzib yuborguday tipirchilaydi. S. Ahmad “Qadrdon dalalar”

2. Ko‘chma. Inson irodasiga bo‘ysundirilmagan, jilovlanmagan (tabiat kuchlari haqida). Norin. Sho‘x daryo, asov daryo. Tutqich bermas telba daryo. N. Safarov, “Olovli izlar”.

Bahor kelishi bilan qorlar erib, tog‘li hududlarda soylar suvlarga to‘lib oqadi. Ba’zan o‘zanidan toshib chiqib, har tarafga nag‘malar qiladi, hech kimga va hech narsaga bo‘y sunmaydi, shuning uchun bu jarayonga nisbatan *“asov soy”* birikmasi ishlatiladi. Demak, bilishimiz mumkinki, realiyalarning ma’lum bir mavsumda faol bo‘lib, boshqa bir faslda nofaol bo‘ladigan ko‘rinishlari mavjud ekan. Soy realiyasi har qanday mavsumda ham qo‘llanishi mumkin, ammo uning birikma holidagi ko‘rinishi, asosan, ko‘klam oyida kuzatiladi. Soy so‘zining izohli lug‘atdagi ma’nolariga e’tibor qaratamiz:

1. Ikki adir yoki tog‘ oralig‘idagi, ko‘pincha oqar suvlar harakati va boshqalar natijasida hosil bo‘lgan pastlik joy, suv yo‘li, vodiy.

Boy boyga boqar, suv soyga oqar. Maqol

Hozir ko‘klam kunlari: qirlar, soylar ko‘k-qizil pushti, go‘los va tag‘in allaqancha rangli chechaklar bilan ustlarini bejab, oshiqlarga yangi hayot, yangi umid berdilar. (A. Qodiriy “O‘tkan kunlar”)

2. Shunday vodiyda, pastlikda doimiy yoki mavsumiy oqadigan kichik daryo, ariq, irmoq.

Soy suvi. Soyda cho‘milmoq. Soydan kechib o‘tmoq.

Choy to‘kilib, soy bo‘lmas, yulduz yig‘ilib, oy bo‘lmas. Maqol

U bomdodni ado etgach, xarsang toshlar oralab sharqirab oqayotgan soy bo‘yiga tushib, tabiatning mislsiz jamolini tomosha qildi. Mirmuhsin “Me’mor”

3. Maxs. Miltiq stvoli ichidagi burama ariqcha.

Ko‘rishimiz mumkinki, soy so‘zining yana bir ma’nosi bo‘lib, bu ma’no vazifa va shakl o‘xshashligiga egaligi uchun shu so‘zdan foydalanilgan.

Baqaterak so‘zining izohli lug‘atdagi ma’nosi quyidagicha:

1.Teraklarning tarvaqaylab o‘sadigan, toldoshlarga mansub turi, qoraterak.

Manba: Normatparangning hovlisi guzarda, butun mahallaga ko‘rinib turadigan baland, qari baqa terakning soyasiga joylashgan edi. (A.Muxtor “Opa-singillar”.)

Daladan qaytsak, maktab hovlisidagi baqaterakning pastki shoxiga ilingan qo‘yning terisini shilyapti. (O‘.Hoshimov “Ikki eshik orasi”).

Baqaterak so‘zi o‘zbek madaniyatida faol qo‘llaniladi. Ushbu koloritning qo‘llanish maydoni, asosan, tog‘ va tog‘ oldi hududlar va qishloqlar hisoblanadi. Albatta, o‘simliklar dunyosi bilan tanishgan hech boir insonga bu so‘z notanish emas. Shuning uchun ham she’rida baqaterak so‘zidan unumli foydalangan.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, realiyalar har bir xalqqa xos bo‘lgan moddiy borliqning madaniy oynadagi aksidir. Ularda xalqlarning dunyoqarashi, turmushi, urf-odatlari yashaydi. Shu bois ijodkorlar ham ularni o‘rinli va kerali o‘rinlarda qo‘llashga harakat qiladilar. Shavkat Rahmon she’rlari xalqonaligi bilan ajralib turadi, chunki uning she’rlarida o‘zbek xalqiga xos va mos bo‘lgan milliy xos so‘zlarimiz talaygina, ularning ishlatilish o‘rni ham betakror. Xoh nasr bo‘lsin, xoh nazm, albatta, shu xalq madaniyatiga xos bo‘lgan realiyalar mavjud bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fedorov A. V. Fundamentals of the general theory of translation, 1983. -303 p.
1. Файзуллаева Р. Национальный колорит и художественный перевод. –Ташкент: Фан, 1980.
2. H.Hamroyev. Milliy xos so‘zlar- realiya va badiiy tarjima // Tarjima madaniyati(maqolalar to‘plami). -Toshkent: 1983. -158 b.
3. Саломов Ғ. Таржима назариясига кириш. –Тошкент: Ўқитувчи, 1978.
4. Томахин Г.Д. Теория перевода. –Москва: 1988.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Т.: 2006 – 2008.
6. Шавкат Раҳмон. Ҳулво. -Тошкент: Ёш гвардия, 1987. – 84 б.

ROBERT LOUIS STIVENSONNING ASARLARIDA DOPPELGÄNGER KONSEPSIYASI: INSONIYAT TABIATIDAGI YAXSHILIK VA YOMONLIKNING KURASHI

Soxibova O‘.N.
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
“Amaliy ingliz tili kafedrasi” katta o‘qituvchisi,
(ugiloysoxibova6@gmail.com)

Annotatsiya. *Mazkur maqola Robert Louis Stivensonning ijodiy asarlarida, xususan, “Xazinalar oroli” va “Doktor Jekill va janob Xaydning g‘aroyib hikoyasi” asarlarida inson tabiatidagi yaxshilik va yomonlikning o‘zaro kurashi hamda Doppelgänger (ikki qiyofa) konsepsiyasi orqali insoniyat dualizmini o‘rganishga bag‘ishlangan.*

Kalit so’zlar: *Doppelgänger,Robert Louis Stevenson, xazinalar oroli, doktor Jekill va janob Xayd, inson tabiatidagi dualism, yaxshilik va yomonlik, psixologik realism, alter-ego, ichki ziddiyatlar, urakkab xarakterlar, antagonist va protagonist, axloqiy dualism, insonning ichki kurashi, allegorik ifoda, insoniyat tabiati.*

Аннотация. *Данная статья посвящена изучению творчества Роберта Льюиса Стивенсона, в частности, его произведений «Остров сокровищ» и «Странная история доктора Джекила и мистера Хайда», где через концепцию двойников (Doppelgänger) исследуется дуализм человеческой природы, а также борьба между добром и злом в человеке.*

Ключевые слова: *Doppelgänger, Роберт Льюис Стивенсон, Остров сокровищ, Доктор Джекил и мистер Хайд, дуализм человеческой природы, добро и зло, психологический реализм, альтер-эго, внутренние противоречия, сложные характеры, антагонист и протагонист, моральный дуализм, внутренняя борьба человека, аллегорическое выражение, природа человечества.*

Annotation: *This article is dedicated to exploring the duality of human nature through the struggle between good and evil in Robert Louis Stevenson’s literary works, particularly in Treasure Island and The Strange Case of Dr. Jekyll and Mr. Hyde, with a focus on the concept of Doppelgänger (dual identity).*

Keywords: *Doppelgänger, Robert Louis Stevenson, Treasure Island, Dr. Jekyll and Mr. Hyde, dualism of human nature, good and evil, psychological realism, alter-ego, inner conflicts, complex characters, antagonist and protagonist, moral dualism, inner human struggle, allegorical expression, human nature.*

“Xazinalar oroli”da Stivenson inson tabiatidagi yaxshilik va yomonlikning birga mavjudligini Long Jon Silver obrazi orqali ko‘rsatadi. O‘quvchi Silverni asardagi eng yaxshi rivojlangan xarakter sifatida sezadi, chunki u turli “tiplar”ni o‘zida birlashtirgan qaroqchi. Asardagi boshqa asosiy qahramonlar esa odatda faqat “yaxshi” yoki “yomon” sifatida tasvirlangan. Silverning xarakteri Pewning sof yovuzligini va Billi Bonzning jo‘shqin yaxshi tabiatini muvozanatlashtiradi. Ammo Long Jon Silver “to‘liq” xarakter emas, ya’ni u kitobda mustaqil alohida shaxs

sifatida yetarli emas. Silver va Jim Xokinsning xarakterlari o‘zaro bog‘liqdir: ular fikrlash va harakat qilish uchun bir-biriga muhtoj. Bu bog‘liqlik inson tabiatining murakkabligi va qarama-qarshiliklarini o‘rganishda Stivensonning chuqur tushunchasi va yondashuvini ko‘rsatadi.

Ralf Timmzning fikricha, “Doppelgänger” bu do‘stlar juftligi bo‘lib (asl ma’noda ‘bir juftning ikki qismi’), ular birgalikda yagona bir butunni tashkil qiladi, lekin yakka holda ular ‘yarim qism’ sifatida ko‘rinadi va o‘z alter-egosiga(“Alter-ego” atamasi lotin tilidan kelib chiqqan bo‘lib, “ikkinchi men” yoki “muqobil o‘zlik” degan ma’noni anglatadi) tayanadi.[1] Jim Xokins va Long Jon Silverning juftligi — bu Stivenson tomonidan Doppelgänger yoki “ikki qiyofa” konsepsiyasidan foydalanishga qilingan dastlabki urinishlardan biridir. Ushbu usul orqali Stivenson inson tabiatining murakkabligi va ikki tomonlama mohiyatini tasvirlashga intilgan. Keyinchalik, “Doktor Jekill va janob Xaydning g‘aroyib hikoyasi” asarida Stivenson inson qalbidagi yaxshilik va yomonlik kuchlari o‘rtasidagi kurashga chuqur e’tibor qaratganini ochiq-oydin ko‘rsatadi. Ushbu ikki asar Stivensonning insonning ichki dunyosidagi ziddiyatlar va dualizmni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini aks ettiradi.

Lanyonning fikriga ko‘ra, “Doktor Jekill va janob Xaydning g‘aroyib hikoyasi”da Stivenson allegoriyaning chegaralaridan chiqib, psixologik realizm sohasiga o‘tadi, ammo u o‘zining boshlang‘ich g‘oyasidan uzoqlashmaydi. Asarning asosiy konsepsiyasi — Doppelgänger (ikki qiyofa) bo‘lib, bu inson tabiatidagi axloqiy dualizmni aks ettiradi. Stivenson o‘z tezisini allegorik tarzda ifodalaydi, bu esa “Markxaym” asaridagi jarayonga teskari jarayonni namoyish etadi. “Markxaym”da yaxshilik qiyofasi yomonlikning ustunligiga qarshi isyon ko‘taradi. Biroq, ikkinchi allegoriyada Doktor Jekill qarama-qarshi fikrni ilgari suradi: yomonlik ham o‘z erkinligiga haqli. Jekill o‘z tabiatidagi uyqudagi yovuzlikni sehrli dori yordamida uyg‘otadi, va bu yovuzlik uning odatda nazoratni qo‘lga oladigan yaxshi tomonini egallaydi. Stivenson bu asarda inson qalbidagi yaxshilik va yomonlik kuchlari o‘rtasidagi murakkab kurashni o‘rganadi va bu mavzuni allegorik ifoda bilan psixologik haqiqatni birlashtirish orqali tasvirlaydi. [2]

Stivensonning Doppelgänger konsepsiyasidan foydalanishi klassik “bir yaxshi, bir yomon” egizaklar tasvirlanadigan an’anaviy uslubdan farqlanadi. U inson tabiatini yanada murakkab tarzda ochib berishga intiladi. Doktor Jekill va janob Xayd jismonan bir xil emas: Jekill — “yaxshi tomon” — 50 yoshli, jismonan baquvvat va jozibador shaxs, Xayd esa yoshroq, kichikroq va ko‘rinishda jirkanch.

Shunga qaramay, Stivensonning allegoriyasi jismoniy ko‘rinishning axloqiy kuchlarni aks ettirishidan ko‘ra chuqurroqdir. Doktor Jekill tashqi ko‘rinishda

sog‘lom va jozibador bo‘lib ko‘rinsa-da, ichki dunyosida, ruhida o‘z istaklari tufayli yemirilmoqda. Aynan shu ichki parchalanish Jekillni janob Xaydni yaratishga undaydi. Jekill shunday deb o‘ylaydi: agar Xayd uning tanasi tashqarisida yashasa, u dunyo uni bilganidek “yaxshi shifokor” bo‘lib qoladi. Stivenson bu usul orqali inson ichidagi yomonlikni ajratib chiqarishga bo‘lgan intilishni va bu qarashning axloqiy hamda ruhiy oqibatlarini ko‘rsatadi. Bu Doppelgänger konsepsiyasining an’anaviy shakliga nisbatan yanada chuqurroq va murakkab yondashuvdir.

Robert Rojers adabiyotda Doppelgänger haqida quyidagicha kuzatishlar bildiradi:

“Agar yozuvchi bosh qahramonning o‘zining “ikki qiyofasi”ni ko‘rishini tasvirlasa, bu faqatgina o‘quvchining qiziqishini oshirish uchun ishlatiladigan oddiy uslub yoki hiyla emas. Aksincha, bu inson ongi ichida o‘z-o‘zi bilan ziddiyatga tushadigan ichki bo‘linishni anglash natijasidir. Shuningdek, ochiq-oydin xulosa qilish mumkinki, yozuvchi bir insonning ichki ruhiy kurashini tasvirlamoqchi bo‘lsa, buni dramatik tarzda ifodalashning eng tabiiy yo‘li uning ruhini ikki yoki undan ortiq qahramon orqali aks ettirishdir.” [3]

Bu fikrlar adabiyotda Doppelgänger konsepsiyasining inson psixologiyasidagi ichki kurashlarni tasvirlash uchun samarali usul ekanligini ko‘rsatadi.

Shubhasiz, “Doktor Jekill va janob Xayd” Doppelgänger an’anasiga chuqur bog‘liqdir. Jekill va Xayd bir shaxsning ruhidagi ikki xil tomonni ifodalaydi, ammo ularning muammosini oddiygina qilib “Doktor Jekill - yaxshilik, janob Xayd – yomonlik” deb tushuntirib bo‘lmaydi. Shuningdek, Jekillni bosh qahramon (protagonist) va Xaydni qarshi qahramon (antagonist) deb aytish ham noto‘g‘ri bo‘ladi, chunki bu ikki rolni bir odam — Doktor Jekill — o‘ynaydi. Xayd shunchaki Doktor Jekill xarakterining bir tomonining shaxsiylashtirilgan ko‘rinishidir. An’anaviy romanlarda bir qahramon odatda bir-biriga mos kelmaydigan xususiyatlarga ega bo‘lishi mumkin, ammo Doktor Jekillning holati maxsusdir va bu bosh qahramon hamda qarshi qahramon tushunchalarini qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi.

“Doktor Jekill va janob Xayd”ning syujeti, Stivenson yozgan shaklda (ko‘p yillar davomida ayrim tanqidchilar noto‘g‘ri talqin qilganidek emas), insonning o‘z hayoti uchun tanlagan yo‘ldan chetlashtiruvchi ichki istaklardan xabardor bo‘lishini tasvirlaydi. Bu hissiyotlar ko‘pchilik uchun odatiy, shu sababli inson tabiatiga xosdir. Doktor Jekillning normal inson sifatida qabul qilinishining sababi uning bu ichki istaklarni o‘zining bir qismi sifatida tan olishidadir. U bu istaklarni butunlay inkor eta olmaydi va shuning uchun boshqa odamlarga o‘xshab yashaydi. Ko‘pchilik o‘zlarida

yoqimsiz sifatlarni bostirishga harakat qiladi, ammo Doktor Jekill bundan istisno hisoblanadi. Jekill o‘zining “yaxshi qismi”ni “yomon qismi”dan ajratib tashlamoqchi, ammo bu jarayonda “yomon tomoni”ni his qilishdan to‘liq voz kechmasdan o‘z hayotini davom ettirishni xohlaydi. Bu inson tabiatidagi murakkablik va qarama-qarshiliklarni aks ettiradi va Stivenson bu konsepsiya orqali insonning ichki kurashlarini tasvirlaydi.

Dastlab, janob Xayd Doktor Jekillning muammolariga yechim sifatida ko‘rinadi: Jekillning tanasi Xaydning "pastkash harakatlarini" amalga oshirmaydi, ammo uning ongi bu harakatlarning xotiralarini saqlaydi. Jekill Xaydni o‘zining bir qismi deb hisoblagan paytda, uning shaxsiyati to‘liq va yaxlit bo‘lib qoladi. Biroq, keyinchalik doktor Xayd bilan o‘zi bir shaxs ekanligini inkor eta boshlaganda, u “Doppelgängerning yarim qismi”ga aylangan chala mavjudot bo‘lib qoladi va uning ichki buzilishi boshlanadi. Protagonist va antagonist nuqtai nazaridan, “to‘liq” Doktor Jekill, ya’ni o‘zida yaxshilik va yomonlikni birlashtirgan va bu kuchlarning birlashganligini tan oladigan shaxs, protagonist hisoblanadi. Jekillning o‘zi va Xayd o‘rtasidagi ziddiyatda esa Jekill o‘zining Xayd bilan bir shaxs ekanligini inkor etganida, u va Xayd antagonistga aylanadi. Bu yerda antagonist deyiladi, antagonistlar emas, chunki o‘quvchiga ma’lumki, ular aslida bir odam, garchi ular turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘lsalar ham. Ushbu murakkab munosabat inson tabiatidagi yaxshilik va yomonlikning ajralmasligini va ularning o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadi.

An'anaviy tanqidchilar “Doktor Jekill va janob Xayd” asarida doktorni qahramon, Xaydni esa yovuz qahramon sifatida ajratib ko‘rsatishga moyil. Ammo ushbu asarni o‘qish jarayonida Doktor Jekillda juda kam miqdorda "qahramonlik" ko‘rish mumkin. Stivensonning boshqa bosh qahramonlari kabi (Jim Xokins bundan mustasno), Jekill o‘zini irodasiz va insoniy zaifliklarga moyil shaxs sifatida namoyon qiladi. Boshqa tomondan, uning qarshi qahramoni bo‘lgan Jekill/Xayd (antagonist), Long Jon Silverni jozibador antagonistga aylantirgan qahramonlikka qadar ko‘tarilgan yovuzlik chaqnashlarini namoyish etadi. Jekill, bosh qahramon sifatida, o‘z istaklarini dunyodan 50 yil davomida yashirib kelgan. Ammo oxir-oqibat, uning shu qismida yashiringan Jekill (antagonist sifatida), jasoratga ega bo‘lib (yoki shunchaki hiylakorlik bilan), janob Xaydni ozodlikka chiqaradi. Ushbu jarayon Jekillning ichki ziddiyatlari va insoniy zaifliklarni tasvirlashda markaziy o‘rin tutadi.

Robert Louis Stivensonning asarlarida inson tabiatidagi yaxshilik va yomonlikning birga mavjudligi va ular o‘rtasidagi kurash asosiy mavzulardan biri sifatida ko‘rinadi. “Xazinalar oroli” va “Doktor Jekill va janob Xaydning g‘aroyib

hikoyasi" asarlarida Doppelgänger (ikki qiyofa) konsepsiyasi orqali inson tabiatining murakkabligi, ichki ziddiyatlari va dualizmi chuqur o‘rganiladi. Stivenson bosh qahramon va antagonistni bir shaxsning ikki qirrasi sifatida tasvirlab, yaxshilik va yomonlikning ajralmasligini ko‘rsatadi. Bu qarama-qarshilik insonning ichki dunyosidagi ruhiy kurashlarni tasvirlashga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ralph Tymms, Doubles in Literary Psychology (Cambridge, Angliya, 1949), 29-bet.
2. Ibid., 92-bet.
3. Robert Rogers, A Psychoanalytic Study of the Double in Literature (Detroit: Wayne State University Press, 1970), 29-bet.
4. Robert Louis Stevenson, The Strange Case of Dr. Jekyll and Mr. Hyde, VII bob, 361–362-betlar.
5. Irving Saposnik, "The Anatomy of Dr. Jekyll and Mr. Hyde," Studies in English Literature (1500–1900), 11 (1971), 721.
6. Jon Pol Bokokka yozgan xat, 1887-yil, George S. Heilman, The True Stevenson: A Study in Clarification (Boston, 1925), 129–130-betlarda keltirilgan.
7. Saposnik, 721-bet.
8. Malcolm Elwin, The Strange Case of Robert Louis Stevenson (Nyu-York: Russell va Russell, 1971), 58-bet.

NEURO-LINGUISTIC APPROACH TO ENHANCING PRONUNCIATION IN SECOND LANGUAGE LEARNING

Subhonova Anora Akmal qizi
Teacher at UzSWLU, “Department of Integrated course of English language №1”
subkhanovaanosha@gmail.com

Abstract: *This thesis explores neuro-linguistic approaches to improving pronunciation in second language (L2) learning. The field of neuro-linguistics has contributed significantly to understanding how the brain processes phonetic and phonological information. This study analyzes how neuro-linguistic programming (NLP) and brain-based learning techniques can enhance pronunciation skills in L2 learners. The research highlights the role of neural plasticity, auditory processing, and speech motor coordination in effective pronunciation training. Empirical findings suggest that integrating neuro-linguistic strategies into language instruction can lead to improved articulation, phonemic awareness, and accent reduction.*

Key words: *neuro-linguistics, second language pronunciation, phonetics, phonology, speech perception, auditory processing, neural plasticity, foreign language acquisition.*

INTRODUCTION: Pronunciation plays a crucial role in second language acquisition, influencing intelligibility, communication effectiveness, and social integration. Traditional approaches to teaching pronunciation often focus on mechanical repetition, phonetic drills, and imitation. However, advances in neuro-linguistics suggest that pronunciation training can be significantly enhanced by leveraging insights into brain function, auditory perception, and speech motor control. This article examines the application of neuro-linguistic programming and other neuroscientific findings to develop effective pronunciation instruction strategies. The study aims to bridge the gap between theoretical research and practical application in language teaching.

LITERATURE ANALYSIS: Neuro-linguistic research has shown that second language pronunciation is closely linked to auditory processing and speech motor skills. Chomsky’s (1965) generative phonology theory emphasizes the innate structures of language, while Flege’s (1995) Speech Learning Model (SLM) highlights the plasticity of phonetic categories in bilingual speakers. LeDoux (2002) explored the role of neural pathways in speech perception, arguing that phonemic awareness is shaped by cognitive and auditory experiences.

In Uzbekistan, linguists such as Karimov (2018) and Yuldasheva (2021) have investigated how auditory training and articulatory exercises influence pronunciation skills in Uzbek-speaking learners of English. Their studies emphasize the importance of early phonetic exposure and interactive listening exercises to improve L2 pronunciation. Furthermore, Saidov (2019) explored the role of multisensory learning

techniques in pronunciation enhancement, highlighting how kinesthetic feedback supports speech production in L2 learners.

RESEARCH METHODOLOGY: This study employs a mixed-methods approach, incorporating both qualitative and quantitative research techniques. Data collection includes experimental phonetic training sessions with L2 learners, pre- and post-training pronunciation assessments, and neuro-cognitive analysis of speech processing. The study participants include university-level language learners engaged in structured pronunciation exercises that integrate neuro-linguistic techniques, including auditory discrimination tasks, speech shadowing, and real-time biofeedback. Statistical methods such as spectrogram analysis and articulation scoring are used to measure improvements in pronunciation accuracy and fluency.

MAIN DISCUSSIONS AND RESULTS: Findings indicate that neuro-linguistic approaches positively impact pronunciation development. Participants who engaged in neuro-based pronunciation training demonstrated higher accuracy in phoneme production, reduced foreign accents, and improved speech rhythm. Techniques such as speech shadowing, auditory feedback training, and articulatory positioning exercises significantly contributed to their progress. Neuro-imaging studies also support the hypothesis that targeted pronunciation training enhances neural connectivity in the brain’s language centers, leading to greater retention and application of phonetic patterns. However, challenges remain in integrating these methods into conventional L2 classrooms due to varying cognitive abilities and teaching resources.

CONCLUSION: Neuro-linguistic approaches provide a promising framework for enhancing pronunciation in second language learners. By understanding the neural mechanisms underlying speech production and auditory processing, educators can develop more effective pronunciation training programs. This research underscores the importance of incorporating neuro-based methods such as speech perception training, motor articulation exercises, and cognitive reinforcement techniques into language curricula. Future studies should further explore the role of neurofeedback tools and virtual reality in pronunciation instruction to optimize learning outcomes.

Used literature:

1. Chomsky, N. (1965). *Aspects of the Theory of Syntax*. MIT Press.
2. Flege, J. E. (1995). *Second Language Speech Learning: Theory, Findings, and Problems*. Speech Communication, 16(1), 1-24.
3. LeDoux, J. (2002). *The Synaptic Self: How Our Brains Become Who We Are*. Penguin Books.

4. Karimov, A. (2018). *Neuro-Linguistic Perspectives on Pronunciation Teaching in Uzbek Universities*. Uzbek Journal of Linguistics, 12(3), 45-60.
5. Yuldasheva, D. (2021). *Cognitive and Auditory Training in Second Language Pronunciation Development*. Tashkent State University Press.
6. Saidov, M. (2019). *Multisensory Approaches in Language Learning: A Phonetic Perspective*. Uzbek Academy of Sciences Publishing House.
7. Johnson, R., & Brown, K. (2020). *Neuroscience and Language Learning: Enhancing Pronunciation through Brain-Based Strategies*. Journal of Applied Linguistics, 17(2), 101-118.
8. Zhao, Y., & Frank, K. (2018). *Neuroplasticity in Second Language Acquisition: Implications for Pronunciation Training*. International Journal of Speech Science, 19(4), 78-92.
9. Subxanovich, A. A. (2024). O ‘ZBEK TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O ‘RGANISHGA MUNOSABAT VA MOTIVATSIYANING O ‘RNINI BAHOLASH.
10. Subxanovich, A. A. (2024). THE ROLE OF CONTEXTUAL LEARNING IN ACQUIRING MEDICAL TERMINOLOGY IN UZBEK FOR RUSSIAN SPEAKERS. *Western European Journal of Linguistics and Education*, *2*(10), 87-91.

THE NEURAL MECHANISMS OF SPEECH ACQUISITION AND PRODUCTION: INSIGHTS FROM THE DIVA MODEL

Suyunova Mohinur Ilxom qizi,
PhD student at National University named after Mirzo Ulugbek,
suyunovamokhinur@gmail.com

Annotation*: The article provides an in-depth overview of the DIVA (Disentangled Variational Autoencoder) model, a machine learning framework designed for domain-invariant representation learning. It explains how DIVA leverages variational autoencoders (VAEs) to disentangle different sources of variation within data, focusing on separating domain-specific, class-specific, and residual information. The discussion includes theoretical foundations, architecture, and practical applications, particularly in fields such as domain adaptation, fairness, and robust classification. The article also highlights experimental results demonstrating DIVA's effectiveness in learning disentangled representations, improving generalization across domains, and mitigating biases in AI models.*

This annotation captures the core themes and significance of the article, making it useful for researchers and practitioners interested in representation learning, domain adaptation, and deep generative models.

Speech production is a complex cognitive and motor process that involves intricate neural mechanisms. The DIVA (Directions into Velocities of Articulators) model, developed by Jason A. Tourville and Frank H. Guenther, offers a comprehensive framework to understand how the brain controls speech acquisition and execution. By integrating computational and neuroimaging research, the model provides insights into both normal and disordered speech production.

Key words: *DIVA (Disentangled Variational Autoencoder), Variational Autoencoder (VAE), Disentangled Representation Learning, Domain-Invariant Learning, Domain Adaptation, Fairness in AI, Robust Classification, Latent Variable Models, Deep Generative Models, Semi-Supervised Learning, Generalization Across Domains, Bias Mitigation, Machine Learning, Representation Learning.*

The Structure of the DIVA Model

The DIVA model describes speech production through two primary control subsystems: feedforward control and feedback control.

1. Feedforward Control: This system is responsible for executing well-learned speech motor commands. It is predominantly located in the left hemisphere and includes premotor and motor cortex regions. Once speech patterns are established, feedforward mechanisms allow for smooth and rapid speech production without relying on real-time sensory feedback.

2. Feedback Control: This system continuously monitors and corrects speech output based on sensory input. It is mainly right-lateralized and involves the superior temporal gyrus and ventral premotor cortex. If discrepancies between expected and actual speech output occur, the feedback system generates corrective motor commands to maintain accuracy.

Neural Basis of Speech Production

The model maps specific speech control processes onto distinct brain regions:

- The speech sound map in the left inferior frontal gyrus stores learned speech motor programs.

- The auditory and somatosensory target maps in the superior temporal gyrus encode expected sensory feedback.

- The error maps compare actual sensory input with expected targets, triggering corrective actions.

- The cerebellum and basal ganglia play crucial roles in motor learning, sequencing, and error correction.

- The supplementary motor area (SMA) acts as a gatekeeper, controlling the timing and initiation of speech motor commands.

Speech Learning and Adaptation

The DIVA model explains speech learning through two phases:

1. Babbling Phase: Infants explore random articulatory movements, receiving auditory and somatosensory feedback that shapes early speech motor maps.

2. Imitation Phase: Through repeated exposure and mimicry, speech sounds are refined, and neural connections between motor commands and sensory targets are strengthened.

This learning framework allows for motor equivalence—where different articulator movements produce the same speech sound—ensuring speech flexibility and adaptability.

Clinical Implications

The model has practical applications in diagnosing and treating speech disorders:

- Stuttering: Excessive reliance on auditory feedback due to weak feedforward mechanisms may contribute to stuttering. Studies show that fluency-inducing therapies shift brain activity back to the left hemisphere, supporting the DIVA model’s predictions.

- Apraxia of Speech: Damage to the left premotor cortex disrupts speech motor planning, leading to disordered speech initiation and coordination.

- Cochlear Implants: The model has been used to study how individuals with cochlear implants adjust their speech using auditory feedback.

Applications in Neuroscience and Technology

Neuroimaging Research

Advancements in neuroimaging techniques, such as functional magnetic resonance imaging (fMRI) and magnetoencephalography (MEG), have provided extensive evidence supporting the DIVA model’s predictions. These technologies allow researchers to visualize brain activity in real-time and analyze how different regions contribute to speech production and adaptation.

Speech Synthesis and AI

The principles of the DIVA model have also been applied to artificial intelligence and speech synthesis. Researchers are using neural network-based models to develop more natural and human-like speech synthesis technologies. Understanding how the brain controls speech has significant implications for improving AI-driven communication systems.

Future Directions

Ongoing research is expanding the DIVA model to include prosody control, which governs pitch, stress, and rhythm. Additionally, understanding the role of the right hemisphere in feedback processing could further improve speech therapy approaches.

Further exploration into the interactions between motor control and cognitive processing in speech production could pave the way for new speech therapy techniques and neural rehabilitation methods. Future studies may also focus on integrating real-time brain-computer interfaces (BCIs) to assist individuals with severe speech impairments.

Conclusion

The DIVA model provides a biologically grounded, computationally precise explanation of speech acquisition and production. Its integration of feedforward and feedback control mechanisms helps clarify the neural basis of speech disorders and guides therapeutic interventions. As research advances, the model continues to offer valuable insights into human communication and its neural underpinnings.

Understanding speech production at a neural level is essential for developing innovative speech therapies, assistive technologies, and AI-driven voice systems. As neuroscience and computational modeling techniques progress, the DIVA model will likely remain a cornerstone in the study of speech motor control.

References:

1. Bohland, J. W., & Guenther, F. H. (2006). An fMRI investigation of syllable sequence production. NeuroImage, 32(2), 821-841.
2. Guenther, F. H. (1994). A neural network model of speech acquisition and motor equivalent speech production. Biological Cybernetics, 72(1), 43-53.

3. Guenther, F. H. (1995). Speech sound acquisition, coarticulation, and rate effects in a neural network model of speech production. Psychological Review, 102(3), 594-621.
4. Tourville, J. A., & Guenther, F. H. (2011). The DIVA model: A neural theory of speech acquisition and production. Language and Cognitive Processes, 26(7), 952-981.
5. Perkell, J. S., Guenther, F. H., Lane, H., Matthies, M. L., Perrier, P., Vick, J., & Zandipour, M. (2000). A theory of speech motor control and supporting data from speakers with normal hearing and hearing loss. Journal of Phonetics, 28(3), 233-272.
6. Max, L., Guenther, F. H., Gracco, V. L., Ghosh, S. S., & Wallace, M. E. (2004). Unstable or insufficiently activated internal models and feedback-biased motor control as sources of dysfluency: A theoretical model of stuttering. Contemporary Issues in Communication Science and Disorders, 31(Spring), 105-122.

XX ASR O‘ZBEK AYOLLARINING IJTIMOIY FAOLLIGINING ORTISHI

G.Teshaboyeva
FarDU Tarix mutaxassisligi 1-bosqich magistranti
gulruxsorteshaboyeva@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O‘zbekistondagi xotin-qizlarning XX asr o‘rtalaridagi ijtimoiy hayotda ishtirokining ortib borishiga sabab bo‘lgan voqeliklardan ayrimlari bayon etilgan.*
Kalit so‘zlar: *savodsizlik, “zamonaviylashtirish”, konsepsiyalar, “hujum” harakati, xotin-qizlar bo‘limlari, sinfiy tafakkur.*

Sovet tuzumining xotin-qizlarga nisbatan yurgizgan siyosati o‘z mohiyatiga ko‘ra, ikki tomonlama xarakterga ega bo‘lib, mintaqadagi xalqlarni butunlay qaram qilib olish maqsadida ularning an’analariga, milliy, diniy, tarixiy va madaniy qadryatlariga qarshi kurashish uchun ayollarni “tutqunlikdan ozod qilish”, “zamonaviylashtirish” shiori ostida madaniy merosni inkor qilish siyosati olib borilgan. Ikkinchidan esa, mintaqadagi ishchi kuchi yetishmasligi tufayli xotin-qizlar mehnatidan xalq ho‘jaligi rivojini ta’minlovchi mehnat resursi, ayniqsa arzon ishchi kuchi sifatida foydalanish va shu orqali O‘zbekiston ning tabiiy boyliklaridan unumli foydalanishga harakat qilindi. Sovetlar o‘zlarining bu maqsadlarini “Tenglik g‘oyasi” niqobi ostida targ‘ib qilib, butun dunyoga tenghuquqlilikni ta’minlashda kommunistik tajribaning “yagona” ekanligini namoyish qilishga urinishdi[1].

Umuman olganda bu davrga kelib, ayollarning qarashlarida ham o‘zgarishlar kuzatilayotgandi. Chunki, bir tomondan ijtimoiy hayotda xotin-qizlarga nisbatan yurgizilayotgan barcha adolatsizliklar, xo‘rliklar, ikkinchi tomondan esa marifatparvar jadidlarning xotin-qizlar ham erkaklar kabi bilim olishga haqli degan fikrlari ayollarning ruhan uyg‘onishlariga sabab bo‘ldi. Bu holat esa sovetlar siyosatining o‘lka xotin-qizlari hayotida tub burilish yasashiga sabab bo‘ldi. Buning natijasida an’anaviy jamiyat tufayli shundoq ham ijtimoiy hayotdan ancha ortda qolgan o‘zbek xotin-qizlari sovetlarning asl niyat va maqsadlarini anglamagan holatda ulardan madad va najot kutdilar. Umuman olganda sovet hokimiyati xotin-qizlarning ijtimoiy hayotdagi ishtirokini oshirish va ularni ishlab chiqarishga jalb etishga katta ahamiyat bergan. Buning bir qancha sabablarini yuqorida ta’kidlangan bo‘lsada, menimcha eng muhim masala xotin-qizlar onggiga sovet hokimiyatiga tegishli g‘oyalarni joylash va butun jamiyatni sovetlarga xayrihoh jamiyatga aylantirishdan iborat edi. Chunki sovet hukumati o‘zbeklarda farzand tarbiyasi onaga

[1] Жўраева Н.Д. Ўзбекистонда хотин-қизларга муносабат (XX асрнинг 20-80-йиллари мисолида). Ўқув қўлланма. — Т.: 2013. — 10 б.

ko‘proq bog‘liq ekanliklarini hamda yoshlarni o‘zgartirish ularning onalarini o‘zgartirishdan boshlanishini juda yaxshi anglagan.

Sovet hukumatining yaxshigina e’tiborini tortgan “xotin-qizlarni ozod qilish” masalasi avvalambor, xotin-qizlar o‘rtasida savodsizlikni tugatish hamda ijtimoiy hayotga jalb etish orqali amalga oshirilishi belgilandi. Tarixni o‘rganishdagi xolislikdan chetga chiqmagan holatda shuni aytish mumkinki, sovet hokimiyatining xotin-qizlar masalasida olib borgan siyosati o‘lka hududida yashovchi ayollar hayotida ijobiy o‘zgarishlarga ham sabab bo‘ldi. Chunki bu harakatlar natijasida ayollarning ijtimoiy hayotga aralashuvi sezilarli darajada o‘zgardi. Turli kurslarni bitirgan ayollar akusherkalar, maktabgacha ta’lim muassasalari rahbarlari, xotin-qizlar maktablari o‘qituvchilari kabi sohalarda o‘z ish faoliyatini boshladilar. Yana bir muhim o‘zgarish, sovet hokimiyati 1921-yildan boshlab nikohga kirish yoshini 9 yosh o‘rniga 16, o‘g‘il bolalar uchun 16 yosh o‘rniga 18 yosh deb belgilanishi bo‘ldi. Bu esa sovetlarning ayollar turmush tarzini o‘zgartirishdagi keskin choralaridan biri hisoblanadi. Bu qaror natijasida esa sovet hukumati ko‘pchilik ayollarning ularni qo‘llab quvvatlashiga erishdi. Ayni paytda, joylarda xotin-qizlar bo‘limlarini tashkil etish ishlariga ham alohida e’tibor berila boshlandi.

Sovetlar tomonidan tashkillangan konferentsiya va syezdlar xotin-qizlarning o‘zaro fikr, tajriba almashinuvida muhim ro‘l o‘ynagan. Shu bilan birga, bu yig‘ilishlar va xotin-qizlar bo‘limlarining asosiy vazifalaridan yana biri ayollar o‘rtasida “sinfiy tafakkurni shakllantirish” edi. Bu holat aholi orasida turlicha qarshilanishiga qaramasdan, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari ayollarni ishlab chiqarishga, maktablarga va turli ta’lim muassasalariga kengroq jalb etishga chaqirdi. Vaqtlar o‘tishi bilan bu harakatlar o‘z natijasini ko‘rsata boshladi. Xususan, ijtimoiy va siyosiy hayotda ayollarning salmog‘i oshib bordi. Agar 1925-yilda O‘zbekiston da sovet apparatining quyi organlarida 200 nafar ayol ishlagan bo‘lsa, 1926-yilda faqat Farg‘ona viloyati bo‘yicha qishloq kengashlarida 665 nafar ayol saylangan. “Qo‘shchi” ittifoqlariga a’zo bo‘lgan ayollar soni ham ko‘payib borgan[2].

Ammo xotin-qizlarni ijtimoiy hayotga jalb qilish, voyaga yetmagan qizlarni turmushga uzatishni taqiqlash, jamiyatda ayollarning ham erkaklar kabi huquqlarga ega ekanliklari kabi ijobiy ahamiyatga ega bo‘lgan masalalar sovet hokimiyatidan ham avvalroq ma’rifatparvarlarning ham dasturlaridan o‘rin egallagandi. Jadidlar ham jamiyat rivojiga to‘siq bo‘layotgan ayollar orasidagi savodsizlik va kamsitilishlarga qarshi edilar. Jamiyatdagi ayollarga nisbatan bo‘layotgan

[2] Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. — Тошкент: Шарқ. 2000

zo‘ravonliklar, xo‘rlanishlar, adolatsizlik hamda jabr-zulmlarga bosh sabab o‘rta asrlardan saqlanib qolgan eskicha tuzum va ma’rifatsiz jamiyat ekanligini teran anglagan jadidlar xotin-qizlarni ma’rifatli qilish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning iste’dod va qobiliyatlarini ishga solish, diniy va dunyoviy ilmlarni egallashda ayollarning ham erkaklar bilan teng huquqliligini ta’minlashga chaqirgan. Chunki jadidlar faoliyatlarining dastlabki davrlaridayoq xotin-qizlarni jamiyatning to‘laqonli a’zosi sifatida qabul qilmasdan, oila masalalarini to‘g‘ri hal qilmasdan, yosh avlodni to‘g‘ri yo‘lda tarbiyalamasdan turib jamiyatni isloh qilib bo‘lmaydi deb hisoblashgan[3]. Jadidlarda hikimiyat yetishmasligi sababidan ular bu islohotlarni ommaviy tarzda amalga oshirolmadilar.

Sovetlar mahalliy millat xotin-qizlarini ijtimoiy hayotga jalb etishda kasaba uyushmalarining delegat yig‘ilishlaridan keng foydalandi. O‘zbekistonda delegat yig‘ilishlari 1920-1921 yillarda sanoat korxonalarida tashkil qilingan[4]. Ammo keyinchalik ushbu yig‘ilishlar o‘rnini turli iqtisodiy tadbirlar egalladi. Chunki sovet hokimiyati endilikda ayollarni iqtisodiy maqsadlarda ishlatishni reja qilgandi. Ular bu maqsadlariga qisqa fursatda erishdilar. Bunga sabab esa o‘zbek ayollarining jismida azaldan mavjud bo‘lgan mehnatsevarlik, vatanparvarlik tuyg‘ularidir.

Umuman olganda sovetlar doim ayollar masalasiga katta e’tibor qaratganlar. Hatto 20-yillarning oxiriga kelib ijtimoiy faolligi ortgan xotin-qizlarni “sinfiy tarbiyalash” masalasi o‘rtaga tashlandi. Shu maqsad yo‘lida turli kurslar tashkil qilindi. Xotin-qizlarni partiya safiga jalb qilish siyosat darajasiga ko‘tarildi. Natijada partiyada ayollar salmog‘i sezilarli darajada oshdi. Bu holat 30-yillargacha davom etdi. 30-yillarga kelib “xotin-qizlar masalasining hal bo‘lganligi” haqidagi xulosa natijasida, xotin-qizlar bo‘limlari faoliyati ham tugatildi. 1930-yili “Kommuniska”, 1943-yili esa “ Yangi yo‘l ” jurnallarining nashr etilishi to‘xtatildi.

Biroq, xotin-qizlar masalalari faqat sovetlargina emas mahalliy millat vakillari tomonidan ham ilgari surilgan. Bu jadidlarning g‘oyalarida ham yaqqol ko‘rinadi. Ular ham xotin-qizlarni ozod qilish uchun kurashganlar. Lekin jadidlarda yetarlicha kuch va tayanch yo‘q edi. Bunday kuchga ega bo‘lgan sovetlar esa ushbu holatni ma’muriy buyruqbozlik evaziga hal qilishga urindilar. Dastlabki davrlarda sovetlar ham juda ehtiyotkorlik bilan ayollar orasiga kirib bordi. Milliy xarakterni hisobga olgan holatda, har bir xonadonga kirib tushuntirish ishlarini olib bordi. Ammo keyinchalik vaziyat o‘zgardi. Sovet hukumati iqtisodiy ehtiyojlardan kelib chiqib,

[3] Раҳимова Г. Жадидлар ва аёллар масаласи / / Адабий мерос.1992. №1. Б. 63—66.
[4] Жўраева Н.Д. Ўзбекистонда хотин-қизларга муносабат (XX асрнинг 20-80-йиллари мисолида). Ўқув қўлланма. — Т.: 2013. — 23 б.

xotin-qizlarni “ozodlikka chiqarish” bahonasida 1927-yilda respublikada ijtimoiy-siyosiy tadbir “Hujum” harakatini boshladi. Mustaqillik yillarigacha bu harakatga faqatgina ijobiy fikr bildirib kelingan. Tarixiy xolislik tamoyiliga ko‘ra fikr bildiradigan bo‘lsak, bu tadbir tufayli o‘zbek ayollari ruhan uyg‘ondilar, o‘z faolliklarini, erkinliklarini tiklab oldilar bu imkon tufayli tibbiyotda, maorifda, deyarli barcha sohalarda o‘z faolliklarini va salohiyatlarini namoyish etdilar. Lekin bu bilan ularni oqlab bo‘lmaydi. Chunki bu harakat natijasida nafaqat ayollar balki o‘zbek xalqi ham tom ma’noda zarar ko‘rdi. Bu faqat ayollar taqdiriga emas, balki o‘zbek xalqining urf-odatlariga, tarixiga, diniga, tili va ma’naviyatiga qarshi qaratilgan bir hujumdir.

Sovetlar xotin-qizlarni ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sohalarga jalb qilishni jadallashtirish maqsadida 1926-yil iyunda VKP (b) MQ O‘rta Osiyo byurosi xotin-qizlarga nisbatan munosabatlardagi “eskilik sarqitlari”ni batamom tugatish haqida qaror qabul qildi[5]. Buning natijasida mamlakatning barcha hududlarida ushbu qarorning ijrosini ta’minlash maqsadida olib borilayotgan harakatlar sun’iy ravishda tezlashtirildi, oqibatda bu harakat “Hujum” nomi bilan mashhur bo‘ldi. Ushbu harakatga yuqorida ta’kidlaganimizdek turli davrlarda turli qarashlar bildirildi.

“Hujum” kompaniyasi 2 bosqichda olib borildi: birinchisi – 1926-yil sentabrdan 1927-yil fevralgacha “tayyorgarlik” davri; ikkinchisi 1927-yil mart oyidan 1932-yilgacha “zarbdorlik davri”[6]. “Hujum” harakati musulmon xotin-qizlarining hayotida tub burilish yasadi, ijtimoiy faollik keskin oshib ketdi. Biroq, “Hujum” muvaffaqiyatlaridan esankirab qolgan partiya hodimlari mahalliy xalq qoniga singib ketgan islom omilini butunlay unutdilar. Unga bepisand qarab, yerga urish, oshkora tan olmaslik yo‘lidan ketdilar. Bu holat esa, shundoq ham sovetlarga qarshi bo‘lgan dindorlarning keskin harakatiga sabab bo‘ldi. Oqibatda, “eski tuzum”ga qarshi bo‘lgan xotin-qizlar harakati tarafdorlari bilan an’anaviy turmush tarafdorlari bo‘lgan dindorlar orasida kurash boshlanib ketdi. Lekin bu yerda reaksion ruhoniylar bilan taraqqiyparvar ruhoniylarni aralashtirmasligimiz darkor. Chunki bu davrga kelib, ruhoniylar orasida ham bo‘linish yuzaga kelgan bo‘lib, reaksion ruhoniylar xotin-qizlarni “ochish” siyosatiga ayollarni o‘ldirish va jazolash orqali javob bergan bo‘lsa, taraqqiyparvar ruhoniylar esa xotin-qizlar masalasida sovetlarning siyosatiga biroz bo‘lsada hayrixoh bo‘lgan hamda bu masalaning oxirida qon to‘kilishlar

[5]Жўраева Н.Д. Ўзбекистон ижтимоий-иқгисодий ва маданий ҳаётда хотин-қизларининг ўрни (XX асрнинг 20—30-йиллари мисолида). Тарих фанлари номзоди илмий даражсини олиш учун ёзилган диссертация. — Т.: 2004. — 45 б.

[6] Алимова Д.А. Женский вопрос в Средней Азии: История изучения и современные проблемы. АН РУ. Институт Истории. – Т.; Фан. 1991. – 132 с.

bo‘lishini sezgan holatda bularning oldini olishga harakat qilganlar. Ularning maqsadi keskin vaziyatlarni yuzaga keltirmagan holatda xotin-qizlar masalalarida ba’zi islohotlarni amalga oshirilishiga erishish edi.

20-yillar oxirida “Hujum” shu qadar safarbarlik tusini oldiki, xotin-qizlar yuzini ochish bo‘yicha jumhuriyatlar orasida sotsialistik musobaqa ham o‘tkazilgan, paranjiga qarshi komissiyalar tuzilgan. Shuningdek, ayollar yuzidan paranjini yulib olib, yoqib yuborganlarga mukofotlar va’da qilinishi ishsiz yurgan bekorchi sayoqlarga qo‘l kelgan. Ular ko‘chada ayollar yuzidan paranjini yulib ola boshlaganlar[7]. Biroq, sovetlarning bu harakatlari tuzatib bo‘lmas oqibatlarga olib keldi. Qanchadan qancha ayollar hayotdan erta ko‘z yumdi. Chunki hali musulmon aholi ayollarning bunday turmush tarzi kechirishiga, ijtimoiy hayotda erkaklar bilan teng bo‘lishiga tayyor emasdilar. Ko‘pincha “ozod etilgan” ayollar tunda o‘ldirib ketilardi. Rasmiy hujjatlarda 1927-28 yillarda birgina O‘zbekiston da 2,5 mingdan ortiq faol xotin-qizlar hayotlaridan judo bo‘lgani raqamlangan[8]. Agarda o‘z vaqtida sovet hokimiyati harakatlarining so‘nggi nima bilan tugashini oldindan baholay olganida, bunchalik ayollarning umriga zomin bo‘lmasdilar. Sovetlarga faqat natija muhim bo‘ldi. Harakatlar natijasida ayollarning ijtimoiy faolligi oshdi lekin ayollar uchun bu qimmatga tushdi.

Xolosa qilib aytganda, sovetlarning xotin-qizlar masalarida oxirini o‘ylamay, shoshma-shosharlik bilan amalga oshirgan siyosati natijasida juda ko‘plab xotin-qizlarimiz hayotdan barvaqt ko‘z yumdilar. To‘g‘ri, ayollarning ijtimoiy faolligi ortishi ko‘p jihatdan foydali bo‘ldi. Lekin buning sovetlar tutgan yo‘lidan emas, taraqqiyparvar ruhoniylar aytgan yo‘l orqali amalga oshirganlarida balki, buncha qurbon bermagan bo‘lardik. Chunki har qanday keskin o‘zgarishni jamiyat hayotiga tadbiq etishdan avval, jamiyatning holatini o‘zgarishlarga tayyorlash muhim masaladir. Agarda xotin-qizlar masalalarida mahalliy xalq an’analarini e’tiborga olgan holda, sovetlar “xurofotchilar” deb qoralagan ruhoniylar bilan hamkorlik o‘rnatilganda va eng muhim masala xotin-qizlarning ijtimoiy faolligi haqida faqat ayollar orasida emas balki, erkaklar orasida ham targ‘ibot-tashviqot ishlari amalga oshirilganda, ehtimol natija butunlay boshqacha bo‘lardi. Rus hukumati tomonidan tashkillangan ushbu harakat tufayli ko‘plab ayollar o‘z yaqinlari tomonidan fojeali tarzda o‘ldirila boshlandi. Bu holat eng ko‘p paranji tashlashdan keyin yuz berdi. Qanchadan-qancha ayollarimiz o‘z otalari, erlari, aka va hatto ukalari tomonidan

[7] Жўраева Н.Д. Ўзбекистонда хотин-қизларга муносабат (XX асрнинг 20-80-йиллари мисолида). Ўқув қўлланма. — Т.: 2013. — 43 б.
[8] Ўша асар. 43

o‘ldirildi. Ommaviy qotilliklar ko‘paygachgina sovet hukumati o‘zi yo‘l qo‘ygan hatoni tushunib yetdi, ammo kech bo‘lib bo‘lgandi. Endigi chora esa paranjini tashlagan ayollarni qonun yo‘li bilan himoya qilish edi. Chunki ko‘plab paranjini tashlagan ayollar yaqinlarining tayziqi bilan qayta “yopingan” edi. Birgina Marg‘ilonning o‘zida 3000 ayol paranjini tashladi. Lekin oradan bir yil o‘tmay ularning 2600 ga yaqini qayta paranji o‘radilar. Nima bo‘lganda ham, 30-yillar oxiriga kelib ayollarning jamiyatdagi faolligi sezilarli darajada oshishiga erishildi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аминова Р.Х. «Ҳужум» Ўзбекистон хотин-қизлари тақдирида. — Т.: Билим. 1987.
2. Жўраева Н.Д. Ўзбекистонда хотин-қизларга муносабат (XX асрнинг 20-80-йиллари мисолида). Ўқув қўлланма. — Т.: 2013. — 256 б.
3. Ражапова Р.Ё. «Ҳужум»нинг тарихий тажрибаси. — Т.: Билим. — 24 б.
4. Раҳимова Г. Жадидлар ва аёллар масаласи / / Адабий мерос.1992. №1. Б. 63-66.
5. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. — Тошкент: Шарқ. 2000

RAQAMLI TA’LIM VA UNING CHET TILLARINI O‘RGANISHDA IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHGA TA’SIRI

Tkacheva Anastasiya Aleksandrovna
dotsent, f.f.n. Samarqand davlat chet tillar instituti
E-mail: anastasiya.tkacheva85@yandex.ru.

Annotatsiya. *Maqolada chet tillarini o‘qitishda talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini shakllantirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni ko‘rib chiqiladi. Madaniy jihatlarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish muhimligi ta’kidlanadi. Asosiy e’tibor o‘quvchilarga madaniy almashinuv va madaniyatlararo muloqot uchun yangi imkoniyatlar yaratadigan turli raqamli vositalarga, jumladan, onlayn platformalar, multimedia resurslari, ijtimoiy tarmoqlar va o‘yin texnologiyalariga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy-madaniy kompetentlik, raqamli texnologiyalar, multimedia resurslari, madaniyatlararo muloqot, onlayn platformalar, geymifikatsiya.*

Globallashuv va texnologiyaning jadal rivojlanishi sharoitida ta’lim tobora xilma-xil bo‘lib bormoqda. Onlayn kurslar, elektron platformalar va ko‘plab interfaol resurslarni o‘z ichiga olgan raqamli ta’lim, ayniqsa, chet tillarini o‘rganish kontekstida an’anaviy ta’lim va o‘qitish yondashuvlarini tubdan o‘zgartiradi. Shu nuqtai nazardan, o‘rganilayotgan tilda so‘zlashadigan mamlakatlarning madaniy xususiyatlarini muvaffaqiyatli tushunishda muhim rol o‘ynaydigan ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirish ta’limning muhim jihati hisoblanadi.

Ijtimoiy-madaniy kompetentlik nafaqat til ko‘nikmalarini, balki ma’lum bir til bilan bog‘liq madaniy kontekstlar, ijtimoiy me’yorlar va urf-odatlarni ham o‘z ichiga oladi. Ta’lim jarayonini raqamlashtirish sharoitida ijtimoiy-madaniy elementlarni tillarni o‘rganishga integratsiya qilish uchun yangi imkoniyatlar paydo bo‘ladi. Zamonaviy texnologik yechimlar nafaqat talabalarni til muhitiga singdirish, balki ularni til sohiblarining turli urf-odatlari va turmush tarzi bilan tanishtirish imkonini beradi.

Raqamli ta’limning afzalliklariga qaramay, uning chet tillarini o‘rganishda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirishga ta’siri chuqurroq tahlil va tadqiqotlarni talab qiladi. Ushbu maqolada biz raqamli ta’limning asosiy elementlarini, shuningdek ularning chet tillarini o‘rganayotgan talabalarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirishdagi rolini ko‘rib chiqamiz.

Tadqiqotimizning maqsadi ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish va talabalarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashdir.

Raqamli ta’lim bilim berish va ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun raqamli texnologiyalar va interfaol ta’lim usullaridan foydalanadigan o‘qitish jarayoni bo‘lib, an’anaviy yondashuvlardan, ya’ni darsliklar va ma’ruzalar asosida o‘qitishdan farq qiladi. So‘nggi yillarda raqamli ta’limning ahamiyati ortib bormoqda, shuningdek, u turli mamlakatlarda ta’lim tizimining muhim komponentiga aylanyapti. Tadqiqotchilarning fikricha, “raqamli ta’lim turli texnologiyalardan foydalanish orqali bilimlarni yaratish, uzatish va almashish jarayonini o‘z ichiga oladi” [Afshari et al., 2013].

Raqamli ta’limning asosiy xususiyatlaridan biri uning moslashuvchanligi hisoblanadi. Talabalar o‘zlarining shaxsiy sur’atida o‘qish, eng qulay formatlar va materiallarni tanlash imkoniyatiga ega. Masalan, tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, “raqamli vositalardan foydalanib ta’lim olayotgan talabalar o‘z vaqtlarini va ta’lim resurslarini boshqarishda yanada samarali bo‘lishlari mumkin” [Archer et al., 2014].

Zamonaviy texnologiyalar ta’lim jarayonini faollashtirishga yordam beradigan ko‘plab resurslar va vositalarni taqdim etadi. MOOC (kattalar uchun ochiq onlayn kurslar) kabi formatlar tomoshabinlarga dunyoning yetakchi ekspertlari va universitetlaridan bilim olish imkoniyatini beradi. “MOOC ta’lim sohasida muhim hodisa bo‘lib, sifatli o‘qitish va turli madaniy kontekstlarga kirishni ta’minlaydigan platformaga aylangan” [Yuan & Powell, 2013].

Raqamli ta’limning muhim jihatlaridan biri geografik to‘siklarni bartaraf etish va turli mamlakatlardan kelgan talabalar uchun muloqot imkoniyatlarini yaratish qobiliyatidir. Ochiq raqamli platformalar va ijtimoiy tarmoqlar talabalar o‘rtasida aloqalarni o‘rnatishga va tajriba almashishga imkon berib, ta’lim jarayonini boyitadi. “Raqamli texnologiyalar orqali madaniyatlararo muloqot ijtimoiy-madaniy farqlar va xususiyatlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi” [Krashen, 1982].

Ijtimoiy-madaniy kompetentlik chet tillarini o‘rganishda muhim komponent bo‘lib, o‘rganilayotgan til ishlatiladigan madaniy, tarixiy va ijtimoiy kontekstlarni bilishni va tushunishni o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy-madaniy kompetentlik tilni chuqurroq tushunishga yordam berib, o‘quvchilarga faqat leksik va grammatika tuzilmalarini o‘zlashtirishga emas, balki muloqot madaniyatining nozikliklariga kirishga ham imkon beradi.

Ijtimoiy-madaniy kompetentlik doirasida bir nechta muhim jihatlarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Lisoniy kompetentlik tilni samarali muloqot uchun ishlatish qobiliyatidir. Ushbu jihatda til sohiblariga xos bo‘lgan idiomalar, sleng va boshqa ifodalardan xabardorlik muhim rol o‘ynaydi [Yevropa Kengashi, 2001].

2. Etnik kompetentlik boshqa etnik guruhlarning madaniy xususiyatlarini, an’analari va qadriyatlarini tushunish va hurmat qilishdir. Chet tillarini o‘qitish jarayonida madaniy farqlar va stereotiplarni muhokama qilish bunday farqlarga nisbatan bag‘rikenglik va ochiqlikni rivojlantirishga yordam beradi [Byram, 1997].

3. Madaniy kompetentlik o‘rganilayotgan til asosida madaniyat, falsafa va tarix to‘g‘risidagi ma’lumotlarni solishtirish va qo‘llay olish qobiliyatidir. O‘quvchilar madaniy me’yorlarning til va xulq-atvorni qanday ta’sir qilishi haqida tushunishlari zarur. Ushbu holat madaniyatlararo muloqotda ayniqsa muhimdir.

Ijtimoiy-madaniy kompetentlik o‘quvchilardan nafaqat bilimlar, balki ushbu bilimlarni amaliy muloqotda qo‘llash imkonini beradigan ko‘nikmalarni ham talab qiladi. Byramning fikricha, “ijtimoiy-madaniy kompetentlik nafaqat madaniyatning jihatlarini bilish, balki boshqa madaniyat egalari bilan muloqotda bo‘lish qobiliyatidir” [Byram, 1997].

Shuni ta’kidlash lozimki, ijtimoiy-madaniy kompetentlik tilni o‘rganishda alohida ahamiyatga ega, chunki u nafaqat tilni funksional qo‘llashni taəminlaydi, balki talabalar uchun til sohiblari bilan chuqurroq aloqalar o‘rnatishga imkon beradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yuqori ijtimoiy-madaniy kompetentlikka ega talabalarning til muhitiga muvaffaqiyatli moslashishi ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga yordam beradi.

Shunday qilib, ijtimoiy-madaniy kompetentlik chet tilini muvaffaqiyatli o‘zlashtirish uchun muhim omil bo‘lib, o‘quvchilarga tilni tushunish bilan birga, uni madaniyatlararo muloqot kontekstida qo‘llash imkonini beradi. Ushbu jihat globallashuv davrida ayniqsa dolzarbdir.

Texnologiyalar rivojlanishi va raqamli ta’limga o‘tish bilan birga, chet tillarini o‘rganish jarayonida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirishga bo‘lgan qiziqish sezilarli darajada ortdi. Raqamli vositalar va resurslar ta’limda madaniy jihatlarni integratsiyalash uchun yangi ufqlarni ochib, dinamik va interfaol ta'lim muhitini yaratishga imkon beradi. Quyida raqamli ta’lim ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishga qanday hissa qo‘shayotgani va qaysi amaliy yondashuvlar eng samarali ekanligini ko‘rib chiqamiz.

1. Interaktiv texnologiyalar. Zamonaviy ta’lim platformalari va ilovalari o‘quvchilarga til va madaniyat sohiblari bilan muloqotda bo‘lish imkoniyatini taklif etadi. Video-chatlar, onlayn kurslar va forumlardan foydalanish til muhitiga kirish va madaniy amaliyotlarni real vaqt rejimida kuzatish uchun noyob imkoniyatlar yaratadi. Widad Ma [2024] ta’kidlaganidek, “interfaol texnologiyalar o‘quvchilarga tilni o‘rganishga yordam beribgina qolmay, balki madaniyatga kirishga imkon berib,

boshqa turmush tarzini chuqurroq tushunishga va hurmat bilan qarashga xizmat qiladi”.

2. Multimedia resurslaridan foydalanish. Raqamli ta’lim talabalarga filmlar, seriallar, podkastlar va bloglar kabi turli multimedia resurslariga kirish imkoniyatini taklif etadi. Bunday resurslar o‘quvchilarga o‘rganilayotgan tilni gapiradigan mamlakatlarning madaniy amaliyotlari, an’analari va dolzarb mavzulari bilan tanishishga yordam beradi. Tadqiqotlarda “multimedia materiallari chet tilini o‘rganishni yanada motivatsiyali va qiziqarli qiladi, shuningdek, tanqidiy fikrlashni va ijtimoiy-madaniy kontekstni tushunishni rivojlantiradi” [Chun et al., 2016], deb ta’kidlanadi.

3. Ijtimoiy tarmoqlar va madaniy almashuv. Facebook, Instagram va TikTok kabi ijtimoiy platformalar til va madaniyat o‘rganishda muhim vositalarga aylanmoqda. Ular o‘quvchilarga til sohiblari bilan aloqalar o‘rnatish, madaniy munozaralarda ishtirok etish va turli masalalar bo‘yicha fikr almashish imkonini beradi.

4. Kross-madaniy loyihalar. Raqamli texnologiyalar turli mamlakatlardan talabalar birgalikdagi vazifalar ustida ishlash, bilim va tajriba almashish imkonini beruvchi kross-madaniy loyihalarni amalga oshirishga imkon beradi. Bunday tashabbuslar til o‘rganishga yordam beribgina qolmay, balki ijtimoiy-madaniy jihatlarni chuqurlashtiradi, hamda o‘quvchilarda madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini shakllantiradi [O’Dowd, 2020].

5. Raqamli metodik materiallarni ishlab chiqish. O‘qituvchilar shuningdek, interfaol metodik materiallar yaratish uchun raqamli texnologiyalarni ishlatishlari mumkin. Bunday materiallar ijtimoiy-madaniy mavzularga oid vazifalar va testlarni o‘z ichiga oladi. Masalan, veb-kvestlar va virtual sayohatlardan foydalanish o‘quvchilarga o‘rganilayotgan til mamlakatlaridagi madaniy yodgorliklar, tarix va an’analar bilan tanishishga yordam berib, ularning ijtimoiy-madaniy ufqlarini sezilarli darajada kengaytiradi [Dudeney & Hockly, 2007].

Shunday qilib, raqamli ta’lim ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirishda chet tillarini o‘rganayotgan talabalar uchun kuchli vositani anglatadi. Madaniyat elementlarini raqamli ta’lim muhitiga integratsiyalash nafaqat o‘quv jarayonini boyitadi, balki boshqa madaniyatlarga ochiqlik va bag‘rikenglikni rivojlantirishga ham yordam beradi.

Shubhasiz afzalliklariga qaramasdan, raqamli ta’lim va ijtimoiy-madaniy kompetentlikni chet tillarini o‘qitishga integratsiya qilish bir qator muammolar va to‘siqlarga duch kelmoqda, shu jumladan:

1. Kontent sifatining pasayishi. Raqamli ta’limiy kontent sifati o‘zgaruvchan bo‘lib, barcha resurslar madaniyat va til haqida zamonaviy va aniq ma’lumotlar taqdim etmaydi. O‘qituvchilar o‘quv jarayonida foydalanadigan materiallarni va platformalarni tanlashda ehtiyotkor bo‘lishlari zarur. Past sifatli kontent talabalar orasida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirishga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

2. O‘qituvchilarning tayyorgarligining yetishmasligi. Barcha o‘qituvchilarda raqamli texnologiyalar bilan ishlash yoki ta’lim jarayoniga ijtimoiy-madaniy jihatlarni integratsiyalash bo‘yicha yetarli ko‘nikmalarga ega emasligi raqamli ta’limning imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalanmaslikka olib kelishi mumkin. O‘qituvchilarni bu sohada professional rivojlantirish va o‘qitish muvaffaqiyatli texnologiyalarning integratsiyasi uchun zaruriy shart-sharoitlar bo'ladi.

3. Madaniy stereotiplar. Raqamli muhit ba’zan boshqa madaniyatlar haqida stereotiplarni tarqatishga xizmat qilishi mumkin. Voqelikni tasvirlashda yoki madaniy guruhlarga nisbatan salbiy nuqtai nazar beruvchi materiallarni tanlashda ehtiyot bo‘lish zarur. Madaniyatlarni taqdim etishda muvozanatli va xilma-xil yondashuvni ta’minlash muhimdir, shunday qilib madaniyatga tor qarashlardan qochish mumkin.

4. Xavfsizlik va maxfiylik muammolari. Raqamli platformalar va ijtimoiy tarmoqlarning ta’lim maqsadlarida foydalanilishi talabalarning ma’lumotlari xavfsizligi va maxfiyligi bo‘yicha xavotirlarni keltirib chiqaradi. Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishni ta’minlash va talabalarni onlayn xavfsizlikka o‘rgatish muhimdir, shunda ular raqamli makonda xavfsiz aloqada bo‘lishlari mumkin.

Shunday qilib, raqamli ta’lim va ijtimoiy-madaniy kompetentlikni o‘qitishga integratsiya qilish kompleks yondashuvni va samarali o‘qish uchun yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ko‘plab muammolarni hal etishni talab qiladi. Ushbu muammolarning mohiyatini tushunish o‘qituvchilarga o‘z usullarini va yondashuvlarini yaxshiroq moslashtirishga yordam berib, chet tilini va madaniyatini o‘rganish uchun yanada inklyuziv va samarali shart-sharoitlarni yaratadi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida talabalarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirish chet tillarini muvaffaqiyatli o‘rganishning muhim elementidir. Raqamli texnologiyalar ta’limda madaniy jihatlarni integratsiyalash uchun yangi ufqlarni ochadi, shuningdek, dinamik va interfaol ta’lim muhitini yaratadi. Online platformalar, multimedia resurslari va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish nafaqat til ko‘nikmalarini egallashga, balki til kontekstini, til sohiblarini va madaniy an’analarni chuqur anglashga ham yordam beradi.

Biroq, afzalliklariga qaramay, raqamli ta’lim va ijtimoiy-madaniy kompetentlikni integratsiyalash turli muammolarga duch keladi, jumladan o‘qituvchilarning yetarli tayyorgarlik ko‘rmasligi va kontent sifatidagi muammolar. Bunday to‘siqlarni bartaraf etish ta’lim muassasalari, o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida hamkorlikni talab qiladi.

Xullas, raqamli texnologiyalar orqali ijtimoiy-madaniy kompetentlikni muvaffaqiyatli ravishda shakllantirish o‘quvchilarga boshqa madaniyatlarni tushunish va ularga hurmat bilan qarashning yangi darajasini ochadi. Bunday mashg‘ulotlar nafaqat ularning tajribasini boyitadi, balki globallashgan dunyoda hayotga tayyorlaydi. Shunday qilib, raqamli texnologiyalarni chet tillarini o‘qitish jarayoniga yanada rivojlantirish va integratsiyalash ta’lim tizimini yaxshilashning ustuvor vazifasi bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Afshari M, Ghavifekr S, Siraj S, Jing D (2013) Students’ attitudes towards computer-assisted language learning. Procedia Soc Behav Sci 103:852–859. https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2013.10.407
2. Archer, K., Savage, R., Sanghera-Sidhu, S., Wood, E., Gottardo, A., & Chen, V. (2014). Examining the effectiveness of technology use in classrooms: A tertiary meta-analysis. Computers & Education, 78, 140–149. https://doi.org/10.1016/j.compedu.2014.06.001
3. Byram, M. (1997). Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence: New Approaches to Foreign Language Education. Multilingual Matters.
4. Chun, D., Kern, R., & Smith, B. (2016). Technology in language use, language teaching, and language learning. The Modern Language Journal, 100, 64-80. https://doi.org/10.1111/modl.12302
5. Council of Europe. (2001). Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. Cambridge University Press.
6. Dudeney, G., & Hockly, N. (2007). How to teach English with Technology? Pearson Longman. URL: https://psv4.userapi.com/s/v1/d/-P4WBNA908arMrlPvow4GXgpEG8cKM7OeNymeRSwlpu1mIbTdMPfS8dQUGlczWNW3BJ8ihbCa7spexiS6mqE8G_LqSeLRsXJgiGhJmvr5pwCuKJw/4952074123.pdf (murojaat sanasi 07.02.2025)
7. Krashen, S. (1982). Principles and Practice in Second Language Acquisition. Pergamon Press. URL: https://www.academia.edu/17109255/Principles_and_Practice_in_Second_Language_Acquisition_by_Stephen_Krashen (murojaat sanasi 07.02.2025).
8. O’Dowd, R. (2020). Intercultural Communicative Competence Development Through Telecollaboration and Virtual ExchangeRoutledge Handbook of Language and Intercultural Communication (2nd edition). URL: https://www.academia.edu/43366421/Intercultural_communicative_competence_development_through_telecollaboration_and_virtual_exchange (murojaat sanasi 07.02.2025).

9. Savignon, S. J. (2002). Interpreting Communicative Language Teaching: Contexts and Concerns in Teacher Education. Yale University Press. URL: http://ndl.ethernet.edu.et/bitstream/123456789/79488/11/%5BSandra_J._Savignon%5D_Interpreting_Communicative_La%28BookFi.org%29%20%28for%20syllabus%29.pdf (murojaat sanasi 07.02.2025).
10. Widad Ma, Azman Che Mat, Ghazali Yusri Ab Rahman, Fanidawarti H., Rosmani A.H. (2024) Digital technologies in Language Education: A Comprehensive Review and Analysis. Journal of Advanced Research in Applied Sciences and Engineering Technology. Volume 41, Issue 1 (2024) p. 90-102 URL: https://www.academia.edu/123437471/Digital_Technologies_in_Language_Education_A_Comprehensive_Review_and_Analysis (murojaat sanasi 07.02.2025)
11. Yuan, L., & Powell, S. (2013). MOOCs and Open Education: Implications for Higher Education. URL: https://www.researchgate.net/publication/265297666_MOOCs_and_Open_Education_Implications_for_Higher_Education (murojaat sanasi 07.02.2025).

HAYRAT LEKSIKASINING LINGVOMADANIY FENOMEN SIFATIDA PSIXOLINGVISTIK VA SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Toshquvvatov Xayrulla Lutfulla o‘g‘li
xayrullatoshquvvatov@gmail.com
Tayanch doktorant, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqola hayratlanish emotsiyasining tilshunoslikda o‘rganilishi haqida so‘z yuritadi. Maqolada hayrat leksikasining ingliz va o‘zbek madaniyatida qanday ifodalanishi hamda til va madaniyat uzviy bog‘liqligi haqida fikr yuritiladi. Hayratlanish his-tuyg‘usining turli leksik ifodalar bilan ifodalanishi, uning semantik xususiyatlari ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *Hayrat, emotsiya, psixologiya, semantika, leksika, madaniyat.*

Emotsiyani lingvistik va psixologik nuqtai nazardan o‘rganish masalalari uzoq vaqtdan buyon olimlarning e’tibor markazida bo‘lib keladi. Jumladan, Murray va Arnott (1993) hamda Izard (1977) emotsiya bir nechta omillarni o‘z ichiga olgan murakkab fenomen ekanligini ta’kidlaydilar. Izard (1977) emotsiyani aniqlash uchun quyidagilarni hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi: “emotsiya inson miya va asab tizimida yuz beradigan jarayon bo‘lib o‘ziga xos ifoda shakllariga ega.” Hochschild (1979) esa emotsiyalarni “kutilmagan va boshqarib bo‘lmaydigan” deya ta’riflaydi va hissiy ifodalar “ichki” portlashlar sifatida ko‘riladi, ya’ni o‘zi xoxlamagan holda to‘satdan ichki qalbning to‘lqinlanishidir. Hissiy ifodalar inson qandaydir maqsadda amalga oshiradigan yoki muloqot jarayonida atayin ishlatadigan jarayon emas. Aksincha, bu bir individualga xos bo‘lgan fiziologik jarayonning tabiiy mahsulidir.

Ko‘plab olimlar emotsiyani turlarga ajratgan holda tahlil qilishib, hayratni ijobiy emotsiya sifatida o‘rganishgan. Hayratlanish insonning kutilmagan holatda boshdan kechiradigan hissiyoti (Reizenzein, 2000). Hayrat emotsiyasi kimningdir kutilmagan vaziyatda paydo bo‘lishi, kutilmagan xabarni eshitishi, to‘satdan chiqadigan tovushga tabiiy fiziologik munosabati natijasida yuzaga keladi.

Psixologiya nuqtai nazaridan hayrat odamning psixologiyasida va kognitiv jarayonlarida sezilarli o‘zgarishlarga olib keladigan ba’zan qo‘rqinchli ba’zan quvontiruvchi hodisa sifatida tasvirlanadi. Hayrat insonning atrofida sodir bo‘lgan va bo‘layotgan voqea-hodisalarni qabul qilish va ularga o‘z munosabatini bildirish jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Shunday qilib, emotsional jarayonlar va tovushlarni birgalikda ishlatish hayratlanish intensivligini yanada kuchaytiradi.

Hayrat leksikasining Cambridge elektron lug‘atida berilayotgan ta’rifi quyidagicha (https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/surprise):

1. Kutilmagan voqea.

2. Kutilmagan biror narsa yuz berishi natijasida paydo bo‘lgan tuyg‘u.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida hayrat leksikasi quyidagicha talqin qilingan (O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 2006):

1. Hayronlik, tong qolish; dovdirab, gangib qolish.

2. Kuchli darajadagi taajjub, hayronlik.

Yuqorida berilgan ikki ta’rifni tadqiq qilib shuni ta’kidlash mumkinki, ingliz va o‘zbek tillarida hayrat leksikasiga berilayotgan ta’riflar deyarli o‘xshash, ammo inglizlar hayrat leksikasini kutilmagan voqea ma’nosida ham ishlatishadi. Lekin bunday ta’rif o‘zbek tilida uchramasligi ikki til madaniyatidagi leksik farqlarni ifodalaydi:

Don't tell Anne we've arranged a party for her - I want it to be a surprise. (https://dictionary.cambridge.org)

Annaga uning uchun bazm tashkil qilganimizni aytma - men buni kutilmagan bo‘lishini xohlayman.

Ma’lumki, har bir xalq hayratni turli so‘z, frazeologizmlar, ekstralingvistik vositalar va tovushlar bilan ifodalaydi, chunki bu hodisa faqat insonning psixologik holatinigina emas, balki bir xalqning o‘ziga xos madaniyatini, tarixini va qadriyatlarini aks ettiradi. Shu sababli, hayratni lingvomadaniy jihatdan o‘rganish ingliz va o‘zbek xalqlarining madaniyatlari o‘rtasidagi o‘xshashliklar va farqlarni ham aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, hayratni ifodalovchi so‘zlarni semantik tahlil qilish orqali esa hayratning tildagi leksik ifodalari, ularning sinonimlari va antonimlari haqida to‘liqroq tasavvur hosil qilish mumkin. Bunday tahlil qiyoslanayotgan har ikki tildagi hayratni aks ettiruvchi so‘zlarning miqdori va ulardan anglashilayotgan ma’nolarni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Komponent tahlil natijasida o‘zbek tilida hayratni ifodalovchi so‘zlar va iboralar ko‘pligi aniqlandi: *hayratlanmoq, lol qolmoq, ajablanmoq, qoyil qolmoq, taajjublanmoq, hayrat, ajablanarli, hayratomuz, hayron bo’lmoq, obbo, iya, ibi; Axir bunga aql bovar qilmaydi!, Hayotimda birinchi marta ko‘rishim!, O‘xshatib qo‘yibdi-ku!* va boshqalar.

Ingliz tilida esa *surprise, astonishment, amazement, wonder, awe, amaze, shock, stun, startle, astonish, dumfound, astound, astonishment, bewilderment, agape, dumbfounded, stunned, flabbergasted, aghast, amazed, astonished, wow, oh, no way* va boshqa shu kabi so‘zlar hayratni ifodalashda ishlatiladi.

Intonatsiya va ohang o‘zbek tilida hayratni ifodalashda katta ahamiyatga ega. *“Ha, rostdanmi?”, Voy!, Hayratlanarli!, Axir!, Qoyil!, Obbo!, Nima?, Shunaqami?!,*

Bir tasavvur qiling-chi!, Ajabo! kabi jumlalar intonatsiya bilan qo‘llanilishi natijasida hayratlanish holati kuchaytiriladi. Ingliz tilida esa *“Really?”, “No way!”, “Unbelievable!”* va boshqa shu kabi leksik birliklar qo‘llaniladi. Shuningdek, ingliz madaniyatida hayratlanish holati so‘z va tana harakati bilan ifodalanadi. Bu esa ingliz va o‘zbek xalqlarining o‘ziga xos madaniy xususiyatlarini ko‘rsatadi.

O‘zbek tilida qo‘llaniluvchi hayrat ifodalarini ingliz tiliga tarjima qilishda o‘sha so‘zning ekvivalentini topish qiyinchilik tug‘diradi. Masalan, o‘zbek tilida hayratning kuchli intensivligini ifodalovchi va o‘zbek xalqi tomonidan ko‘p qo‘llaniluvchi *“Yo, tavba!”* iborasining ingliz tilida unga aniq mos keladigan ekvivalenti uchramaydi. Ushbu iborani tarjima qilishda *“Oh my God!”* yoki *“Wow!”* kabi so‘zlarni qo‘llash mumkin, lekin ular kontekstga har doim ham mos tushavermaydi.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan shuni xulosa qilish mumkinki, hayratlanish nafaqat psixologiya, balki til va madaniyat bilan bog‘liq bo‘lgan hodisa bo‘lib, u turli madaniyatlarda turli vositalar bilan ifodalanadi. Hayrat leksikalarini semantik va kognitiv jihatdan chuqur tahlil qilish yordamida ingliz va o‘zbek tillarida hayratni ifodalovchi leksik birliklar miqdorini va ularning o‘ziga xos lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hochschild, Arlie Russell. (1979). Emotion Work, Feeling Rules and Social Structure. *American Journal of Sociology*, p75.
2. Reisenzein, R. (2000). Exploring the Strength of Association Between the Components of Emotion Syndromes: The Case of Surprise. *Cognition and Emotion*, p38.
3. Wilkinson, S. Kitzinger, C. (2006). Surprise As an Interactional Achievement: Reaction Tokens in Conversation. *Social Psychology Quarterly*, p150
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati (2006). 5-jild. Toshkent: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. B 606.
5. https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/surprise

MONITORING SOCIAL-EMOTIONAL DEVELOPMENT IN CHILDREN
BOLALARDA IJTIMOIY-EMOTSIYONAL RIVOJLANISHNI MONITORING QILISH

Turaev Jamshid Shukrulloevich
Doctorate student in Namangan State University
Jamturaeff@gmail.com
Namangan state university, Uzbekistan.

Abstract: *The monitoring of social-emotional development in children is of utmost importance in order to get insight into their emotional well-being, interpersonal abilities, and overall psychological state. This thesis examines the significance of monitoring social-emotional development and emphasizes crucial factors and approaches for efficient monitoring.*

Key words: *monitoring, emotional well-being, interpersonal skills, mental health, assessment, observation, problem-solving, behavior.*

INTRODUCTION: Social-emotional development covers a diverse array of cognitive and behavioral capacities, including as self-awareness, self-regulation, empathy, and the establishment and maintenance of interpersonal connections. The act of monitoring this progression in children yields significant knowledge regarding their emotional and social capabilities, facilitating the timely detection of possible issues and the application of suitable therapies.

The monitoring of children's social-emotional development is a crucial aspect in comprehending their emotional well-being, interpersonal abilities, and overall psychological state. The development of social-emotional abilities is of paramount importance in determining the success and well-being of children, as it significantly influences their academic achievements, interpersonal connections, and overall sense of contentment in life. Through the active monitoring and assessment of social and emotional development, educators, caregivers, and mental health experts are able to acquire significant information pertaining to a child's strengths, areas of improvement, and potential areas of worry.

Social-emotional development encompasses the process of acquiring and honing abilities pertaining to self-awareness, self-regulation, social relationships, empathy, and problem-solving. It comprises a broad spectrum of skills that empower youngsters to effectively navigate and flourish within their social contexts. The process of monitoring this particular development is the systematic observation, assessment, and recording of a child's behaviors, emotions, and social interactions in order to get a full comprehension of their socio-emotional competency.

MAIN DISCUSSIONS: Effective monitoring necessitates the utilization of assessment techniques and methodologies that align with the developmental needs and capabilities of the individuals being evaluated. This entails taking into account the age, cultural heritage, and unique characteristics of children. Various methodologies are employed to collect data pertaining to social-emotional development, including but not limited to observations, interviews, standardized evaluations, and behavior checklists.

The assessment of social-emotional development is a multifaceted and intricate concept. The scope of monitoring should span multiple domains, including but not limited to emotional regulation, social skills, self-esteem, and problem-solving ability. The utilization of a comprehensive assessment approach facilitates the acquisition of a thorough and all-encompassing comprehension of a child's social-emotional development.

The importance of engaging in collaborative efforts with parents and caregivers. The inclusion of parents and caregivers in the monitoring process is of utmost importance. They hold significant insights on the behavior, emotions, and social interactions of children in various contexts. The implementation of collaborative endeavors facilitates a more thorough comprehension of a child's social-emotional development and augments the precision of assessment outcomes.

The early identification of risk factors or possible challenges can be facilitated through the monitoring of social-emotional development. This facilitates prompt interventions and assistance in order to effectively tackle any growing difficulties. Systematic monitoring facilitates the identification of patterns or alterations in a child's behavior that may signify a requirement for further assistance or intervention.

The implementation of personalized support and intervention is facilitated by the use of effective monitoring, which informs the creation of individualized support plans and interventions that are customized to address the unique requirements of each child. This technology facilitates the ability of educators, mental health professionals, and caregivers to implement specific interventions that support the promotion of optimal social-emotional development and effectively treat any detected difficulties.

Longitudinal Monitoring: The development of social-emotional skills is a complex and evolving process that occurs over an extended period. The practice of longitudinal monitoring, which involves the collection of data over longer periods of time, enables the systematic observation of progress, identification of developmental trajectories, and evaluation of the efficacy of interventions. The utilization of long-

term monitoring facilitates the quantification of growth, the identification of enduring strengths and areas necessitating improvement, as well as the provision of valuable insights for educational and therapeutic planning.

Ethical considerations must be taken into account when monitoring social-emotional development in order to safeguard the privacy, confidentiality, and overall welfare of children. The individuals engaged in the aforementioned process are required to conform to ethical principles, ensure the acquisition of informed consent, and safeguard confidential information pertaining to a child's social-emotional development.

CONCLUSION: To summarize, the monitoring of socio-emotional development in children is of utmost importance in order to foster their holistic well-being and facilitate the cultivation of sound emotional and social capabilities. Professionals can effectively monitor social-emotional development and implement interventions that foster positive outcomes for children by employing developmentally appropriate assessment methods, engaging parents and caregivers, identifying risk factors, offering individualized support, and taking into account ethical considerations. The use of ongoing surveillance during the entirety of a child's developmental trajectory facilitates prompt assistance and augments their social-emotional aptitude and resilience.

Used literature:

1. Cleary, J., Nolan, C., Guhn, M., Thomson, K., Barker, S., Deane, C., Greenwood, C., Tulloh Harper, J., Fuller-Tyszkiewicz, M., Letcher, P., Macdonald, J., Hutchinson, D., Spry, E., O’Connor, M., Carr, V., Green, M. J., Peachey, T., Toumbourou, J., Hosking, J., Nelson, J., Williams, J., Zubrick, S., Sanson, A., & Lycett, K. (2022). A study protocol for community implementation of a new mental health monitoring system spanning early childhood to young adulthood. DOI: 10.1332/175795921x16599509057666. PDF
2. Tánczos, J. (2017). Monitoring and Supporting the Development of Children and Young People in the United Kingdom. DOI: 10.18458/kb.2017.1.69.
3. Aksoy, P. (2019). How to Assess Social Emotional Learning of Preschool Children Through Different Decision Making Methods. DOI: 10.46827/EJES.V0I0.2702.
4. Kee Jiar, Y., & Xi, L. Examine the Short-Term Effects on Child Development in Early Childhood Education and Care Centres: Social, Emotional, Physical, Language and Self-management Development.
5. Subxanovich, A. A. (2023). KASBIY NUTQNI RIVOJLANTIRISHDA MUHOKAMA MAVZULARINING LINGVISTIK AHAMIYATI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, *3*(12), 381-384.
6. Turaev, J., Aslanov, A., & Subhonova, A. (2022). Organization Of Pre-School Education System In Two Different Countries: Russian Federation And Japan. *Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования*, *1*(24), 86-93.

7. Turaev, J., Aslanov, A., & Subhonova, A. (2022). THE RISING OF THE INEQUALITY ON THE EDUCATION SYSTEM OF PRESCHOOLS IN UZBEKISTAN. *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика*, *1*(24), 305-308.
8. Shukrulloevich, T. J., & Subxanovich, A. A. (2022). SUGGESTIONS AIMED AT THE DEVELOPMENT OF THE PRE-SCHOOL EDUCATION SYSTEM IN UZBEKISTAN.

ALEKSANDR FAYNBERG SHE’RIYATI

Turg‘unbayeva Noila Dilshod qizi
O‘zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Aleksandr Arkadevich Faynberg asarlari, ilmiy ishlari va tarjimalari, adabiyotda tutgan o‘rni, o‘zbek adabiyotiga qo‘shgan hissasi haqida ma’lumot beriladi. Shuningdek, shoir ijodining bugungi kundagi ahamiyati haqida so‘z yurtiladi.*

Kalit so‘zlar: *she’riyat, tarjima, ssenariy, madaniyat, millat, o‘zbek xalqi, vatan.*

Adabiyot shunday bir dengizki, unda daryolarning qudrati, ummonlarning teranligi bor; shunday bir chamanzorki, undan xushbo‘yifor taratgan gullar, hali ochilmagan gullarning tarovati bor; shunday bir oltin ko‘prikki, u xalqni birlashtirib, do‘stlik rishtalarini mustahkamlaydi. Zero, adabiyotning tili bitta, san’at tilidir. Adabiyot tarixida shunday ijodkorlar yashab o‘tganki, ular garchi boshqa millat vakili bo‘lsa-da, ijodi orqali o‘zbek xalqining dardini, ruhini kuylagan, adabiyotimizni jahonga targ‘ib qilishda misilsiz jonbozlik ko‘rsatgan, Ana shunday buyuk insonlardan biri O‘zbekistonning Rossiya Federatsiyasi bilan madaniy aloqalarini rivojlantirishga qo‘shgan ulkan hissasi uchun Pushkin medali bilan. taqdirlangan, o‘zining yorqin she’riyati bilan adabiyotimiz osmonida o‘chmas iz qoldirgan O‘zbekiston xalq shoiri Aleksandr Arkadevich Faynberg edi.

Aleksandr Faynberg 1939-yil 2-noyabrda Toshkent shahrida tavallud topgan. Ota-onasi tug‘ilishidan ikki yil avval Novosibirskdan ko‘chib kelgan. Yozuvchining otasi Arkadiy Livovich Faynberg (1891-1971), asli Gitchinalik, texnologiya institutini tamomlagan va spirt zavodida bosh muhandis bo‘lib ishlagan. Onasi Anastasiya Aleksandrovna Moskvada tug‘ilgan.

Shoir Toshkent davlat universitetining jurnalistika fakultetini tamomlagan. Shu bilan bir qatorda Yozuvchilar uyushmasida maslahatchi bo‘lib ham ish yuritgan. Shu tariqa uning asarlari dunyo yuzini ko‘ra boshladi. Aleksandr Faynberg rus shoiri, O‘zbekiston xalq shoiri, O‘zbekiston shoirlari osmonida shubhasiz eng yorqin yulduzlardan biridir. U 15 ta she’riy to‘plam (jumladan o‘limidan so‘ng nashr etilgan ikki jildlik asarini o‘zi tuzgan) muallifi edi. She’rlari “Smena”, “Yoshlik”, “Yangi dunyo”, “Sharq yulduzi” , “Yangi volga” jurnallarida hamda xorijiy mamlakatlar: AQSH, Kanada, Isroilnijg davriy nashrlarida chop etilgan. “Etyud”(1967), “Soniya”(1969), “She’lar”(1977), “Olis ko‘priklar”(1978), “Ijobat”(1982), “Qisqa to‘lqin”(1983), “Yoyma to‘r”(1984), “Erkin sonetlar”(1990) va boshqa she’rlar muallifidir. Faynbergning she’riy ijodida o‘tmish bilan hozirgi kun, G‘arb bilan Sharq millilyligi,baynalmilalchilikgi o‘zaro tutashib, o‘ziga xos badiiy olamni vujudga

keltiradi. Faynbergning lirik qahramoni tarixiy-ijtimoiy silsilalar asrida o‘zining insoniy mohiyatini to‘la saqlab qolgan, o‘zgaga mehr-shafqat va madad qo‘lini uzatishga tayyor, yer kurrasida sodir bo‘layotgan noxush voqea va hodisalardan iztirob chekuvchi insondir. She’riy ijodida rus va Yevropa shoirlarining eng yaxshi badiiy tajribalari namoyon bo‘lgan. Sharq mumtoz she’riyati an’analari ham uning ijodiy uslubiga begona emas.

Faynberg ijodining muhim qismini badiiy tarjima tashkil etadi. O‘zbek she’riyatini mukammal bilgan shoir Navoiy g‘azallari, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Omon Matjon va boshqa o‘zbek shoirlarining she’r va dostonlarini rus tiliga tarjima qilgan. Faynberg ssenariysi asosida “O‘zbekfilm” kinostudiyasida “Mening akam”, “Jazirama oftob tagida”, “Qandahorda toblanganlar”, “Tijokfilm” kinstudiyasida esa “Jinoyatchi va oqlovchilar” hamda boshqa filmlar suratga olingan. Faynberg ssenariysi asosida to‘rtta to‘liq metrajli badiiy film va 20ga yaqin multfilmlar yaratilgan.

Badiiy asar kompozitsiyasiga xizmat qiluvchi har bir elementning poetikasini o‘rganish va shu asosda ilmiy izlanishlar olib borish mumkin. Masalan, rus olimlaridan D.S.Lixachev qadim rus adabiyotining poetikasini, I.V.Silantev motivlarining, V.V.Vinogradov syujet va uslubning, N.E.Falikova xronotopning, N.Bandurina va Z.Suvanov obrazlarining, Y.Solijonov badiiy nutqining, Q.Hamrayev kompozitsiyasining poetikasini tadqiq qilishgan va muhim ilmiy-nazariy xulosalarni chiqarishgan. Ayniqsa, asar syujeti va janrlar tipologiyasi bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lgan olimlarga O.M.Freydenberning fundamental monografiyasi juda katta nazariy material beradi. Adabiyotshunos olimlarning tafakkur tarzi va tadqiqotchilik mahoratini ham poetika nuqtai nazaridan o‘rganish mumkin[6]. Masalan, rus olimi O.Presnyakov nazariyotchi olim A.A.Potebnya ilmiy ijodining poetikasini o‘rgangan.

IV. Muhokama va natijalar

Umuman olganda, Ethel Lilian Voynichning adabiy ijodi XIX-XX asrlar boshlaridagi ingliz adabiy an’anasi merosiga kiradi. Ushbu o‘tish davrining boshqa milliy adabiyotlarida bo‘lgani kabi, ingliz nasrining ko‘plab asarlarida romantic pafos jonlanadi. Inson va olam o‘rtasidagi munosabatlarning romantic konseptsiyasi, chegaraning romantic harakati sifatida qayta tiklanadi. XIX-XX asrlar ko‘pincha muhim badiiy imkoniyatlarga ega bo‘lgan deb nomlanadi, bunday asarda insonning

dunyoda mavjudligi masalasi alohida nuqtai nazardan, umuminsoniy va ijtimoiy o‘rtasidagi mutlaq, universal qarama-qarshilikdan kelib chiqadi.Bu masalani insonparvarlik bilan hal qilish nafaqat muayyan hayotiy sharoitlarda, balki insonning ichki dunyosini, ta’bir joiz bo‘lsa, qayta tug‘ilishini ham tubdan o‘zgartirishni talab qiladi. Bu kabi qarashlar nafaqat Ethel Lilian Voynich asarlariga xos, bundan tashqari bir qancha yozuvchilar; Konrad (1857-1924), D.R.Kipling (1865-1936), R.L.Stivenson (1850-1894), A.Konan Doyl (1859-1930)larning asarlariga ham xos xususiyatlardir.

Ethel Lilian Voynichning mashhur 5 ta asari mavjud. Ulardan uchtasi Arthur Burtonning taqdiri bilan bog‘liq (“Gadfly”, “Interrupted Friendship”, “Put Off Thy Shoes”). “Jek Raymond” romaniga kelsak, u XIX asr boshidagi Angliya haqida hikoya qiladi. Ethel Lilian Voynichning “Jek Raymond” asari uning mashhur asari “Gadfly” romaniga qaraganda unchalik mashhur emas. 1901-yilda nashr etilgan “Jek Raymond” Voynichning psixologik va ijtimoiy dinamikaga doimiy qiziqishini aks ettiradi. Roman hayoti ichki qarama-qarshilik va tashqi qiyinchiliklar bilan ajralib turadigan yosh ingliz Jek Raymondning hikoyasini o‘rganadi. Tadqiqotchilar va adabiyotshunoslar “The Gadfly” va “Jek Raymond” asarini umumiy ijodi kontekstida tadqiq qilib, uning mazvulari, xarakter rivojlanishi va ijtimoiy tanqidlarg e’tibor qaratdilar. O‘rganishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

Adabiy tanqid: olimlar romanning shaxsiy o‘ziga xosligini, axloqiy muammolarini, ijtimoiy me’yorlari haqidagi fikrlarini tahlil qiladilar.

Tarixiy kontekst: Tadqiqotchilar roman Voynichning siyosiy va falsafiy e’tiqodilarini, jumladan, uning sotsializm va insonparvarlikni targ‘ib qilishini qanday aks ettirganini o‘rganadilar.

Qiyosiy tadqiqotlar: Ba’zi tadqiqotlar Jek Raymondni Gadfly bilan taqqoslab, qurbonlik, individualism va jamiyatni isloh qilish kabi takrorlanadigan mavzularni o‘rganadi.

Patrik Woddingtonning E.L.Voynich haqidagi biografik tadqiqotlari uning taniqli inqilobchilar, jumladan, eri Vilfrid Voynich bilan aloqalari va bu munosabatlar “Gadfly” hikoyasini qanday shakllantirganiga oydinlik kiritadi. Uning tadqiqotlari asarning yozilishiga ta’sir qilgan tarixiy va mafkuraviy mazmunlarga urg‘u beradi. Patrik Woddingtonning Ethel Lilian Voynich haqidagi tadqiqotlari uning ishining asosiy jihatlari va uning kengroq madaniy va tarixiy ta’siriga qaratilgan. U E.L.Voynich asarlarida birinchi navbatda quyidagi mavzularni o‘rganadi:

a) Tarixiy mazmun va inqilobiy mavzular. Woddington “Gadfly” asarida XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi inqilobiy g‘oyalar, jumladan, shaxsiy fidoyilik, zulmga qarshilik va ruhoniylikka qarshi tasviri qanday aks etganini tahlil qildi. U Voynichning inqilobiy doiralarga kirib borishi uning rus inqilobiy harakatlari bilan hamohanglashgan hikoyasini qanday shakllantirganini ta’kidladi.

b) Madaniyatlararo adabiy ta’sir. U G‘arbiy Yevropada “Gadfly” Sovet Rossiyasidagi g‘ayrioddiy mashhurligini o‘rganib chiqdi. Woddington buni romanning sovet g‘oyalari bilan mafkuraviy uyg‘unligi, xususan, ateizm va imperator kuchlariga qarshi bo‘ysunishga qaratilganligi bilan bog‘ladi. Uning tadqiqot ishida roman qanday qilib isyon timsoliga aylangani va sovet spektakllari, filmlari va ta’lim dasturlariga moslashtirilgani ta’kidlangan.

c) Adabiyot texnikasi va timsoli. Woddington romanning adabiy tuzilishini, shu jumladan ramziy tasvirlardan foydalanishni o‘rgandi. U,shuningdek, hikoya uslubini, jumladan, shiddatli hissiy ohangni va individual va tizimli to‘qnashuvlarga e’tibor qaratdi.[7].

Xulosa.

Ethel Lilian Voynichning “Gadfly” romani, uning adabiyotga qo‘shgan hissasi va dunyo bo‘ylab o‘rganilgan asar sifatida, mifologik va adabiy nuqtai nazardan katta ahamiyatga ega. Roman, nafaqat tarixiy voqealar, balki insonning ichki dunyosini, ijtimoiy adolat, inqilobiy g‘oyalar, xiyonat va qurbonlik kabi muhim mavzularni o‘rganadi. Voynichning “Gadfly” romani mifologik tuzilishga ega bo‘lib, unda qahramon Arthur Burtonning o‘lim va tirilish jarayonlari mifologik nuqtai nazardan yoritilgan. Tadqiqotchilar, xususan, Mironov Aleksey Viktorivich, romanning mifopoetik tuzilishini, uning mifologik subtekstini va tarixiy subtekstini tahlil qilishdi. Voynichning asarida XIX asr oxirida Yevropa madaniyatida paydo bo‘lgan diniy va ijtimoiy savollar, shuningdek, inqilobiy g‘oyalar va ularning jamiyatdagi ta’siri alohida ta‘kidlangan. Asar, inqilobiy ruhni, isyonni va ma’naviy azoblarni o‘zida aks ettirgan holda, Rossiya, Irlandiya va G‘arb o‘rtasidagi madaniy aloqalarni yoritgan. Ethel Lilian Voynichning “Gadfly” asari nafaqat ingliz adabiyotining o‘ziga xos vakili, balki global adabiyotda inqilobiy va siyosiy matn sifatida o‘z o‘rnini topgan asar hisoblanadi. Uning madaniy va siyosiy ta’sirini o‘rganish, hozirgi zamon adabiyotshunosligi va tarjimashunosligiga yangi istiqbollar ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Anne Fremantle. *I Published in History Today Volume 25 Issue 9 September* 1975
2. Freydenberg O.M. *Poetics of Plot and Genre*. - M. Publishing House "Labirint", 1997. - 448 p. 45 Presnyakov

3. Gulnoz Xalliyeva, Bahodir Kholikov. *Comparative literature* – Ocak 2023
4. https://ageofrevolutions.com/2018/12/10/voynichs-the-gadfly-exploring-connections-between-revolutionary-russia-and-ireland/
5. Mironov Aleksey Viktorovich. *Мифопоэтика романа Э.Л.Войнич “Овод” в свете современных теорий мифа*. Нижний Новгород -2002
6. Potebnya A.A. *From the Notes on the Theory of Speech*. – Kharkov, 1905

МАТНАЗАР АБДУЛҲАКИМ ШЕЪРИЯТИДА АНЪАНА ВА НОВАТОРЛИК УЙҒУНЛИГИ

Халлиева Гулноз Искандаровна
Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети,
Жаҳон адабиёти кафедраси мудири, профессор (DSc)
gulnoz7410@mail.ru

Маъдиева Адиба Довудовна
Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети,
Жаҳон адабийти кафедраси катта ўқитувчиси
a-madiyeva@mail.ru

Аннотация: *Ушбу мақолада замонавий ўзбек поэзиясининг ёрқин ва ноёб шоири Матназар Абдулҳаким ижоди таҳлил қилинади. Унинг шеърларида анъанавий образлар янги маънода талқин қилиниб, чуқур фалсафий мазмун билан бойитилган. Агава, ишқ ва тумор каби рамзлар орқали шоир инсон ҳаёти, туйғулари ва маънавий қийматлар ҳақида ўзига хос тасаввур беради. Шеърларидаги новаторлик нафақат шаклда, балки маънода ҳам намоён бўлиб, адабий анъаналарни янги босқичга олиб чиқади. Матназар Абдулҳаким ижоди нафақат эстетик завқ уйғотади, балки ўқувчини чуқур мулоҳазага чорлайди.*

Калит сўзлар*: шеърият, анъана, образ, рамз, новаторлик.*

Шеъриятдаги ҳар бир янги қадам ижодкорнинг бадиий тафаккури, дунёқараши ва маънавий мероси билан чамбарчас боғлиқдир. Янги ғоя ва шакллар анъаналар билан уйғунликда, уларни янги маънода талқин қилиш асосида юзага келади. “Чунки ёш иқтидор эгаси ижодда янги, оригинал бадиий кашфиётлар учун очмоқчи бўлган йўлни доимо ўзигача яратилган ижодий анъаналар заминидан топади. Бундан бошқача бўлиши қийин. Зеро, илмда қайта-қайта таъкидланганидек, адабиёт ва санъатда **новаторлик** деган тушунча фақат илғор ҳамда яшовчан адабий анъаналар бағридагина вужудга келади”[1] Албатта, ҳар қандай янги бадиий кашфиёт анъаналар замирида пайдо бўлади. Ҳар қандай ижодий янгилик ана шу анъаналарнинг янги мазмун ва шакл билан бойитилиши натижасидир.

“Сўзнинг мўъжизакор кучи образларни тасвир қилдира олиш қудратига эгалигидир. У бешинчи сезги орқали ҳис этилган нарсаларнинг кўринмас вакилидир.”[2] Демак, сўзнинг бу қудрати шеъриятда новаторликка замин яратади, чунки у оддий ифода тарзларини бузиб, янги маънолар кашф қилишга хизмат қилади.

[1] Ҳаққулов И. Эҳтиёж фарзанди.- Тошкент: Ёш гвардия, 1988.- Б. 34.
[2] Парандовский Я. Алхимия слова. -М.: Прогресс, 1972.- С.133

Анъанавий образлар ифодасида бугунги кун ўзбек шеъриятида ўзига хос усул ва услубларга эга бўлган шоирларимиз мавжуд. Шундай новатор шоирлардан Матназар Абдулҳаким ижоди ўзига хос образлар, теран фалсафий мушоҳадалар ва ноёб поэтик услуби билан ажралиб туради. Қуйида унинг новаторлик хусусияти яққол намоён бўлган шеърларидан таҳлиллар келтирамиз.

Ўзбек шоири **Матназар Абдулҳаким**нинг **“Агава”** шеърида агава дарахти ноёб рамз сифатида талқин қилинган бўлиб, у новаторликнинг муҳим жиҳатларини акс эттиради:

Бу — Қайс гули, бу — Мажнун гули,
Гар узатсам қоврилгай қўлим.
Агаванинг гули бу — бир бахт,
Бу — мангу бир ҳаётбахш ўлим.[3]

Агава ўзининг сирли даври билан инсон тақдири, ҳаёт ва ўлим ўртасидаги ўзаро боғлиқликни ифодалайди. Қайс ва Мажнун тимсоллари классик шеъриятда севги, вафо ва оғриқ рамзлари бўлиб келган. Бу ерда гуллар уларнинг маънавий изтиробларини ўзида мужассамлаштирган, яъни гуллар нафақат табиатнинг бир қисми, балки инсон эҳтиросларининг бир тимсоли сифатида талқин қилинган.

Шеърда агаванинг гули орқали бир вақтнинг ўзида бахт ва ўлимни туташтириб, янги фалсафий мазмун яратилган. Шеърда агава дарахтининг бир мартагина гуллаб, шундан кейин йўқ бўлиши унинг "ҳаётбахш ўлим" сифатида талқинига асос бўлган. Буни инсон ҳаётидаги муваффақият ва қурбонлик ўртасидаги зиддиятга қиёс қилиш мумкин. Шоир табиат образларини инсон эҳтиослари, ҳис-туйғулари билан уйғунлаштириб, адабий анъаналарга янгича мазмун қўшган.

Демак, юқоридаги мисраларда шоир агава орқали севги мазмунига янгича ёндашув киритади, новаторликнинг муҳим намунаси сифатида гул орқали нафақат эстетик завқ уйғотади, балки ўқувчини чуқур фалсафий мулоҳазага чорлайди.

Матназар Абдулҳакимнинг қуйидаги мисралари эса ишқ образи чуқур фалсафий ва бадиий мазмун билан бойитилганлигини кузатамиз.

Шодлигингга қисқа умримни бериб,
Оҳ-фиғон қилмасдан, нолимасдан, жим,

[3] Абдулқаким. М. Жавзо ташрифи. Шеърлар, достонлар.— Т.: Шарқ, 2008 - Б. 43

Аста ер қаърига кетаман эриб
Сенга атаб гуллар юбориш учун...[4]

Ишқ образи фақатгина туйғу эмас, балки ҳаёт ва ўлим, фидокорлик ва яшашнинг чексиз қудрати сифатида тасвирланган. Лирик қаҳрамон ўз ҳаётини ёрнинг шодлиги йўлида фидо этишга тайёр, бу эса ишқнинг юксак маънавий моҳиятини намоён қилади. Умрнинг қисқалиги ва ер қаърига аста-аста юз тутиш орқали ишқнинг чексизлиги ва доимийлиги тасвирланади.

Шеърнинг новаторлик хусусияти унинг фалсафий теранлигида ва образларнинг ноодатий ижодий талқинида яққол кўринади. "**Ер қаърига кетиш"** ибораси анъанавий ўлимни эмас, балки бу ўринда қайта тикланишни, гуллар юбориш орқали янги ҳаёт яратишни англатган. Бу ерда ишқ инсонийлик ва мавжудликнинг олий кўриниши сифатида талқин этилган. Шеърнинг содда, лекин чуқур бадиий шакли ва ритмик уйғунлиги уни ўқувчининг ҳис-туйғуларига кучли таъсир қилувчи асарга айлантиради.

Хуллас, Матназар Абдулҳаким анъанавий образ бўлган ишқни инсон ҳаётининг чексиз ижодий кучини намоён қилувчи рамзга айлантириб, ўзининг ноёб новаторлик услубини яратишга муваффақ бўлган.

Шоирнинг қуйидаги шеърий парчасида **тумор** образи ноанъанавий талқинда берилган бўлиб, унинг новаторлик хусусияти маънавий рамзнинг замонавий ҳаёт контекстига мослаштирилишида яққол кўринади:

Туморлар тақасиз машинангизга,
Туморлар тақасиз мулкингизга сиз.
Тумор тақинг, асли, кўзёшингизга,
Тумор тақинг, асли, кулгунгизга сиз.[5]

Тумор, анъанавий маънода, ҳимоя ва саодат рамзи ҳисобланса-да, бу шеърда у моддий бойликлар- машина ва мулкларга қўлланилиши орқали инсоннинг қадриятлар тизимидаги ўзгаришларни очиб беради. "Туморлар тақасиз машинангизга" сатридан моддийликнинг ҳимоя қилинишига қаратилган ҳозирги замон танқиди ёритилган. Бу анъанавий маънавий вазифанинг йўқолганини кўрсатади.

Шеърнинг сўнгги икки мисрасида тумор инсон туйғулари – кўзёш ва кулгу билан боғланади. Бу туморнинг нафақат ташқи, балки ички ҳимоя воситаси сифатида қайта талқин этилишига ишора қилади. "Тумор тақинг, асли,

[4] Абдулқаким. М. Фасллар қўшиғи. Шеърлар,- Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2008 - Б. 31
[5] М. Абдулҳаким. Жавзо ташрифи. Шеърлар, достонлар. - Тошкент: Шарқ, 2008. - Б.314

кўзёшингизга" ибораси **инсон қайғусининг маънавий муҳофазага муҳтожлигини,** "Тумор тақинг, асли, кулгунгизга" ибораси эса инсон бахтига кўз тегишига ишора қилган. Бу ўринда тумор инсоннинг ҳиссий дунёсини асосий ўринга қўяди ва унинг юксак поэтик таъсирини таъминлайди.

Матназар Абдулҳаким ижоди замонавий ўзбек шеъриятида анъана ва новаторлик уйғунлигини яққол намоён этувчи мисоллардан бири ҳисобланади. Унинг шеърларида классик образлар ноанъанавий талқинда қайта кўриниш олиб, янги маъно ва фалсафий мазмун касб этади. Шоир анъанавий тимсолларни, масалан, гул, ишқ, тумор каби рамзларни ўзгача ёндашув билан бойитиб, уларга замонавий ҳаёт ва инсоний туйғулар билан боғлиқ янги мазмун бағишлайди.

"Агава" шеърида табиат ва инсон тақдири уйғунлиги, ҳаёт ва ўлим ўртасидаги боғлиқлик фалсафий ва бадиий тасвир орқали очиб берилган. Гул тимсоли нафақат табиат ифодаси, балки инсон эҳтиросларини, дарду ҳасратларини акс эттирувчи образ сифатида талқин қилинган. "Ҳаётбахш ўлим" ғояси орқали шоир умрнинг ўтишини ва инсоннинг маънавий мероси орқали давомийлигини илғор образларда намоён қилади.

Шоирнинг ишқ тўғрисидаги шеърларида ҳам ноёб фалсафий мазмун сезиларли. Умрни маҳбуба бахти учун фидо қилиш, ер қаърига кетиш орқали гуллар юбориш рамзи ишқнинг доимийлиги, қайта тирилиш ва юксак маънавий қудрат тимсоли сифатида янгича талқин этилган. Бу образлар анъанавий ишқ ифодасидан фарқли тарзда, инсон ҳаётининг маънавий бойлиги ва қурбонлик воситасида қайта англашга асосланган.

Шоир ижодидаги тумор образи эса анъанавий муҳофаза рамзидан четга чиқиб, инсон қадриятларининг ўзгаришига ишора қилади. Материалистик дунёқараш танқиди ва маънавиятнинг биринчи ўринга чиқиши бу образнинг янгича талқини орқали юзага келади. Туморнинг мулк ва машинага эмас, балки инсон ҳиссий олами – кўз ёш ва кулгуга бағишланиши, моддийлик устидан маънавиятнинг устунлигини тасдиқлайди.

Хулоса қилиб айтганда, Матназар Абдулҳаким шеъриятидаги новаторлик анъанавий образлардан фойдаланишда эмас, балки уларни янги мазмун ва шаклда қайта талқин этишда намоён бўлади. Шеърларида бадиий образ ва фалсафий тафаккур уйғунлиги туфайли, унинг ижоди наинки замонавий шеъриятнинг муҳим қисми, балки адабий анъаналарнинг янги босқичга кўтарилишининг ёрқин намунаси сифатида баҳоланиши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ҳаққулов И. Эҳтиёж фарзанди.- Тошкент: Ёш гвардия, 1988.- Б. 34.
2. Абдулқаким. М. Жавзо ташрифи. Шеърлар, достонлар.— Т.: Шарқ, 2008 - Б. 43
3. Парандовский Я. Алхимия слова. -М.: Прогресс, 1972.- С. 133
4. Абдулқаким. М. Фасллар қўшиғи. Шеърлар,- Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2008 - Б. 31

ТВОРЧЕСТВО САЯКА МУРАТЫ И ЕЕ ВЛИЯНИЕ НА РАЗВИТИЕ ЭГО-РОМАНА В СОВРЕМЕННОМ ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ

Халлиева Гульноз Искандаровна,
профессор, доктор филологических наук,
зав.кафедрой мировой литературы, УзГУМЯ

Петросян Наира
Старший преподаватель,
кафедра иностранного языка и литературы,
Международный университет Нордик
nrp91366@gmail.com
УзГУМЯ, Узбекистан, Ташкент

Аннотация: *Данная статья посвящена жизни и творчеству современной японской писательницы XXI века Саяка Мурате, получившей огромную популярность и множество литературных премий как в Японии, так и зарубежом. Наибольшую известность писательнице принес роман «Человек минимаркета», за который она получила самую престижную литературную награду – премию Акутагавы Рюноске. Одной из главных тем данного произведения является поиск женщины самой себя в современном мире. Роман также помогает понять социальную сущность женской проблемы в современном японском обществе.*

Ключевые слова: *Саяка Мурата, Япония, японское современное общество, роль женщины в обществе, эго-роман, автофикшн*

Саяка Мурата – современная японская писательница, новеллистка, эссеистка, сумевшая завоевать большой авторитет на Западе благодаря своему роману «Человек из минимаркета» наряду с такими выдающимися писателями как Кадзуо Исигуро и Харуки Мураками. Мурата родилась 14 августа 1979 года в городе Индзай в префектуре Тиба. Окончила женскую школу при университете Нисёгакуся, в школе занимала должность старшей по клубу искусств. С детства была большой поклонницей манги (японских комиксов) и рассказов для девочек. Начала писать рассказы уже в начальной школе. Выпускница литературного факультета университета Тамагава. Среди учителей Мураты — писатель Акио Мияхара.[1]

Так как писать она начала с юности, вступительное сочинение Мураты «Идеал» (яп. 理想) высоко оценили на экзаменах.[2]

К своей деятельности, как писателя, Саяка Мурата серьезнее стала относиться во время учёбы в колледже, и дебютировала с рассказом за который

[1]三島由紀夫賞・山本周五郎賞・川端康成文学賞贈呈式「挑戦してよかった」喜びと感謝と. Sankei, 2013.
[2] Alicia Joy. Meet Sayaka Murata: Akutagawa Prize Winner. The Culture Trip, 2016.

была награждена Премией Гундзо для начинающих писателей.[3]Работы Мураты четыре раза приносили ей премию Мисимы. В 2016 году за роман «Человек минимаркета» (яп. コンビニ人間), опубликованный в журнале Бунгакукай, Мурата получила премию Акутагавы Рюноске, это была первая её номинация на данную премию. До 2016 года писательница работала продавщицей в магазине у дома на неполную ставку, что и послужило вдохновением к написанию данного романа, который в большей степени является автобиографическим. По словам самой писательницы, работа давала ей пищу для размышлений и сюжеты для книг.

В романе «Человек минимаркета» повествование ведется от женщины по имени Кокура Кэйко, которая 18 лет проработала продавщицей в одном и том же минимаркете, как и сама автор романа. Сменилось восемь директоров, её коллеги приходили и увольнялись, а девушка всё там же — питается готовой едой из своего магазина и пьет минеральную воду, продающуюся там. Она стала человеком из минимаркета. И это дает ей ощущение, что она обычный человек. Она взяла себе за правило никогда не показывать своих чувств и не высказывать своих суждений. Вместо этого она создала «лоскутную личность», копируя поведение и перенимая привычки и манеры у окружающих ее женщин, в основном коллег по работе, которых она считает правильными и восхищается их стилем. Эта эффективная и удобная стратегия позволяет ей приспособиться к собственному окружению. В тот момент, когда, прибыв на работу незадолго до начала смены, она переодевается в рабочую униформу, Кэйко превращается в функцию, в «человека минимаркета».

Данное произведение помогает понять социальные рамки и функции обычной женщины в современном японском обществе. Писательница Мурата Саяка своим произведением хочет показать, что современная женщина стремиться свести все к наиболее простому знаменателю, либо работать изо всех сил, либо выйти замуж и завести детей. В Японии насчитывается более 50 тысяч магазинов шаговой доступности, через которые каждый месяц проходит 1,4 миллиарда японцев. Такое упрощение привело к тому, что более сложные стремления и желания стали не нужны.[4]

[3] Daisuke Kikuchi. Convenience store worker who moonlights as an author wins prestigious Akutagawa Prize. The Japan Times, 2016.
[4] Сайто Сатору. Алекситимия: эмоциональный разрыв, скрывающийся под маской нормальности, 2016.

Японский социолог Адзума Хироки несколько лет назад высказал мнение о том, что этот феномен приведет к тому, что человек вновь вернется в животное состояние. Современным потребителям не нужна чужая помощь, ведь все свои потребности можно удовлетворять мгновенно, по инерции. Нет необходимости, как раньше, общаться с другими людьми, чтобы совершить покупку или построить отношения. Сейчас можно получить желаемое, прикладывая минимум усилий, например, благодаря магазинам шаговой доступности.

Но может быть, что этот регресс и есть возвращение людей к собственным стремлениям. Чем проще желания, тем ближе к состоянию животного, а чем ближе это состояние, тем ближе новая форма цивилизации — жизнь ради себя. Японцы считают, что тридцатилетний человек лучше всего понимает себя. Многие в этом возрасте обнаруживают, что они не созданы для совместной жизни с кем-либо. Поэтому одно из связанных с обществом низких потребностей явление — это то, что Япония положила начало появлению «общества одиночек». В 2018 году, национальное японское бюро по социальному обеспечению опубликовало доклад «Оценочное количество японских семей в будущем».

В докладе сообщается, что к 2040 году 39,3% людей будут жить в одиночестве. Соотношение людей старше 65 лет, которые останутся одинокими будет выглядеть так: мужчины 20,8%, то есть из пяти человек один будет одинок, а одиноких женщин будет 24,5% (четыре к одному). Это те люди, которые так и не женились или не обзавелись семьей вновь после развода.

В сериале «Квартет», который транслировался в 2017 году, есть одна примечательная сцена. Готовя ужин, жена выжимает лимонный сок на кусочки жареной курицы, а её муж крайне недовольно говорит, что он не любит лимонный сок. В итоге эти двое начинают ссору, которая приводит к разводу.

В Японии многие девушки не хотят выходить замуж. Причина этого кроется в том, что за последние годы возросли возможности трудоустройства для женщин. А традиционное мнение о том, что женщина — это домохозяйка сходит на нет. Сейчас на молодых женщин оказывает влияние новый образ идеальной жизни: самостоятельная жизнь в собственной квартире, возможность прийти после работы, снять одежду, ходить по дому босиком, полистать свой любимый журнал или книгу, потом принять ванну с телефоном в руке, расслабиться и заснуть сладким сном. И зачем же надо выходить замуж? Зачем нужна вторая половинка? Разве жить в одиночестве не лучшее, что может

быть? Вот какими вопросами задаётся автор Саяка Мурата, и дает, нам читателям, пищу для размышлений.

Таким образом можно сделать вывод о том, что писательница хочет обратить наше внимание на две тенденции, стремительно развивающиеся в Японии. Первое: в условиях современного успешного капиталистического общества, происходит упрощение нравственных ценностей. Второе: наблюдается потеря самосознания у современных людей. Поэтому автор своим произведением призывает японцев обратиться к поискам этого потерянного самосознания.

Безусловно в Японии есть много различных проблем. Но мы должны обратить внимание на такие положительные моменты, как низкий уровень безработицы, низкий уровень смертности в автомобильных катастрофах, а также большое количество туристов и студентов по обмену. Япония — это страна, которая начала эпоху господства интеллекта, что также находит отражение в романе Саяка Мураты.

Использованная литература:

1. Сайто Сатору. Алекситимия: эмоциональный разрыв, скрывающийся под маской нормальности, 2016.
2. Текст вступительного сочинения Мураты, «Идеал». Майнити симбун, 2016.
3. 殺人出産. Коданся, 2017.
4. ＜芥川賞＞印西出身の村田沙耶香さん　入学時文集「いつか理想の自分に」二松学舎大学付属柏高、母校も喜びに沸く　／千葉. Майнити симбун, 2016.
5. 芥川賞受賞者一覧. Бунгэй сюндзю,2017.
6. 三島由紀夫賞・山本周五郎賞・川端康成文学賞贈呈式「挑戦してよかった」喜びと感謝と. Sankei, 2013.
7. 高畑充希、飛躍の一年を回顧「台風の目にいるような感じ」. Oricon, 2016.
8. Chernova, N. (2024). Проблематика изучения эмоций на фразеологическом уровне. Nordic_Press, 2(0002).
9. Alicia Joy. Meet Sayaka Murata: Akutagawa Prize Winner. The Culture Trip, 2016.
10. Daisuke Kikuchi. Convenience store worker who moonlights as an author wins prestigious Akutagawa Prize. The Japan Times, 2016.

OGAHIY TARIXIY ASARLARIDA TASAVVUFIY-MA’RIFIY ISTILOHLAR

Xalliyev Jasurbek Iskandarovich
Urganch Innovation University
Head Teacher of the department Uzbek Language and Foreign Philology
jester8305@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Muhammad Rizo Ogahiyning tarixiy asarlarida tasavvufiy-ma’rifiy leksikaning ishlatilishi tahlil qilingan. Tadqiqotda may, sharob, ishq, darvesh, valiy, tariqat, murid kabi tasavvufiy tushunchalar hamda fiqhiy-ma’rifiy leksika namunalari ko‘rib chiqilgan. Muallif fiqhiy istilohlarning tarixiy-etimologik tahlilini ham amalga oshirgan bo‘lib, arab, fors va turkiy tillardan o‘zlashgan terminlarning semantik o‘zgarish jarayonlari yoritilgan. Shuningdek, ilmiy istilohlarning MFL (ma’rifiy-falsafiy leksika) sifatida qo‘llanilishiga alohida e’tibor qaratilgan. Maqolada Ogahiy asarlarida uchraydigan terminlarning o‘zbek tilidagi rivojlanish bosqichlari va ularning lingvistik xususiyatlari ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar.*Ogahiy, tasavvufiy leksika, fiqhiy istilohlar, ma’rifiy-falsafiy leksika, tarixiy-etimologik tahlil, ilmiy terminlar, turkiy qatlam, arab va fors tillari, semantik o‘zgarish, lingvistik xususiyatlar.*

Annotation. *This article analyzes the use of Sufi-educational vocabulary in the historical works of Muhammad Rizo Agahy. The study examines Sufi concepts such as may (wine), sharob (liquor), ishq (divine love), darvesh (dervish), valiy (saint), tariqat (spiritual path), and murid (disciple), as well as examples of fiqh-related vocabulary. The author also conducts a historical-etymological analysis of fiqh terms, highlighting the semantic transformation of Arabic, Persian, and Turkic-origin words. Additionally, special attention is given to the use of scientific terminology as part of the epistemological-philosophical vocabulary (MFL). The paper explores the linguistic features and developmental stages of these terms in the Uzbek language.*

Key words: *Agahy, Sufi vocabulary, fiqh terminology, epistemological-philosophical lexicon, historical-etymological analysis, scientific terms, Turkic layer, Arabic and Persian languages, semantic transformation, linguistic features.*

Аннотация*. В данной статье анализируется использование суфийско-просветительской лексики в исторических произведениях Мухаммада Ризо Агахи. В исследовании рассматриваются суфийские понятия, такие как май (вино), шараб (спиртное), ишк (божественная любовь), дервиш (странствующий монах), валий (святой), тарикат (духовный путь), мурид (ученик), а также примеры фикхской (исламско-правовой) лексики. Автор проводит историко-этимологический анализ фикхских терминов, выявляя семантические изменения арабских, персидских и тюркских заимствованных слов. Кроме того, особое внимание уделяется использованию научной терминологии как части просветительно-философской лексики (МФЛ). В статье рассматриваются языковые особенности и этапы развития данных терминов в узбекском языке.*

Ключевые слова: *Агахи, суфийская лексика, фикхская терминология, просветительно-философская лексика, историко-этимологический анализ, научные термины, тюркский слой, арабский и персидский языки, семантические изменения, языковые особенности.*

Kirish. Ogahiy tarixiy asarlarida may, mayxona, boda, sharob, sharobxona, xamr, xammor kabi so‘zlar tasavvufiy istiloh emas, aksar hollarda ko‘chma ma’nosi

bilan birga bosh lug‘aviy ma’nolari, ya’ni umumiste’moldagi mazmunlarida ishlatilgani qayd etiladi. Buning sababi solnomalar birinchi navbatda real voqealarga asoslangan asarlar ekanligi bilan izohlanadi. Sharob, boda, may kabi so‘zlarning umumiste’moldagi ma’nolaridan xos ma’nolari vujudga kelish yo‘llari va tamoyillari xususida A.Vohidov e’tiborli fikrlar bayon qilgan . [3]

Ishq so‘zining tasavvuf istilohida o‘ziga xos ma’no anglatishi ma’lum. Alisher Navoiyning ishq martabalari xususida bildirgan mulohazalari mashhur. Ushbu so‘zning tarixiy-etimologik tahliliga nazar solsak, uning arabcha عشق a’shiqa – “sevmoq”, “oshiq bo‘lmoq” fe’lining masdari (infinitivi) shakli sifatida shakllanganini ko‘ramiz . Tarixan esa ishq so‘zining o‘zi mazkur ma’noga polisemiya natijasida o‘tgan bo‘lib, o‘simliklarga chirmashib uni quritadigan giyoh nomi denotant vazifasini bajargan. Bu haqda Muhammad Rampuriyning “G‘iyosu-l-lug‘ot” asarida quyidagilarni o‘qiymiz: “Ishq biror narsani haddan ziyod sevmoq; Tabiblar istilohida biror go‘zal narsani ko‘rib qolish natijasida paydo bo‘ladigan kasallik.[5] Ogahiyning ishq tushunchasi haqidagi tasavvur doirasi keng ekanini uning mazkur so‘z (chulashib)dan foydalanish mahoratida ko‘ramiz. Bandda, shuningdek, darvesh, vali (ko‘pligi avliyo), qutb, g‘avsul-a’zam, axyor, avtod, abdol (budalo), naqib (nuqabo), rijol-l-g‘ayb, valoyat, suluk, mushobahat, tariqat, murid, mujovir, so‘fi, abdol, sharobi azal, sharobi alast, sharobi puxta, sharobi xom, sharobi ma’rifat, xarobot, soqiy, sog‘ar, qadah, jom, javonmard (yana bir sinonimi fato) MFLga mansub birliklar tahlil qilingan. Ogahiy tarixiy asarlarida tasavvuf bilan bog‘liq MFLning ishlatilishi asosan quyidagi omillar bilan bog‘liq ekaniga e’tibor berish lozim: 1. Solnomalarda ko‘plab din va tasavvuf arboblarining zikr etilishi. 2. O‘quvchi zehnida yaxshi qolishi va boshqa maqsadlarda zikri kelgan tarixiy shaxslarga tasavvuf istilohlaridan foydalangan holda tavsif berish. 3. Tasavvuf istilohlarining zamondoshlar tomonidan yaxshi anglab yetilishiga va buning samaradorligiga ishonch hosil qilish. [4]

Ma’rifiy-falsafiy leksika tarkibida fiqhiy istilohlarning ishlatilishi Ogahiy tarixiy asarlari leksikasining muayyan bir qismini fiqhiy-ma’rifiy leksika tashkil qiladi. Fiqhiy atamalarni ajratish, ularning mavzu guruhlarini belgilashda biz Qosim ibn Abdulloh ibn Mavlono Xayruddin Amir Ali Quvnaviy Rumiy Hanafiyning “Anisul fuqaho fiy ta’rifotil alfoz al-mutadavala baynal fuqaho” asariga asoslandik . Ogahiy tarixiy asarlarida fiqhiy-ma’rifiy leksikaga mansub so‘zlar matn mazmuniga ko‘ra ba’zan sof fiqhiy (istilohiy), fiqhiy-ma’rifiy, urfiy, urfiy-istilohiy ma’nolarda ishlatilgan. Qardosh xalqlar tilshunosligida biz o‘rganayotgan mavzuga yaqin qator ishlar amalga oshirilgan.[8] Masalan, A.M.Minnegaliyeva “Tatar diniy-didaktik

adabiyoti tili: islom yurisprudensiyasi risolasi “Muxtasar al-Quduri” materiali asosida” nomli nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Ishda tatar diniy adabiyoti tili semantik-stilistik aspektda o‘rganilgan. Muallifning o‘zi ta’kidlaganidek, xalq tarixi yashiringan, hayotning ma’naviy jihati uchun xizmat qiladigan diniy-didaktik uslubning inson o‘z-o‘zini anglashidek eng sirli va muhim jihatlarini ochib berishga harakat qilingan . Eski o‘zbek tilida diniy, shuningdek, tasavvufiy terminlarning katta ko‘pchiligi arab tilidan o‘zlashganligi tabiiy, albatta. Shunday bo‘lishiga qaramay, eski o‘zbek tilidagi ham, hozirgi adabiy tilimiz va shevalarimizdagi diniy terminlarning genetik mansubligi arab tili bilan chegaralanmaydi. O‘zbek tili diniy terminlar tizimida o‘zbek (turkiy) va fors tillariga mansub so‘zlar ham, o‘z qatlamga mansub so‘zlar ham ancha. Misol tariqasida Ogahiy tarixiy asarlarida qo‘llanilgan fors tilidan o‘zlashgan diniy terminlar o‘z navbatida kichik mavzu guruhlariga bo‘linadi. Bularni a) mutlaq iloh tushunchasini ifodalovchi so‘zlar; b) payg‘ambar tushunchasini ifodalovchi so‘zlar; d) farishta tushunchasini ifodalovchi so‘zlar; e) jannat va do‘zax tushunchasini ifodalovchi so‘zlar; f) ibodatga aloqador tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar; g) turli mazmundagi diniy terminlar kabi guruhlarga ajratish mumkin . [7]

Mutaxassislar fikricha, qadimgi turkiy tilda ulug‘ iloh oti bo‘lgan Tangri // tengiri so‘zining qadim xitoy tilida diniy termin bo‘lgan tyan (osmon) kalimasi bilan semantik aloqadorligi bor. Lekin tangri // tengiri so‘zining qurilishi uning turkiy manbaga ega so‘z ekanini tasdiqlaydi. Bu so‘z bilan bog‘liq maqollar, frazeologik birliklar va boshqa unsurlar, asosan, turkiy tillarning deyarli barchasida hamda ularning dialektlarida uchraydi. I.Jafarso‘ylu “xunlar va ko‘k turklarning bosh tangrisi Tengri deb nomlangan. Shumerlarning bosh tangrisi esa Tengirdir. Xett va Urartu mixxatlarida iloh nomi Dingir deyilgan va bu tasodifan emas” – deb yozadi. Adabiyotlarda bu so‘zning osmon, xudo ma’nolarini anglatgani va turkiy tilda VIII asrdan qo‘llangani qayd etilib , zamonaviy turkiy tillarda keng tarqalgan . Ushbu so‘z bilan katta ko‘lamdagi ilmiy qarashlar R.Mahmudov tomonidan tahlil qilingan . Ma’rifiy-falsafiy leksika tarkibida ilmiy istilohlarning ishlatilishi Ogahiy tarixiy asarlarida ilmiy istilohlarning MFL sifatida voqealar bayoniga bog‘liq holda ko‘p miqdorda ishlatilishi ta’lim va tahsil jarayoni aks etgan kam sonli lavhalarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shu munosabat bilan ulamo, kitob mutolaasi, balog‘at, fasohat, fuzalo, guftugo‘, mukolamasi, balog‘at, ilmi maoniy, ilmi bayon, ilmi badi’, fasih, balig‘, i’joz //e’joz, daqiq iboratlar, ma’ni shohidlari, qaviy fikrlar, nukta, bade’ mazmun, majlis ahli, munozara, mukolama, javob-u savol, bahs-u jidol, radd-u badal, musohaba kabi so‘zlar tahlil qilingan. [1]

Ogahiy tarixiy asarlaridagi ma’rifiy-falsafiy istilohlar tarixiy-etimologik tahlili Turkiy tillarga mansub ma’rifiy-falsafiy leksikasi ham tahlil qilingan . Albatta, Ogahiy tarixiy asarlarida mavjud turkiy qatlamga oid barcha so‘zlarni qamrab olish imkoni yo‘q. Shu bois o‘zbek tili tarixiy leksikasiga oid adabiyotlarda tahlil qilinmagan yoki umuman qayd etilmagan MFLga mansub birliklarni topishga harakat qildik. Bizningcha, FI va RD da bir martadan qo‘llangan aldar- – 1) chalg‘imoq, andarmon bo‘lmoq; 2) o‘zini yo‘qotmoq fe’li biz ko‘zda tutgan birliklardan sanaladi. Bu so‘z “Qadimgi turkiy til lug‘ati” da ham qayd etilmagan. Istilohning qo‘llanishi va tarkibi uning alda- fe’lining nisbat shakli emas, mustaqil fe’l ekanini ko‘rsatadi. Mazkur fe’lning RDda qo‘llangan holati: “ahli inodning aningdek hujum va g‘avg‘osidin oldarmay,.. darvozalarni tamarrud ahlining yuzig‘a madrus va masdud qildurdi” (RD, 282a) FIning dastlabki bir nashrida aldarrobi shaklida tushunarsiz o‘qilgan so‘z keyingi nashrda mas’ul muharrir tomonidan Y.Bregel ilmiy-tanqidiy matni asosida aldarab shaklida tuzatilgan va “hozir shevalarda alvirab” tarzida eslatma kiritilgan : “Yavmut jamoasining maxsus bir dasturi budurkim, har qachon dushman g‘alabasidin aldarab, muztar bo‘lsa, majmui bir bo‘lub yasol va tug‘i bila hamla qilib, to‘qushur va agar zafar topmasa, botroq sirpilib, munhazim bo‘lurlar”. (FI, 419-420) Demakki, so‘zning lug‘aviy ma’nosi uni MFLga mansub birlik sanashga to‘la imkon beradi. Uning etimologiyasi va ma’no taraqqiyotiga nazar solish ham xalq tafakkur tarzining, ma’rifiy olamining muayyan nuqtalariga e’tibor bilan qarashga to‘g‘ri keladi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida -da shakli bilan yasalgan fe’llardan biri “aldamoq”dir. Bu fe’lning asosi “hiyla-nayrang”, “yolg‘on”, “avrash” ma’nolaridagi āl otidir . “Navoiy asarlari lug‘ati”da ol (āl) shaklida to‘rtta so‘z berilgan bo‘lib, ol I (huzur, old tomon; ro‘para, qarshi; chekka, peshona)dan boshqasiga arabcha (a.) deb ta’kid qo‘yilgan . Arab tiliga oid lug‘atlarda mazkur lug‘atda berilgan ol IV boshqasi berilmagan. Bu so‘z arab tilida shaklida qarindoshlik; ittifoq shartnomasi; nafrat kabi ma’nolarda izohlangan . Ol so‘zining “qizil”; “qizil tus” (ol II) ma’nosiga kelsak, uni arabcha hisoblashga hech qanday asos yo‘q. To‘g‘ri, bu ma’no fors tilida ham bor . Lekin bu so‘z fors tilidan turkiyga emas, aksincha turkiydan fors tiliga o‘tgani ehtimolga yaqin. Birinchidan, forsiyda bu so‘zning tarixiy asosi deb qaralgan “Avesto”dagi aurusha so‘zi “oq” ma’nosini, sanskritcha arusa esa “qizil” ma’nosini beradi. Ikkinchidan, âl ko‘p sonli eroniy tillardan faqat ikki tilda – tabariyda “ko‘k” ma’nosida, mozandaroniyda “qizg‘ish” ma’nosida uchraydi . Biz ko‘rib chiqayotgan aldira- E.V.Sevortyan tomonidan G.Ramstedning -da affiksi bilan yasalgan so‘zlar ro‘yxatini keltirishi munosabati

bilan qayd etiladi . Shu tarzda Munis va Ogahiy asarlarida qo‘llanilgan aldar- hamda aldara- shaklan va mazmunan bir qadar yaqin so‘z sanaladi. [2]

Ishda shu tariqa Tengri, o‘g‘an, ko‘ngul ota, so‘z (o‘zlashma sinonimlari kalima, kalom, nutq, nukta, nukot, lafz, alfoz, suxan), yozmoq, yozg‘ur- yazg‘it so‘zlari tahlil qilingan. Ko‘rinadiki, Ogahiy tarixiy asarlarida turkiy qatlam doirasida MFLga mansub har bir birlik xalqimizning ma’rifiy va falsafiy dunyoqarashi na qadar keng bo‘lgani ko‘rsata oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Vohidov – O‘zbek tilidagi tasavvufiy leksikaning semantik o‘zgarishlari.
2. Qosim ibn Abdulloh ibn Mavlono Xayruddin Amir Ali Quvnaviy Rumiy Hanafiy – *Anisul fuqaho fiy ta’rifotil alfoz al-mutadavala baynal fuqaho*.
3. A. M. Minnegaliyeva – *Tatar diniy-didaktik adabiyoti tili: islom yurisprudensiyasi risolasi “Muxtasar al-Quduri” materiali asosida*.
4. Muhammad Rampuriy – *G‘iyosu-l-lug‘ot*.
5. I. Jafarsoylu – *Xunlar va ko‘k turklarning bosh tangrisi Tengri*.
6. R. Mahmudov – *Turkiy tillarda diniy terminlar tizimi*.
7. E. V. Sevortyan – *Turkiy tillarning etimologik tadqiqoti*.
8. Y. Bregel – *O‘zbek tilining tarixiy leksikasi bo‘yicha ilmiy-tanqidiy matnlar*.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA KADRLAR BILAN ISHLASHDA MOTIVATSIYANI OSHIRISH USULLARI

Xamrayeva Nargiza Baxodirovna
Samarqand viloyati Samarqand shahar 73-DMTT direktori
nargizaxamrayeva1910@gmail.com

Annotatsiya: *Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kadrlar bilan samarali ishlash tizimi ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada kadrlar motivatsiyasini oshirishning nazariy va amaliy jihatlari o‘rganiladi. Motivatsiyani oshirish metodlari, xususan moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish, pedagoglarning kasbiy rivojlanishi uchun yaratilgan shart-sharoitlar hamda jamoaviy ruhni qo‘llab-quvvatlash tizimlari tahlil qilinadi. Chet el va O‘zbekiston olimlarining ilmiy ishlari asosida kadrlar bilan ishlash strategiyalari va ularning samaradorligi baholanadi. Tadqiqot natijalari kadrlarning ishga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish, ularning ta’lim jarayoniga sodiqligini ta’minlash va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali usullarni ilgari surishga yordam beradi.*

Kalit so‘zlar: *Maktabgacha ta’lim, motivatsiya, kadrlar boshqaruvi, rag‘batlantirish tizimi, kasbiy rivojlanish, psixologik qo‘llab-quvvatlash, ta’lim sifati.*

KIRISH: Maktabgacha ta’lim tizimida samarali kadrlar bilan ishlash pedagogik jarayonning muhim qismi hisoblanadi. Ta’lim sifati bevosita pedagoglarning o‘z kasbiga bo‘lgan qiziqishi, motivatsiyasi va ish sharoitlari bilan bog‘liq. Motivatsiya ta’lim tashkilotlarining asosiy elementlaridan biri bo‘lib, u nafaqat o‘qituvchilarning samaradorligini oshirishga, balki bolalarning ta’lim jarayonidagi ishtirokiga ham bevosita ta’sir qiladi. Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kadrlar bilan ishlashda motivatsiyani oshirish usullari, rag‘batlantirish tizimlari va ularning samaradorligi tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI: Motivatsiyani oshirishga doir tadqiqotlar butun dunyoda keng o‘rganilgan. Maslow (1943) o‘zining ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasida motivatsiyaning asosiy darajalarini belgilab, insonni rivojlantirish va mehnatga bo‘lgan qiziqishini oshirish uchun psixologik shart-sharoitlarning ahamiyatini ta’kidlagan. Herzberg (1959) esa ikki omilli nazariyada motivatsiya va gigiyena faktorlarining muhimligini tushuntirib bergan.

O‘zbekistonda motivatsiya va kadrlar bilan ishlash masalalari bo‘yicha Karimov (2018) maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagoglarni rag‘batlantirish usullarini o‘rganib, moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlashning samaradorligini tahlil qilgan. Saidova (2021) esa ta’lim tizimida motivatsiyani oshirish uchun interfaol metodlar va pedagogik yondashuvlarning ahamiyatini tadqiq etgan. Yuldashev (2019) esa psixologik iqlimning pedagoglarning mehnat unumdorligiga ta’sirini o‘rganib, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning muhimligini ta’kidlagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI: Tadqiqot davomida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning motivatsiya darajasi va uning ta’lim jarayoniga ta’siri o‘rganildi. Tadqiqot uchun so‘rovnoma, intervyu va kuzatuv metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, ta’lim tashkilotlarida joriy etilgan motivatsion dasturlar va ularning natijalari tahlil qilindi. Ma’lumotlar tahlili uchun statistik usullar, xususan korrelyatsion tahlil va faktor tahlili qo‘llanildi.

ASOSIY MUHOKAMALAR VA NATIJALAR: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, pedagoglarning motivatsiya darajasi bevosita ularning kasbiy rivojlanish imkoniyatlari, ish sharoitlari va rag‘batlantirish tizimiga bog‘liq. Tadqiqot davomida quyidagi asosiy motivatsion usullar samaradorligini isbotladi:

- Moddiy rag‘batlantirish: Ish haqi, mukofot tizimlari va qo‘shimcha imtiyozlar motivatsiyani oshirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.
- Ma’naviy qo‘llab-quvvatlash: Ustoz-shogird tizimi, kasbiy o‘sish imkoniyatlari va tan olinishi pedagoglarning ishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.
- Jamoaviy ruhni qo‘llab-quvvatlash: Ish joyida ijobiy muhit yaratish va o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish pedagoglarning stress darajasini kamaytiradi va ularning motivatsiyasini oshiradi.
- Texnologiyalardan foydalanish: Zamonaviy ta’lim platformalarini joriy etish, interfaol metodlarni qo‘llash pedagoglarning ishtiyoqini oshiradi.

Tadqiqot ishtirokchilarining 75% pedagoglari motivatsion dasturlar ishga bo‘lgan qiziqishni oshirganini qayd etdi, bu esa kadrlar samaradorligini oshirish uchun motivatsiya tizimlarini rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

XULOSA: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagoglarning motivatsiyasini oshirish ta’lim sifati va samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi. Moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish usullarini integratsiyalash, pedagoglar uchun kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini yaratish va jamoaviy muhitni mustahkamlash motivatsiya darajasini sezilarli darajada oshiradi. Kelajakda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida innovatsion motivatsion strategiyalarni ishlab chiqish va ulardan samarali foydalanish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maslow, A. H. (1943). *A Theory of Human Motivation*. Psychological Review, 50(4), 370-396.
2. Herzberg, F. (1959). *The Motivation to Work*. Wiley.
3. Karimov, A. (2018). *Maktabgacha ta’lim tizimida pedagoglarning motivatsiyasi va rag‘batlantirish usullari*. O‘zbekiston Pedagogika Jurnali, 12(3), 45-60.
4. Subxanovich, A. A. (2024). O ‘ZBEK TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O ‘RGANISHGA MUNOSABAT VA MOTIVATSIYANING O ‘RNINI BAHOLASH.

5. Subxanovich, A. A. (2024). THE ROLE OF CONTEXTUAL LEARNING IN ACQUIRING MEDICAL TERMINOLOGY IN UZBEK FOR RUSSIAN SPEAKERS. *Western European Journal of Linguistics and Education*, *2*(10), 87-91.
6. Saidova, M. (2021). *Ta’lim tizimida motivatsiyani oshirishga interfaol yondashuvlar*. O‘zbek Ta’lim Tadqiqotlari Jurnali, 14(2), 78-95.
7. Yuldashev, B. (2019). *Psixologik iqlim va mehnat unumdorligi: Maktabgacha ta’limda tadqiqot natijalari*. Markaziy Osiyo Pedagogika Tadqiqotlari Jurnali, 8(4), 34-49.

O‘ZBEK TILINING MILLIY KORPUSINI YARATISH

Xonboboyeva Shoira Rafikovna,
katta o‘qituvchi
shairaxan2015@gmail.com
Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti
(O‘zbekiston)

Annotatsiya: *korpus tilshunosligi, uning milliy shakllarini yaratish, shuningdek, mavjud tajribalardan kelib chiqib o‘zbek milliy korpusining nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish, uni keng jamoatchilikka tadbiq qilish mutaxassislarning galdagi dolzarb vazifalaridan biridir.*

Kalit so‘zlar: *matematik lingvistika, kampyuter lingvistikasi, korpus, milliy korpus, kiritma, podkorpus, matn, tahrir, nostandart (noleksik) elementlar, kognitiv tilshunoslik, diskurs, kognitiv faoliyat, konsept, definitsiya, konsept tipi.*

Korpus – bir necha va yoki muayyan bitta tilga oid matnlarning yig‘indisiga asoslangan elektron shaklga ega, to‘plangan ma’lumot (ya’ni so‘rovnomalar)lar tizimi. Milliy korpus – muayyan bir tilning ma’lum vaqt (yoki vaqtlar) dagi maqomini, janrlarini, uslublarini, hududiy hamda ijtimoiy ko‘rinishlarini va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

Milliy korpus tilshunoslikning korpus lingvistikasi mutaxassislari tomonidan tuziladiki, bu ilmiy tadqiqot va til o‘rganish uchun xizmat qiladi. Jahonning ko‘pgina yirik tillari allaqachon ilmiy ishlanganligi, hajmi va ko‘lamiga ko‘ra o‘zaro farqlanuvchi o‘zining milliy korpusiga egadir.

Korpusga kiritilayotgan matnlarning o‘ziga xos jihatlari to‘g‘risida muhim qo‘shimcha ma’lumotlarni saqlaydi (bular annotatsiya yoki kiritma ko‘rinishidagi matnlardir). Kiritma – korpusning asosiy bosh ma’lumotnomasi bo‘lib, u korpusni zamonaviy internet tarmog‘ida mavjud bo‘lgan oddiy odatiy matnlar (yoki “kutubxonalar” desak ham bo‘ladi) to‘plamidan ajratib turadi. Korpusning yana bir vazifasi til sohalarining barcha jihatiga taalluqli ma’lumotlarni olish (masalan, leksik, grammatika, aksentologik, til tarixi kabi), zamonaviy kompyuter texnologiyalari vositasida katta hajmdagi til hodisalarini juda tez tahlil qilish va siqiqlashtirishga xizmat qilishdan iborat. Avvallari tadqiqotchi zarur misollarni qo‘lda yozar, bu esa ko‘p mehnat talab qiladi. Hozirda tahlil qilinayotgan materiallarning ko‘lami va ma’lumot topish tezligida muammolar bo‘lmaydi. Bu esa tadqiqodchi uchun beqiyos imkoniyatlar eshiklarini ochadi. Milliy korpus til haqidagi bilimlarimiz imkoniyatini, shuningdek, uni statistik tahlil qilishning (o‘rganishning), hatto hozirga qadar o‘rganilmay kelinayotgan hodisalarning qurilishi va taraqqiyotidagi qonuniyatlarni, mavjud xulosalarga bo‘lgan shubhalarni yoki

taxminiy hodisalarni aniqlash imkonini beradi. Endilikda tilning grammatik qurilishi, hatto mashhur akademik lug‘atlar, hech istiholasiz muayyan tilning milliy korpusi asosida yaratilishi kerak bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan milliy korpus talabgorlari, albatta, muayyan tilning turli sohalari tadqiqotchi–lingvistlari hisoblanadi. Biroq korpusdan foydalanuvchilar professional mutaxasislar bilanchegaralanmaydi. Davr yoki ma’lum muallifning fikrlari, til haqidagi ishonchli statistik ma’lumotlari adabiyotshunoslarni, tarixchilarni va gumanitar bilimlarning turli vakillarini qiziqtirishi mumkin. Milliy orpuslar milliy va chet tillarni o‘qitish uchun ham muhim ahamiyat kasb etadiki, ko‘pgina darslik va o‘quv rejalari hozirda milliy korpusga moslangan bo‘lishi kerak. Korpus ko‘magida taniqli mualliflarning notanish so‘z yoki grammatik shakllarini ajnabiy ham, maktab o‘quvchisi ham, o‘qituvchi ham, jurnalist ham, redaktor yoki yozuvchi ham tez va oson tekshirib olishi mumkin bo‘ladi.

Demak, milliy korpus kasbidan yoki u oddiy qiziquvchimi, muayyan til korpusining tuzilishi va ishlashidan, undan foydalanuvchilarning millatidan qat’iy nazar, o‘rganuvchilar uchun birdek foydalanish imkonini beradi.

hissiyotlarni o‘rganish turli tomonlardan amalga oshiriladi va uning chegaralari yo‘q, shuning uchun ularning inson hayotidagi muhim rolini hisobga olish, erishilgan yutuqlarga qoniqmaslik va hissiyotlar lingvistik nazariyasini takomillashtirishni davom ettirish zarur. Hozirgi zamon lingvistikasi hissiyotlar sohasida terminologik kontseptlarni kengaytirish va ularning mazmunini rivojlantirish tendentsiyasiga ega.

Hozirgi zamon lirikasi emosiyalari o‘rganishdagi yangi yondashuvlar, muloqot jarayonida nafaqat oddiy, lekin kontekstdan tashqarida ham tushunarli bo‘lgan asosiy emotsiyalarni, balki murakkab semiotik emotsiyalar komplekslarini ham o‘rganishga imkon beradi. V.I. Shaxovskiy yozadi: “Barcha emosiyalar klaster sifatida namoyon bo‘ladi, har biri izolyatsiyalangan holda emas, balki boshqa sifatdagi emotsiyalarning klasteriga kiradi. Bularning barchasi, shubhasiz, uning til orqali ifodalanishini qiyinlashtiradi va mos ravishda birlashgan (semiotik) dekodini o‘z ichiga olgan holda kutilmagan refleksiyalar va pragmatik effektlar keltirib chiqaradi”. Semiotik tizimlar bilan ishlashda kognitiv jarayonlarni hisobga olish muhimdir, chunki ular murakkab emosiyalarni o‘rganishga yordam beradi. Bunday hollarda aniq turdagi hissiyot haqida tushuncha yo‘q, bir hissiyot boshqasini keltirib chiqaradi va dastlabki tajribaning sifatlarini o‘zgartiradi. “Barchamiz o‘z hissiyotlarimizni ifodalash uchun mos so‘zlarni topishda qiyinchiliklarga duch keldik, bu ajablanarli emas, chunki hissiyotlarni verbalizatsiya ko‘pincha sub’yektivdir. Emotsional holatlar kamdan-kam hollarda toza shaklda namoyon bo‘ladi, inson ko‘plab hissiyotlarni boshidan kechirishi mumkin va har bir til shaxsining ularni ifodalanishi o‘ziga xosdir, bu bir qator sabablarga, shu jumladan, tilga oid bo‘lmagan omillarga bog‘liq. Sifatdagi va kognitiv jihat hissiyotlar, til birliklarining hissiyotlarni ifodalash uchun tanlovi aniq vaziyatga bog‘liq holda individual tarzda amalga oshirilishini anglatadi”. Shu tarzda, lirikada hissiyotlarning tili, shuningdek, ularni o‘rganish imkoniyatlari turli jihatlar bilan boyitiladi va muloqot jarayonining murakkabligini yoritishni davom ettiradi. Emotsiyalar va til o‘rtasidagi o‘zaro aloqani yaxshilash, shuningdek, hissiyotlar va kognitiv jarayonlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunish, lirik sfera va ijtimoiy muloqotni yanada chuqur o‘rganishga imkon beradi. Shuningdek, hissiyotlar va bilimlar o‘rtasida o‘zaro aloqaning mavjudligi kuzatiladi: masalan, insonning bilimlari o‘zgarganda, uning real dunyo va tasavvurlar haqida hissiyotlari ham mos ravishda o‘zgaradi. Emosiyalar vaqt o‘tishi bilan, avlodlararo, universal va barcha madaniyatlarda tanib olinadigan tarzda o‘zgaruvchanligi ta’kidlanadi. Biroq, ayrim madaniyatlarga xos bo‘lgan hissiyotlar ham mavjud bo‘lib, bu esa verbal aloqalarni maxsus madaniyatlar doirasida tartibga solishni ta’minlaydi. “Umumiy ma’noda, hissiyotlarni o‘rganishdagi lingvistik yondashuvning mantiqi shunday: olam (ob’ekt)

mavjud, inson (sub’ekt) esa, bu olamni aks ettira oladigan shaxs. Inson til shaxs sifatida olamni mexanik ravishda emas, balki xohlagan tarzda - aynan mavjud vaziyatlar yoki boshqa sabablarga ko‘ra qadrli deb topilgan narsalarni aks ettiradi. Hissiyotlar bu aks ettirish jarayonini boshqaradi va insonning idrokidagi olam va uning tildagi aks etishining o‘rtasida vositachi rolini o‘ynaydi”. Hissiyotlarni o‘rganishdagi o‘zaro ishlaydigan paradigmalarning (kognitiv, kommunikativ, pragmatik va madaniyatshunoslik) muhimligi zamonaviy lingvistika rivojlantirishining asosiy jihatlaridan biri sifatida ta’kidlanmoqda. Bu fikrni mustahkamlab, “hissiyotlar lingvistikasi faol rivojlanayotgan soha bo‘lib, u doimo aniqlashtirish, tushuntirish va kengaytirish jarayonlariga duch keladi”. Bu yondashuvlar va fikrlar murojaat usulini yangilashga va muloqot jarayonini hissiy jihatdan boyitishga yordam beradi, natijada odamlar o‘rtasida yanada chuqurroq anglashuv va hissiy aloqalarni o‘rnatishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish yo‘lida muhim qadamlar qo‘yilishi mumkin. Emotsiyalarni tilda ifodalashning kompleksligi va ularning madaniy va kognitiv o‘zgarishlari bu sohada yanada keng imkoniyatlarni ochadi.

Xulosa: Hissiyotlar va til o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar muloqot va inson tajribasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Maqola, hissiyotlarni ifodalash va til orqali tasvirlash masalalarini ko‘rib chiqadi, bu sohada olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar va nazariy yondoshuvlarni yoritadi. Hissiyotlar lingvistikasi (emotiologiya) tilda hissiyotlarni ifodalash va ularning kognitiv jarayonlarga ta’sirini chuqurroq tushunishga imkon beradi. Bu esa muloqot jarayonini samarali qilish va madaniyatlararo anglashuvni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shakhovsky, V.I. Lingvisticheskaya theory emotional / V.I. Shakhovsky. - M.: Gnozis, 2008. - 416 p.
2. Shakhovsky, V.I. Obosnovanie lingvisticheckoy teorii emotsiy / V.I. Shakhovsky // Psycholinguistic Voprosy. – 2019. – No. 1 (39). - S. 22-37.
3. Yablokova T. N. Sovremennye podkhody k izucheniyu emotsiy v lingvistike (na materiale angliyskogo zyzyka) // Filologicheskie nauki. Voprosy theory and practice. - 2016. - No. 6-2. - S. 180-183.
4. Wittgenstein, L. (1953). Philosophical Investigations. Blackwell.
5. Ekman, P. (1992). Expression of the Emotions in Man and Animals. Oxford University Press.
6. Damasio, A. (1999). The Feeling of What Happens: Body and Emotion in the Making of Consciousness. Harcourt.

YOSH O‘QITUVCHINING PEDAGOGIK MAHORATINI TAKOMILLASHTIRISHDA MULOQOTNING AHAMIYATI

Zikirova Dildora Shuhrat qizi
Texnologiya, menejment va komunikatsiya instituti o’qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada muloqotning samarali bo‘lishi yosh o‘qituvchining o‘zini rivojlantirishiga, yangi pedagogik texnologiyalarni o‘rganishiga, ta'lim sifatini oshirishga muloqot madaniyatiga rioya qilishi, pedagogik muloqot o‘qituvchining o‘z ishiga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirib, uni doimiy ravishda takomillashtirish borishi haqida bayon etilgan.*

Kalit so’z: *Muloqot, muloqot madaniyati, pedagogik muloqot, yosh o’qituvchi, boshlang’ich sinf o’qituvchisi, o’zaro hurmat va ishonch, kommunikativ aloqa.*

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “**Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunda** ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari - ta’lim oluvchilar, voyaga yetmagan ta’lim oluvchilarning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari, pedagog xodimlar va ularning vakillari hisoblanadi.Ta’lim tarbiya jarayoni samarali bo’lishi uchun ta’lim tarbiya jarayoni ishtirokchilari bilan muloqot o’zaro hurmat va ishonch asosida tashkil etilgan bo’lishi kerak. Ushbu qonunni 4-moddasida

-ta’lim sohasida kamsitishlarga yo‘l qo‘yilmasligi;

- ta’lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta’minlanishi;

-ta’lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi;

-ta’lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati haqida ta’kidlangandek bu jarayonlar albatta muloqat madaniyotiga ishora qilinadi

Muloqot - yunoncha so‘z bo‘lib, suhbatlashuv, shaxslararo suhbat va o‘zaro fikr almashuv ma’nosini bildiradi hamda , bu ikki yoki undan ortiq odamlar o'rtasida ma'lumot, fikr, his-tuyg'ular yoki tajriba almashish jarayoni. Muloqot so'z orqali yoki so'zsiz, ya'ni jismoniy ifodalar, mimikalar, bosh harakatlar orqali bo'lishi mumkin. Bu ijtimoiy va psixologik jarayon bo'lib, odamlar o'rtasida aloqalar o'rnatish, bir-birini tushunish va muammolarni hal etishga yordam beradi. Muloqot yosh o‘qituvchining pedagogik mahoratini takomillashtirishda asosiy vosita hisoblanadi. U nafaqat o‘quvchilar bilan samarali aloqa o‘rnatish, balki o‘qituvchining o‘zini rivojlantirish, yangi metod va texnikalarni o‘rganish, darslarni sifatli tashkil etish va o‘quvchilarning ehtiyojlariga moslashish imkonini beradi. Pedagogik muloqotning yuqori darajada bo‘lishi, o‘qituvchining professionalligi va ta'lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Muloqot – o‘qituvchining o‘z ishini samarali bajarishida asosiy vositalardan biridir, chunki pedagogik jarayonda o‘qituvchi o‘quvchilar bilan doimiy aloqada bo‘lib, ularning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Pedagogik muloqot — bu o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro aloqadir. Pedagogik muloqotning asosiy maqsadi ta'lim jarayonini samarali va natijali tashkil etishdir. Bu muloqotda o'qituvchi o'quvchilarga bilimlarni yetkazish, ularning fikrini shakllantirish va rivojlantirish, hamda o'quvchilarning hissiy va intellektual holatini hisobga olish zarur. Pedagogik muloqotning samaradorligi o'qituvchining bilim va ko'nikmalariga, shuningdek, uning kommunikativ qobiliyatiga bog'liq.

Quyida yosh o‘qituvchining pedagogik mahoratini oshirishda muloqotning ahamiyatini ko‘rib chiqamiz:**.**

O‘quvchilar bilan o‘zaro ishonch o‘rnatish. Muloqot yosh o‘qituvchi uchun o‘quvchilar bilan ishonchli va samarali aloqalar o‘rnatish imkonini beradi. Ishonchli muloqot, o‘quvchilarning o‘qituvchiga bo‘lgan hurmatini oshiradi va o‘quv jarayonida ularga o‘z fikrlarini erkin ifoda etish imkonini yaratadi. Bu esa o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini ham kuchaytiradi.

Pedagogik uslublarni moslashtirish. Yosh o‘qituvchilar muloqot orqali o‘quvchilarni yaxshiroq tushunishga, ularning ehtiyojlariga mos pedagogik uslublarni tanlashga imkoniyat yaratadi. O‘quvchilar bilan samimiy va o‘rganishga tayyor bo‘lib muloqot qilish, o‘qituvchiga ta'lim jarayonini har bir o‘quvchining o‘ziga xos xususiyatlariga mos ravishda tashkil etish imkonini beradi.

O‘quvchilarning fikrini tinglash va ular bilan muammolarni hal qilish Muloqot orqali yosh o‘qituvchi o‘quvchilarning ehtiyojlari va qiyinchiliklarini tushunib, ularni muhokama qilib, masalalarni hal qilish yo‘llarini topa oladi. O‘quvchilarning fikrlarini tinglash, ular bilan o‘rtoqlashish va birgalikda yechimlar izlash, o‘qituvchiga ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun zarur bilim va tajriba beradi.

Pedagogik ko‘nikmalarni rivojlantirish. Muloqot yordamida yosh o‘qituvchi o‘zining pedagogik ko‘nikmalarini takomillashtirishi mumkin. Masalan, o‘quvchilarning individual xususiyatlariga qarab, o‘qituvchi ularning ta'lim olishini yaxshilashga yordam beradigan turli xil muloqot usullarini qo‘llashni o‘rganadi. Shuningdek, o‘qituvchi dars jarayonida turli metod va texnikalarni sinab ko‘rishi, o‘quvchilarga qanday ta'sir ko‘rsatishni aniqlashi mumkin.

O‘zini tarbiyalash va ma'naviy holatni saqlash Yosh o‘qituvchi pedagogik muloqotda o‘zini tarbiyalash va o‘quvchilar bilan hamkorlikda ishlash orqali o‘zining psixologik va ma'naviy holatini yaxshilashi mumkin. O‘qituvchi o‘zining ichki

ma'naviy barqarorligini saqlash va stressni boshqarish uchun muloqot orqali turli xil psixologik texnikalardan foydalanishi mumkin.

Boshqalar bilan fikr almashish va tajriba o‘rganish Muloqot yosh o‘qituvchiga o‘zining tajribasini boshqalar bilan baham ko‘rish, boshqa o‘qituvchilar bilan tajriba almashish imkoniyatini yaratadi. Pedagogik muloqot, o‘qituvchining o‘ziga xos pedagogik tajribalarini kengaytiradi va yangi yondashuvlarni o‘rganishga yordam beradi.

Darsni boshqarish va motivatsiya yaratish Muloqot o‘qituvchiga o‘quvchilarni darsga qiziqtirish, ularning motivatsiyasini oshirishda yordam beradi. Muloqot orqali o‘quvchilarni ishga jalb qilish, ularga maqsadlarni belgilash va dars jarayoniga faollik qo‘shish mumkin.

Samarali feedback (fikr bildirish) berish. Muloqot orqali yosh o‘qituvchi o‘quvchilarga o‘z fikrlarini to‘g‘ri va tushunarli tarzda yetkazishi mumkin. Samarali feedback berish, o‘quvchilarning o‘zlari va o‘rganish jarayonini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Yosh o‘qituvchi o‘quvchining kuchli tomonlarini e'tirof etib, zaif tomonlarini qanday yaxshilash mumkinligini ko‘rsatib berish orqali, ularni o‘z bilimlarini takomillashtirishga rag'batlantiradi.

Pedagogik vazifalarni samarali hal qilish. Muloqot yordamida o‘qituvchi o‘zining pedagogik vazifalarini samarali va to‘g‘ri bajarishi mumkin. O‘quvchilar bilan muloqotda o‘qituvchi dars jarayonida yuzaga keladigan har qanday muammo yoki savolni tez va aniq hal qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu o‘qituvchining o‘z vaqtini, resurslarini va pedagogik maqsadlarni samarali boshqarishiga yordam beradi.

O‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish. Muloqot orqali yosh o‘qituvchi o‘quvchilarning individual ehtiyojlari, qobiliyatlari va qiziqishlarini yaxshiroq tushunishi mumkin. Shunday qilib, u darslarni shaxsiylashtirish va har bir o‘quvchining o‘rganish uslubiga moslash imkoniyatiga ega bo‘ladi. O‘quvchilarning har biri turlicha o‘rganadi, va o‘qituvchi muloqotda ularga mos tarzda yordam berish orqali ta'lim jarayonini yanada samarali tashkil etadi.

Emotsional qo‘llab-quvvatlash . Muloqot yosh o‘qituvchiga o‘quvchilarning emotsional holatini boshqarishda yordam beradi. Pedagogik muloqotning asosiy qismlaridan biri o‘quvchilarning his-tuyg‘ularini, tashvishlarini va muammolarini tushunishdir. Yosh o‘qituvchi o‘zining tushunishi va mehr-muhabbatini ko‘rsatish orqali o‘quvchilarning emotsional xavfsizligini ta'minlashi mumkin. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarning o‘qish motivatsiyasini oshiradi va ularni ta'lim jarayonida yanada faol ishtirok etishga rag'batlantiradi.

Professional rivojlanish va o‘qituvchining o‘zini-o‘zi tahlil qilish. Muloqot yosh o‘qituvchining o‘z pedagogik faoliyatini tahlil qilishi va takomillashtirishiga yordam beradi. O‘qituvchi o‘zining darslariga bo‘lgan munosabatini, o‘quvchilarning o‘qishdagi muvaffaqiyatlarini va qiyinchiliklarini muntazam ravishda tahlil qilib, o‘z pedagogik uslublarini takomillashtirishga harakat qiladi. Bunday muloqot jarayonida o‘qituvchi, shuningdek, boshqa pedagoglar bilan fikr almashish va birgalikda yangi pedagogik yondashuvlar ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Sinovdan o‘tgan va yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash

Muloqot yosh o‘qituvchiga yangi pedagogik texnologiyalarni, metodlarni va dars berish usullarini o‘rganish va amaliyotda qo‘llash imkoniyatini beradi. O‘qituvchi o‘quvchilar bilan doimiy muloqotda bo‘lish orqali yangi va innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etishga yordam beradi. Bu texnologiyalarni sinab ko‘rish orqali o‘qituvchi o‘z metodik xizmatini va ta'lim sifatini yaxshilashga erishishi mumkin.

O‘qituvchi va o‘quvchilarning psixologik holatini yaxshilash

Muloqotda o‘qituvchi va o‘quvchilarning psixologik holatini yaxshilash muhim omil hisoblanadi. O‘qituvchining muloqotdagi salbiy yoki musbat yondashuvlari o‘quvchilarning ta'limga bo‘lgan munosabatini shakllantiradi. Salbiy yoki agressiv muloqot o‘quvchilarda ta'limga qarshi salbiy hissiyotlar yaratishi mumkin, shu boisdan o‘qituvchi har doim ijobiy, shod-xurram va hurmatli muloqotga harakat qilishi kerak. Bunda o‘quvchilarning psixologik holati, stress darajasi kamayadi, ularning o‘qishdagi motivatsiyasi oshadi. Muloqot yosh o‘qituvchining pedagogik mahoratini takomillashtirishda asosiy vosita hisoblanadi. U nafaqat o‘quvchilar bilan samarali aloqa o‘rnatish, balki o‘qituvchining o‘zini rivojlantirish, yangi metod va texnikalarni o‘rganish, darslarni sifatli tashkil etish va o‘quvchilarning ehtiyojlariga moslashish imkonini beradi. Pedagogik muloqotning yuqori darajada bo‘lishi, o‘qituvchining professionalligi va ta'lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Mashhur pedagog va yozuvchi Anton Semyonovich Makarenko fikricha, o‘qituvchi muloqoti hurmat va talabchanlikka asoslangan munosabat shaklida bo‘lishi lozim deb ko’p ta’kidlaganlardek, pedagog o’quvchi shaxsini hurmat qilgan holda muloqot jaryonini tashkil qilishi kerak bo’ladi.

O‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, mehnatga munosabat, pedagogik mahorat bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan, pedagogikada insonparvarlik g‘oyalarini targ‘ib qilgan ukrain hamda rus tili va adabiyoti o‘qituvchisi **Vasiliy Aleksandrovich Suxomlinskiy** o‘qituvchining "...maktab hovlisida gapirgan har bir

so‘zi puxta o‘ylangan, aql va mulohazalarga boy, ma’lum bir tarbiyaviy maqsadga qaratilgan *bo‘lishi* kerak" deb ta’kidlaydi. O‘qituvchining har bir so‘zi olimning fikricha, nafaqat o‘quvchi qulog‘iga aytiladi, balki uning qalbiga ham qaratilgan bo‘lishi shart. Umuman ilg‘or o‘qituvchilarning fikricha, ta’lim va tarbiya faqat o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro hamkorlik pozitsiyasi asosidagi muloqot jarayonida quriladi. Ayniqsa boshlang’ich sinf o’quvchilari o’qituvchilariga nisbatan taqlidni ko’p qiladilar. O’qituvchining har bir so’zini o’zlarida mujassamlashtiradilar.Shunday ekan boshlang’ich sinf o’qituvchi muloqotini o’zaro hurmat va ishonch asosida tashkil etishi darkor. Shu o’rinda *I.P.Pavlovni* mashhur fikrlari O‘qituvchi so‘z aytishdan avval, har daqiqada so‘z ortidan keladigan oqibatlarni o‘ylashi kerak degan fikrlarini keltirib o’tishimiz mumkin. Darhaqiqat, o’qituvchi muloqot jarayonida muloqot madaniyatiga rioya qilishi lozimdir.

Muloqot madaniyati — bu muloqotning o'zaro hurmat va tushunishga asoslangan tarzda amalga oshirilishidir. Bu atama odamlarning bir-biri bilan ijtimoiy va etika talablariga mos ravishda muloqot qilishini anglatadi. Muloqot madaniyati quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

Hurmat: Har bir odamning fikri va nuqtai nazarini hurmat qilish, shuningdek, muloqotda odob-axloq qoidalariga rioya etish.

E'tibor: Suhbatdoshga diqqat va e'tiborli bo'lish, uning so'zlarini to'liq eshitish va tushunishga harakat qilish.

Kuchli va zaif tomonlarini bilish: O'z fikringizni va boshqa odamning fikrini izohlashda, har ikki tomonning nuqtai nazarini inobatga olish.

Muammolarni hal qilish: Muloqotda yuzaga keladigan muammolarni konstruktiv tarzda hal qilish, shuningdek, kelishmovchiliklarda do'stona va halol bo'lish.

Muloqot madaniyati o'zaro tushunishni yaxshilaydi va muloqot jarayonini samarali qiladi.

O‘quvchilar ta’lim-tarbiya jarayonida milliy va umuminsoniy qadri-yatlarni, axloqiy normalarni o‘zlashtiradilar. O‘quvchi eng yaxshi insoniy fazilatlarni, axloq-odobni, muloqot madaniyatini asosan o‘qituvchi timsolida anglab olishini unutmaslik kerak O‘quvchilar jamoasida o‘qituvchilar bilan o‘zaro munosabatlar insonparvarlik tamoyillariga asoslanadi. Yosh o‘qituvchining pedagogik mahoratini takomillashtirishda muloqotning ahamiyati nihoyatda katta. Muloqot — o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro aloqani mustahkamlash, ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va o‘quvchilarning rivojlanishiga yordam beruvchi muhim vositadir. O‘qituvchi o‘zining pedagogik ko‘nikmalarini rivojlantirishda muloqotni to‘g‘ri va

samarali boshqarish orqali o‘quvchilarning bilimlarini yaxshilaydi, ularga o‘rganish motivatsiyasini beradi va o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini shaxsiylashtiradi. Shuningdek, o‘qituvchi muloqot orqali o‘quvchilarning emotsional holatini boshqarish, ularni qo‘llab-quvvatlash va stressni kamaytirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Muloqotning samarali bo‘lishi yosh o‘qituvchining o‘zini rivojlantirishiga, yangi pedagogik texnologiyalarni o‘rganishiga, ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi. Pedagogik muloqot o‘qituvchining o‘z ishiga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirib, uni doimiy ravishda takomillashtirishga undaydi. Bu esa nafaqat o‘quvchilarning bilimini oshiradi, balki o‘qituvchining o‘ziga bo‘lgan ishonchini ham mustahkamlaydi.

Shunday qilib, yosh o‘qituvchining pedagogik mahoratini oshirishda muloqotning o‘rni beqiyosdir. To‘g‘ri va samarali muloqot pedagogik jarayonni muvaffaqiyatli tashkil etishda va o‘qituvchining professional rivojlanishida hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi qonuni, 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son
2. Xoliqov A. “Pedagogik mahorat”(darslik). – Toshkent, 2011.
3. Azizxo‘jayeva N.N. “Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat” (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent, 2006.
4. Erkaboyeva N. “Pedagogik mahorat” (o‘quv qo‘llanma). – Buxoro davlat pedagogika instituti, 2019.
5. Xolmurodov, X. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi muloqot. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 2007.
6. Shomuhamedov, I. Pedagogik muloqot va uning psixologik asoslari. Toshkent: O‘zbekiston xalq ta’limi nashriyoti, 2010.
7. Ismailov, D. Pedagogik psixologiya: Muloqot madaniyati. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 2012.
8. G‘afurov, F. Pedagogik faoliyatda muloqotning psixologik jihatlari. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti, 2009.
9. Rahimov, A. O‘qituvchining kommunikativ kompetensiyasi va uning psixologik ahamiyati. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 2011.

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDAGI KICHIK GURUHLARDA MEDIASAVODXONLIK FANINI O‘QITISH

Ziyodullayeva Xumora Ilhom qizi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Xalqaro jurnalistika fakulteti
4-bosqich talabasi
Xumoraziyodullayeva9@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur tezisda oliy ta’lim muassasalarida kichik guruhlar shaklida mediasavodxonlik fanini o‘qitishning samaradorligi va ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, tezisda mahalliy va xorijiy media ta’lim tadqiqotchilarining media-kompetentsiyasi, mualliflik tushunchalari keltirilgan hamda ularni psixologik nuqtai nazardan tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Media ta’lim, mediasavodxonlik, ommaviy axborot vositalari, zamonaviy ta’lim.*

KIRISH

Bugungi kunda ommaviy axborot vositalari jamiyat hayotining barcha sohalariga chuqur singib borib, insonning axborotga bo‘lgan munosabatini shakllantirishda muhim rol o‘ynamoqda. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi va ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi natijasida turli manbalardan kelayotgan ma’lumotlarni to‘g‘ri tushunish, baholash va tahlil qilish zarurati ortib bormoqda. Ayniqsa, yosh avlodning mediasavodxonlik darajasini oshirish ta’lim tizimining dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Oliy ta’lim muassasalarida mediasavodxonlik fanini o‘qitish talabalar uchun nafaqat ishonchli axborotni tanlash, balki manipulyativ xabarlarni aniqlash, fakt va fikrni ajratish, media mahsulotlarni ijodiy tahlil qilish kabi ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi[1]. Ushbu fan orqali talabalar axborot makonida mustaqil harakat qilish, tanqidiy tafakkur va mantiqiy xulosalar chiqarish qobiliyatiga ega bo‘ladilar.

Kichik guruhlarda mediasavodxonlikni o‘qitish esa an’anaviy ta’lim usullariga qaraganda samaraliroq bo‘lib, talabalar o‘rtasida interaktiv muhit yaratish, fikr almashish va muhokamalar orqali bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunda media savodxonlik shaxsga axborotdan ongli va mas’uliyatli foydalanish, yolg‘on hamda manipulyativ ma’lumotlarni ajratish, fakt va fikrni farqlash imkonini beradi. Media ta’limining asosiy maqsadi - mustaqil fikrlash,

[1]Титова А.Г. Слухи и фейковые новости как фактор дестабилизации социально-политической обстановки: опыт противодействия // Журнал исторических, политологических и международных исследований. - Донецк, 2022. - N 3 (82) - С. 167172.

tahliliy yondashuv va media mahsulotlarni samarali yaratish ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

Tadqiqotchi **Ya. Lipshitsning** fikriga ko‘ra, mediasavodxonlik masalasi uzoq yillardan beri ilmiy muhokamalarning diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Biroq, hanuzgacha bu tushunchaning aniq chegaralari belgilab berilmagan. Ya’ni, media va axborot savodxonligi nima ekanligi, uning mazmuni va qanday asosiy ko‘nikmalarni rivojlantirish lozimligi borasida yagona va umumiy qabul qilingan ta’rif mavjud emas.

Bu holat shuni anglatadiki, ushbu sohada turli yondashuvlar mavjud bo‘lib, hali ham izlanish va bahs-munozaralar davom etmoqda. Mediasavodxonlikni rivojlantirish uchun esa yaxlit va keng qamrovli yondashuv talab etiladi. Bu nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliyotda ham samarali usullar ishlab chiqilishi kerakligini ko‘rsatadi[2].

Shu munosabat bilan, **Polshaning Varshava** shahrida joylashgan “**Modern Poland Foundation”** nodavlat notijorat tashkilot media va axborot savodxonligi bo‘yicha mutaxassislar bilan hamkorlikda **“Ko‘nikmalar katalogi”**ni ishlab chiqdi. Ushbu katalog turli yosh guruhlarini qamrab olib, media olamida ongli harakat qilish uchun zarur bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga ko‘maklashadi.

Zamonaviy ommaviy axborot vositalari jamiyat hayotining barcha jabhalariga, jumladan, madaniyat va ta’lim jarayonlariga ham kuchli ta’sir o‘tkazmoqda[3]. Bugungi global axborot makonida inson katta hajmdagi ma’lumot oqimi bilan to‘qnash keladi va u ushbu ma’lumotlarni to‘g‘ri tushunishi, saralashi hamda tahlil qilishi lozim.

Axborotning keskin ko‘payishi insondan faqatgina ma’lumotni o‘qish yoki eshitish bilangina cheklanmay, uni chuqur anglash, mustaqil ravishda tahlil qilish va xulosalar chiqarish qobiliyatini ham talab qiladi. Ayniqsa, media xabarlarni ijodiy tushunish, ularning orqasida qanday g‘oyalar yoki manipulyativ usullar yashiringanligini anglash bugungi kunda muhim ko‘nikmaga aylanmoqda[4][3]. Chunki noto‘g‘ri talqin yoki tekshirilmagan ma’lumotlardan foydalanish natijasida jamoatchilik fikrini boshqarish, yolg‘on axborot **“fake”** tarqatish va ijtimoiy manipulyatsiya kabi xavflar yuzaga kelishi mumkin.

XULOSA

[2]Lipshits, 2013]. Lipschitz, Y. (2013). Developing Strategies of Media and Information Literacy // Media and Information Literacy in Science Societies. Moscow, pp.169-178.

[3] Kaminska, Izabella (January 17, 2017). “A lesson in fake news from the info wars of ancient Rome”. Financial Times. Financial Times. Retrieved July 4, 2017.

[4] Xavfsizlikning metadologik asoslari.R.Samarov.T.:Akademiya nashriyoti. 2010.B.221-222.

Mediasavodxonlik faqat axborotni tushunish yoki ommaviy axborot vositalari bilan ishlashni emas, balki har bir kishining media kompetentsiyasini shakllantirishni ham o‘z ichiga oladi. Bu esa insonga media mahsulotlarni tanqidiy baholash, yolg‘on yoki manipulyatsion axborotni ajratish, xolis va asosli xulosalar chiqarish imkoniyatini beradi.

Shu bois, zamonaviy ta’lim tizimi media ta’limni o‘quv jarayoniga kiritish orqali yosh avlodga mustaqil axborot tahlili, media etikasi va axborot madaniyatini shakllantirishga qaratilgan yangi yondashuvlarni ishlab chiqishi zarur. Bu esa jamiyatning axborot xurujlariga qarshi turish qobiliyatini oshirish, sog‘lom tafakkurli va tahliliy fikrlay oladigan avlodni tarbiyalash uchun muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Титова А.Г. Слухи и фейковые новости как фактор дестабилизации социально-политической обстановки: опыт противодействия // Журнал исторических, политологических и международных исследований. - Донецк, 2022. - N 3 (82) - С. 167172.
2. Lipshits, 2013]. Lipschitz, Y. (2013). Developing Strategies of Media and Information Literacy // Media and Information Literacy in Science Societies. Moscow, pp.169-178.
3. Kaminska, Izabella (January 17, 2017). “A lesson in fake news from the info wars of ancient Rome”. Financial Times. Financial Times. Retrieved July 4, 2017.
4. Xavfsizlikning metadologik asoslari.R.Samarov.T.:Akademiya nashriyoti. 2010.B.221-222.

MUNDARIJA

T/r	Sarlavha	Sahifa
1.	ONLINE TEACHING PERSPECTIVES AND PREFERENCES IN HIGHER EDUCATION SYSTEM Abdukadyrova Gulbakhor	5-7
2.	CODE-SWITCHING AS A COGNITIVE AND PRAGMATIC STRATEGY IN BILINGUAL AND MULTILINGUAL COMMUNITIES Abdulkhakova Dilafruz Shamsiddinovna	8-12
3.	TALABALARNING RAQAMLI TEXNOLOGIYADAN ELEKTRON FOYDALANISHDADASTURIY -METODIK TA’MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH Abdullayeva Dilobar O’tkirovna	13-17
4.	INTENSIFIERS IN ENGLISH: FUNCTIONAL-STYLISTIC AND GRAMMATICAL ASPECTS Abdullayeva Sevara Maxsudali qizi	18-23
5.	QORIY IJODIDA DIDAKTIK MAVZU B.Abdurahmonova	24-27
6.	THE CURRENT CHALLENGES OF TEACHING ESP Abdurhmonova Zulfiya	28-31
7.	USING MNEMONICS FOR LANGUAGE LEARNING AND TECHNIQUES FOR REMEMBERING PRESENTATION MATERIAL Akbarova Shaxnoza Xikmatullayevna	32-34
8.	OPTIMIZING MEMORY RETENTION IN FLT: THE ROLE OF FLASHCARD COMPETITIONS AND VISUAL CUES Akhmadullina Alina Ildarovna	35-38
9.	MIFOLOGIYANI O’RGANGAN INGLIZ OLIMLARI ENGLISH SCHOLARS WHO STUDIED MYTHOLOGY Alijonova Dilnavoz Valijon qizi	39-41
10.	TIBBIYOT TALABALARI UCHUN PSIXOLINGVISTIK YONDASHUV ASOSIDA NUTQ MADANIYATINI O‘RGATISH Aslanov Akmal Subxanovich	42-44
11.	ZAMONAVIY TA’LIM JARAYONIDA PSIXOLOGIK XAVFSIZLIK KONSEPSIYASI Atadjanov Mamirjon Yusupovich, Xaydaraliyev Abdullo Usmonali o‘g‘li	45-49
12.	O‘QUVCHILAR VA TALABALAR UCHUN RAQAMLI SAVODXONLIK: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR Atajonova Saidaxon Borataliyevna, Ostanaqulov Xojiakbar Mansurqul o‘g‘li	50-55
13.	RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA INNOVATSION TA’LIM MUHITINI YARATISH Atajonova Saidaxon Borataliyevna, Ostanaqulov Xojiakbar Mansurqul o‘g‘li	56-61
14.	TA’LIMDA SIMVOLIZMNI O‘QITISH ORQALI O‘QUVCHILARDA ADABIYOTGA MUHABBAT UYG‘OTISH. Axmedova Shohida Akramjonovna	62-67
15.	THEORETICAL FOUNDATIONS OF MULTICULTURAL EDUCATION Akmedov Oybek Saporbayevich	68-71
16.	TEACHING LISTENING THROUGH COLLABORATIVE APPROACH Aytimbetova Ulbiyke	72-76
17.	RETRAINING OF ENGINEERING FIELD PERSONNEL Azimov Sarvarbek	77-81
18.	USING COLLABORATIVE LEARNING TO ENHANCE CRITICAL THINKING AND CREATIVITY Babaxanova Dildora Ikromjon qizi	82-85
19.	THE ROLE OF PARALLEL CORPUS IN TRANSLATION STUDIES Botirova Nilufar Salimjon kizi	86-90

20.	RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA TALABALARGA “MEDIASAVODXONLIK VA FAKTCHEKING” FANINI O‘QITISHNING AHAMIYATI Bo‘ronov Nazim Mustafaqulovich	91-94
21.	BADIIY MATNDA FRAZEOLOGIZMLAR BAHO IFODALASH VOSITASI SIFATIDA QO‘LLANILISHI Buxorova Sevara Xolli qizi, Muxitdinova Xadicha Sobirovna	95-97
22.	FORMATION OF CULTURAL TOLERANCE IN PRESCHOOL CHILDREN IN THE PROCESS OF LEARNING FOREIGN LANGUAGES USING DIGITAL EDUCATIONAL RESOURCES Dadakhanova Mohlaroyim Muratvayevna	98-103
23.	МЕЖКУЛЬТУРННАЯ КОММУНИКАЦИЯ УЗБЕКСКОГО НАРОДА С ПРЕДСТАВИТЕЛЯМИ ДРУГИХ НАРОДНОСТЕЙ В СВЕТЕ СОВРЕМЕННОЙ ГЛОБАЛИЗАЦИИ И ИНТЕГРАЦИИ Эгамбердиева Нодира Хамидовна	104-107
24.	FAMILY DISCOURSE STRUCTURE IN ENGLISH AND UZBEK: A COMPARATIVE ANALYSIS Egamberdiyeva Sevara Gulamovna	108-112
25.	ALISHER NAVOY FARDLARIDA VAZN VA QOFIYA XUSUSIYATLARI Egamberdiyeva Zilola Alimbayevna	113-117
26.	THE PROBLEMS OF TRANSLATION OF REALIA IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES Ergasheva Nigora Erkin Qizi	118-123
27.	TEACHING LISTENING WITH THE USE OF SONGS Erkinov Ayubkhon Komiljon ugli	124-126
28.	ПРОБЛЕМЫ И ЭФФЕКТИВНЫЕ СОВЕТЫ ДЛЯ ОБУЧЕНИЯ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В КОММУНИКАЦИИ НА УРОКАХ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА Л.С. Эшанкулова, С.С. Нуритдинова	127-131
29.	TERMINOLOGIK TADQIQOTLAR JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA ELEKTRON LUG‘ATLAR YARATISH METODI Eshquvatova Gulchehra Berdiyorovna	132-136
30.	SHAXSGA YO’NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA CHET TILINI O’QITISHNING INTERFAOL METODLARI prof.X.Muhitdinova, G’ulomova Shahzoda Xabibullo qizi	137-140
31.	RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA TA’LIM YO`NALISHI TALABALARINING MAS’ULIYAT KO‘NIKMALARINI TAKOMILLASHTIRISH MAZMUNI Gulamov Jasur Baxodirovich	141-145
32.	СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ ВОЗДЕЙСТВИЯ ДЕЗИНФОРМАЦИИ НА СЕМЕЙНЫЕ ОТНОШЕНИЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ Гуломжонов Одилжон Рахимжон угли	146-149
33.	THE ROLE OF CRITICAL THINKING SKILLS IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES Gulyamova Mavluda Khamitovna	150-153
34.	TEACHING ENGLISH FOR ACADEMIC PURPOSES AT UNIVERSITY: MAIN ISSUES Haldarchaeva G.	154-157
35.	THE IMPORTANCE OF THE NARRATIVE STORY CHAIN TECHNIQUE IN VOCABULARY TEACHING Hikmatova Ra’noxon Obidjon qizi	158-162
36.	UNDERSTANDING WRITTEN AND SPOKEN INSTRUCTIONS AND COMPREHENSION CHALLENGES AMONG STUDENTS Inagamova Umida Rustamovna	163-166

37.	E-LEARNING PLATFORMS AND TOOLS IN EDUCATION Irgasheva Zulfizar Xatamovna	167-171
38.	CONSTRUCTIVE COMMUNICATION ACROSS CULTURAL BOUNDARIES Irgasheva Zulfizar Xatamovna	172-175
39.	FALSAFA FANINI O‘QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING IMKONIYATLARI VA SAMARADORLIGI Ismadiyorov Komil Maxamadiyorovich	176-180
40.	CHALLENGES IN CHOOSING MATERIALS FOR ESL CLASSROOMS Ismailova Sevara Shuhrat qizi	181-185
41.	CHALLENGES IN CONDUCTING VOCABULARY WITH MULTILEVEL ESL CLASSES Ismailova Sevara Shuxrat qizi	186-189
42.	THE RISE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN UZBEKISTAN: TRENDS, CHALLENGES, AND OPPORTUNITIES IN EDUCATION Izbosarova Xulkar Alisher qizi	190-197
43.	VOCABULARY AND ITS TYPES Jakbaralieva Nilufar	198-202
44.	ANDRAGOGIK TA’LIMDA CHET TILLARINI O‘RGATISHNING O‘ZIGA XOS USULLARI Jo‘rayeva Sarvinoz Baxritdin qizi	203-207
45.	ACTUAL ISSUES OF THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF PROFESSIONALLY ORIENTED LEXICAL COMPETENCE OF STUDENTS OF TECHNICAL UNIVERSITIES IN ENGLISH Juraeva Gulnoza Nasirullaevna	208-211
46.	OLMOSHLARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI (ASQAD MUXTORNING “CHINOR” ROMANI MISOLIDA) Karimova Gulnoza Jamoliddin qizi, Muxitdinova X.S.	212-214
47.	ENHANCING FOREIGN LANGUAGE ACQUISITION IN MILITARY EDUCATION: THE ROLE OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN TRAINING CADETS Khaitbaev Bakhrambek Erkinovich	215-218
48.	SINTAKTIK MORFONOLOGIYAGA XOS XUSUSIYATLARNING QIYOSIY TAHLILI Khasanov Mahmudjon Abdurahmonovich	219-223
49.	К ВОПРОСУ О ТИПОЛОГИИ ПЕРСОНАЖЕЙ В РАССКАЗАХ ШЕРВУДА АНДЕРСОНА Китьян Кристина Эдуардовна	224-229
50.	O‘ZBEK TILINI O‘QITISHNI RAQAMLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI Shaxlo Shukurlaevna Yuldasheva	230-233
51.	ЛИНГВИСТИЧЕСКОЕ ПРЕДСТАВЛЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ АКСИОЛОГИЧЕСКОЙ КАРТИНЫ МИРА Маджидова Раъно Уришевна	234-238
52.	THE INTEGRATION OF AI-POWERED LANGUAGE LEARNING TOOLS IN ESL EDUCATION Madrakhimova Dilnoza Gulom qizi	239-243
53.	TIL TA’LIMIDA YONDASHUVLAR APROACHES IN TEACHING LANGUAGES Mamadjanova Nozimaxon Azimxodjayevna	244-247
54.	QO‘SHIQCHILIK TERMINLARI UMUMIYLIKDAN, XUSUSIYLIKGACHA Mamatqulova To‘lg‘anoy	248-253
55.	НОТИҚ ВА ТИНГЛОВЧИ ОРАСИДАГИ ЎЗАРО МУНОСАБАТЛАРНИНГ ПЕДАГОГИК ЖИҲАТЛАРИ Миносидинов Шерзод	254-256

56.	XORIJIY TILNI O‘RGANUVCHILAR DUCH KELADIGAN MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI Muhammadjonova E’zoza Dilmurod qizi, Salisheva Z.I.,	257-260
57.	INTENTIONAL AND INCIDENTAL SECOND-LANGUAGE VOCABULARY ACQUISITION: A COMPREHENSIVE PERSPECTIVE Sirojiddinovna Mukaddas Butabayeva	261-265
58.	INTERCULTURAL DIALOGUE AS CONSTRUCTIVE DIALOGUE Mustoqova Sitora Umurzoqovna	266-268
59.	DIGITAL EDUCATION IN MODERN EDUCATION Muxammedova Nafisa Kamolovna	269-273
60.	DEVELOPING INNOVATIVE APPROACHES TO PROFESSIONAL EDUCATION IN A MODERN MULTICULTURAL ENVIRONMENT Muxtorova Zarinaxon Zarifjonovna	274-279
61.	NUTQIY MULOQOT NAZARIYASI: TILSHUNOSLIKDAGI O‘RNI, NAZARIY ASOSLARI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALARI Nabiyeva Layloxon Valisher qizi	280-284
62.	MULTIMDANIYATNI RIVOJLANTIRISHDA KOMMUNIKATIV KOPETENSIYA Naimova D.K.	285-287
63.	APLICATION OF MULTIMEDIA EXERCISES IN LANGUAGE LEARNING: EFFECTIVENESS AND PROSPECTS Nezametova Zukhra Akhmadovna	288-291
64.	ANALYSIS OF EXISTING METHODS OF TEACHING TOURISM TERMS USING INFORMATION TECHNOLOGY Nishanova Xafiza Vafokulovna	292-295
65.	OTLARDAGI SUBYEKTIV BAHO SHAKLLARINING BADIIY USLUBDA QO‘LLANILISHI (TOHIR MALIKNING “SHAYTANAT” ROMANI MISOLIDA) Normo‘minov Samandar Abdusalim o‘g‘li, Muhiddinova Xadicha Sobirovna,	296-299
66.	ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ПОСЛОВИЧНОЙ КАРТИНЫ МИРА (НА МАТЕРИАЛЕ РУССКОГО И АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКОВ) Носирова Мубина Олимовна	300-305
67.	KELAJAK TA’LIMI: RAQAMLI INNOVATSIYALAR VA TEXNOLOGIK YONDASHUVLAR Nuraliyeva Feruza Abdusalim qizi	306-308
68.	BILINGVALLIK VA PLURILINGUVALLIKNING SHAXS LAYOQATLARI VA AQLIY RIVOJLANISHIGA TA’SIRI Omanov Pulat Khabitovich	309-311
69.	KO‘P MADANIYATLI MAKONDA ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK: PRAGMATIK YONDASHUV VA KOMMUNIKATIV MUAMMOLAR Omoniddinova Durdonaxon Janobiddin qizi	312-315
70.	INGLIS TILIN OQÍTÍWDA JERGILIKLI MÁDENIYAT (ISHKI HÁM SÍRTQÍ MOTIVACIYA MÍSALÍNDA) Orazimbetov Shingisbek Amirbek uli	316-318
71.	ЛЕВ ТОЛСТОЙ: ВСЕГДА АКТУАЛЬНЫЙ ГЕНИЙ Орынбаева Эльвира	319-321
72.	OR-NOMUS UCHUN KURASHGAN AYOLLAR Oripova Nurafshon Olimjon qizi	322-326
73.	ЭЛЕМЕНТЫ МАГИЧЕСКОГО РЕАЛИЗМА И ФИЛОСОФИИ НОВОЙ ЭРЫ В «АЛЕФЕ» ПАУЛО КОЭЛЬО Отабоева Чаросхон Шаназаровна	327-333
74.	CODE-SWITCHING AND MULTILINGUAL IDENTITY Polvonniyozova Mahliyo O’ktamjon qizi	334-337
75.	TILSHUNOS OLIM FAOLIYATINING BIR QIRRASI Qodirov Umarjon Akramjon o‘g‘li	338-342

76.	ANALYSIS OF MYTHOLOGICAL ELEMENTS IN TOLKIEN’S WORK “LORD OF THE RINGS: THE TWO TOWERS” AND THEIR SIGNIFICANCE IN EXPLORING THE AUTHOR’S CONCEPTUAL SYSTEM Qosimov Abdulxay Axadali o‘g‘li	343-349
77.	THE ROLE OF REYNOLD NICHOLSON AND JOHN ARBERRY’S TRANSLATION IN THE STUDY OF SUFI LITERATURE Qo‘chqoraliyeva Xosiyatxon Iqboljon qizi	350-353
78.	TEACHING CROSS CULTURAL COMPETENCE TO EFL LEARNERS Rakhimdjanova Malikakhon	354-357
79.	NEOLOGIZMLAR O’RGANILISHINING ILMIY-NAZARIY TADQIQI Rahimova Mohinur Qaxramon qizi	358-363
80.	FEATURES OF RESTRICTED VOCABULARY IN ENGLISH AND UZBEK: JARGON CLASSIFICATIONS Raimova Nafoat Olimovna	364-366
81.	THE LINGUISTIC ISSUES OF MEDIA DISCOURSE Rajabbayeva Feruza Rajabbayevna	367-375
82.	INTERDISCIPLINARY CHARACTER OF COGNITIVE LINGUISTICS Rakhimova Gulchekhra Obidjonovna	376-379
83.	INTERCULTURAL COMMUNICATION AS CONSTRUCTIVE COMMUNICATION: A SCHOLARLY PERSPECTIVE Rasulova Sokhiba Azizjon qizi	380-383
84.	AGGLYUTINATIV TILLARDA FLEKSIYA ELEMENTLARI Raupov Mexroj Xukum o‘g‘li	384-386
85.	INTEGRATING AI IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES TO VISUALLY IMPAIRED B1-LEVEL LEARNERS Rakhimova Yulduz Nabiyevna	387-391
86.	MAIN FEATURES OF DIGITAL EDUCATION Raximov Sherbek Kamolovich	392-396
87.	DEVELOPING STUDENT’S SPEAKING SKILLS BY TASK BASED LANGUAGE TEACHING METHODS Raxmanova Maxfuza Saparaliyevna, Abidova Nasibabegim	397-402
88.	LINGVOPRAGMATIKANING O‘ZBEK VA INGLIZ TILSHUNOSLIGIDA O‘RGANILISHI Robiddinova Dilnoza Barkamol qizi	403-409
89.	ENHANCING LISTENING AND SPEAKING PROFICIENCY IN VISUALLY IMPAIRED LEARNERS THROUGH INNOVATIVE INTERACTIVE METHODS Rukhiddinov Khayrullo Khayriddin ugli	410-413
90.	ULUG‘BEK HAMDAM HIKOYALARIDA PSIXOLOGIK TASVIRNING BADIIY-ESTETIK FUNKSIYASI MASALASIGA DOIR Sadullayeva Moxira	414-417
91.	ЎТКИР ҲОШИМОВНИНГ «ИККИ ЭШИК ОРАСИ» РОМАНИДА ЭВФЕМИЗМЛАРНИНГ ҚЎЛЛАНИШИ Салишева Умида	418-419
92.	ETNOGRAFIZMLARNING BADIIY ADABIYOTDA MILLIY-MADANIY LISONIY BIRLIK SIFATIDA AKS ETISHI Sattorova E’zoza Muzaffar qizi, Muxitdinova Xadicha Sobirovna	420-423
93.	MILLIY FRAZEOLOGIZMLAR ISHTIROK ETGAN VATAN VA VATANPARVARLIK HAQIDAGI O‘ZBEK XALQ PAREMALARINING SEMANTIK TADQIQI Sharipova Ozoda Xolmurodovna	424-428
94.	ABDULLA QAHHOR VA O.GENRI ASARLARIDAGI O‘XSHASH VA TAFOVUTLAR Shahobova Sitora Baxromovna, Khallieva Gulnoz Iskandarovna	429-433
95.	SPECIFIC FEATURES OF PHRASEOLOGY IN A SCIENTIFIC TEXT Sheraliyeva Shirin Abdisalomovna	434-437

96.	DEVELOPMENT OF DISTANCE INDEPENDENT LEARNING FOR STUDENTS OF NON-PHILOLOGICAL SPECIALTIES USING THE CREDIT-MODULAR SYSTEM Shirinova Feruza	438-440
97.	NEW APPROACHES IN THE METHODOLOGY OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES IN A TECHNICAL UNIVERSITY Sodiqov Hamidulla	441-445
98.	TRANSFORMING LEARNING WITH PROJECT-BASED LEARNING: A GUIDE FOR TEACHERS Safiya Solihova Azamatovna, Mukhammedova Nilufar Eliboyevna	446-448
99.	MADANIY REALIYALARNING SHE’RIY ASARLARDA IFODALANISHI Soliyeva Gulxayyo Ibrohimjon qizi	449-454
100.	ROBERT LOUIS STIVENSONNING ASARLARIDA DOPPELGÄNGER KONSEPSIYASI: INSONIYAT TABIATIDAGI YAXSHILIK VA YOMONLIKNING KURASHI Soxibova O‘.N.	455-459
101.	NEURO-LINGUISTIC APPROACH TO ENHANCING PRONUNCIATION IN SECOND LANGUAGE LEARNING Subhonova Anora Akmal qizi	460-462
102.	THE NEURAL MECHANISMS OF SPEECH ACQUISITION AND PRODUCTION: INSIGHTS FROM THE DIVA MODEL Suyunova Mohinur Ilxom qizi	463-466
103.	XX ASR O‘ZBEK AYOLLARINING IJTIMOIY FAOLLIGINING ORTISHI G.Teshaboyeva	467-472
104.	RAQAMLI TA’LIM VA UNING CHET TILLARINI O‘RGANISHDA IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHGA TA’SIRI Tkacheva Anastasiya Aleksandrovna	473-479
105.	HAYRAT LEKSIKASINING LINGVOMADANIY FENOMEN SIFATIDA PSIXOLINGVISTIK VA SEMANTIK XUSUSIYATLARI Toshquvvatov Xayrulla Lutfulla o‘g‘li	480-482
106.	MONITORING SOCIAL-EMOTIONAL DEVELOPMENT IN CHILDREN BOLALARDA IJTIMOIY-EMOTSIYONAL RIVOJLANISHNI MONITORING QILISH Turaev Jamshid Shukrulloevich	483-486
107.	ALEKSANDR FAYNBERG SHE’RIYATI Turg‘unbayeva Noila Dilshod qizi	487-490
108.	МЕЖКУЛЬТУРНАЯ КОММУНИКАЦИЯ КАК ВАЖНЫЙ АСПЕКТ СОВРЕМЕННОСТИ Турсунова Шахноза Наркуловна	461-464
109.	DEVELOPING SOCIOLINGUISTIC COMPETENCE IN ENGLISH LANGUAGE INSTRUCTION FOR FUTURE JOURNALISTS: INSIGHTS FROM POLITICAL AND SOCIAL TEXTS Uktamova Navruza Botir qizi	495-498
110.	THE ORIGINS AND DEVELOPMENT OF THE SCIENCE FICTION GENRE Umarkulova Munira	499-501
111.	TA’LIM JARAYONIDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI Umarov Abdurasul Abduraxmanovich	502-504
112.	GOSPITAL MAKTAB O`QUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENTSIYASINI GIBRID O`QITISH METODIKASI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI Uralov Mirshod Dusmurodovich	505-508
113.	THE BENEFITS AND CHALLENGES OF ENGLISH AS A MEDIUM OF INSTRUCTION IN HIGHER EDUCATION IN UZBEKISTAN Usibalieva Sayyora Kayrat Qizi	509-518

114.	TRAINING INTERCULTURAL COMMUNICATION SKILLS IN THE FRAMEWORK OF PEDAGOGICAL DISCOURSE IN A FOREIGN LANGUAGE Usmanaliev Khusniddin Murodjon ugli	519-524
115.	ETHEL LILIAN VOYNICH ASARLARI HAQIDAGI ILMIY ISHLARNING KOMPARATIVISTIKASI Xallieva Gulnoz Iskandarovna, Adamova Farangizbonu Jamol qizi	525-530
116.	МАТНАЗАР АБДУЛҲАКИМ ШЕЪРИЯТИДА АНЪАНА ВА НОВАТОРЛИК УЙҒУНЛИГИ Халлиева Гулноз Искандаровна, Маъдиева Адиба Довудовна	531-535
117.	ТВОРЧЕСТВО САЯКА МУРАТЫ И ЕЕ ВЛИЯНИЕ НА РАЗВИТИЕ ЭГО-РОМАНА В СОВРЕМЕННОМ ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ Халлиева Гульноз Искандаровна, Петросян Наира	536-539
118.	OGAHIY TARIXIY ASARLARIDA TASAVVUFIY-MA’RIFIY ISTILOHLAR Xalliyev Jasurbek Iskandarovich	540-544
119.	MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA KADRLAR BILAN ISHLASHDA MOTIVATSIYANI OSHIRISH USULLARI Xamrayeva Nargiza Baxodirovna	545-547
120.	O‘ZBEK TILINING MILLIY KORPUSINI YARATISH Xonboboyeva Shoira Rafikovna	548-550
121.	SOCIAL MEDIA AND YOUTH LANGUAGE: A TOOL FOR DEVELOPMENT OR DETERIORATION Xoshimova Dilnoza Sobit qizi	551-555
122.	FOLKLORIZMNING ADABIYOTDAGI NAMOYON BO‘LISH XUSUSIYATLARI VA UNING BADIIY ASARDAGI ROLINI TADQIQ ETISH Yakubova Shakhlo Avazkhonovna	556-558
123.	METAFORA VA METONIMIYANING BADIIY USLUBDA QO‘LLANILISHI Yangiboyeva Shaxrizoda Ilyosiddin qizi, Muxitdinova Xadicha Sobirovna	559-561
124.	ОСОБЕННОСТИ ПАРАЛИНГВИСТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ ОБЩЕНИЯ Юлдашев Ф.К.	562-566
125.	TEACHING ENGLISH LANGUAGE AS A FOREIGN LANGUAGE IN DIVERSE CLASSROOM Yuldasheva Dilafro’z Bahodirjonovna	567-570
126.	REVOLUTIONIZING LANGUAGE LEARNING: THE ROLE OF COMPUTER-ASSISTED LANGUAGE LEARNING (CALL) Yuldasheva Nodira Hamidovna	571-575
127.	THE ROLE OF INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN THE LEARNING PROCESS AND THEIR IMPACT ON THE DEVELOPMENT OF YOUTH Yuldosheva Nilufar Yusufovna	576-578
128.	TIME TRAVELING MOTIFS IN COMPARATIVE LITERATURE: EXPLORING TEMPORAL THEMES ACROSS CULTURES Yuldoshova Shakhnoza Azimboyevna, Yusupova Adolat Anvarovna	579-582
129.	APPLYING STEAM TECHNOLOGY TO PRESCHOOLKIDS' LEXICAL SKILL DEVELOPMENT Yunusova Malika Miralimovna	583-586
130.	HISSIYOTLARNING LINGVISTIK NAZARIYASI ASOSLARI Yusupova Dilnoza Umarjonovna	587-590
131.	YOSH O‘QITUVCHINING PEDAGOGIK MAHORATINI TAKOMILLASHTIRISHDA MULOQOTNING AHAMIYATI Zikirova Dildora Shuhrat qizi	591-596
132.	OLIY TA’LIM MUASSASALARIDAGI KICHIK GURUHLARDA MEDIASAVODXONLIK FANINI O‘QITISH Ziyodullayeva Xumora Ilhom qizi	597-599